



ISSN: (E) 2181-1784
SJIF 2023 = 6.131
ASI-Factor = 1.7



ORIENTAL RENAISSANCE:

*Innovative, educational,
natural and social sciences*

www.oriens.uz

Exact sciences

Natural sciences

Engineering sciences

Pedagogical sciences

Social and Human sciences

Philological sciences

Philosophy sciences

Economic sciences

VOLUME 3

No 10

2023





**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL**

**VOL. 3 / ISSUE 10
ISSN 2181-1784
Impact Factor: 6.131
ASI Factor = 1.7**

**October
2023**

**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL**

EDITOR-IN-CHIEF

Dr. KADIROV MUKHAMMADJON

Candidate of philosophical sciences, Associate professor of the department of “Oriental philosophy and culture” of Tashkent state university of oriental studies

EDITORIAL BOARD

DSc. NODIRAKHON R. NISHONOVA

Doctor of Philosophy,
Head of the Department “Philosophy and
National idea” of Tashkent State Technical
University

PhD. LAZIZ A. TURAEV

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical
Sciences, Head of the Department for the
organization of research activities of students of
TSUOS

Dr. ZAMIRA A. NUROVA

Candidate of Biological sciences
Associate professor of Termez branch of the
Tashkent Medical Academy

PhD. FARHOD L. USMONOV

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical
Sciences, Senior lecturer of the Department of
Social Humanities of Tashkent State University of
Economics

Dr. AZAMAT B. KHAYRIDDINOV

Candidate of Economic Sciences
Associate professor of Karshi Institute of
Engineering and Economics

Prof. Dr. ULFATKHON MUHIPOVA

Doctor of Philological Sciences
Head of the department of South and Southeast
Asian Languages of Tashkent State University of
Oriental Studies

Prof. Dr. SULTON F. AMIROV

Doctor of technical sciences
Head of the department of Electricity Supply of
Tashkent State University of Transport

Prof. Dr. TULKIN M. TOGAEV

Doctor of Philological Sciences
Head of the Department of Uzbek Linguistics of
Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature named after Alisher Navoi

PhD. AZIZA A. SHAYUSUPOVA

Candidate of Pedagogical Sciences Associate
professor of the department of Pedagogy and
Psychology of Tashkent State University of
Oriental Studies

Dr. IMAM K. WAHYUDI

Doctor of Philosophy (PhD)
in Philological Sciences
Head of Office of International Affairs and
Faculty Member, Faculty of Teacher Training and
Education of Universitas Islam Malang, Indonesia

Dr. AZIZ KH. KHUDOYBERDIEV

Candidate of Historical Sciences, Associate professor of the department of Eastern countries and Anthropology of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. SAYYORA N. KHAMRAEVA

Doctor of Philosophy (PhD) in economics
Head of the department of Innovative Economics of Karshi Institute of Engineering and Economics

Dr. ALISHER N. NAZAROV

Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Senior Lecturer of the Department of Oriental Politics and International Relations, Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. ERKIN A. RAKHMATOV

Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Head of the Department of Oil and Gas Processing Technology, Karshi Engineering and Economics Institute

Dr. PHOOL BADAN

Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Professor of the School of International Studies, Jawaharlal Nehru University

Dr. SIROJIDDIN S. NURMATOV

Candidate of Philological Sciences
Associate professor of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. METIN ORBAY

Doctor of physics and mathematical science (DSc), Professor of Faculty of Education of Amasya University

Prof. PhD. SAO FEY

Professor of Hangzhou Normal University, Linguist.

Prof. Dr ASIF MAHBUB KARIM

Doctor of Philosophy in Business administration (PhD), Dean, professor Binary Graduate School, Binary University of Management & Entrepreneurship

Prof. YALCHIN KAYALI

Ankara University, Faculty of Languages and History-Geography, Department of Eastern Languages and Literatures, Sub-Department of Indology, Faculty Member.

Dr. NIGORA Z. SAYDALIEVA

Candidate of Philosophical Sciences
Senior Lecturer of the department of Oriental Philosophy and Culture of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. K.K. KHAKBERDIEV

Doctor of Philosophy (PhD) In Economics
Director of the Center for Scientific analysis of the study of the development of Eastern Countries at the Tashkent State University of Oriental Studies

PhD. CHJAN KONG

School of Humanities and Communication, Zhejiang University of Finance and Economics

Dr. NAUMENKO A. OLEG

Candidate of Philosophical Sciences Associate Professor of the Department of Social Sciences and Technologies, National Research Technological University MISIS, Moscow, Russia

ТАСАВВУФ ТАЪЛИМОТИ ВА ИРФОН ФАЛСАФАСИДА ҲАДИСИ ШАРИФНИНГ ЎРНИ

Холмўминов Жаъфар Муҳаммадиевич,
Тошкент давлат шарқшунослик университети
“Манбашунослик ва тасаввуф герменевтикаси”
кафедраси профессори в. б.,
фалсафа фанлари доктори (DSc)
jafarmuhammad@mail.ru

Хошимов Нуриддин,
Тошкент давлат шарқшунослик университети
“Тасаввуф герменевтикаси” мутахассислиги
2-курс магистри

АННОТАЦИЯ

“Ҳадиси набавий”, яъни, Муҳаммад (с.а.в.) ҳазратларининг Ҳадиси шарифлари Қуръони каримдан сўнг Тасаввуф таълимотининг иккинчи асосий назарий манбаси ҳисобланади. Сўфийлар ва орифлар Қуръони каримдан кейин Пайгамбар ҳадисларига таянганлар. Ирфоний-фалсафий асарларда ҳам аввал ояти каримадан, кейин эса Ҳадиси шарифдан ҳужжат ва далиллар келтирилади. Айтиш жоизки, ҳар бир қадамда ва ҳар бир нафасда Ҳадиси шариф ва Пайгамбар Суннатларига қатъий амал қилиш ҳар бир сўфий ва ориф учун ҳаёт мазмунига, кундалик расму одатга айланиб, сайру сулук қийинчиликларини енгиб ўтишларида руҳий-маънавий куч-қувват бағишлаган.

Ушбу мақолада Ислom диний-фалсафий тафаккури тарихида муҳим рол ўйнаган Тасаввуф таълимоти ҳамда унинг таркибида шакланган Ирфон фалсафаси ва тасаввуф адабиётининг Пайгамбар (с.а.в.) Ҳадиси шарифлари ва Суннатлари билан бевосита боғлиқлиги ҳақида бирламчи манбалар асосида фикр юритилади. Муаллифлар Пайгамбар (с.а.в.) ҳадиси шарифлари Тасаввуф таълимоти ва Ирфон фалсафасининг Қуръондан кейинги иккинчи асосий назарий манбаси эканлиги ҳақидаги фикрни қўллаб-қувватлайдилар.

Калит сўзлар: Тасаввуф таълимоти, Ирфон фалсафаси, тасаввуф шеърияси, Ислom дини, Пайгамбар Муҳаммад (сав), Расулulloҳ, Ҳадиси шариф, Пайгамбар Суннати, диний-фалсафий тафаккур, манба, таъсир.

МЕСТО ХАДИСИ ШАРИФА В УЧЕНИИ СУФИЗМА И ФИЛОСОФИИ ИРФАНА

Холмуминов Джафар Мухаммадиевич,

доктор философских наук(DSc), и.д. профессора кафедры

“Источниковедение и герменевтики суфизма” Ташкентского государственного
университета востоковедении

jafarmuhammad@mail.ru

Хашимов Нуриддин,

магистр 2-го курса по специальности

«Герменевтика суфизма» Ташкентского государственного университета
востоковедении

АННОТАЦИЯ

«Хадиси набави» Пророка Мухаммада (мир ему и благословение Аллаха), является вторым основным теоретическим источником учения Суфизма после Священного Корана. Суфии и учёные опирались на Хадисы Пророка после Священного Корана. В суфийско-философских трудах факты и доказательства приводятся сначала из аята, а затем из хадисов. Стоит сказать, что строгое следование Хадисам и Сунне Пророка на каждом шагу и каждом вздохе стало смыслом жизни для каждого суфия и ариффа, ежедневной практикой и привычкой, дающей им духовные силы для преодоления трудностей пути Истины.

В данной статье рассматривается прямая связь учения суфизма, сыгравшего важную роль в истории исламской религиозно-философской мысли, и сформировавшейся в его рамках философии ирфана и суфийской литературы, с хадисами и сунной Пророка (мир ему и благословение Аллаха) на основе первоисточников. Авторы придерживаются мнения, что хадисы Пророка (мир ему и благословение Аллаха) являются вторым основным теоретическим источником суфизма и философии Ирфана после Корана.

Ключевые слова: *учение Суфизма, философия Ирфана, суфийская поэзия, исламская религия, Пророк Мухаммад (мир ему), Посланник Аллаха, хадисы, Сунна Пророка, религиозно-философское мышление, источник, влияние.*

THE PLACE OF HADISI SHARIF IN THE TEACHING OF SUFISM AND IRFAN'S PHILOSOPHY

Kholmuminov Jafar Muhammadiyevich,

doctor of Philosophical sciences (DSc),

Tashkent State University of Oriental Studies,

professor of chair "Source studies and Hermeneutics of Sufism"

jafarmuhammad@mail.ru

Khashimov Nuriddin,

2 nd year master's degree in specialty

"Hermeneutics of Sufism" Tashkent State University of Oriental Studies

ABSTRACT

"Hadisi Nabawi" of the Prophet Muhammad (peace and blessings of Allah be upon him) is the second main theoretical source of the teachings of Sufism after the Holy Quran. Sufis and scholars relied on the Hadith of the Prophet after the Holy Quran. In Sufi-philosophical works, facts and evidence are given first from the verse and then from the hadith. It is worth saying that strict adherence to the Hadiths and Sunnah of the Prophet at every step and every breath has become the meaning of life for every Sufi and Arif, a daily practice and habit that gives them spiritual strength to overcome the difficulties of the path of Truth.

This article examines the direct connection between the teachings of Sufism, which played an important role in the history of Islamic religious and philosophical thought, and the philosophy of Irfan and Sufi literature formed within its framework, with the hadiths and sunnah of the Prophet (peace and blessings of Allah be upon him) on the basis of primary sources. The authors are of the opinion that the hadiths of the Prophet (peace and blessings of Allah be upon him) are the second main theoretical source of Sufism and Irfan philosophy after the Quran.

Key words: *teachings of Sufism, philosophy of Irfan, Sufi poetry, Islamic religion, Prophet Muhammad (peace be upon him), Messenger of Allah, hadiths, Sunnah of the Prophet, religious and philosophical thinking, source, influence.*

КИРИШ

Машхур сўфий Шайх Жунайд Бағдодий "Ҳар кимки Қуръонни ёддан билмаса ва ҳадис ёзмаган бўлса, унга иқтидо этманглар, бизнинг илмимиз Китоб ва Суннатга боғлиқдир" [11,25] дейди.

Бундан шундай хулоса чиқариш мумкинки, Тасаввуф аҳли олдида иккита муҳим шарт кўйилган экан:

- Қуръони каримни ёддан билиш (ва тафсир қилиш)
- Ҳадис билиш (ва ёзиш).

Табиийки, бу иккита шартга риоя қилиш учун ўзини комил сўфий ё ориф деб билган ҳар бир мутасаввиф Қуръони каримга тафсир ёзиш ва Ҳадис тўплаш билан ҳам шуғулланган. Чунончи, машҳур ориф Хожа Имом Абу Иброҳим Исмоил бинни Муҳаммад бинни Абдуллоҳ Мустамлий ал-Бухорий (X-XI-асрлар) “Тафсири Қуръон”да (форс-тожик тилида) Қуръон оятларини, “Шарҳи ат-табарруф ли мазҳаб ит-тасаввуф”да (форс-тожик тилида) бир қанча оятлар ва ҳадисларни изоҳлаб берган. Самъонийнинг Мустамлий ал-Бухорийни “У фикҳ ва ҳадис аҳли эди” дегани ҳам бежиз эмас, албатта.

Тасаввуф улуғларининг аксарияти, жумладан, Ҳасан Басрий, Жунайд Бағдодий, Маъруф Кархий, Саҳл Тустарий, Абў Наср Саррож, Ҳаким ат-Термизий, Абў Бакр Калободий, Мустамлий Бухорий ва бошқалар ё ҳадис тўплаганлар, ё Ҳадис илмига оид китоб ёзганлар.

Куйида Тасаввуф таълимоти ва Ирфон фалсафасининг Пайғамбар (сав) Ҳадиси шарифлари билан бевосита боғлиқ бўлган бир неча асосий тушунчаларини қисқа тарзда таҳлил этамиз.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Эҳсон. Ислом – Иймон, Ислом ва Эҳсондан иборат. Уламоларнинг иттифоқига биноан, Ислом динининг Эҳсон қисми Тасаввуфдир.

Хўш, Эҳсон нимани билдиради? Улуғ мутасаввиф Хожа Юсуф Ҳамадоний “Эҳсон” тушунчасини шундай шарҳлайди: “Ҳақнинг лутф куёши эҳсон самосида порлайди. Яхшилик ёмғири эҳсон булутидан ёғади. Унсият шаббодаси эҳсон ҳавосидан эсади. Бу сўзнинг далили, ишларнинг моҳиятини ва инжиқликларини биладиган ҳазрат Жаброил (алайҳиссалом)нинг сўзида мавжуд. У ҳазрат Пайғамбарга “ё Расулуллоҳ, эҳсон нима?” деб савол берганида, Расули акрам (сав):

أن تعبد الله كأنك تراه فإن لم تكن تراه فهو يراك

“Аллоҳни кўриб тургандек ибодат қилишингдир. Сен уни кўрмасанг ҳам, У сени кўриб туради” дея жавоб берганлар”.[3,67]

Ҳамадоний Эҳсонни куйидагича таърифлайди: “Эҳсон билан яшашнинг икки даражаси бор. Биринчиси, “Аллоҳни кўриб тургандек ибодат қилиш” бўлиб, бу олий мартабадир. Иккинчиси, “сен Уни кўрмасанг ҳам У сени кўриб турибди” мартабаси бўлиб, пастроқ мақомдир. Бироқ эҳсоннинг ҳар қанча паст

даражаси бўлса-да, имон билан яшашга қараганда барибир устун мартабадир. Чунки эҳсон Ҳакни мушоҳада қилувчи мақомининг хизматкори ва рубубият оламини мушоҳада қилишга йўналишдир. Ҳақ илмининг шакли билан жам бўлмоқ, ҳакни кўришдан кўрқиб, ўзликдан ва халқдан халос бўлмоқдир. Тариқат аҳли тилида бу мақомга муроқабба дейилади”. [3,71]

Факр. “Факр” луғатда “қашшоқлик” ва “муҳтожлик” маъносини билдиради.

Сўфийлар ислоҳотида эса Худого ниёзмандлик (доимий равишда Аллоҳга муҳтожлик сезмоқ), Ундан ўзгага бениёзлик (бандасига ва дунёга тегишли бўлган нарсаларга муҳтож бўлмаслик) маъносини англатади.

Маънавий камолот йўлининг солики бўлмиш дарвешни “фақир”, яъни “фақр” йўлини тутган, Ҳақ олдида ўзини ҳеч ким ва ҳеч нарса деб билган инсон деб тушунадилар.

“Факр” сўзининг луғавий маъносини (қашшоқлик ва бенаволик) сўфиёна фақрнинг зоҳирий сифатлари деб билиш мумкин. Дунё ва унга тааллуқли нарсаларга нафрат ва ҳақорат кўзи билан қарайдиган фақир дарвешлар учун камбағаллик фалокат ё фожеа эмас, балки нажот ва саодатдир. Зеро, мол-дунёга бўлган муҳаббатдан кечмасдан туриб руҳий хотиржамлик ва мутлақ осойишталикка эришиб бўлмайди. Нафснинг хоҳиш-иродасига тегишли бўлмиш мол-дунё ва моддий олам ҳузур-ҳаловати руҳни ҳижобда тутди ва бунинг натижасида солиқ йўлдан адашади. Шунинг учун ҳам бенаволик ва мол-дунёдан воз кечиш сўфиёна фақрнинг биринчи шарти ҳисобланади. Фақрнинг иккинчи шарти эса Аллоҳ наздида ўзни ожиз, нотавон, муҳтож, ҳатто тупроқдан ҳам, заррадан ҳам кам деб билмоқдир. Бу жуда ҳам оғир шарт ҳисобланади. Чунки бундай ҳис-туйғу фақат етук иймон соҳиби бўлган, Аллоҳни маърифат эта олган кишилар – Ориф инсонлардагина пайдо бўлиши мумкин, холос.

“Факр” Тасаввуф таълимотида улуғ мақомлардан бири саналади. Абунаср Саррожнинг таърифлашича, “الفقر مقام شريف”. (Факр улуғ (юксак) мақомдир). Бу мақом ўта мураккаблиги ва мушкиллиги туфайли ҳар кимда турли кайфиятда зоҳир бўлади. У баъзи сўфийларда мўътадил даражада зуҳур этса, баъзиларида бағоят кучли даражада намоён бўлиши мумкин. “Факр” мақомини аъло даражада, барча шарту шароитларига риоя этган ҳолда кейинги мақомга қадам қўйган солиқларни одатда “фақр аҳли” деб аташган. Баъзи солиқларда эса бу кайфият, яъни, “Факр” мақоми доимий ҳолатда қолади.

Сўфийлар учун “Факр” мақоми алоҳида аҳамиятга молик бўлганлиги сабабли кутуби сўфия (тасаввуфий асарлар)да “фақр” ҳақида жуда кўп сўз

юритилади. Аслида, бунинг асосий сабаби “фақр” тушунчасининг Пайғамбар Муҳаммад (с.а.в.)дан қолган мерос сифатида қабул килинишидандир. Ҳадислар ва хабарларга қараганда, Ҳазрати Муҳаммад (с.а.в.)нинг турмуш тарзи ва ахлоқ-одоблари фақирликнинг энг комил намунаси эди. У кишидан деярли барча тасаввуфга оид китобларда келтирилган машҳур Ҳадиси шарифда шундай дейилади:

(الفقر فخرى “Ал-фақру фаҳри”). Мазкур ҳадиснинг бошқа бир варианты “Сафинат ул-биҳор” номли асарда келтирилган:

(الفقر فخرى و به افتخر “Ал-фақру фаҳри ва биҳи афтахиру”). “Мирсод-ул-ибод”да ҳам Пайғамбар (с.а.в.) учун фақр ва фақирликнинг фаҳру ифтихор бўлганлигини тасдиқловчи фикр мавжуд: “...муродим номуродликда, борлигим йўқликда, бойлигим ва фаҳрим фақрдадир: “Ал-фақру фаҳри”. ...Эй Муҳаммад, бу не сир бўлдики пайғамбарларига пешво ва сарвар эканлигиндан фаҳрланмай, фақринг билан фаҳр этасан?” [6,155]

Ҳадиси шариф ва Суннати саниядан баҳра олган Тасаввуф таълимотида Пайғамбарнинг “фақр” тўғрисида айтган сўзлари ва у кишининг одобу ахлоқида фақирлик хислати мавжуд бўлганлиги чуқур из қолдирди. Аслида, ушбу ҳадиснинг манбаи Қуръони каримнинг “Фотир” сураси, 15-оятидир:

يَا أَيُّهَا النَّاسُ أَنْتُمُ الْفُقَرَاءُ إِلَى اللَّهِ وَاللَّهُ هُوَ الْغَنِيُّ الْحَمِيدُ

Эй, инсонлар! Сизлар Аллоҳга муҳтождирсиз. Аллоҳ эса, албатта, беҳожат ва ҳамдага лойиқ зотдир. [4,436]

Ҳаққа муҳтож бўлмоқ халққа муҳтож бўлмоқдан бутунлай фарқ қилади. Халққа муҳтож бўлган дарвеш ҳеч қачон Ҳаққа ниёзманд бўлолмайди. Маълумки, Ислом динида тиламчиликка олиб борадиган қашшоқлик ва соғлиққа зиён етказадиган даражада ҳаддан зиёд риёзат чекиш қораланган. Аммо дарвешнинг риёзати ва унинг муҳтожлигию қашшоқлиги аксинча, дунё ва унга алоқадор бўлган нарсаларга муҳтожсизлигидандир.

Мустамлий Бухорий “ғано” (бойлик) ва “фақр” тушунчаларини шундай шарҳлайди: “Ҳақ билан бирга бўлмаган ҳар қандай бойлик қашшоқликдир. Чунки Ҳақдан куйида бўлганлардан бирортаси ҳам ўз зотига кўра бой эмасдир. Агар банданинг қашшоқлиги ўз зотига кўра бой бўлмаган бирор нарсага учраса, ўша нарса бойимайди, балки унинг қашшоқлиги устига қашшоқлик кўшилади. Ҳақ билан бирга бўлган ҳар қандай фақр ғанодир. Чунки Ҳақ таоло ҳақиқатдан

ҳам ўз зотига кўра ғанийдир. Агар қашшоқлик бойга учрайдиган бўлса, (ўша) бой қашшоқни ҳам бой қила олади. Зеро фақрнинг ўзи Ҳақ таолога учрайдиган бўлса, Ҳақдан бошқадан мустағний (*эхтиёжсиз*) бўлади. Мустағний бўлган нарса эса ғанийдир. Демак, ом кишиларнинг наздида бойлик мол-мулкдан, қашшоқлик эса мол-мулкнинг йўқлигидан иборатдир. Аммо ҳақиқат аҳли наздида бойлик мол-мулкнинг йўқлигидан, қашшоқлик эса мол-мулкнинг борлигидан иборатдир. Чунки банда Ҳақдан бошқа нарсалардан айрилганидагина Ҳаққа етади. Ҳаққа эга бўлган киши эса қандай қилиб ҳам қашшоқ бўлиши мумкин?! Ҳақдан бошқа нарса билан кўнгли ором топган киши ҳақни унутган ҳисобланади. Ҳақни унутган киши эса қандай қилиб ҳам бой бўлиши мумкин?!

Шунингдек, фақр мўминнинг зийнатидир. Пайғамбар алайҳиссалом бу тўғрида шундай буюради: *الفقر ازين للمؤمن من العذار الجيد على خد الفرس* Бундан ташқари фақр пайғамбарларнинг тутган йўлидир. Мустафо алайҳиссалом бу тўғрида шундай буюради: *لى حرفتان الفقر و الجهاد*. Шунингдек, пайғамбар алайҳиссалом шундай деган: *الفقر اسرع الى من يحبنى من السيل الى منتهاه* Мустафонинг муҳаббати шунчалик ишни вожиб қилган экан, Ҳақнинг муҳаббати бундан-да устунроғини вожиб қилиши тайиндир”. [7,330]

Фақр сабру қаноат билан устувор. Фақрни ихтиёр этиб, сабр-қаноат этолмаган фақир талаб йўлидан адашиб, тиланчилик йўлига кириб қолиши ҳам мумкин. Бундай ҳолатга тушмаслик учун ориф дарвешлар биринчи навбатда Расулуллоҳ (с.а.в.) ҳадислари ва унинг Суннатига қатъий риоя қилган ҳолда иш тутадилар. Тасаввуф аҳли учун Расулуллоҳ кўрсатган йўлдан бориш улуғ саодат саналган.

Нафс маърифати. Тасаввуф таълимотида “Нафс маърифати”, яъни, ўз нафсини англаш ва уни бошқариш ўта муҳим масалалардан бири ҳисобланади.

Нафс маърифати масаласи ҳам бошқа кўпгина масалалар катори Тасаввуф таълимотига Ислом динидан кириб келган. Нафс ва нафс маърифати ҳақида ҳам Қуръони каримдан, ҳам Ҳадиси шарифдан кўп мисоллар келтириш мумкин. Масалан, Қуръони каримда нафснинг бир неча тури зикр этилган:

1. Нафси аммора (гуноҳ ва ёмонликка сабабчи бўладиган нафс). – “Юсуф” сураси, 53-оят.
2. Маломатгўй нафс (ибодатга қусур етказувчи нафс). – “Қиёмат” сураси, 2-оят.
3. Васваса қилгувчи нафс. – “Қоф” сураси, 16-оят.

4. Сокин нафс (осоишта нафс). – “Фажр” сураси, 27-оят.

Нафсни маърифат этиш, унга қарши курашиш усулларини Тасаввуф таълимотининг турли тариқат ва силсилаларида турли шаклларда учратиш мумкин. Масалан, Ҳакимия мактабининг асосчиси Ҳаким ат-Термизий нафс балосидан қутулмоқчи бўлиб, Жайхун дарёси (Амударё) бўйига боради ва қўлоёғларини боғлатиб, бир неча кун соҳилда оч-наҳор ётади. Ахийри, чанқаш натижасида ҳушидан кетгач, беҳудлик ҳолатида ўзини ҳар томонга уриб, ағнаб дарёга тушиб қолади. Аммо кучли бир тўлқин унинг қўл-оёғини ечиб, яна соҳилга чиқариб қўяди. Дарёдан соғ-саломат чиққан ориф ўз нафсининг нақадар кучли рақиб эканлигини маърифат этади.

“Нафсни таҳқирлаш” Тасаввуф аҳлининг турмуш ва тафаккур тарзига айланган. Ушбу улкан таълимотда тахминан бирор бир сўфий ва ориф йўқки, нафсни мазаммат ва маломат қилмаган бўлса. Жумладан, Имом Абдурахмон Сулабий нақли бўйича: “Муҳаммад ибн Аҳмад Бағдодий айтади: “Ким сўфийларга суҳбатдош бўлса, уларга нафс хоҳишсиз, қалбсиз ва ихтиёрсизлик билан эргашсин! Бас, кимда нафс насибаси ва талабларига назар ташлаши бўлса, булар мақсадига етишишида монелик қилади”. [2,5]

Тасаввуф таълимотида Нафс маърифати Борлиқни билиб олишнинг биринчи босқичи, бошқача таъбир билан айтганда, Аллоҳни маърифат этишнинг биринчи шarti ҳисобланади.

Нафсни маҳкур айлаш (таҳқирлаш), уни шайтон васваси деб билиш Тасаввуфнинг илк намояндаларидан бошлаб то сўнгги вакилларининг турмуш ва тафаккур тарзида кузатилади. Масалан, Шайх Фаридиддин Атторнинг “Тазкират ул-авлиё”сида берган маълумотга кўра Шайх Жунайд Бағдодий Тасаввуфни шундай таърифлаган экан: “Тасаввуф кўнгил софлиги, нафс талабидан воз кечиш, руҳоният сифатларни касб этиш ва ҳақиқат (Аллоҳ) илмларидан воқиф бўлишдир”. [8,300]

Имом Муҳаммад Ғаззолий “Кимийе саодат” асарида “маърифат” – билишни тўрт қисмга ажратган:

1. Нафс маърифати.
2. Аллоҳ маърифати.
3. Дунё маърифати.
4. Охират маърифати.

Бундан шундай хулоса чиқариш мумкинки, нафсини маърифат этмасдан, унинг ҳақиқатига етмасдан туриб Аллоҳни маърифат этиб бўлмайди.

Расулуллоҳ (с.а.в.)га нисбат бериладиган бир қанча ҳадисда нафс маърифати ҳақида сўз боради. Масалан, келтирадиларки, у кишидан:

– Парвардигорни танимоқнинг қандай йўли бор, - деб сўраганларида:
– Маърифат ун-нафси, яъни: нафс маърифати, - дея жавоб берган эканлар.
Яна бир хабарда қайсидир бир жангдан қайтаётган чоғларида Расулуллох буюрадилар:

رجعنا من الجهاد الاصغرالى الجهاد الاكبر

Яъни: *Қайтурмиз кичик жиҳоддан улуғ жиҳодга.*

У кишидан сўрайдилар:

– Ё Расулуллох, “жиҳоди акбар” недур?

Ҳазрати Расули акрам (с.а.в.) бу саволга шундай жавоб берган эканлар:

– Ўз нафсинг билан курашмоқ (жиҳод қилмоқ).

Мавлоно Жалолиддин Румий шу ҳадисни “Маснавийи маънавий”да қуйидагича баён этади:

ای شهان، کشتیم ما خصم برون
ماند خصمی زو بتر اندر درون

Яъни: *Эй эранлар, биз таиқи душманни ўлдирдик, лекин ичкарида унданда ёмонроқ душман қолди.*

Расули акрам (с.а.в.)га нисбат бериладиган машхур бир ҳадиси қудсийда шундай дейилади: *من عرف نفسه فقد عرف ربه* “Ман ʻарафа нафсаҳу фақад ʻарафа раббаҳу”. Яъни: Кимки ўз нафсини маърифат этган бўлса, батаҳқиқ, у ўз Раббини ҳам маърифат этади (Ўз нафсини таниган киши Раббини танигай).

Баъзи муҳаққиқлар бу ҳикматни Али ибн Абутолибга ҳам нисбат берадилар. Ҳолбуки, кутуби сўфия, яъни, Тасаввуфга оид илмий-назарий асарларнинг илк намуналаридан бўлмиш Ҳужвирийнинг “Кашф ул-маҳжуб”, Шайх Шаҳобиддин Сухравардийнинг “Бўстон ул-қулуб” асарларида бу ҳадис Расули акрам (с.а.в.)га нисбат берилади. Тасаввуф табиатига мос бўлган бу ҳадис Тариқат аҳлининг энг сеvimли шиорига айланган. Бу ҳадисда “нафс” сўзи “ўз” ва “ўзлик” маъносини ҳам билдиради: *من عرف نفسه فقد عرف ربه* – *Кимки ўзини таниса, батаҳқиқ, ўз Раббини ҳам танигай.*

“Ўзини таниган киши Худони ҳам танийди”. Ҳар иккала мазмуннинг моҳияти бир: Инсон ўз вужудидаги “Мен”ни танимасдан туриб Аллоҳни таниёлмайди. Инсон кабир олам ичида сағир олам ҳисобланиб, ўз вужудида кабир олам хусусиятларини мужассамлаштиради. Демак, Мутлақ ҳақиқатни, Борлиқни англаш учун биринчи навбатда у ўзининг ички оламига мурожаат

этиши, ўзини кимлиги-ю нималиги, қаердан келганлиги-ю қаерга кетажagini чуқур англаб этиши лозим.

Ўзини англаб етган инсон, албатта, жабру зулм, кибру ҳаво, нафрату ғазаб, ҳирсу хавас, бухлу ҳасад, кинаю адоват, ҳаромхўрлигу очкўзлик, ишратпарастлигу шаҳватпарастлик, тухмату ғайбат... каби нафсга тааллуқли бўлган барча разила хислатлардан нафратланиб, илму маърифат, муҳаббату садоқат, сулҳу сафо, хайру саховат, сабру қаноат... каби ҳамида хислатлар мазҳарига айланади. Ана шундай инсонгина Аллоҳнинг борлиги ва бирлигини маърифат этишга кодир бўлиб чиқади.

Лисонулғайб Хожа Ҳофиз Шерозий нафс билан чамбарчас боғлиқ бўлган “ўзлик” – “менлик” тушунчасини банд ва Рабб ўртасидаги ҳижоб деб атайди:

ميان عاشق و معشوق هيچ هاييل نيست،
تو خود حجاب خودی، حافظ، از میان برخيز!

Яъни: *Ошиқ ва Маъшуқ ўртасида ҳеч қандай тўсиқ йўқ. Эй Ҳофиз, сен ўзинг ўзининг ҳижобингсан, ўртадан чиқ!*[5,281]

Имом Муҳаммад Ғаззолий “Равзат ут-толибин” номли рисоласида:

"اصول التصوف عكس الحلال والاعتداء به رسول الله (ص) في أخلاقه و أفعاله و أوامره و سننه".

Яъни: *“Тасаввуфнинг усули ҳалол билан ризқланиш (озиқланиш), ахлоқда, амалларда, ишлар ва Суннатда Расулуллоҳ (с.а.в.)га иқтидо (эргашиш – Ж.Х.) қилишидир”* деганидек, Тасаввуф тариқатини Муҳаммад (с.а.в.)нинг Ҳадис ва Суннатига боғлатадиган масалалар ниҳоятда кўп.

Шунингдек, Тасаввуф таълимотининг шаклланишида катта таъсир кўрсатган Ислом динининг пешволари – чорёрдан Абу Бакри Сиддиқ (р), Умар Форук (р), Усмон ибн Аффон (р), Али ибн Абутолиб (к), саҳобалардан Салмони Форсий ва тобеиндан Имом Жаъфари Содик ҳазратларининг одоб-ахлоқи, турмуш тарзи ва ҳикматли сўзларини ҳам эътиборга олиш лозим.

“Валоят” ва “каромат”. Бу ҳақда турли мазҳаб ва фирқаларда турлича фикрлар мавжуд. Мустамлий Бухорий “Шарҳи ат-таъарруф ли мазҳаб ит-Тасаввуф”да бу ҳақда баъзи бир фикҳий ва ақидавий мазҳабларнинг нуқтаи назарини келтиради. Жумладан, у шундай дейди: “Аҳли суннат ва жамоатдан бўлган бир гуруҳ кишилар мўъжизалар даражасида бўлмаган кароматларнигина (валийларда юз берадиган ҳолат сифатида) тасдиқлашади. Бироқ, уларнинг

фикрича, агар кароматлар мўъжизалар даражасига етган бўлса, (бундай кароматнинг валийларда юз бериши) мумкин эмас. Мўъжизаларнинг даражаси эса *аъён* (*аёнлар, хос кишилар, алоҳида мавқега эга кишилар – муаллиф.*) томонидан юз берадиган ҳолатлар билан белгиланади. Улар айтишадикки, булар (*мўъжизалар – муаллиф.*) набийларгагина раво бўлиб, валийларга раво эмасдир. Шунингдек, аҳли суннат ва жамоатдан бўлган уммат фақиҳлари ҳамда маърифат аҳли (*орифлар*) валийларнинг кароматлари, гарчи у мўъжиза даражасида бўлса ҳам, жоиз эканлиги борасида ижмоъга (*бир хил фикрга – муаллиф.*) эгадирлар”. [7,30]

Сўфийлар „Валоят“ ва унга алоқадор бўлган „Каромат“ тушунчасини ҳам Пайғамбар (с.а.в.) ҳадислари билан боғлайдилар. Жумладан, Мустамлий Бухорий бу ҳақда шундай ёзади: “Хабарда келтирилишича, Пайғамбар алайҳиссалом шундай марҳамат қилган: *رب اشعت اغبر لا يؤبه به له ولا يزوج المنعمات و لا* (Бирор киши бирор нарсани қиламан, деб) даъво қилиб, (ўша нарсани қилишга) қасам ичса ва (ўша нарсани қилиб) тўғриси бўлиб чиқса, бундан ортиқ каромат бўлиши ҳам мумкинми? Кароматни инкор қилиш икки нарсдан: ҳақни бунга (*яъни бундай кароматни юз бердиртиришга*) ожиз деб билишдан ёки валийни каромат аҳлидан эмас деб билишдан келиб чиқадиган нарсадир. Аммо, агар (худони бу ишни қилишга) ожиз деб билса, куфрга, агар (валийни каромат) аҳлидан деб билмаса эса, хатога йўл қўйган бўлади. Чунки барча мўминлар кароматга эга бўлишга лойиқ бўлиб, уларга берилган иймон кароматдан устунроқ нарсадир. (Иймон топиб, мўмин бўлган бандалар Худодан) сўрамасдан туриб, (худо уларга) энг яхши наrsa (*яъни иймон*) берган экан, ундан (*иймондан*) кичикроқ бўлган нарсани (худодан) сўраганларидан сўнг (уларга) бериши муқаррардир. Аммо кароматнинг турлари борасида турлича қарашлар мавжуд бўлиб, қуйида шулар тўғрисида сўз юритилади”. [7,43]

Мустамлий ҳам Ҳаким ат-Термизий сингари “Каромат”ни биринчи навбатда Пайғамбарга тааллуқли ҳодиса, деб билади. Яъни, ҳар бир пайғамбарга “набийлик”дан ташқари “валийлик” ҳам берилган, шундай экан, пайғамбардан “Мўъжиза”дан ташқари “Каромат” ҳам содир бўлади. “Каромат” Расулulloҳ (с.а.в.) даврида саҳобаларга ҳам берилган. Мустамлий бунга бир неча мисол келтириб, жумладан, шундай дейди: “Пайғамбар саллаллоҳу алайҳинг хизматкори Сафина шундай нақл қилади: “Пайғамбар мени бир жойга юборди. Йўлда кетаётганимда бир шерга дуч келдим. Унга: “Мен пайғамбарнинг хизматкори Сафинаман”, дедим. Шер бошини мендан бошқа томонга бурди-да, кетди. Мен йўлимда давом этдим. Қайтаётганимда худди

ўша жойда бошқа бир шер йўлимдан чикди. Мен (унга қараб ҳам): “Мен пайғамбарнинг хизматкори Сафинаман”, дедим. (Шер) менга қараб бир ириллаб қўйди-да, яна йўлида давом этди. Пайғамбар саллаллоҳу алайҳининг ҳузурига келиб, унга бўлиб ўтган воқеани айтиб берганимда, ул зот шундай деди: “Биринчи бор (сенга дуч келган шер) сендан: – Пайғамбар, Абу Бакр ва Умарларнинг аҳволлари яхшими? – деб сўраган, иккинчи бор (сенга дуч келган шер эса) сенга: – Пайғамбар, Абу Бакр ва Умарга мендан салом айт, – деган”. [7,44]

Ёки яна бир ривоятни қуйидаги нақл қилади: “(Айтишларига қараганда,) пайғамбар саллаллоҳу алайҳи ва салламнинг саҳобаларидан бўлган икки киши кечаси маълум муддат пайғамбар билан бирга ўтиришади. Ташқарига чиқишганида атроф қоп-қоронғи бўлади. Иккаласининг қўлларидан биттадан ҳасса бўлиб, ушбу ҳар иккала ҳасса худди чироқ каби ўзидан ёруғлик таратарди. Улар йўл иккига айрилган жойга етгач, ҳар бири ўз уйига олиб борадиган йўлга тушишади ва шу тариқа бир-бирларидан ажралишади. Шунда (икки бошқа-бошқа йўлдан кета бошлаган) ушбу икки киши қўлидаги икки ҳассанинг ҳар бири бир-биридан алоҳида равишда ёруғлик таратиб борарди”. [7,46]

Мустамлийгача ва у яшаган даврда ҳам “Каромат”, унинг жоиз ёки жоиз эмаслиги, Пайғамбар (с.а.в.) замонида рўй берган кароматлар билан ундан кейин рўй берган кароматларнинг фарқи борлиги масаласи фақиҳлар, мутакаллимлар ва сўфийлар ўртасида катта баҳс-мунозараларга сабаб бўлган. Шунинг учун Мустамлий бу масала бўйича билдирилган турли қарашларни қиёслаб, таҳлил қилиб, ҳам фақиҳ, ҳам мутакаллим ва ҳам сўфий олим сифатида ўз хулосаларини ҳам келтиради: “(Ушбу гуруҳ кишилари томонидан айтилган) бундай гапга (биз томонимиздан бериладиган) жавоб, валлоҳу аълам, шундан иборатки, Пайғамбар замонида каромат топган ўша валий ушбу кароматни Пайғамбарни (яъни *Пайғамбарнинг пайғамбарлигини*) тасдиқлаганлиги (яъни *тўғри, ҳақиқий деб топганлиги*) туфайли топди. У агар Пайғамбарни (яъни *Пайғамбарнинг пайғамбарлигини*) ёлғон деб топганида эди, (ушбу кароматни) топмаган бўларди. У пайғамбарни (яъни *пайғамбарнинг пайғамбарлигини*) тасдиқлаганлиги (яъни *тўғри, ҳақиқий деб топганлиги*) туфайли (ушбу кароматни) топган экан, унинг (яъни *валий томонидан пайғамбарлиги тасдиқланган кишининг*) ҳақ пайғамбари эканлиги маълум бўлди. Чунки, агар худойи азза ва жалла ёлғончи кишига чинсўз кишига берганчалик миқдорда далил берадиган бўлса, чиннинг ёлғондан фарқи қолмайди ва чинсўзнинг чин сўзини исботлаш учун ҳеч қандай далил қолмайди.

Шунингдек, агар чинни ёлғондан фарқламоқчи бўлсалар, бу ишни далилсиз қилишнинг иложи бўлмайди. Чунки чин ёлғондан далил билангина фарқланади. Борди-ю, чиннинг чинлигини исботлаш учун келтириладиган далилнинг ўзи ёлғоннинг чинлигини исботлаш учун келтириладиган бўлса, чин ёлғондан фарқланмай қолади.

Демак, валийларнинг кароматлари Пайғамбар даврида шундай бўлган бўлса, Пайғамбар давридан бошқа даврда ҳам шундай бўлади. Чунки Пайғамбарга *мункир* бўлган (яъни *Пайғамбарнинг пайғамбарлигини инкор этган – муаллиф*.) ҳар қандай кишида кароматнинг юз бериши мумкин бўлмайди. Зеро Пайғамбарни(нг пайғамбарлигини) инкор этган киши адув (*душман – муаллиф*) ҳисобланади. Биз эса валийнинг кароматини тасдиқлаймиз. Зеро валий набийнинг *мусаддиқи (тасдиқловчиси, яъни пайғамбарнинг пайғамбарлигини тасдиқловчи киши – муаллиф)* ҳисобланиб, ушбу кароматни ҳам [Набийни] тасдиқлаганлиги сабабли топади. (Валий ўзининг ушбу кароматини) набийни тасдиқлаганлиги туфайли топган экан, (бундай каромат – муаллиф.) худди пайғамбар саллаллоҳу алайҳ замонида бўлгани каби, набийнинг мўъжизаси ҳисобланади”. [7,48]

Кўриниб турганидек, Мустамлийнинг бу борадаги таҳлил ва хулосалари кучли мантиқ ва рационализмга асосланган бўлиб, Аҳли суннат вал-жамоат қарашларини ҳам ўзида ифода этади.

Таваккул. Қуръони карим оятларида кўп марталаб зикр этилган „Таваккул“ тушунчасини сўфийлар, шунингдек, Пайғамбар (с.а.в.) Суннати ва ҳолатлари билан ҳам боғлашади. Жумладан, Саҳл ибн Абдуллоҳ Тустарийнинг шогирди Ибн Солим Басрийдан шундай нақл қилинади:

التوكل حال رسول الله (ص) والكسب سنة رسول الله (ص)

Яъни: *Таваккул Аллоҳ Расулнинг касбу кори ва Суннати бўлгани каби, ул ҳазратнинг ҳолатларидандир.* [10,43]

Улуғ мутасаввиф ва шоир Мавлоно Жалолоддин Румий ҳам „Маснавийи маънавий“да “Таваккул”ни Пайғамбар суннати деб таърифлайди:

گفت آری، گر توکل رهبر است
این سبب هم سنت پیغمبر است

Яъни: *Деди: Ҳа, Таваккул раҳбар бўлгани учун ҳам Пайғамбар суннатидир.*

Мустамлий Бухорий “Таваккул”га шундай таъриф беради: “Таваккул деганда, аввало, шу нарса тушуниладики, кимнингки иймони хақиқий бўлса, у таваккул қилишга маъмурдир (*бююрилгандир*). Зеро Худо бу тўғрида шундай буюради: *و على الله فتوكلوا ان كنتم مؤمنين* (Худо) яна бошқа бир жойда (таваккул тўғрисида шундай) буюради: *و على الله فليتوكل المؤمنون* (Кўриб ўтганимиздек, Худо – муаллиф.) таваккулни иймонга боғлиқ бир нарса сифатида кўрсатди. Бирор бир нарсага боғлиқ бўлган нарсанинг заволи у боғлиқ бўлган нарсанинг ҳам заволига ёки (ҳеч бўлмаганда) унинг заифлашувига сабаб бўлади. Шунингдек (Худо ўзининг) *мутаваккилларга (Худога таваккул қилгувчиларга)* кифоя қилиши тўғрисида кафолат бериб, шундай буюрди: *و من يتوكل على الله فهو حسبه* “Кимки бизга таваккул қилса, биз унга кифоя қилурмиз”. Яъни, “кимки бизни топган бўлса, унга бошқанинг кераги бўлмайди. Шунингдек, биз уники бўлган эканмиз, ҳеч ким уни биздан қайтара олмайди. Биз унга фойда келтириш ҳамда унга етиши мумкин бўлган зарарни қайтариш учун кифоя қиламиз”. Шунингдек, (Худо) мутаваккилларга барча тоатлардан ҳам яхшироқ бўлган бир мукофот бердики, уни мухаббат деб атайдилар”. [7,385]

Халқ (Аллоҳ яратган мавжудотлар)га нисбатан раҳмли-шафқатли бўлиш масаласи Ислом динида муҳим ўрин тутади. Бу масала Қуръони каримда ҳам, Ҳадиси шарифда ҳам кўп марталаб эслатилади. Тасаввуф таълимоти Қуръон ва Расули акрам (с.а.в.) Суннатининг издоши сифатида ушбу масалага доимо мурожаат қилиб турган. Тасаввуф ахлоқини эса “раҳм-шафқат” тушунчаларидан ташқарида тасаввур қилиб бўлмайди. Тасаввуф фалсафаси ва ахлоқининг бадий кўриниши ҳисобланган Тасаввуф шеъриятида ҳам бу мавзу етакчи ўринни эгаллайди. Мавлоно Жалолиддин Балхийи Румийнинг “Тасаввуф қомуси” номи билан машҳур бўлган “Маснавийи маънавий” асарида ҳам бу мавзуга қайта-қайта мурожаат қилинади. Румий бу ҳақда шундай дейди:

اشك خواهی، رحم کن بر اشک بار
رحم خواهی، بر ضعیفان رحم آر.

Яъни: *Кўз ёши истасанг, кўз ёши тўкаётган кишига раҳм қилгин. Раҳм истасанг, ожизларга раҳм қилгин.*

“Маснавий”даги ушбу байтнинг асл мазмуни “Саҳеҳи Бухорий”да келтирилган қуйидаги ҳадисдан иқтибос қилиб олинган:

لايرحم الله من لا يرحم الناس.

Яъни: *Халққа раҳм қилмаган киши Ҳақ раҳматидан маҳрум бўлади [10,35].*

Тафаккур қилиш. Гуноҳ ва хатолар ҳақида ўйлаб, тавба қилиш, ўлим ва охиратни эшлаш, Парвардигорнинг яратган нарсалари ҳақида фикр юритиш ҳақида Қуръони каримда кўп оятларда эслатилади. Тасаввуф аҳлининг доимий амалларидан бири ҳам гуноҳ ва хатолар ҳақида ўйлаб, тавба қилиш, ўлим ва охиратни эшлаш, Парвардигорнинг яратган нарсалари ҳақида тафаккур қилиш бўлган.

Улуғ мутасаввиф Хожа Юсуф Ҳамадоний “Исломий ҳаёт уйи иморатини мояси-тамали бўлмиш зикр, афъол, аркон забт этилгандир. Аммо иймоний ҳаёт уйи иморатининг мояси-тамали бўлмиш афкор ва қалб кўзи забт этилганми, йўқми?” деган саволни ўртага ташлаб, “бир жиҳатдан забт этилган, бир жиҳатдан забт этилмаган, деб жавоб берамиз. Кашфнинг забт этилган жиҳати шуки, ўй-фикр ҳар қанча сафар қилса ҳам, яратиклар ва махлуқот атрофида кезади”, деб жавоб беради ва Ҳазрати Пайғамбар (с.а.в.) дан қуйидаги ҳадисни келтиради:

تفكروا في خلق الله و لا تفكروا في الله

“Яратиклар ҳақида тафаккур қилинг (чуқур-чуқур ўйланг), лекин Яратувчи тўғрисида тафаккур қилманг!” Ва ҳадиснинг манъ этилган қисмини қуйидагича изоҳлайди: “Чунки фикр каммийят-қандай, кайфийят-қанақа, ламмийят-қачон, ҳайсийят-шойисталик ва иннийят-қай замон каби башарий ўлчовлар доирасида кезади. Буларнинг барчаси яратикнинг сифатларидир. Ҳолбуки, Ҳазрати Жалол (Ҳақ таоло) бундай башарий хусусият ва дунёвий ўлчовлардан муназзах (пок)дир”. [3,48]

Тасаввуф аҳлининг фикрича, яратилганлар ҳақида тафаккур қилишда кўпгина фазилатлар бор. Жумладан, “банда ашённинг миқдорини тафаккур қилса, Ҳақ таолонинг ягоналиги аёнлашаверади... ашённинг васфи (кайфияти)ни ўйлагани сайин Жаббори оламнинг таъриф этиб бўлмас даражада мислсиз ва беназир зот эканига шоҳид бўлади. Ашённинг сабаби хусусида фикр юритса, Яратувчининг модда, жисм ва жавҳардан йироқ эканини англайди. Ашённинг моҳияти хусусида фикрласа, Яратувчининг иннийят-замон ва ҳайсийят-макондан пок-муназзахлиги бандага аён бўлади”. [3,49]

Тафаккур доирасининг кенгайиб бориши, ҳар бир ашё ва ҳодиса ҳақиқатининг кашф этилиши Ҳақни кўпроқ маърифат этишга олиб боради. Бу ҳолатни Хожа Юсуф Ҳамадоний қуйидагича изоҳлайди:

“Ашёнинг миқдори Ҳақнинг бирлигини кўришга, нарсаларнинг кайфияти-қандайлиги эса Ҳақнинг қудсийятини кўришга ойна бўлажак. Ламийят-келиб чиқиши Ҳақнинг муназзахлигига, ҳайсийят-моҳияти Ҳақнинг беҳожатлигига ва айнийят-ўзлигига, иннийят-ҳар бир нарсанинг замон, яъни вақтга тобелиги эса Ҳақнинг азалий ва абадий эканини мушоҳада этишга кўзгу бўлади”. [3,49]

Ашёларнинг моҳият ва ҳақиқати ҳақида фикрлаш, уларни кашф этиш орқали Яратувчини маърифат этиш даражаси инсонларнинг қобилият ва маънавий мақомлари билан боғлиқ бўлади: “Ашёга қараб Ҳақ таолони тафаккур этиш ва Ҳақ сифатларининг бандда тажаллий этиши тарзидаги бу икки мартабадан ташқари яна учинчи мартаба ҳам бор. Бу мартаба пайғамбарлар ва сиддиқлар хос бўлиб, Аллоҳ билан Аллоҳ учун тафаккур қилиш, яъни фано ичра фано (фанофиллоҳ) мақомидир. Ҳазрати пайғамбар (алайҳиссалом) Ҳақнинг шундай деганини сўзлайдилар:

إذا أحببته كنت عينه التي يبصر بها و أذنه التي يسمع بها و فؤاده الذي يعقل به

“Бир бандамни севсам, унинг қулоғи, кўзи ва қалбига айланаман. Мен орқали эшитади, мен орқали кўради ва мен орқали фикр юритади...” [3,50]

Хожа Юсуф Ҳамадоний Аллоҳнинг яратган нарсалари – борлиқ, инсон, ҳаёт, оламдаги мавжудотлар ва ҳодисалар хусусида тафаккур қилишни лозим деб билади, аммо ҳар бир нарсада меъёр бўлгани каби, теран тафаккур қилишда ҳам меъёрга риоя қилиш ва ундан ошмасликни тавсия этади: “Коинот тафаккур ва ботиний ишларда мулоҳаза юритишдир. Зоҳирий масалаларда теран назар ташлашдир. Бу ҳам инсоннинг қуввати ва табиати кўтарадиган даражада бўлса, энг фойдали, мувофиқ, лаззатли ва боқийроқдир. Аммо бу теран тушунча инсон тузилишининг чегарасидан тажовуз қилса (ҳаддидан ошса) ва табиатининг тоқати миқдоридан ошиб кетса, инсоннинг сезгирлигини ва хушёрлигини маҳв этади, ақлу идрокини барбод қилади”. [3.117]

“**Ўлим**” (“**Мавт**”) . Тасаввуфда “Ўлим” (“Мавт”) тушунчаси “Таваккул” ва “Таслим” тушунчалари билан чамбарчас боғлиқ. Бу ҳақда “Рисолаи Қушайрий”да Саҳл ибн Абдуллоҳ Тустарийдан шундай қилинган:

اول مقام في التوكل أن يكون العبد بين يدي الله كالميت بين يدي الغاسل بقلبه كيف شاء لا يكون له حركة و لاتدبير.

Яъни: Яъни: *Биринчи мақом "Таваккул"дир ва бундан мақсад шуки, инсон Парвардигор ҳузурида худди майит гассолнинг қўлида бўлган ҳолатлагидек*

бўлиши лозим. Ғассол маййитни қандай хоҳласа, шундай ағдаради, маййит эса (бунга жавобан) ҳеч қандай ҳаракат ёки чора-тадбир қилолмайди. [10,23]

Мавлоно Румий “Маснавийи маънави”да “Мавт” ёки “Ўлим” тушунчасини шундай изоҳлайди:

همچنين باد اجل با عارفان
نرم و خوش همچون نسيم يوسفان

Яъни: *Ажал ели орифлар учун Юсуф (а) томонидан эсанг насимдай мулойим ва хушбўйдир.*

Ислом бандага доимо ўлим ёди билан яшашни тавсия этади. Бир ҳадисда ҳам бу ҳақда шундай кўрсатма берилади:

الموت ريحانة المؤمن، المؤمن يموت بعرق الجبين

Яъни: *Ўлим мўъмин киши учун райҳондай хушбўйдир, мўъмин киши ўлимни худди пешанасини тер босгандай, кутиб олади. [10,37-38]*

Тасаввуф таълимотининг буюк намояндаларидан бири, улуғ шоир ва мутафаккир, Мавлавия тариқати асосчиси Мавлоно Жалолиддин Румий ўлимни маъшукани кутиб олгандек катта қувонч билан қаршилаб олишни талқин этади ва ўлим онларини “шаби арўсий” – “уйланиш кечаси”, “висол кечаси” деб атайди. Зотан, бу ҳолат унинг назарида буюк бир қувончдир. Зеро ўлим руҳнинг қайта туғилишидир. Шу нуқтаи назардан қараганда, Румий ўртага ташлаган ҳаёт ва ўлим баҳсини Ғарб абсурд фалсафасидаги “ўлим мантиқсиз ҳаётдан қутулишнинг ягона йўлидир”, кабилидаги нуқтаи назардан буткул фарқ қилади.

Тасаввуф таълимотидаги “ўлимни эслаш” Расули акрам (с.а.в)нинг ўлимни бот-бот эслашни тавсия этадиган ҳадиси шарифларидан сарчашма олади. Зеро ўлим ҳақида доимий равишда ўйлаш, уни эсанг чиқармаслик, унинг ўацлигини, бир куни муқаррарлигини, бу олам фоний ва ўткинчи эканлиги эслаб юриш кўнгилни юмшатади, инсонни мағрурлик ва манманлик балосидан қутқаради, уни инсонлар ва бошқа мавжудотларга нисбатан раҳмли-шафқатли бўлишига, кечиримли бўлиб яшашига хизмат қилади.

ХУЛОСА

Тасаввуф назариясига доир асарларда, шунингдек, ирфоний-фалсафий мазмундаги адабий-бадий асарларда ҳадислардан унумли фойдаланилган. Масалан, Нажмиддин Розийнинг “Мирсод ул-ибод” номли асарида 202 та ҳадисдан, Хужвирийнинг “Кашф ул-махжуб” номли асарида 150 тага яқин ҳадисдан, Санойй Ғазнавийнинг “Ҳадиқат ул-ҳақиқа”сида 280 та ҳадисдан ва Мавлоно Жалолиддин Румийнинг “Маснавийи маънавий”сида 690 та ҳадисдан фойдаланилган.

Таниқли тасаввуфшунос олим Абдулхусайн Зарринқўб Тасаввуфни “исломий ирфон”, деб атаб, Қуръон оятлари, Ҳадиси шариф ва Пайғамбару саҳобалар сийратини унинг асл сарчашмаси деб билади. [1,24]

Бу масала атрофида эронлик олим Саид Зиёуддин Сажжодийнинг фикр-мулоҳазалари ҳам диққатга сазовор. У Қуръони карим, Пайғамбар ҳадислари ва дину ирфон пешволари қолдирган маънавий меросни Тасаввуфнинг назарий манбалари, Расулуллоҳ (с.а.в.) ва чорёру саҳобалар сийрати, ҳамда буюк имомлару дин пешволарининг одобиини эса Тасаввуфнинг амалий манбалари сифатида талқин этади. [9,7]

Демак, Тасаввуф Расулуллоҳ (с.а.в.)дан икки нарсани мерос сифатида қабул қилиб олган экан. Биринчиси – Ҳадис – Пайғамбар Муҳаммад (с.а.в.)нинг турли мавзуларда айтган ҳикматли сўзлари, иккинчиси Суннат (Расулуллоҳнинг одоби ва у киши адо этган ва буюрган амаллар)дар иборат бўлган.

Фойдаланилган манба ва дабиётлар рўйхати

1. Зарринқўб, Абдулхусайн. Чустучӯ дар тасаввуфи Эрон. – Душанбе: “Ирфон”, 1992.
2. Имом Абдурахмон Сулабий. Тасаввуф ва унинг ҳақиқати ҳақида. Муқаддима. / Таржимон ва изоҳлар муаллифи: Абдулҳамид Муҳаммад Турсун. – Тошкент: “NIHOL-NASHR” нашриёти, 2020. – Б.5.
3. Хожа Юсуф Ҳамадоний. Ҳаёт мезони. (Рутбат ул-ҳаёт). Одоби тариқат. Коинот ва Инсон ҳақида. / Таржимон ва сўзбоши муаллифлари: С.Сайфуллоҳ, Н.Ҳасан. – Б.50.
4. Қуръони карим маъноларининг таржимаси. / Таржима ва изоҳлар муаллифи: Абдулазиз Мансур. – Б.436.

5. ديوان حافظ. / تصحيح و تعليق سيد محمد راستگو. - تهران: نشر خرم، ۱۳۷۵. - ص. ۲۸۱

6. رازی، نجم الدين. مرصاد العباد. - تهران: بنگاه ترجمه و نشر کتاب، ۱۳۵۲. - ص. ۱۵۵

7. مستملی بخاری، امام ابوابراهیم اسماعیل بن محمد. شرح التعرف لمذهب التصوف. ربع سوم. / با مقدمه و تصحیح و تحشیه محمد روشن. - تهران، ۱۳۶۳.
8. نشابوری، فریدالدین عطار. تذکرة الأولیاء. باکوشش محمد استعلامی. - تهران، ۱۳۷۷. - ص. ۳۰۰
9. سجادی، سید ضیاءالدین. مقدمه ای بر مبانی عرفان و تصوف. - تهران: سازمان مطالعه و تدوین کتب علوم انسانی دانشگاهها «سمت»، ۱۳۷۲.
10. فروزانفر، بدیع الزمان. احادیث و قصص مثنوی. (تلفیقی از دو کتاب «احادیث مثنوی» و «قصص و تمثیلات مثنوی»). ترجمه کامل و تنظیم مجدد حسین داودی. - تهران: مؤسسه انتشارات امیر کبیر، ۱۳۷۶. - ص. ۳۷-۳۸
11. قشیری، ابوالقاسم. رساله ی قشیریہ. / تصحیح بدیع الزمان فروزان فر. - تهران، ۱۳۴۵. - ص. ۵۲

O'QUVCHILARNING SO'Z BOYLIGINI RIVOJLANTIRISHDA LUG'ATLARDAN VA QISQA HIKOYALARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Embergenova Altinay Jumabekovna,
Assistant teacher of Karakalpak State University

ANNOTATSIYA

So'z boyligi ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganadiganlar uchun akademik hayotida muhim rol o'ynashi inkor etilmaydigan haqiqatdir. Buning sababi shundaki, agar chet tilini o'rganuvchilarda so'z boyligi yetarlicha bo'lmasa, boshqa til qobiliyatlariga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun Devid Uilkins "grammatikasiz juda oz narsani yetkazish mumkin. Lug'atsiz hech narsani yetkazib bo'lmaydi." deb juda to'g'ri aytgan. Shu sababli har qanday xorijiy tilda so'z boyligini o'rgatish va o'rganish juda muhim o'rinni egallaydi. Shunday qilib, turli usullar va strategiyalar ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchi o'quvchilarining so'z boyligini rivojlantirish uchun qo'llaniladi. Garchi muvaffaqiyat amaldagi har qanday metodologiya, strategiya yoki materialning xususiyatiga va o'quvchilarning ushbu metodologiya, strategiya va materialga bo'lgan tasavvurlariga hamda munosabatlariga bog'liq. Ushbu maqola o'quvchilarning lug'at boyligini rivojlantirishda qisqa hikoyalarning rolini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *So'z boyligini rivojlantirish, o'quvchilar, qisqa hikoyalardan foydalanish, lug'at, o'qitish strategiyalari, chet tilini bilish.*

ABSTRACT

It is an undeniable fact that vocabulary plays an important role in academic life for those who learn English as a second language. This is because if foreign language learners do not have enough vocabulary, they also have a significant impact on other language skills. David Wilkins therefore wrote that "very little can be conveyed without grammar. Nothing can be delivered without a dictionary." he said very correctly. Therefore, teaching and learning vocabulary in any foreign language plays a very important role. Thus, various methods and strategies are used to develop the vocabulary of English learners as a second language. Although success depends on the nature of any methodology, strategy or material in force and the reader's perceptions and attitudes towards that methodology, strategy and material. This article focuses on the role of short stories in the development of reader vocabulary.

Keywords: *Vocabulary development, readers, use of short stories, vocabulary, teaching strategies, knowledge of a foreign language.*

KIRISH

Lug'atni o'rganish va o'qitish har qanday chet tilini o'qitishning juda muhim jihatini tashkil etadi. Buning sababi shundaki, lug'at chet tilini o'rganuvchining darajasi va bilimni belgilashda so'nggi qaror bo'lib xizmat qiladi. Lug'atdan yetarlicha bilimga ega bo'lish qolgan til ko'nikmalari tinglash, gapirish, o'qish va yozish uchun ham muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, lug'at bo'yicha zarur bilimlar chet tilini o'rganuvchini samarali ma'ruzachi, yaxshi tinglovchi, o'quvchi va yozuvchiga aylantira oladi. Boshqa tomondan, so'z boyligining yetishmasligi ushbu to'rta til ko'nikmalariga sezilarli ta'sir qiladi. Shuning uchun lug'at o'qitish va o'rganish o'qituvchilar va o'quvchilar tomonidan alohida e'tiborga muhtoj. Shu sababli o'quvchilarning so'z boyligini boyitish uchun tizimli yondashuvni qo'llash kerak. Bu o'qituvchilar tomonidan tegishli metodologiya, material va strategiyani nazarda tutadi. Biroq har qanday metodologiya, material va strategiyaning muvaffaqiyati belgilangan maqsad va maqsadlarga erishishda natijalar bilan belgilanadi. Har qanday chet elliklarning umumiy maqsadi sifatida til o'rgatish va o'rganish - bu chet tilini o'rganuvchilarning muvaffaqiyatli muloqot o'rnatish, mustaqil va mustaqil bo'lishi uchun kompetentsiyani rivojlantirishdir.


METOD VA METODOLOGIYA

Avtonom o'quvchilar uchun ushbu maqola ingliz tilini o'rganuvchilarning so'z boyligini rivojlantirishda, ularning kompetentsiyalarini rivojlantirishda, shuningdek ularni avtonom o'quvchilarga aylantirishda qisqa hikoyalardan foydalanishning rolini o'rganadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Lug'at atamasi talabalarning og'zaki va yozma so'zlarni tushunishini anglatadi. Bu tushunishning oddiydan farqi shundaki, tashqariga chiqadigan so'zlar lug'at ta'rifinigina emas, balki, kontseptual bilimlarini anglatadi. Va bunday bilimlarni egallash - bu sodir bo'ladigan qurilish jarayoni, vaqt o'tishi bilan talabalar boshqa so'zlar bilan bog'lashadi va misollarni o'rganishadi va so'zlarni kontekstda aniq ishlatishni o'rganishadi. O'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan so'zlar va ulardan foydalanish ikki shaklda keladi: og'zaki va yozma. Og'zaki lug'atga biz tinglash va gapirishda aytadigan so'zlarni kiritsak, yozma lug'at esa o'qish va yozishda bu so'zlarni o'z ichiga oladi va biz ularni taniymiz va foydalanamiz. Yana bir farq ham so'zlarni bilish ustiga asoslanadi. So'zlarni bilishga asoslanib, receptive (qabul qiluvchi) va productive(samarali) lug'at bo'lishi mumkin. Qabul qiluvchi lug'atga biz eshitganimizda yoki ko'rganimizda taniydigan so'zlar kiradi. Boshqa tomondan, samarali lug'atga ham bu so'zlar kiradi. Biz ulardan gapirganda yoki yozganimizda

foydalanamiz. Bundan tashqari, bizning qabul qilishimiz bizning samarali lug'atimizdan kattaroq ekanligi haqida bahslashiladi va ishoniladi.



Maqsadli til lug'atini o'rganish va o'zlashtirish har qanday narsada juda muhim rol o'ynaydi. Lug'at bilimi o'quvchiga har qanday asosiy maqsad bo'lgan muvaffaqiyatli muloqotni o'rnatish va unga erishish, so'z boyligini oshirish, chet tillarini o'qitish va o'rganish imkonini beradi. Lug'at bilimi, shuningdek o'quvchiga turli xil yangi so'zlar orqali o'sha tilning boyligini kashf qilishga ham yordam beradi. Lug'atni bilish, o'quvchiga chet til va ona tilisini qiyoslash va taqqoslashga yordam beradi. Shuningdek, u ikki til o'rtasidagi farqlar o'xshashliklari orqali ikkala tilning til tizimlarini tushunishga va tilni haqiqiy ma'noda o'rganishga yordam beradi. Shu ma'noda, so'zlar tilning asosiy ifoda vositalari bo'lib, chet tilini o'rganuvchiga muloqot qilishda va samarali ifoda etishda yordam beradi. Lug'at ustidan mahorat o'quvchini samarali ma'ruzachiga aylantiradi. Lug'at boyligining yetishmasligi uni aloqani muvaffaqiyatli tashkil etish va erishishda muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Kam so'z boyligiga ega bo'lish o'quvchilarni ayovsiz doirada tuzoqqa solishi mumkin, chunki kengaytirilgan matnlarni o'qiy olmaydigan so'z boyligi va so'zlarni o'rganish strategiyalaridan foydalanishda unchalik muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Shu bois o'quvchilar kengaytirish imkoniyatlarini qo'ldan boy berishadi.

O'quvchilarning so'z boyligini rivojlantirish ham muhimdir, chunki boshqa barcha tillarda lug'at yetishmasligi boshqa ko'nikmalarga ta'sir qiladi. Lug'at yetishmasligi shuningdek, o'quvchilarning muvaffaqiyatli muloqotni o'rnatishdagi muvaffaqiyatsizligining asosiy sabablaridan biri sifatida qaraladi, xoh u yozma xoh og'zaki bo'lsin. O'qish muammolari bo'lgan o'quvchilarda lug'at boyliklari kamligi har doim seziladi. Ovozli bilim orqali foydali lug'at (essential vocabulary) o'quvchilarni gapirish va yozishda qo'llab-quvvatlaydi. So'z boyligining kamligi ko'pincha mazmunli muloqotning yetishmasligiga olib keladi. Shuning uchun har bir urinish o'quvchilarning so'z boyligini yaxshilash uchun kerak.

Lug'atning ahamiyati til pedagogikasida ham barcha uchun har doim tan olingan. Kommunikativ yondashuvning dastlabki vakili Uilkins (1972) lug'atni o'rganish grammatikani o'rganish kabi muhimligini aniq ko'rsatdi. O'quvchi ona tili darajasiga yaqinlashganmi yoki yo'qmi, u kollokatsiyalarni yaxshi ishlatishi va aytishi mumkinligiga qarab hukm qilindi. O'quvchilar sinfida o'qitish, rivojlantirish va o'rganish asosiy muammo bo'lishi kerak. Lug'at tilni egallashning eng muhim qismlaridan biridir. Shuning uchun, yangi so'zlarni ongli va ongsiz ravishda o'rganish o'quvchilarning til darajasini rivojlantirish ertasi uchun asosiy asosdir. Shunday qilib, o'qituvchilar o'quvchilarning so'z boyligini rivojlantirish va ularning kommunikativ rivojlanishiga yordam berishga harakat qilishlari kerak.

O'quvchilarining so'z boyligini rivojlantirish usullari va strategiyalari.

An'anaga ko'ra, lug'at talabalar uchun o'rganish uchun alohida mavzu bo'lmagan, ammo gapirish, tinglash, o'qish va yozish darslarida o'qitilgan. Dars davomida, talabalar o'qituvchi va sinfdoshlar tomonidan taqdim etilgan sinf faoliyatiga tegishli bo'lgan o'z so'z birikmalaridan foydalanadilar va yangi so'zlar bilan tanishadilar. Ko'pgina o'quvchilar uchun lug'atni o'rganish o'z ona tilida ma'nolari bo'lgan yangi so'zlar ro'yxatini haqiqiy kontekst amaliyotisiz o'rganishni anglatadi. Aksariyat hollarda ta'lim kontekst, o'quvchilar, tez-tez ularning tilini o'rganish davomida notanish so'z bilan shug'ullanish kerak. Yangi so'z bilan bunday uchrashuv paytida o'quvchilar ikki tilli lug'atda so'zning ma'nosi yuqoriga qarashadi. Ko'pincha ular yangi so'zlar kontekstda ulardan haqiqiy foydalanish haqida hech qanday tasavvurga ega bo'lmagan satrlarni yozadilar.

Ko'pgina olimlar yangi so'zlarni yodlash orqali lug'atni o'rganishni to'xtatdilar. Buning sababi shundaki, lug'at ko'pincha leksik jihatni e'tiborsiz qoldirishga olib keladi va shu tarzda o'rganilgan. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchilar lug'atni aniq shaklda ishlatishni bilishadi, lekin ular uni haqiqiy hayotdagi muloqotda turli xil ma'nolari bilan qanday ishlatishni bilishmaydi.

O'qituvchilar tomonidan o'quvchilar uchun qo'llanadigan so'z birikmalarini rivojlantirish uchun turli xil boshqa strategiyalar va yondashuvlar mavjud.

Birinchidan, so'zlar haqidagi bilimlarni tasodifan olish mumkin, bu yerda lug'at til faoliyatiga sho'ng'ish orqali rivojlanadi. So'zlar to'g'ridan-to'g'ri o'qitish orqali o'rganiladi, bu yerda talabalar so'zlarni tuzilgan yondashuv orqali o'rganishlari ham mumkin. O'qituvchilar ishlatilgan so'zlar doirasini kengaytirish bo'yicha tadqiqotlar, lug'atlar, tezauruslar va imlodan foydalanishni ham targ'ib qilishlari mumkin.

O'qituvchilar ham o'z talabalariga notanish yoki yangi so'zlarni yozishi mumkin bo'lgan lug'at daftarchasi berishlari mumkin. Hatto so'z o'yinlarni o'ynash ham rag'batlantirish mumkin. Interaktiv ishchi devorlar yaratilishi, ko'rsatilishi va

o'quvchilar yangi, qiziqarli va g'ayrioddiy lug'atni olishlari mumkin. Misol tariqasida aytishimiz mumkin-ki, Maykl Graves (2006) o'quvchilarning so'z bilimlarini rivojlantirish va samarali o'qitishni qo'llab-quvvatlaydigan muvaffaqiyatli lug'at dasturlari uchun asos yaratadi.

Uning ta'limotining asosi mustahkam so'z boyliklarini rivojlantirish uchun to'rt qismli dastur yondashuvni o'z ichiga oladi:

- (1) boyitish bilan ta'minlash va turli til tajribalari,
- (2) alohida so'zlarni o'rgatish,
- (3) so'z o'rganishni o'rgatish strategiyalar;
- (4) so'z ongini tarbiyalash.

Ammo bundan ham muhimi, o'qituvchilarning o'zi tajriba sifatida o'quvchilarga so'z boyligini rivojlantirish va boyitishga yordam berish mustaqil o'qishni rivojlantirishi va kengaytirishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda so'z boyligining yetishmasligi, ular uchun muloqat jarayonida turli xil qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Shuning uchun, diqqat bilan rejalashtirilgan lug'at bo'yicha ko'rsatmalar, xususan qisqartirilgan hikoyalardan foydalanish o'quvchilarning eng ko'p duch keladigan muammosini bartaraf etish uchun zarur bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Allen, J. (1999). Words, words, words: Teaching vocabulary in grades 4-12. Portland, ME Stenhouse Publishers
2. Blachowicz, C., & Fisher, P. (2004). Vocabulary lessons. Educational Leadership, 61(6), 66-69.
3. Bromley, K. (2007). Nine things every teacher should know about words and vocabulary instruction. Journal of Adolescent & Adult Literacy, 50, 528-536.
4. Brumfit, J. & Carter R.A. (Eds.) (1986): Literature and Language Teaching. Oxford: Oxford University Press
5. Collie, J. and S. Slater (1987): Literature in the Language Classroom. Cambridge: University Press.
6. Dillard, M. (2005, December). Vocabulary instruction in the English classroom. Studies in Teaching 2005 Research Digest, 21-25.
7. Dixon-Krauss, L. (2002). Using literature as a context for teaching vocabulary. Journal of Adolescent and Adult Literacy, 45(4), 310-318
8. Duff, A. and Maley, A. (1990): Literature. Oxford University Press

O‘ZBEK TILIDAGI VARIANTLILIK VA DUBLET HODISALARINING LINGVISTIK AHAMIYATI

Rajabov Nizomiddin Namoz o‘g‘li

Buxoro Davlat Universiteti

Lingvistika o‘zbek tili ta‘lim yo‘nalishi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tilshunoslikdagi variant va dubletlar bilan bog‘liq muammolar yoritilgan bo‘lib, ularning paydo bo‘lish o‘rni, lingvistik hamda ijtimoiy ahamiyati xususida so‘z yuritilgan.

***Kalit so‘zlar:** Variantlar, dubletlar, absolyut sinonimlar, o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, ijtimoiy maqbullik, donor til, vositachi til, qabul qiluvchi til, parallellik.*

ABSTRACT

This article covers the problems related to variants and doublets in linguistics. The place of their appearance, linguistic and social significance is discussed.

***Key words:** Variants, doublets, absolute synonyms, own layer, acquired layer, social acceptability, donor language, intermediate language, recipient language, parallelism.*

KIRISH

O‘zbek tilida shakli bir-biriga yaqin, ma‘nolari esa teng bo‘lgan til birliklari variant deyiladi. Aslida, variantlar xususida bundan boshqa yana ko‘plab tariflar mavjud, biroq hech bir keltirilgan tarif to‘laligicha izohlanmagan. Variantlar, xuddi sinonimlar kabi deyarli barcha til sathlarida mavjuddir. Ma‘lumki, tilda semantik jihatdan bir xil, ammo fonetik va morfologik jihatdan ikki va undan ortiq ko‘rinishga ega bo‘lgan so‘zlar ko‘p uchraydi. Bunday so‘zlarni tilshunoslikda leksik variantlar deb ataymiz. Masalan, “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”da asta-ohista, kabutar-kaptar...kabi yuzlab leksik variantlarni uchratish mumkin. Bizning fikrimizcha, variantlarni sinonimlardan va, ayniqsa, dubletlardan xususiy chegaralarini qat‘iy belgilab olish lozim. Shu kungacha ba‘zi ishlarda sinonimlar qatoriga ba‘zi ishlarda esa, variant yoki dubletlar qatoriga kiritib kelingan adab-odob, baravar-barobar kabi so‘zlar aslida leksik variantlardir. Ushbu bo‘limda mana shu yuqoridagi masalalar xususida so‘z yuritimiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tilshunos olim R.Shukurov O‘zbek tili variantdosh so‘zlarining qisqacha lug‘atida izoh sifatida quyidagi fikrlarni keltiradi: “Variantdosh so‘zlar ikki yoki bir necha xil yozilishga ega. Hammasi ham imlo qoidalariga binoan to‘g‘ri yozilgan

hisoblanadi. Bu soʻzlarni paronim va sinonimlardan farqlash kerak. Paronimlarda yozilishi va aytilishi bir-biriga yaqin boʻlgan ikki soʻzning maʼnolari butunlay boshqa-boshqa boʻladi. Sinonimlarda esa shakli butunlay oʻzgacha, maʼno qirralarida ham farq sezilib turadi. Variantdosh soʻzlar maʼnoda zarracha farq qilmaydi. U bir soʻz. Faqat yozilishida farq bor, xolos. Buning sababi bir varianti fonetik yozuv asosida boʻlsa, ikkinchi varianti morfologik yoki boshqa yozuv qoidasi asosida yozilganidir. Demak, bir soʻz turli yozuv (tamoyili) qoidasi asosida ham yozilishi mumkin”. Keltirilgan taʼriflarni maqullagan holda, shuni aytish joizki, ushbu manbada ham, variantlarni paronim va sinonimlardan qisqacha farqlagan holda, birinchi navbatda, farqlanishi lozim boʻlgan dubletlar toʻgʻrisida soʻz yuritilmaydi. Etibor berib qaraganda, tilda aynan bir til sathida birliklarning aynan bir maʼnoni ifodalovchi har xil koʻrinishlarining uchrashi hodisasi hisoblangan variantlilik bir jihatdan tilning keng ifoda imkoniyatlariga ega ekanligini koʻrsatsa, ikkinchi jihatdan tilning maʼlum bir oʻrinlarda mavjud variantlarga boʻlgan ehtiyojdan paydo boʻladigan hodisa hisoblanadi. Vaholanki, shuni ham takidlash joizki, variantlilik hodisasi tilshunoslikda polisemiya(koʻp maʼnolilik), sinonimiya (maʼnodoshlik) va dubletlar qatorida sanalib terminologiya sohasining azaliy muammolaridan boʻlib keladi va bir guruh olimlar tomonidan salbiy holat sifatida baholalanib kelinadi. Biroq, shu qarashlar bilan yonma- yon holatda boshqa bir guruh olimlarning fikrlari oʻzgacha munosabat kasb etadi. Ularning fikrlaricha, tildagi variantlilik til birliklari, qolaversa, butun til sistemasining mavjudligi, faoliyat yuritishi hamda evolutsiyasi, yaʼni tarixiy rivojlanishi mohiyatini yoritib beruvchi eng muqobil tushuncha va termindir. Yana ushbu guruh tilshunoslari: Til fonetikasi va morfologiyasidan boshlab semantik va stilistik qatlamlargacha boʻlgan barcha sathlarda uchraydigan variantlashuv hodisasi, haqiqatdan ham, tilning boyishi va rivojlanishini taʼminlovchi muhim omillardan hisoblanadi. Aynan bir til birligining turli oʻrinlarda uning eng munosib variantlari vositasida ifodalanishi darajasi, shubhasiz, tilning boy ifoda imkoniyatlari koʻrsatkichi boʻlib ham xizmat qila oladi degan fikrdalar.

Koʻrinib turibdiki, tilshunoslikning koʻpgina masalalarida uchragani singari leksik variantlar xususida ham har xil, baʼzan esa, hatto bir-biriga qarama-qarshi fikrlar mavjuddir. Aksariyat olimlar leksik variantlarni xuddi sinonimlar kabi maʼnosi oʻxshash boʻlgan boshqa-boshqa til birliklari deb bilsalar, boshqalari leksik variantlarni bir leksemaning turli hodisalarga koʻra, yaʼni grammatik-morfologik, yoki sintaktik-stilistik, yo boʻlmasa fonetik tovush oʻzgarishlariga uchragan shakli deb hisoblaydilar. Bunday munozarali vaziyatda, leksik variantlarni til sathlarida qolib ketgan keraksiz, salbiy maʼnodagi unsurlarmi, yo boʻlmasa til korpusining faoliyatida, uni yangilab turishda muhim hisoblanadigan mexanizmlardan birimi

degan shu kabi va yana bir nechta unga bog'liq savollarga faqatgina variantlilik hodisasini unga yondosh hodisa bo'lgan dubletlilik hodisasi bilan qiyosan va mohiyatan o'rgangandagina javob topa olishimiz mumkin deb o'ylaymiz.

Birinchi navbatda, variantlilik tushunchasiga izoh berib o'tishimiz kerak bo'ladi. Tilshunos olim A.Hojiyev "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'atida" variant terminini izohlar ekan: Variant (lotincha so'zdan olingan bo'lib varians-variants-o'zgaruvchi) degan ma'nolarni anglatadi. Shuningdek, til birliklarining turli-tuman o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan shaklidir. Masalan, fonema varianti, affiksning varianti, so'zning varianti, iboraning varianti va boshqalar shaklida deyiladi. Ayni shu masala yuzasidan prof. E.Qilichev va O.Beganchevalarning "So'zlarning shakliy va ma'noviy munosabatlari xususida" maqolasida ham bir qator fikrlar bayon qilingan. Hodisa mohiyatini chuqurroq anglash uchun variant tushunchasi va atamasining lingvistik tabiatini aniqlash, uning dublet tushunchasi va atamasi bilan aloqasi va farqli tomonlarini izohlash zarur.

Variant so'zi ko'p ma'noli bo'lib, lingvistik atama sifatida til birligining turli-tuman o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan shakli, ko'rinishidir. Masalan, fonema varianti, morfema varianti, so'z varianti, ibora varianti kabi variantlar mavjud. Bundan ko'rinib turibdiki, tilshunoslikda birmuncha yakdil fikrlar mavjud. Variantlarni yuqoridagi tasnifini bergan olimlar ular o'z ichida yana mayda guruhlarga yoxud bo'laklarga bo'linishini ham ta'kidlaydilar. Rus tilshunosi V.V. Morkovkin so'zni asl shaklida va morfologik shakllanishida bo'linmaslik bilan ajralib turadigan asosiy lingvistik birlik sifatida belgilaydi. Olimning fikricha, obyektlar belgilar va munosabatlarni belgilash uchun xizmat qiladi (yoki holatlarning ifodalari uchun) va nutqda lingvistik ahamiyatga ega variantlar shaklida namoyon bo'ladi. Yana, olim, shuni ham ta'kidlaydiki, lingvistik ahamiyatga ega o'zgaruvchanlikka, ya'ni mavjudlikka tasodifiy emas, balki juda tushunarli va muntazam davom etadigan hamda harakatlanuvchi variantlar shaklida qarash lozimdir. Shuningdek, so'zning o'zgaruvchanlik qobiliyati hammavaqt uning mavjudligida namoyon bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, V.V. Morkovkin fikrlari lingvistik haqiqatlarga yaqinroq ko'rinadi. Chunki haqiqatdan ham, tilning mavjud sathlardagi o'zgaruvchanlik qobiliyati olimning ta'biri bilan aytganda, tasodifiy bo'lmagan, aksincha, juda tushunarli bo'lgan va muntazam davom etadigan harakatlanuvchi variantlar ko'rinishida oydinroq namoyon bo'ladi deb o'ylaymiz. Yuqoriga eslatib o'tganimiz R.Shukurovning "O'zbek tili variantdosh so'zlarining qisqacha lug'ati"da olim variantdosh so'zlarni bir nechta kichik guruhlarga bo'lib ko'rsatadi. Masalan, birinchi guruhga asosan bir qismdan iborat so'zlarni: *abr va avr, adab va odob, ajdarho, ajdahor, ajdar va ajdaho, alifbo va alfavit, anovi va anavi, aroba va arava, aroq va*

araq, aso va hassa, asokash va hassakash, bironta va birorta, bolgar va bulg'or, bugun va bukun, dumaloq va yumaloq, dumbaloq va umbaloq, gado va gadoy, gavhar va guhar, igna va nina, isirg'a va sirg'a, iymon va imon, jinday va jindak, kabutar va kaptar, karta va qarta, sabo va saboh, san-man va sen-men, podshoh va podsho, qabariq va qavariq, qabat va qavat, to'yana va to'yona, to'yg'azmoq va to'yg'izmoq, shohsupa va shosupa, shohtut va shotut, shabada va shabboda kabilarni variant juftliklar sirasiga kiritadi. Yana bir guruhga, ba- bo- old qo'shimchalari orqali yasalgan so'zlar ham variantdoshlikni vujudga keltirishi nazarda tutiladi. Masalan: **baadab va boadab, bama'ni va bama'no, baobro' va boobro', baxabar va boxabar, bomaslahat va bamaslahat, botartib va batartib, boxabar va baxabar** kabilarni inobatga olingan. Yana, shu o'rinda ta'kidlash kerakki, olimning manodosh qo'shimchalar orasidan faqat, ba- bo- old qo'shimcharini olganligi uning variantlilik hodisasi mohiyatiga anchagina teran nazar bilan qaraganligini bildiradi. Bizning fikrimizcha ham, olim hodisaga shu o'rinda juda to'g'ri yondashadi va tildagi variantlilik shakliy munosabatlar asosida qurilishiga ishora beradi. Ma'nodosh qo'shimchalar: -li, -ser, -dor, ba-, bo shaxs, narsa-buyum, belgi-xususiyatlarning mavjudligini bildirib kelib yangi so'z hosil qiladi va ular ma'no bo'yog'ining ortib borishiga ko'ra farqlanib, bir sinonimik qatorni hosil qiladi. Masalan: shirali va shirador, farzandli va serfarzand, maslahatli va bamaslahat. Bulardan ba- bo- old qo'shimchalari faqat shakliy jihatdan bir-biridan farqlanishi ularning sinonimik qatorning boshqa a'zolariga nisbatan ma'nodosh, o'zaro esa, variantdosh qo'shimchalar ekanligi ayonlashadi. Mazkur lug'atlar bazi bir xatoliklardan xoli emasligi ayon, biroq bu jihat ham, yana yuqorida sanab o'tilgan muammoli vaziyatlar ham bizning oldimizda ushbu hodisalar borasida hali qilinadigan talay ishlar borligini ko'rsatadi.

Bir so'z turli shakllarda har xil davrlarda turli tillar orqali kirib kelishi mumkin. Ba'zi so'zlar shakl va ma'no uyg'unligini saqlab qolishi va ba'zilari esa yo'qotishi mumkin. Bunday so'zlar esa tilshunoslikda leksik dubletlar deb ataladi. Leksik dubletlar eng qadimiy va keng qamrovli leksiko-semantik kategoriyalardan biri hisoblanadi. Leksik dubletlar deb, bir tilda ikki yoki undan ortiq umumiy kelib chiqish tarixiga ega bo'lgan, ayrim paytlarda qayta o'zlashtirish natijasida paydo bo'lgan yoki boshqa tillardan o'zlashtirish orqali tilimizdagi muqobili bilan dublikatlik hosil qilib til lug'at boyligi tarkibiga kirgan, semantik jihatdan bir xil yoki turli davrlarda ma'no jihatdan farqlanishlarga uchragan va talaffuzi bir-biridan farq qiladigan so'z juftliklariga aytiladi. Shunga o'xshash ta'riflarni ko'plab tadqiqotlarda goh u , goh bu qirralarini uchratish mumkin. Mavjud manbalarda dubletlar va variantlarga berilgan ta'riflar hamda keltirilgan misollar shu qadar bir- biri bilan

chalkashib ketganki, hattoki, bir tilshunos variant sifatida keltirgan misollarni boshqa bir tilshunos dublet sifatida baholagan holatlarni ko'rishimiz mumkin. Qolaversa, bu ikki hodisaning bir vaqtning o'zida sinonim so'zlar bilan ham bog'liq vaziyatlarda chalkashliklar kuzatilyotganligi bor gap. Shunday ekan mazkur vaziyatda ushbu til birliklarining o'zaro chegaralarini qat'iy belgilab olish ehtiyoji mavjud. Birinchi navbatda O'zbek tilidagi leksik dubletlar masalasi Sh.Raxmatullayev (2006), A.Hojiyev (1981), R.Qo'ng'urov (1980), E.Begmatov (1985), M.Mirtojiyev (2010), I.Qo'chqortoyev (1977), B.Daniyarov (2020) va boshqalarning asarlarida u yoki bu darajadagi tafsilotlari yoritilgan. O.Yusupov (2020) esa ingliz va o'zbek tillaridagi dubletlarning funksional-semantik va lingvokulturologik tadqiqini olib borgan. Tilshunos olim Azim Hojiyev "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" da dubletlar fransuz tilidagi "Doublet - double" – "ikkilik" so'zidan olingan bo'lib, bir xil teng semantik tarkibga ega bo'lgan til birliklari ekanligini ta'kidlaydi. Sh.Raxmatullaevning fikricha: "Agar ikki leksema (leksosemema) har jihatdan teng bo'lsa, o'zaro farqlovchi belgiga ega bo'lmasa, leksik dubletlar deyiladi". Olim bu hodisani absolyut sinonimiya deb nomlash ham mavjud ekanligini ko'rsatib o'tadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida dubletlarga quyidagicha izoh berilgan. "Doublet (fr. Doublet < double– qo'shaloq, ikkilangan, ikki hissa) 1. Biror narsaning ikkinchi nusxasi; ikkita bir xil, teng qimmatli narsaning biri. 2. Qimmatbaho, nodir toshlar (buyumlar)ning yasama, soxta nusxasi. 3. Tilda ma'nosiga ko'ra aynan teng keluvchi va biri ikkinchisi o'rniga almashinib qo'llanilishi mumkin bo'lgan so'z va boshqa xil lisoniy birlik. Biroq, ilmiy matnda dubletlarning uch-to'rttasini birdaniga berishni me'yoriy holat deb qarash kerak emas. Tilda sinonim, dublet va variantlarning qavatlanishi yoki takrorlanishi ortiqcha informatsiyani vujudga keltiradi." Tilshunos I. Qo'chqortoyevning fikricha, sinonimik vositalarning yadro qatlamiga dubletlar ham kiradi. Bu kategoriya o'zbek tilshunosligida adabiy norma nuqtayi nazaridan ma'lum qiziqish uyg'otadi. Ba'zi manbalarda dubletlar xuddi sinonimlar kabi "aytilishi har xil, ma'nosi bir xil so'zlar" sifatida ta'riflanadi.

U. Tursunov va boshqalar hammuallifligida yozilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida esa quyidagicha fikr bildiradi: Agar leksik birliklar har jihatdan teng kelsa, ular o'zaro farq qilmasa, leksik dubletlar yuzaga keladi. Bu hodisa absolyut sinonim deb ham yuritiladi. Masalan: agitatsiya-tashviqot, propaganda-targ'ibot, tema-mavzu kabilar. Ko'pchilik tilshunoslar leksik dubletlar juda oz (shunda ham, asosan, terminologiyada) degan fikrdalar. Buning sababi shuki dubletlar biri ikkinchisining aynan nusxasi bo'lgani sababli, bunday leksik dubletlardan biri ortiqcha hisoblanadi, shuning natijasida bulardan biri tilda uzoq yashamaydi deb

ta'kidlaydilar. Shuningdek ular leksik dubletlarni o'tkinchi hodisa sifatida baholaydilar. Yana bir boshqa manbada Tilda leksik ma'nolari o'zaro teng bo'lib, farqlovchi semalari bo'lmagan leksemalar ham uchraydi. Masalan: so'roq va savol, xabar va darak, tema va mavzu, nom va ot kabi. Tilshunoslikda bu tipdagi leksemalar absolut sinonimlar yoki leksik dubletlar deb ikki xil nomlanmoqda deyiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at sostavidagi o'z va o'zlashma qatlam materiallari ko'p hollarda arabcha, tojikcha va o'zbekcha so'zlarning tilda parallel holda yashab qolganligini ham ko'rsatadi. Parallel yashovchi dublet ma'lum stilistik vazifa o'taydi, narsa va hodisalar haqidagi tushuncha va tasavvurlarning ma'lum qirralarini konkretlashtirish, ya'ni so'z ma'nolarining differentsiatsiyasi uchun xizmat qiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi sinonimik uyalarning ko'pini o'zbekcha so'zlarning o'zlashma dubletlari va variantlari tashkil qiladi. Ruscha-internatsional so'zlarning hammasi ham o'zbek tiliga to'ppa-to'g'ri va birdan kirib kelavergan emas. Dastlab ruscha internatsional so'zni tarjima qilishga intilish kuchli bo'ldi yoki o'zbek tilidan so'zning muvofiq ekvivalenti axtarildi. Masalan: poezd so'zi dastlab o'zbek tiliga o't araba, otash araba tarzida tarjima qilingan. Shuningdek paroxod so'zi dastlab otash kema, o't kema, vopur yoki yuzguch shahar kabi so'z va iboralar bilan berilgan. Keyinchalik poezd va paroxod so'zlarining o'zi g'olib chiqqan. Leksik dubletlar paydo bo'lishi jarayonida ishtirokchi tillarning maqomi uch xil bo'ladi: manba til (donor til); vositachi til (medium til); qabul qiluvchi til (retseptient til). Tilshunos Sh. Raxmatullaevning fikricha: "Agar ikki leksema (leksosemema) har jihatdan teng bo'lsa, o'zaro farqlovchi belgiga ega bo'lmasa, leksik dubletlar deyiladi. Olim "bu hodisani absolyut sinonimiya deb nomlash ham mavjud" deb ham ta'kidlaydi. Agar tub so'z bilan o'zlashtirma so'z ma'nolari o'rtasida absolyut sinonimiya mavjud bo'lsa, biz bu kabi holatlarni dubletlar deb ataymiz: O'zbek -fors-tojik: oz -kam; barcha -hamma; toza -pok; yolg'on -soxta; yilnoma -solnoma. O'zbekcha-arabcha: ayirma -farq, tafovut; bo'lak -qism; kishi -inson, odam; uyushma -ittifoq. Yunoncha -arabcha: analiz -tahlil. Arabcha -tojikcha: maktub -noma. Arabcha -arabcha: rasm -odat. O'zbek tilidagi leksik dubletlar nutqni stilistik jihatdan kategoriyallashtirganimizda yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, so'zlashuv nutqiga oid so'zlar oddiy, erkin muomalada qo'llanadi va ularning ancha qismi emotsional-ekspressiv bo'yoqdorligi bilan xarakterlanadi. Bu bo'yoqdorlik salbiy va ijobiy munosabat ifodalash bilan bog'liq bo'ladi. So'zlashuv leksikasining stilistik bo'yoqdorligi neytral yoki kitobiy leksikaga oid so'zlar fonida, ya'ni shu leksikaga oid so'zlar ishtirok etgan dubletlar qatorida ko'proq nomoyon bo'ladi.

O'zbek tilida sinonim, dublet, variant tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir, o'z navbatida turli jihatlariga ko'ra farqlanadi. Shu jihatdan, til lug'at

boyligining asosini tashkil etuvchi sinonim, dublet, variant hodisalarini bir-biridan farqlash lozim. Zero, ular ma'naviy munosabati jihatidan deyarli bir o'rinda tursa-da, uslubiy xususiyati, shakily tomonlariga ko'ra o'zaro tafovutga ega. Buni tilshunos olimlar o'z asarlarida har doim qayd etganlar.

Dubletlar ichki manbadan, yoki tashqi manbadan adabiy tilga o'zlashib me'yorlashgan so'zlardir. Albatta, adabiy tilda o'z muqobili bo'lgani holda. Variantlar esa bir so'zning bir necha xil ko'rinishidir. Ularning ham adabiy tilda o'z o'rni bor. Shuningdek, ular sinonimlarning yadro qatlamini tashkil etuvchi omillardan hisoblanadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, dubletlar variantlardan farqli o'laroq o'tkinchi hodisa deb baholansa-da, "ijtimoiy maqbullik" tushunchasi dubletlar uchun ham xosdir. Adabiyotning badiiy tasvir vositasi sifatida tilda dubletlar va variantlar yashashda davom etadi. Bizningcha, dubletlar absolyut yoki to'liq sinonim ham, variant ham emas. Ular faqat tildagi yangilanishlar, o'zgarishlar natijasida iste'molda bor so'zning boshqa muqobillari paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan hodisadir. Muqobili mavjud bo'lgan dubletlar sekin – asta o'z muqobiliga o'rin bo'shatadi. Tilda (o'z qatlamda) muqobili bo'lmagan dubletlar istiqbolli dubletlar hisoblanib o'sha til lug'at tarkibidan o'rin oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Азим Хожиев. “Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати” Тошкент. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти.
2. Ҳозирги ўзбек адабий тили Ўзбекистон ССР “ФАН” нашриёти Тошкент-1996. Абдурахмонов Ғ. умумий таҳрири остида.
3. Лебедева С.В. Близость значения слов в индивидуальном сознании: Автореф. Дис. Докт. Филол.наук. –Тверь, 2002. -23с.
4. Қиличев Е.“Ўзбек тилининг пратик стилистикаси”. Тошкент «Ўқитувчи» 1985.
5. Қо'чқортөев I. Луг'aviy sinonimik vositalar va ularning asosiy turlari. О'ТА, 1984. 40son.
6. Rahmatullayev Sh. “Hozirgi o'zbek adabiy tili” darslik. Toshkent. "Universitet".2006.
7. Юсупов Отабек Якубович “Ўзбек тилига араб ва форс тилларидан ўзлашган лексик дублетлар таҳлили” Хорижий филология. No2, 2020.
8. “O'zbek tilining izohli lug'ati” A. Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent.
9. Shukurov R. “O'zbek tili variantdosh so'zlarining qisqacha lug'ati”.
10. Hakim, R. (2021). Political and Legal Culture-the Factors of Stability of the Political and Legal System. *Бюллетень науки и практики*, 7(3), 281-286.

11. Расулов, Х. М. (2022). МАЪНАВИЙ ТАРҒИБОТДА ИЛҒОР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 818-826.
12. Расулов, Х. М. (2020). Шарқ ва ғарб: сиёсий ва ҳуқуқий маданият компонентлари уйғунлиги. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-1№ 3).

МОЛОДЕЖНЫЙ СЛЕНГ.

ЕГО ПРОИСХОЖДЕНИЕ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ

Доронина Ирина Николаевна

преподаватель кафедры русской филологии
Ферганского государственного университета

АННОТАЦИЯ

Молодежный сленг - это популярное явление среди молодежи, которое представляет собой уникальный способ коммуникации и выражения себя. В этой статье анализируется явление молодежного сленга, его характеристики и воздействие на молодежную культуру. В начале статьи рассматривается определение молодежного сленга и его значимость в коммуникации среди молодежи. Говорится о том, что молодежный сленг представляет собой особый язык, который позволяет молодым людям выразить свою уникальность, принадлежность к определенной группе или субкультуре.

Далее в статье анализируются ключевые характеристики сленга, используемого молодежью. Описывается, что молодежный сленг часто опирается на новые слова, выражения и фразы, которые могут быть непонятны для старшего поколения. Также отмечается, что молодежный жаргон часто претерпевает изменения и эволюционирует под воздействием моды, медиа и интернета.

Ключевые слова и выражения: *сленг, происхождение, желание выделиться, определенная группа, выделяться среди других, специфический сленг.*

Молодежный сленг представляет собой особый языковой стиль, который молодые люди применяют для общения внутри своей социальной среды. Он способен включать в себя добавление новых слов, фраз или изменение значения уже имеющихся слов.

Молодежный сленг может возникать из-за различных причин. Молодежь стремится выделиться и установить свою собственную уникальную идентичность. Молодежь ощущает принадлежность к определенной группе и выделяется среди остальных, используя специфический сленг.

Молодежный сленг может проявляться в различных формах функционирования. Это может быть использовано для разработки собственного

языка общения среди молодежи, для выражения эмоций или для достижения комического эффекта.

Молодежный сленг часто меняется и развивается со временем. Слова и фразы могут возникать из-за воздействия медиа, музыки, интернета и других источников. Молодежь может быстро принимать и распространять эти явления, которые затем становятся популярными, но со временем устаревают и заменяются новыми.

Тем не менее, стоит отметить, что молодежный сленг не всегда ясен или принят в обществе в целом. Использование излишнего количества сленговых выражений может затруднять общение с людьми, не знакомыми с этим сленгом. Поэтому необходимо быть способным изменять свою речь в зависимости от ситуации и аудитории.

В современной лингвистике молодежный сленг вызывает противоречивые реакции из-за нескольких факторов. Во-первых, сленг представляет собой неофициальный язык, который молодежь использует для выражения своей уникальности, принадлежности к определенной группе или подгруппе. Его лексика, грамматика и произношение часто отличаются от стандартного языка. Для лингвистов, которые стремятся изучать и описывать язык в его стандартной форме, это может вызывать трудности.

Во-вторых, молодежный сленг часто быстро меняется и развивается. Изучение новых слов и выражений становится сложным и непредсказуемым из-за их быстрого появления и исчезновения. Лингвисты сталкиваются с трудностями при попытке создать устойчивые и точные описания языка, вызванные этим.

В-третьих, элементы жаргона и арготизмов, которые часто встречаются в молодежном сленге, могут быть непонятными для людей, говорящих стандартным языком. Это затрудняет общение между различными социальными группами и создает преграды в взаимопонимании.

В-четвертых, молодежный жаргон может быть специфичным для определенной социальной группы молодежи или географической области. Это означает, что в определенных социальных и географических контекстах его использование и понимание могут быть ограничены.

Лингвисты считают молодежный сленг важным объектом исследования, несмотря на противоречия, связанные с ним, так как он отражает различные аспекты молодежной субкультуры, включая социальные, культурные и идентификационные. Лингвисты могут получить более глубокое понимание и

описать разнообразие языковых вариантов и их воздействие на общество, изучая молодежный сленг.

Словарь молодежного сленга может оказывать как положительное, так и отрицательное воздействие на мышление и речь молодого человека.

Положительное влияние:

1. Использование молодежного сленга может способствовать укреплению социальной принадлежности подростка и улучшению связей с друзьями.

2. Использование сленга может стать способом для подростка выразить свою уникальность и творческий потенциал, придумывая новые слова и фразы.

3. Использование молодежного сленга при общении может мотивировать подростка к активному взаимодействию с окружающими, что способствует развитию его социальных навыков.

Отрицательное влияние:

1. Постоянное использование молодежного сленга может ограничить словарный запас подростка, что может повлиять на его способность адекватно общаться в более официальных обстановках.

2. Негативное восприятие: некоторые люди могут рассматривать молодежный сленг как неприемлемый или неправильный, что может создать негативное восприятие подростка со стороны окружающих.

3. Затруднения в образовании: некоторые подростки могут испытывать затруднения в образовательном процессе из-за неправильного использования молодежного сленга в учебных ситуациях.

В целом, молодежный сленг может иметь как положительное, так и отрицательное влияние на сознание и речь подростка. Важно, чтобы подростки понимали, когда и в каких ситуациях использование сленга является приемлемым, и развивали свои коммуникативные навыки в различных контекстах.

Таким образом, данная статья представляет обзор и анализ молодежного сленга, его особенностей и влияния на молодежную культуру. Она позволяет лучше понять и оценить роль и значение молодежного сленга в современном обществе.

СПИСОК ИСПОЛЬЗУЕМОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Doronina, I. N. (2021). Interactive learning and its methodology. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(5), 653-655.

2. Doronina, I. N. (2021). Modernist trends in the literature of the twentieth century: features of futurism and its varieties. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 238-243.
3. Doronina, I. (2021). DISORDERS OF NEUROMOTOR DEVELOPMENT AS AN INDICATOR OF INSUFFICIENT READINESS FOR SCHOOLING.
4. Nikolaevna, D. I. (2022). Innovative Methods Of Teaching Russian Language And Literature. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(6), 581-583.
5. Nikolaevna, D. I. (2021). SOME FEATURES OF STUDYING SEMANTIC STRUCTURE OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN RUSSIAN AND UZBEK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(06), 101-107.
6. Nikolaevna, D. I. (2022). Innovative Methods Of Teaching Russian Language And Literature. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(6), 581-583.
7. Sevara, S., & Nigina, B. (2022). Degrees of Comparison of Adjective Names in Russian and Uzbek Languages. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(10), 105-108.
8. Ruslanovna, S. S. (2022). Description of Linguistik Variation Derivation and Use in Russian from the Point of Linguopragmatics. *AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT*, 1(2), 218-220..
9. Sultanova, S. (2020, December). GENERAL THEORY OF LINGUISTIC VARIATION. In *Конференции*.
10. 10.Sultanova, S. (2021). On the definition of the terms “Variology”, “Variation”, “Variability”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2307-2310.
11. Sevara, S., & Timur, A. (2021). GENERAL THEORY OF LINGUISTIC VARIATION. *Chief Editor*.
12. Sultanova, S., & Akhmadzhonov, M. (2023). THE PROBLEM OF THE «LITTLE MAN» IN RUSSIAN LITERATURE OF THE 19 CENTURE. *Science and innovation*, 2(B2), 52-54.
13. Sultanova, S. R., & Nematov, S. X. (2023). FEATURES OF TURGENEV HEROINES IN THE APPEARANCE OF A MODERN GIRL. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 2(16), 113-117.
14. Султанова, С. Р. (2023). ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПЕЙЗАЖНЫХ ОПИСАНИЙ В СТРУКТУРЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(7), 987-992.

15. Sultanova, S., & Akhmadzhonov, M. (2023). THE PROBLEM OF THE «LITTLE MAN» IN RUSSIAN LITERATURE OF THE 19 CENTURE. *Science and innovation*, 2(B2), 52-54.

16. Султанова, С. Р., & Давлятова, Г. Н. (2023). ЗНАЧЕНИЕ ВАРИАТИВНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ РИТОРИЧЕСКОЙ РЕЧИ. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).

**СПИРТЛИК ИЧИМЛИКЛАРГА РУЖУ ҚУЙГАН ШАХСЛАР
ЎРТАСИДА ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ
ЭТИШНИНГЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.**

Байжанов Бабил Баҳадирович

Асланов Бобур Тухтаевич

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада, спиртлик ичимликларга ружу қуйган шахслар тушунчаси, улар билан профилактик ишлашнинг ҳуқуқий асослари ҳамда ҳуқуқбузарликлар профилактик чора-тадбирларини ташкил этишида бир қанча таклиф ва тавсиялар кенг ёритиб берилган.

Таянч тушунчалар: спиртлик ичимликлар, ружу қуйган шахслар, маст қилувчи ичимликлар, алкоголь, алкоголизм, таклиф ва тавсиялар, ҳуқуқий оқибатлар ҳамда чора-тадбирлар.

АННОТАЦИЯ

В данной статье широко раскрываются понятие лиц, зависимых от алкоголя, правовые основы профилактической работы с ними, а также ряд предложений и рекомендаций по организации профилактических мероприятий по правонарушениям.

Основные понятия: спиртные напитки, хмельные напитки, алкогольные напитки, алкоголизм, предложения и рекомендации, правовые последствия и меры.

ANNOTATION

In this article, the concept of people addicted to alcohol, the legal basis of preventive work with them, as well as a number of suggestions and recommendations for the organization of preventive measures for offenses are widely covered.

Key concepts: liquordrinks, intoxicating beverages, alcoholic beverages, alcohol, alcoholism, suggestions and recommendations, legal consequences and measures.

Бугунги кунда айрим тоифадаги шахсларда ҳуқуқбузарликлар содир этишга мойилликнинг шаклланишида, бу улардаги очкўзлик ва бузуқликхислатларининг шаклланишида Шунинг учун ҳам, ижтимоий ҳаётда бир қатор иллатлар мавжудки, улар инсонни оиласи, жамият ва давлат олдидаги бурчи ва маъсулиятидан узоқлаштириб қўяди.

Маълумки, спиртли ичимлик истеъмол қилиш натижасида инсон организмида турли ўзгаришлар рўй беради. Мастлик инсон бош миясига сезиларли даражада таъсир қилувчи модданинг одам организмига киритилиши

натижасида руҳий ҳолатининг ёмонлашувиغا олиб келади. Алкоголли ичимликларни истеъмол қилиш инсонорганизмига, биринчи навбатта, унинг асаб тизимиغا шикаст етказди ва турли ўткир, сурункали руҳий касалликларнинг келиб чиқишига сабаб бўлади. Алкоголь маҳсулотини унча кўп бўлмаган дозаларда истеъмол қилинганида ҳам инсоннинг ҳаракатланиш ва руҳий фаолиятини издан чиқаришига олиб келади. Бундай шахсларда кучли руҳий ҳаяжонланиш ҳолати кўпинча ташқи омиллар таъсирисиз, осонгина вужудга келади, ўзини тийиб туриш, атрофида юз бераётган воқеаларни тўғри идрок этиш қобилияти йўқолади. Бундай вазиятларда ушбу тоифадаги шахслар манман, мактанчоқ, инжиқ одамга айланади, ҳеч бир сабабсиз муштлашиш учун ташланади, бошқа шахсларга нисбатан зўрлик ишлатади [1].

Бу борада, Ислом дининг муқаддас китоби Қуръону Каримда, Аллоҳ таоло айтади: **«Эй мўминлар, ароқ (маст қилувчи ичкилик ичиш), қимор (ўйнаш), бутлар (га сиғиниш) ва чўплар (билан фол очиш) шайтон амалидан бўлган ҳаром ишдир. Бас, уларнинг ҳар биридан узоқ бўлингиз, шояд нажот топсангиз! Ароқ, қимор сабабли шайтон ўрталарингизга буғзунчилик, адоват солишни ҳамда сизларни Аллоҳни зикр қилишдан ва намоз ўқишдан тўсишни истайди, холос! Энди тўхтарсизлар!»** (Моида сураси, 90–91) [2].

Таъкидлаш жоизки, инсон организмига таъсир этувчи бу иллат аслида нима, шу ҳақида тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқдир.

Ичкиликбозлик – ниҳоятда мураккаб ижтимоий ҳодиса сифатида эътироф этилади. Аҳолининг турли-туман табақалари, ҳар хил касб соҳиблари, турлича ижтимоий мавқе ва моддий етарлилик даражасига эга, ўқимишли, саводсиз, ҳар хил ёш ва жинсга мансуб одамлар орасида спиртли ичимлик истеъмол қилишга барқарор мойиллик мавжудлиги, мулоҳаза юритилаётган ижтимоий ҳодисанинг мураккаблиги ва ранго-ранг кўринишларда намоён бўлишидан далолат беради.

Ичкиликбозлик термини спиртли ичимликларни суиистеъмолқилишнинг инсон соғлиги, хулқ-атвори, лаёқати ва бошқалар билан мулоқотқилишига салбий таъсир ўтказадиган барча ҳолатларни ўз ичига мужассам этади.

Сурункали ичкиликбозлик тушунчасига тиббиёт нуқтаи назаридан талқин бериладиган бўлса, ушбу ҳолат спиртли ичимликларни тез-тез ваҳаддан ортиқ кўп миқдорда истеъмол қилиш туфайли пайдо бўлиб, араққа патологик жиҳатдан ружу қўйиш, яъни касаллик аломати каби кечадиган сурункали хасталикни англатади. Бундай одат кишининг соғлиги, кундалик ҳаёти, меҳнат

фаолияти, умуман айтганда, халқ фаровонлигига салбий таъсир ўтказмай қўймайди, албатта.

Спиртли ичимлик жамиятимиз ҳаётига ижтимоий анъаналар, аксарият ҳолларда, расмий тадбирлар ва байрамларнинг элементи сифатида кирибкелиб, мустаҳкам ўрнашиб қолди ва таассуфки, вақт ўтказиш усулларининг, айримлар учун эса мавжуд муаммоларни ҳал этишнинг ўзига хос воситасигаайланиб қолди.

Аҳолининг аксарият қисми спиртли ичимлик истеъмол қилишни жамиятда жорий этилган, инсонлар орасидаги ўзаро муносабат меъёрлари вақоидаларига зид қиладиган хулқ-атвор шаклларида бири сифатида эътироф этмайди. Спиртли ичимликнинг истеъмол қилиниши оммавий онгда ҳаёттарзининг кундалик аломати, маиший маданиятнинг дахл этилмайдиган қисми сифатида гавдаланади. Шундай экан, спиртли ичимликларнингўртамеъна истеъмол қилинишини инсон хулқининг оғиши (девиант кечиши) сифатида кўриш ярамайди.

Спиртли ичимлик ичадиганларнинг хулқ-атвори, ушбу хулқ-атвор атрофдаги одамлар манфаатларига дахл қилган, ахлоқ ва ҳуқуқ меъёрларигаид келган, яъни спиртли ичимликнинг истеъмол қилиниши ичкиликбозлик тушунчаси билан уйғунлашадиган суиистеъмолга айланган ҳолларда салбийоғиш шаклини касб этади. Соҳа мутахассисларининг фикрича, Ер куррасида яшайдиган катта ёшли одамлар орасидаги ҳар ўнинчи киши спиртлиичимликларни суиистеъмол қилар экан. Ўз навбатида, спиртли ичимликларни мунтазам истеъмол қиладиган одамларнинг 6-7 фоизи, Бутун жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг хулосаларига қараганда пиёнистагаайланиб қолади. Демакки, инсон хулқининг айнан шу шаклда оғиши (девиант кечиши) оммавий бўлгани боис, жамият учун хавфли саналади[3].

Бошқа манбалардаичкиликбозлик қўйидаги номлар билан ҳам аталади:

Алкоголь – арабчадаги “**الكحل**” (алкухл) деган сўздан олинган бўлиб, сурма деган маънони беради. Таркибида этил спирти бўлган ичимликларни спиртли ичимликлар ёки алкоголь деб номланади. Этил спирти миқдорига қараб спиртли ичимликлар турли хил бўлади. Уларнинг таркибидаги спирт миқдоридан қатъий назар барчасини зиёни бир хилдир.

Алкоголизм – мунтазам спиртли ичимликларни ичиш ва унга боғланиб қолишни тиббий атамаси, яъни касаллик номи.Академик Павлов оз миқдорда спиртли ичимлик ичиш натижасида бузилган рефлекслар **7-11** кундан кейин ўзига келишини аниқлаган.

Испания, Германия ва Италия олимлари “JAMA Psychiatriya” журналида алкогольнинг мияга таъсирини замонавий технологиялар билан аниқлаб мақола чоп этишган. Унда спиртли ичимлик ичиш тўхтатилгандан кейин яна **6 hafta (бир ярим ой)** давомида мияга кучли зиёни тегиб туриши аниқланган[4].

Айрим олимлар алкоголизмни гиёҳвандлик билан боғлашади. Алкоголни гиёҳвандлик воситалари қаторига киритишади, алкоголизмга эса гиёҳвандликнинг тури сифатида қарайдилар. Г.М. Энтин ҳам алкоголизмни – алкогольли ичимликларни сурункали равишда истеъмол қилиш натижасида вужудга келган ва алкогольнинг гиёҳвандлик воситаси сифатида таъсири билан белгиланган касаллик деб ҳисоблаган. А.А. Портнов ва И.Н. Пятницкаяларнинг таърифларида алкоголизмнинг кўп белгилари келтирилган, лекин уларнинг ҳаммаси ҳам муҳим белгилар эмас. Бундан ташқари, улар кўшимча равишда – гиёҳвандликка қарамлик синдроми масаласини кўтаришади. Аммо, алкоголь ва шундай ичимликлар Ўзбекистон Республикасида назорат қилинадиган гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ва уларнинг прекурсорлари рўйхатига киритилмаган. Демак, алкоголизм мустақил ҳодиса сифатида қаралиши ва гиёҳвандликнинг алоҳида тури ҳисобланмаслиги керак[5].

Мазкур муаммони ўрганган А.А. Гребеньковнинг қайд қилишича, мастлик ҳолати деганда, шахсда қуйидаги учта белгининг мавжудлиги билан аниқланадиган ҳолат тушунилиши керак: **расмий**(алкоголь ёки бошқа ақл-идроқка таъсир қиладиган воситаларни истеъмол қилиш), **моддий**(руҳий ўзгаришнинг мавжудлиги) ва **сабабий**(мазкур воситаларни истеъмол қилиш ва организм функцияларининг бузилиши ўртасида сабабий боғлиқликнинг мавжудлиги)[6]. Профессор М.Х. Рустамбаев эса, “Мастлик деганда, нафақат, алкоголь истеъмол қилишдан, балки интеллектуал-иродавий фаолиятга таъсир қилувчи, гиёҳванд, психотроп ва бошқа моддалар қабул қилишдан келиб чиққан ҳолат тушунилади” [7], деб ёзади. М.Х. Рустамбаевнинг фикрига қўшилган ҳолда шуни умуимий тарзда айтиш мумкинки, алкагол, гиёҳвандлик ва психотроп моддаларига ружу қуйганларни ҳуқуқбузарликлар содир этишга мойил шахсларини ҳафвли тоифалар гуруҳига киритиш мақсадга мувофиқдир.

Муоммони ечими сифатида мазкур масалада Е.А. Шищенко ва Ю.А. Самсоненколарнинг қайд қилишича, мастлик – бу ақли расо шахснинг алкоголь, наркотик ёки бошқа ақл-идроқка таъсир қилувчи воситаларни онгли равишда истеъмол қилиши натижасида ўз ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги)нинг ижтимоий хавфлилиги ва фактик хусусиятларини тўлиқ даражада англамаслик

ёки бошқара олмаслик ҳолатидир[8] – деган ёндошувларига тўлиқ кўшилиш мумкин.

Таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, бугунги кунда соғлиқни сақлаш муассасаларининг ҳисобида турган шахслар сони 55 678 нафарни, шундан 46 763 нафарини спиртли ичимликка ружу кўйганлар, 5 426 нафарини гиёҳвандлар ҳамда 3 489 нафарини тажоввузкор руҳий касаллар ташкил этилганлигини кўриш мумкин.

Мажбурий даволаш муассасаларига жойлаштириш 2023 йилнинг 6 ойига нисбатан 477 нафарга (1789-2266), яъни 21 фоизга ошган бўлсада, бу кўрсаткич Навоийда 95 нафарга (241-146), Хоразмда 4 нафарга (54-50) ва Қорақалпоғистон Республикасида 34 нафарга (143-109) камайиб кетган.

Шунингдек, спиртлик ичимликларга ружу кўйган шахслар борасида, Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 27 октябрдаги “Накрологик касалликлар профилактикаси ва уларни даволаш тўғрисида”ги Қонуннинг 25 – 37-моддаларида ушбу касалликларга чалинган шахсларни мажбурий даволаш асослари, тартиби ва механизмлари белгиб ўтилган. Шу сабабли, бугунги кунда наркологик касалликларга чалинган шахсларни даволаш Соғлиқни сақлаш вазирлигининг мажбурий даволашга ихтисослашган муассасаларида, яъни наркология диспансерларида амалга оширилади.

Республикада мавжуд 15 та наркология диспансерларида койкалар (жой ўрин) сони – 880 тани ташкил этади.

Мажбурий даволанишга мўлжалланган ётоқлар (койка)ни етишмаслиги оқибатида 2023 йилнинг 6 ойида соғлиқни сақлаш муассасалар ҳисобида турувчи жами 3 984 нафар шахс, шундан 1 938 нафари (46 763) спиртли ичимликка ружу кўйган, 218 нафари (5 426) гиёҳванд ва 1 828 нафар (3 489) тажоввузкор руҳий касаллар мажбурий даволанишга юборилган.

Таъкидлаш жоизки, спиртлик ичимликларга ружу кўйган шахслар билан профилактика ишларини самарали ташкил этиш ҳудудларда ҳуқуқбузарликлар профилактикасини таъминлашга асос бўлади.

Бу борада, криминологик олимлар И.Исмаилов, Қ.Р. Абдурасулова ва И.Ю. Фозиловлар ҳуқуқбузарликлар профилактикаси чора-тадбирларининг тизимида кўйидагиларни киритиш мумкин деб фикр билдириб ўтишган:

- тарбиявий-профилактик чора-тадбирлар;
- ижтимоий-иқтисодий чора-тадбирлар;
- маънавий-ахлоқий чора-тадбирлар;
- тиббий чора-тадбирлар;
- психологик чора-тадбирлар;

– ташкилий чора-тадбирлар;

– бошқа чора-тадбирлар”[9] олиб бориш лозимлигини кўрсатиб ўтилган.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг «Алкоголь ва тамаки маҳсулотларининг тарқатилиши ҳамда истеъмол қилинишини чеклаш тўғрисида»ги (2011), «Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги (2014), «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги (2016) қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг, Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарори ва мавзуга оид бошқа қонун ҳужжатларида белгиланган вазифаларни амалга оширишга муайян даражада хизмат қилади.

Тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, ички ишлар органлари профилактика (катта) инспекторлари маҳалла ҳудудда спиртлик ичимликларга ружу қуйган шахслар билан профилактика ишларни ташкил этишда қуйидагиларни амалга оширишлари таклиф этилади:

биринчидан, маъмурий ҳудудда яшовчи спиртлик ичимликларга ружу қуйган шахсларни руйхатини шакллантириш;

иккинчидан, ҳисоб руйхатда бўлмаган спиртлик ичимликларга мойил бўлган шахсларни аниқлаш ва руйхатга қуйишни таъминлаш;

учинчидан, жамоат жойларида спиртлик ичимликлар истеъмол қилган шахсларга (МЖТК 187-м, 1-2 қисмларида кўрсатилган нормаларга асосан)нисбатан электрон баъённома расмийлаштириб, тегишли муддат ичида профилактик ҳисоб йиғма жилди юритиш [10];

тўртинчидан, спиртлик ичимликларга ружу қуйган низоли оилалар билан яққа тартибдаги профилактика чора-тадбирларини таъминлаш;

бешинчидан, спиртлик ичимликларни миёридан ортиқ истеъмол қилишга мойил шахсларни аниқлаш ва мажбурий тарзда норкалогия деспанцерига жойлаштириш;

олтинчидан; спиртли ичимликлар, гиёҳвандлик воситалари, психотроп ёки ақл-ирода фаолиятига таъсир этувчи бошқа моддаларни мунтазам равишда истеъмол қилаётган вояга етмаганларни аниқлаш, ҳисобга олиш, текшириш, даволаш ва тиббий-ижтимоий реабилитация қилишни ташкил этиш соғлиқни сақлашни бошқариш органлари ва соғлиқни сақлаш муассасалари[11] билан ҳамкорликни ўрнатиш лозим.

Фойдаланилган Абадиётлар:

1. Абдурасулов.Ё.И. Ички ишлар органларида спиртли ичимликка ружу қуйган шахслар билан ишлаш фаолиятини ташкил этишнинг муаммолари. [Электрон манбага

- мурожаат вақти: 10.07.2023] URL:<https://sciencebox.uz/index.php/siyosatshunoslik/article/view/3307/3016>
2. Қурону Карим.Хамр (маст қилувчи ичимлик) ичиш. [Электрон манбага мурожаат вақти: 10.07.2023] URL:<https://islom.uz/maqola/11196>
 3. Shokir Dolimov. Ичкиликбозлик ва ушбу иллатга доир фикр-мулоҳазалар. [Электрон манбага мурожаат вақти: 10.07.2023] URL:<https://uforum.uz/archive/index.php/t-17899.html>
 4. Спиртли ичимликлар (алкоголь) — сиз билмаган маълумотлар. [Электрон манбага мурожаат вақти: 10.07.2023] URL:<https://xasta.uz/?p=1977>
 5. Экзогенные психические расстройства»Диагностические классификации хронического алкоголизма [Электрон манбага мурожаат вақти: 10.07.2023] URL:<http://www.psychiatry.ru/lib/54/book/32/chapter/12>
 6. Гребеньков А.А. Уголовная ответственность лиц, совершивших преступление в состоянии опьянения. Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Краснодар, 2009. – 52 с.
 7. Рустамбаев М.Х., Отажонов А.А. ва бошқ. Ўзбекистон Республикаси жиноят ҳуқуқи курси. I том. Умумий қисм. Жиноят тўғрисида таълимот Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, Миллия гвардия Ҳарбий-техник институти, 2018. – 648 б.
 8. Шищенко Е.А., Самсоненко Ю.А. Уголовная ответственность лиц, совершивших преступление в состоянии опьянения // Политематический сетевой электронный научный журнал Кубанского государственного аграрного университета. – 2017. – № 129 (05). – С. 4-12.
 9. И.Исмаилов, Қ Р Абдурасулова, И Ю Фазилов;Криминология. Умумий қисм: ИИВ олий таълим муассасалари учун дарслик / Масъул муҳаррир Ш.Т. Икрамов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – 220 б.
 11. Ўзбекситон Респуликаси Ҳуқуқбузарликлар профилактика тўғрисидаги қонун (14.05.2014)
 12. Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазирининг буйруғи, 11.04.2011 йилда рўйхатдан ўтган, рўйхат рақами 2215. [Электрон манбага мурожаат вақти: 10.07.2023] URL:<https://lex.uz/ru/docs/1770932>

KUSHON-SOSONIY TANGALARIDA DINIY TASVIRLARNING ZARB QILINISHI

Safarali Bolliyev

Angor tumani 1-son kasb-hunar maktabi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Baqtriyaning kushon-sosoniylar davri tangalari reversida zarb qilingan diniy tasvirlar hamda Baqtriyaning kushon-sosoniylar davri diniy e'tiqodlari haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: *Anahita, Mitra, "yuksak xudo", Hirot, Marv, Balx, Pero'z, altar, Zevs, Ahuramazda.*

ABSTRACT

This article discusses the religious images minted on the reverse of coins of the Kushan-Sasanian era of Bactria and religious beliefs of the Kushan-Sasanian era of Bactria.

Key words: *Anahita, Mithra, "high god", Herat, Marv, Balkh, Peroz, altar, Zeus, Ahuramazda.*

KIRISH

Dunyoda so‘nggi yillarda insonning qadr-qimmatini yuksaltirishga qaratilgan shaxsning ichki salohiyatini o‘rganish muammosi pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi va tarbiya mexanizmlarining asosiy komponentlari:shaxsiy salomatlik, o‘z faoliyatini tashkil etish, o‘zini o‘zi rivojlantirish, o‘zini o‘zi jamoadagi nufuzini belgilash va jamiyat infrastrukaturalarida o‘zini o‘zi realizatsiya qilish kabi tushunchalar shaxsning umuminsoniy qadriyatlar pozitsiyasida ekanligidan dalolat bermoqda. Inson uchun qadriyatli bo‘lgan hodisalar, jarayonlar, voqealar mohiyatini anglash aksiologiya jarayonida sodir bo‘lar ekan, ijtimoiy infrastrukaturalarda yoshlarda aksiologik qadriyatlar tizimini rivojlantirish, ularni yuksak ma‘naviy axloqli, insonparvarlik fazilatlariga ega, o‘z kasbini chuqur biladigan mutaxassis sifatida tarbiyalash muammolarini ilmiy-pedagogik jihatdan tadqiq qilish masalalari yetakchilik qilmoqda.

Mamlakatimizda yoshlar bizning kelajagimiz, ular ota-ona va ajdodlarimiz ishining davomchilari hisoblanadi. Bizning asosiy maqsadimiz – milliy va ma‘naviy qadriyatlar asosida komil insonni tarbiyalashdir. Komil inson deganda, eng avvalo, dunyoqarashi keng, vatanparvar, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan, mas‘uliyatli va sog‘lom kishilarni tushunamiz. Inson

faqat tarbiya orqaligina komillikka erishadi. Uning ma'naviy darajasi atrofida yuz berayotgan voqyea-hodisalarni qanday qabul qilishi va mustaqil baholay olishiga ham bog'liq". Shunday ekan, uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarning aksiologik kompetensiyalarini rivojlantirish, ma'naviy dunyoqarashini mustahkamlashda milliy qadriyatlarga oid boy ma'naviy merosimizdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Har bir davr, har bir millat yoki alohida shaxsning o'ziga xos qadriyatlari bor. Zamonaviy sharoitda aksiologiya mustaqil ijtimoiy pedagogik xususiyat sifatida baholanmoqda va bugungi kunda aksiologiyaning asosiy tushunchalari – “qadriyat”, «qadriyatlarga yo'naltirilganlik», «qadriyatlarni belgilash», «baholash», «baholash munosabati», «qadriyatlarga asoslangan qiymatli mulohazalar» kabi kategoriyalar zamonaviy nuqtai nazardan tavsiflanishi lozim. Bugungi kunda mamlakatimizda “Yangi O'zbekiston-xalqchil va insonparvar davlat” g'oyasi amalda. Ushbu g'oyani amalga oshirish yo'lida konstitutsiyaviy islohotlarga kirishish ostonasida turibmiz. Bu katta islohotlarimizning mohiyatan yuksalishiga, mantiqiy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilishi tabiiy.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining juda ko'p moddalarida tarixiy qadriyatlar o'z o'rnini topganining shohidi bo'lamiz. Masalan, diniy bag'rikenglik doimo o'zbek xalqining tarixiy qadriyati bo'lib kelgan. Konstitutsiyamizning 31-moddasida hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanishi, har bir insonga xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hych qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqining berilganligi Bosh Qomusimizning xalqimiz tarixiy an'analari, qadriyatlariga asoslanganidan dalolat beradi.

Tarixga nazar tashlasak, Amir Temurning xizmatida musulmonlar bilan bir qatorda buddaviylar, nasroniylar va boshqa din vakillari ham bo'lgan, lekin ularning birortasi kamsitilmagan.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar har bir inson uchun qadriyatli mental tafakkurni mustahkamlash, huquqiy demokratik davlatni mustahkamlash va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish negizida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'zaro aloqadorligi, yaxlitligi, uning barkamol avlod tarbiyasi tizimida tutgan o'rni, tarixiy ildizlari, qadimgi Sharq ma'naviy-axloqiy tarbiya taraqqiyotini rivojlantirishga qaratilmoqda.

Qadriyat - bu obyekt yoki hodisaning madaniy, ijtimoiy yoki shaxsiy munosabatlardagi odamlar uchun ma'noga ega bo'lgan oliy ne'matidir. Aksiologiya atamasi 1902 yilda fransuz olimi P.Lapi tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib,

qadriyatlarning tabiati, ularning voqelikdagi o‘rni va qadriyatlar dunyosining tuzilishi, ya’ni turli qadriyatlarning o‘zaro, ijtimoiy va madaniy omillar va shaxs tuzilishi bilan bog‘liqligini o‘rganadi.

Pedagogik fikrning butun tarixi to‘g‘ridan-to‘g‘ri baholash munosabatlari bilan, inson uchun eng muhimini aniqlash istagi bilan bog‘liq. Eng umumiy shaklda aksiologik mavzu har bir davr, har bir millat uchun alohida dolzarflik kasb etadi.

Antik davrda bu qarashlar: ezgulikni inson uchun mantiqiy hodisa sifatida umumiy tushunish bilan turli xil yondashuvlar sifatida belgilandi.

Demokrit hayotning qadriyati va maqsadi baxt, deb hisoblagan. Yuqori darajadagi baxt-yaxshilik bo‘lib, u quyidagi shakllarda mavjud: xotirjamlik, yaxshi kayfiyat, ichki barqarorlik; uyg‘unlik va xotirjamlik.

Suqrot donishmandlikni bilimning birligi, ezgulikni tanlash va ezgulikni amalda tatbiq etishni oliy ne‘mat deb bilgan. So‘qrot insonni o‘z-o‘zini bilishga chaqirgan va eng yuqori yaxshilikka erishish sifatida qadriyatlar tizimini shakllantirish zarurligini e’tirof etgan. Boshqa yunon faylasufi Epikur esa eng oliy baxt- zavq deb hisoblagan, azob-uqubatlarning yo‘qligi deb tushunilgan.

O‘rta asrda: Sharqda zardo‘shhtiylarning muqaddas kitobi – “Avesto”da hamda buyuk ajdodlarimiz – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy asarlarida insonda yuksak axloqiy fazilatlarni kamol toptirishda milliy qadriyatlar masalasi asosiy o‘rinni egallagan. Ma’lumki, o‘zbek xalqi o‘zida millatimizga xos ko‘p asrlik ma’naviy qadriyat va an’analarimizni, udum va rasm-rusumlarimizni, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy merosimizni saqlab keladi. O‘zbek millatiga xos bo‘lgan muomala madaniyati, mehr-oqibat, muruvvat, andisha va or-nomus kabi odob-axloqqa oid his-tuyg‘ular nafaqat tarbiya vazifasini o‘taydi, balki insoniy qadriyatlar va fazilatlarning namoyon bo‘lishida, komil insonni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbek xalqining oliy qadriyati- oila, uning a’zolarining tinch-totuvligi va o‘zaro mehr-muhabbati, dunyoqarashi, ma’naviy saviyasi, qiziqishi, e’tiqodi, jamiytdagi mavqeyi, husn-latofati farzand tarbiyasiga ma’lum ma’noda ta’sir o‘tkazadi. Bunday oilada tarbiyalangan farzandlar go‘zallikka ishtiyoqmand, ruhiy tetik, bag‘ri butun, hayotga qiziquvchan, xotirjam, tinch-totuv oilaviy hayot kechirishga tayyor bo‘lib o‘sadilar. Sharqda milliy qadriyatlarni farzandlar ongi va qalbiga singdirish oiladan boshlanadi. Jumladan, yoshlar kattalardan: *suvga tuflama, non ustiga narsa qo‘yma, nonning uvog‘i ham non, yoshi ulug‘larning yo‘lini kesib o‘tma, ota-onangning gapini ikkita qilma, ustozingni hurmat qil, atrofingga befarq bo‘lma* kabi nasihatlarini eshitib, turli rivoyat, maqol, hikmatlarni tinglab, xotiralarida saqlab voyaga yetadilar. Jumladan, “Avesto”dagi “Ezgu fikr – ezgu so‘z – ezgu amal” g‘oyasi bo‘yicha fikr

yuritish; Qur'oni karim, hadisi sharif kabi muqaddas manbalarda keltirilgan ma'naviy-ma'rifiy o'g'itlar orqali yoshlar ongida ruhiy poklikni shakllantirish muhim bo'lib hisoblanadi.

Yevropada o'rta asrlarda: eng oliy qadriyat atrofdagilarga yaxshilik qilish deb hisoblangan.

F.Bekon fikricha, inson uchun qadriyat-bu insonning boshqa odamlarga nisbatan burch va majburiyatlari sifatida jamoat manfaatining eng oliy ko'rinishi deb hisoblagan.

B.Spinoza qadriyatni aql va erkinlik bilan belgiladi. Erkinlik, uning tushunchasiga ko'ra, ehtirolardan epikuriy zavqlanish emas, balki ehtirolarning aqlga bo'ysunishidir. Spinoza ham hayotni eng muhim qadriyat deb hisoblab, uni o'limdan yuqoriroq darajaga qo'ygan.

Zamonaviy yondashuvlarda: qadriyatlar madaniyatning ko'rinishi sifatida baholandi (M.Veber) yoki ijtimoiy institutlar (T.Parsons), jamoalar va sivilizatsiyalar (P.A.Sorokin), axloqiy (shuning uchun qimmatli) ekanligi va faoliyat ko'rsatish vositasi sifatida tahlil etildi. Odamlarning go'zallik, baxt va boshqalar haqidagi tasavvurlari ham o'zgargan.

Aksiologiyaning pedagogikada ta'limot sifatida rivojlanishida I.Kant katta rol o'ynadi, u Insonni o'z falsafasining markaziga qo'ydi, bu esa, aslida, aksiologik bilimlar taraqqiyotida yangi bosqichni ochdi. Kant an'ana va qiymatni mahsulot deb hisoblash davrini tugatadi va Kant bilan inson uchun qadriyatni tushunish bosqichi boshlanadi. Kant aksiologiyasi, Bekon singari, burch kategoriyasiga asoslanadi. Bu burch tuyg'usi, deb hisoblagan Kant, odamlarni hayvonlardan ajratib turadi va yaxshilikka yo'l ochadi.

Eng oliy qadriyat sifatida Vindelband haqiqat, ezgulik, go'zallik va muqaddaslikni insonni boshqaradigan azaliy va tarixiy bo'lmagan tamoyillar deb hisoblagan, ularni so'zsiz majburiyat me'yori sifatida amalga oshirgan. Vindelband oliy qadriyatlardan tashqari, insoniyat mavjudligi uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni: fan, qonun va tartib, san'at va dinni ajratib ko'rsatdi.

Har bir xalqning milliy qadriyatlarini uning tarixi, ma'naviyati, madaniyati, o'ziga xos urf-odatlarini, an'anasiz tasavvur qilish qiyin.

Mamlakatimizda yoshlarni milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tadbirlar mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaatini yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli mutaxassis kadrlarni yetishtirish uchun zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, ta'lim muassasalarida tahsil

olayotgan, aholining keng qatlamini tashkil etuvchi o'quvchilarning aksiologik, ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish va milliy g'urur tuyg'usini yangi bosqichga ko'tarishni ob'yektiv ehtiyojga aylantirdi. Ushbu ob'yektiv ehtiyoj insonning jamiyatda mavjud bo'lgan ko'p qirrali munosabatlar, ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy shart-sharoitlar asosida, turli insoniyatlar ta'sirida shakllanadigan insonning aksiologik qadriyatlar tizimidagi o'rnini mafkuraviy mental eksplikatsiyada tadqiq etishga undaydi.

Eksplikatsiya - (lot.: *explicatio-tushuntirish, joylashtirish*) – pedagogik ob'yekt, yoki, aksiologik hodisalar mohiyatini turli xil boshqa jarayonlar va hodisalar orqali targ'ib qilish (oshkor qilish) usuli. Eksplikatsiya usulini ketma-ket qo'llash quyidagi bosqichlardan (algoritmardan) iborat:

-xususiyatlar, parametrlar va belgilar majmuini dastlabki tanlash (selektsiya), ular orqali xossalarni tushuntirish ob'yektidan (hodisalar) ifodalovchilarga o'tkazish va almashtirish;

-ob'yektlarni (hodisalar) qidirish va tanlash - tanlangan xususiyatlarni targ'ib qilish;

-aniqlangan ob'yekt (hodisalar)ning tanlangan xususiyatlarini tanlangan ob'yektlar (hodisalar) orqali ifodalash (tarqatish), ya'ni bilish orqali tushuntirish;

-an'anaviy qo'llash qoidalari tariqasida tushuntirish usuli (tartibi yoki texnikasi) ilgari noma'lum (noaniq, noaniq, g'ayrioddiy) tushunchaning (terminning) ichki mazmunini unga tashqi ob'yektlar (hodisalar) orqali ochish ma'lum xususiyatlarni aniqlash yoki tushuntirish uchun ishlatiladi. Binobarin, eksplikatsiya tushuntirilgan tushunchalarga chuqur kirib borish usuli sifatida ishlatiladi va quyidagi qoidalar bilan cheklanadi:

-izohlanayotgan tushunchani izohlovchi ob'yektlar (hodisalar) mustaqilligi (aks holda ularning xilma-xilligi bevosita qiymatini yo'qotadi);

-xususiyatlar, parametrlar va jihatlarni almashtirish chegaralarini (ramkasini) qat'iy belgilashni ta'minlaydigan ularning farqlanishini ajrata olish;

Ilmiy metodologiya kontekstida eksplikatsiya (tushuntirish) ilmiy bilimlar doirasida ko'p turli funktsiyalarni bajaradi. Shunday qilib, eksplikatsiya pedagogikada quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi:

-noaniq va noma'lum intuitiv tasvirlarni (eksplikantlar) qat'iy kategorik va mantiqiy tushunchalar (eksplikantlar) shakliga tarjima qilish;

-muayyan bilim sohasini kontseptuallashtirish, uni yaxlit tizimga keltirish;

-turli obyektlar (hodisalar) yoki tushunchalar (terminlar) o'rtasidagi ilgari aniq bo'lmagan (yoki yashirin) bog'liqliklarni aniqlash va boshqalar. Shu bilan birga, mental eksplikatsiyada kontsepttsyaning intuitiv mazmunini uniqadriyatli ifodalovchi

tushunchalar bilan rasmiylashtirilgan mazmunining asl ob'jekt (hodisalar) va bilim rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan aloqani bildiradi. Shu ma'noda, mafkuraviy mental eksplikatsiya muayyan mafkuraviy qarashlar yaxlitligining mazmunini yoritishga xizmat qilib, uning qismlari, masalan, inson ma'naviyati, mustaqil ravishda o'rganiladigan pedagogik hodisa sifatida namoyon bo'la boshlaydi vajamiyat a'zolarining o'zaro munosabatlarida aks etadi.

Tahlillardan ayon bo'lishicha, qadriyatlar, ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rni haqida olimlarimiz turli ta'riflarni keltirganligiga qaramasdan, ularning leytmotivida (o'zagida) ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar hayotiy qadriyatlarning eng muhim omillari sifatida keltirilgan. Xususan, M.Farmonova fikricha, "milliy qadriyatlar – millat uchun ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq xoslik shaklidir.

Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati, madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi". Binobaring, so'nggi yillarda O'zbekistonda milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Bu ona yurtga ehtirom, avlod-ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Qadriyatlarni faqat moddiy va ma'naviy boyliklar sifatida tushunish, izohlash ilmiy jihatdan to'g'ri emas.

Ma'lumki, qadriyatlar o'z mohiyatiga ko'ra xilma-xildir. Ular orasida tabiiy, moddiy, ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qadriyatlar alohida ajralib turadi. Qadriyatlar-jamiyatimiz poklanishi va ravnaqining muhim omilidir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "Taraqqiyot strategiyasi" – islohotlarning yangi bosqichi bo'lib, unda aholini, yoshlarni ma'naviy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash yetakchi o'rinni egallaydi. Shu o'rinda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar asosida davlat idoralari xodimlarining uyma-uy yurib, xalq dardini tinglash, og'irini yengil qilish, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash ishlari yo'lga qo'yildi.

Abdurauf Fitrat o'zining "Oila" nomli asarida bolalarni "diqqatlari va zehnlari chuqur va jiddiy bo'lishiga o'rgating... Ko'rganlari ustidan tez xulosa chiqarmasinlar", – deya ta'kidlab, farzand tarbiyasiga e'tibor berish lozimligini uqtiradi.

G'.G'ofurovning milliy an'analarga bag'ishlangan maqolasida "milliy qadriyatlarning quyidagi ko'rinishlari tilga olgan: 1) tabiiy qadriyatlar; 2) iqtisodiy qadriyatlar; 3) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar; 4) ma'naviy qadriyatlar; 5) axloqiy qadriyatlar. Jumladan, "ota-bobolarimiz ilm o'rgatish bilan birga farzandlarimizga avlodan-avlodga o'tib kelayotgan milliy-ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni

singdirganlar. “Iqtisodiy qadriyat – iqtisodiy munosabatlar jarayonida shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatlarni hisobga olish, halollik, poklik, bag‘rikenglik, ishonchlik kabi fazilatlarning amal qilinishini anglatadigan tushuncha”. Shu o‘rinda qo‘ni-qo‘shnichilik qadriyatini misol qilib keltirsak, unda qo‘shnilar o‘rtasida o‘zaro ishonch, xabar olish va moddiy yordam berish milliy qadriyat sifatida birinchi o‘ringa qo‘yilgan.

Keyingi vaqtlarda tarbiya masalasida qo‘lga kiritilgan yutuqlarimiz qatori oilada, maktab va jamoat tashkilotlarida milliy, umuminsoniy qadriyatlarning, an‘analarning ustuvorligiga erishildi.

Aksiologik qadriyatlar tizimi Konstitutsiyamizda ham o‘z ifodasini topdi. Endilikda yangilanayotgan ma‘naviyat asosidagi yangi qadriyatlar tizimini yaratish kun tartibidagi dolzarb masala bo‘lib qoldi. Mafkura jamiyatning turli sohalari ijtimoiy, siyosiy, falsafiy, axloqiy, huquqiy, diniy qarashlarning majmuidan iboratdir. Aksiologik tizim yangi ma‘naviyatning yutuqlarini ifodalovchi nazariy bilimlar, qarashlar majmui sifatida jamiyat rivoji uchun muhim reja strategik ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi [2023y, 30 aprel] davlatimizning qomusiy hujjati bo‘lib, bu hujjat tahlil qilinganida unda yoshlar tarbiyasi, axloq-odobi, ijtimoiy himoyalangani, konstitutsiyaviy haq-huquqlariga oid yetmishga yaqin atama va so‘z birlikmalari mavjud ekani ma‘lum bo‘ldi. Jumladan, bunyodkorlik g‘oyalariga sodiqlik, yuksak mas‘uliyat, ijtimoiy adolatparvarlik, insonparvarlik, demokratik-huquqiy davlat, fuqarolarning tinchligi, milliy totuvlik, xalqimizning urf-odatlar va an‘analari, qadriyatlari, ijtimoiy hayotda mafkuralar xilma-xilligi va erkinligi, inson va jamiyat munosabatlaridagi ijtimoiy adolat, dunyo hamjamiyatida xalqlar va millatlarning suveren tengligi, fuqarolarning e‘tiqodi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat‘i nazar qonun oldidagi tengligi, sha‘ni va obro‘sining daxlsizligi, fuqarolarning vijdon erkinligi, adolatli mehnat, ijod erkinligi va har bir shaxsning madaniy yutuqlardan foydalanish erkinligi, yosh avlodni tarbiyalash va bepul ta‘lim olishi kabi fikrlar keltirilgan bo‘lib, ular Bosh Qomusimizda huquqiy jihatdan kafolatlangan.

Odob-axloq milliy qadriyatlarimizning tarkibiy qismidir. “Davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi”-deyilgan. Darhaqiqat, yosh avlodni qonuniylik prinsiplari asosida o‘z xalqiga, uning qadriyatlariga, an‘analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalash orqali o‘z xalqini millatlarning butun jahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o‘z Vatanining jonkuyarini tarbiyalash dolzarbdir.

N.Sh.Erkaboyevaning “Yoshlarni yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy faolligini oshirish zamonaviy pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammosi sifatida” nomli maqolasida “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarni zamon talablari darajasida tarbiyalash ularda zamonaviy ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda pedagogika va psixologiya tizimidagi fanlarni o‘rni hamda turli xil yondashuvlar asosida o‘qitishga ustuvorlik berish yo‘llari ochib berilgan”. Demak, insonning aksiologik kompetensiyalarga ega bo‘lishi, uning ijtimoiy faol bo‘lishida ifodalanib, ma’naviy rivojlanganligidan dalolat beradi.

Ilmiy manbalarda keltirilishicha, **inson ma’naviyati** – insonga xos bo‘lgan ichki ruhiy holat va uning ijtimoiylashgan shakllari: millat, davlat va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi; insonning ruhiy va aqliy olamini ifoda etadigan atama sifatida shaxsning axloqiy, madaniy, falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi. Shunday ekan, ma’naviyat hayotiy tajribalar davomida sayqallanib, rivojlanayotgan qadriyatlar tizimi sifatida yoshlarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish kundalik hayotimizda muhim o‘rin tutadi va mazkur ijtimoiy - pedagogik hodisani tadqiq etish hamisha dolzarbligini yo‘qotmaydi.

Aksiologik kompetensiya- shaxsning qadriyat ongini, qadriyatlar tizimidagi munosabatini va xulq-atvorini shakllantirishda muhim o‘rin egallab, ta’limning tarbiyaviy funksiyasi bilan bog‘liq holda qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi PF- 5106- son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son[1], 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son [2] farmoni, 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda yoshlarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish uchun milliy qadriyat va an‘analarimizga asoslangan yangicha tamoyillarga, ilg‘or jahon tajribasiga tayanib, ma’naviy-ma’rifiy qarashlarimizni tubdan yangilab, uzoq va davomli intilish va maqsadlarimizni ro‘yobga chiqarish, ta’lim va tarbiya sohasiga ustuvor ahamiyat qaratish zarurligi ta’kidlangan.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini tashkil etishning xuquqiy bazasi yaratilgan. “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillash-tirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi qarori[3], "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi qarori[4] ma'naviy axloqiy sifatlarni chuqur anglashga xizmat qilib kelmoqda. Keyingi paytlarda pedagoglarning ўқувчиларнинг аксиологик компетенцияларини rivojlantirish muammosiga chuqur qiziqish namoyon qilayotganliklari tasodifan emas, chunki yoshlarda ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish mamlakat ilmi fani oldidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, bugungi kunda aksiologik jarayonlar dialektikasi, aksiologik profilaktika, aksiologik prognoz, aksiologik baholash, aksiologik ekspertiza kabi ilmiy muammolar bilan bog'liq tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud. Shu jihatdan biz tadqiqotimizda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida aksiologik kompetensiyani rivojlantirishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarning uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rniga alohida urg'u berdik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022 yil 19 mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi. Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Yoshlarda aksiologik kompetensiyani rivojlantirish uchun mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish; milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash; adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish; ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish; milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish; mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish muhim bo'lib hisoblanadi.

Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida:

- ijtimoiy himoya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- ijtimoiy sug'urta tizimini yaratish, jumladan ijtimoiy sug'urta jamg'armasini tashkil etish;

- kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam va xizmatlarni ijtimoiy shartnoma asosida taqdim etish;

- «Ijtimoiy himoya yagona reestri» axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar bo'yicha alohida ma'lumotlar bazasini yaratish, jumladan «Temir daftar», «Yoshlar daftari» va «Ayollar daftari»ni «Ijtimoiy himoya yagona reestri» bilan integratsiya qilish kabilarga alohida e'tibor qaratilgan.

Insonning aksiologik kompetensiyalari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini, uning faoliyati va kechinmalari, munosabatlar sohasida ma'naviy madaniyatini tashkil etadi. Ularning xususiyatlari va vazifalari insonparvarlikni, bag'ri kenglikni, ijtimoiy adolatlilikni, ma'naviyatning asosiy kriteriyasi sifatida tan olish asosiga qurilgan. Boshqa tadbirlardan farqli ravishda, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, insonni shaxs sifatida shakllantirishda kengroq potentsialga ega. Shu sababli, ta'lim yo'nalishi insonning ma'naviy-axloqiy sifatlarini o'zgartirishni ta'lim maqsadi bilan bog'laydi.

O'quvchilarda aksiologik kompetensiyani rivojlantirish uchun, jamoatchilik va bir vaqtning o'zida sog'lom muhitni, ularda do'stlik kechinmalarini rivojlantirishni va mustahkamlashni, ularning har birida insoniylik g'ururini tan olishini, ularning ongi rivojlanishiga olib keluvchi tarbiyaviy xususiyatga ega vositalar va kompleks usullarni nazarda tutuvchi, barcha sharoitlar tashkil etilishi zarur.

O'quvchilarda aksiologik kompetensiyani rivojlantirish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar davomida ta'lim jarayonining sub'yekti bilan birgalikdagi, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatiga asoslangan pedagogik tizimda o'ta samarali natija beradi. Shu bilan birga, ushbu tizim ochiq bo'lishi kerak, ya'ni ta'lim oluvchilar faoliyatini tartibga solish maqsadida, uning natijalari o'lchov tizimi bilan ta'minlanishi zarur.

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida xam rivojlanishning mohiyati, uning sur'ati insonlarning ma'naviy kamoloti darajasiga bog'liq bo'lgan. Yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish uchun ta'lim-tarbiyaning barcha sohalarida, ularning omillari va vositalarini ishga solishni taqozo etmoqda. Mazkur dissertatsiya ishi ana shu dolzarb muammoni to'la hal qilmasa-da, uni hal qilishga intilishdan iborat.

Respublikamizning etakchi pedagog olimlari: R.H.Jo'rayev, R.G'.Safarova, X.I.Ibragimov, U.Q.Musayevlar tomonidan yaratilgan «Pedagogika fani Kontseptsiyasi»da pedagogika fani ta'lim-tarbiya darajasi hamda shaxsning ma'naviy qiyofasi, uni sotsiokorreksiya qilish yo'llari va qonuniyatlari, insonning aqliy-intellektual salohiyati orasidagi aloqadorlikni har tomonlama o'rganib, ilmiy jihatdan asoslab berishi kerakligi alohida ta'kidlangan. "Shu ma'noda ta'lim tizimining barcha

bosqichlarida, ayniqsa, umumiy oʻrta taʼlim muassasalari oʻquvchilarini axloqli va maʼrifatli qilib tarbiyalash, ularda aksiologik kompetensiyani rivojlantirishga alohida ahamiyat berilishi qonuniy va zaruriy boʻlib, uning dolzarbligi quyidagilar bilan izohlanadi:

- *birinchidan*, mamlakatimizda yangi mazmundagi taʼlim paradigmasi buyuk maʼnaviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish hamda uni barcha fuqarolarga, eng avvalo, yoshlarga singdirish davlatimiz siyosatida ustuvor yoʻnalish qilib belgilanishi, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalaridagi singari taʼlim tizimining barcha bosqichlarida, ayniqsa, umumiy oʻrta taʼlimda ham buyuk maʼnaviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish muammolarining yechimini davr taqozo etishi;

- *ikkinchidan*, davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri- maʼnaviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash, taʼlim va maorif tizimini takomillashtirish, milliy istiqlol gʻoyasi asosida maʼnaviy va ruhiy jihatdan yosh avlodni voyaga yetkazishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol yondashuv asosida talqin qilinishiga ijtimoiy zarurat tugʻilishi;

- *uchinchidan*, milliy maʼnaviyatimizni tiklash borasida davom etayotgan ishlar, xalq taʼlimining tubdan isloh qilinayotgani Oʻzbekistonda ijtimoiy faol, maʼnaviyati yetuk shaxslarni tarbiyalash, xalq xoʻjaligi, boshqaruv idoralari, fan-texnika va madaniyatning barcha sohaları uchun yetuk mutaxassislar tayyorlash imkoniyatining vujudga kelishi;

- *toʻrtinchidan*, universal texnologiyalar bilan bogʻliq globallashtirish jarayonida yoshlarda aksiologik kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni yuksak maʼnaviy axloqli qilib tarbiyalash shiddatli mafkuraviy kurashlar jarayonida amalga oshirilayotganligi. Shu jihatdan olganda mafkuraviy tizimning oʻzgarishi, ijtimoiy yangilanish maʼnaviy meroslarga yangicha yondashish, qarashni taqozo etishi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, umumiy oʻrta taʼlim maktab oʻquvchilarida aksiologik kompetentlikni rivojlantirish uchun, avvalambor, tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi va bu ijtimoiy ehtiyoj va pedagogik muammo sifatida, uning milliy va umumbashariy zaminini mustahkamlash asosida oʻquvchi-yoshlarga zamon talablari va jahon andozalari asosida bilim va maʼlumot berish bilan birga, ularda yuksak maʼnaviy madaniyat, axloq va maʼrifat fazilatlarini singdirish va tarbiyalashda mujassamlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi PF- 5106- son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
2. 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi kontsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27 son Farmoni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni/ <https://drive>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021 yil 26 martdagi PQ-5040 son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907 son qarori.
5. Гуманитарные науки, 2023, №6.-С.-23-25. // <https://cyberleninka.ru/article/n/yoshl>
6. Saidkulovich, S. B. (2023). AXIOLOGICAL APPROACH IN PROFESSIONAL EDUCATION OF STUDENTS. *British View*, 8(3).
7. Saidkulovich, S. B. (2023). CONCEPT AND STRUCTURE OF WORLD VIEW IN MODERN SOCIETY. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 8(4), 35-37.
8. Siddiqov, B. S. (2023). AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANTIRISH MAZMUNI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(8), 104-107.
9. Siddiqov, B. S. (2023). O‘QUVCHILARDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. *Молодые ученые*, 1(4), 154-158.

O‘ZBEKISTONNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISHDA HAMDA YOSH AVLODGA TA’LIM-TARBIYA BERISHDA PEDAGOGIK MAHORATNING AHAMIYATI

**Nurjonov Ulfat
Erdanov Asliddin**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonni yangi bosqichga olib chiqishda hamda yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda pedagogik mahoratning ahamiyati, inson ma’naviy kamolotiga ta’siri tahlil qilingan hamda O‘zbekistonni yangi bosqichga olib chiqish omillariga bo‘lgan ehtiyojning ortishi bilan bog‘liq masalalar ilmiy muhokama qilinganligi. Raqobatbardosh milliy kadrlarning yangi avlodini tayyorlash maqsadida yangi zamonaviy universitet tashkil etilganligi, ta’lim jarayonlariga xorijlik yetakchi olimlar va pedagoglarni jalb qilinib, yoshlarga eng zamonaviy metodologik dasturlar asosida ta’lim-tarbiya berilish haqida to‘xtalib ilmiy xulosa va takliflar berilgan.

***Kalit so‘zlar:** ta’lim-tarbiya, ilm-fan, ta’lim va tarbiya, yosh avlod, barkamollik, pedagogika, shaxs.*

ABSTRACT

This article analyzes the importance of pedagogical skills in bringing Uzbekistan to a new level and in educating the young generation, and its impact on human spiritual maturity. Scientific discussion of the issues related to the increasing need for factors to take Uzbekistan to a new stage. In order to prepare a new generation of competitive national personnel, a new modern university was established, leading foreign scientists and pedagogues were involved in the educational process, and scientific conclusions and suggestions were given.

***Key words:** education, science, education and upbringing, young generation, perfection, pedagogy, personality.*

KIRISH

Bugungi kunda jahonda ta’lim hamda ilm-fanga alohida e’tibor qaratilmoqda, chunki taraqqiyotning asosiy o‘zaglaridan biri hisoblanadi. Mustaqillikka erishgan O‘zbekiston olimlari xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-ma’rifiy aloqalar o‘rnata boshladilar. Natijada yurtimizga ilg‘or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. Bular qatorida, jahondagi progressiv PT degan tushunchalar ham kirib, pedagogik jamoatchiligimiz fikrini chulg‘ab oldi. Oxirgi yillarda, Rossiya bilan O‘zbekistonda PTni o‘rganish yo‘lida ancha ishlar qilindi. Shu

16 jumladan, O‘zbekiston olimlari bilan hamdo‘stlik davlatlari o‘rtasida ham PTlarning loyihalarini tuzish bo‘yicha ancha ishlar qilindi. O‘zining mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘lini tanlab olgan O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim sohasini ham sobitqadamlik bilan isloh qilib bormoqda. Ayniqsa, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilingach, bu boradagi ishlar keng ko‘lamga erishdi. Ushbu hujjatlarning talablari asosida bilim va kasb-hunar egallashga bo‘lgan e‘tibor kuchayib ketdi. Shu tufayli ta‘lim-tarbiya tizimiga yangicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar kirib kela boshladi. Bu yondashuvlar, o‘z navbatida, o‘quv jarayonining turli tashkiliy va metodik jamg‘armalarida muayyan ijobiy o‘zgarishlarni sodir etadi, albatta. Ularning juda ko‘pchiligi pedagogik texnologiyalar (PT) va pedagogik mahorat (PM) bilan uzviy bog‘liq o‘zgarishlardir. O‘quv faoliyati, bu – keng ma‘noda inson faoliyatining muayyan maqsadlar yo‘nalishida namoyon bo‘lishidir. Bu faoliyat faqat insoniyat jamiyatida amalga oshirilishi sababli, u nafaqat har bir insonning, balki butun jamiyatning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘quv faoliyati insonning ongli va maqsadli mehnati bo‘lib, u shaxsga ta‘lim berish, uni tarbiyalash va uning rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayonning mohiyati inson tomonidan to‘plangan tajriba, bilimlar, malaka va ko‘nikmalarni o‘sib kelayotgan avlodga berishdan iborat. O‘quv faoliyati insonning individual rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda bolalikdan boshlab, to‘ulg‘aygan davrigacha mavjud bo‘ladi. Shuning uchun tarixiy ijtimoiy hodisa hisoblanmish o‘quv jarayoni o‘z rivojlanish tarixiga ega. Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so‘z ketganda «Yangi O‘zbekiston» iborasi takror-takror tilga olinmoqda. Bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e‘tirofi, jahon hamjamiyatining yurtimizga jiddiy e‘tiboridir. Chunki bizga mustaqillik g‘oyasi, istiqlol ruhi tog‘dek tayanch bo‘lmoqda. Bizni ilg‘or niyatlar, buyuk maqsadlar, ulkan marralar yo‘lida adashmaslikka undamoqda, tanlagan yo‘limiz to‘g‘riligiga inontirmoqda. Qaysi sohani olmaylik, qaysi jabhaga nazar solmaylik, ilgari surilayotgan xalq tashabbusi albatta qo‘llab-quvvatlanmoqda, sharoit yaratilmoqda, investitsiya kiritilmoqda, rag‘batlantirilmoqda, bir so‘z bilan aytganda, xalqning roziligi yo‘lida tinmay izlanmoqda. Zero, iqtisodiyotni siyosatdan, ma‘naviyatni ta‘lim-tarbiyadan ayro ko‘rib bo‘lmaganidek, «xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir

uygʻonish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat boʻladi. Chunki bugungi Oʻzbekiston – kechagi Oʻzbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas», deydi davlat rahbari.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning har bir chiqishlari, maʼruzalari va nutqlarini biz ziyolilar doimo intiqlik bilan kutamiz. Buning sababi nimada? Eng avvalo bu chiqishlarda yangi fikrlar, yangi gʻoyalar, taraqqiyotimizni belgilaydigan ustuvor yoʻnalishlar, Oʻzbekistonni yangi bosqichga olib chiqish omillari, shu bilan bir qatorda rivojlanishimizga gʻov boʻlayotgan holatlar, mavjud muammolarni hal qilishning nostandart yechimlari aniq, ravon, sodda tilda ifodalab beriladi. Misol sifatida mustaqilligimizning 29 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi[1], BMT Bosh assambleyasining 75-sessiyasidagi[2], Konstitusiyamizning 28 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi, Oʻzbekiston Yoshlari forumidagi nutqlari va nihoyat Oliy majlisga qilgan Murojaatnomani keltirish mumkin[3]. Eng muhimi - barcha maʼruzalardagi markaziy masala bu - xalqimizning turmush darajasi, farovonligini oshirish, Oʻzbekiston xalqiga munosib turmush sharoitini yaratish. Sobiq Ittifoq davrida shunday shior boʻlardi: ”Bizdan keyingi avlod albatta kommunistik yashaydi”, yaʼni, baxtli hayot faqat kelajakda boʻladi, degani. Muhtaram Prezidentimiz esa xalqimiz ertaga, indinga, kelajakda emas, bugun baxtli hayot kechirishga munosib, degan gʻoyani doimo ilgari suradilar. Shu oʻrinda mashhur donishmand Konfusiyning quyidagi xikmatini keltirmoqchiman: “Hukmdor xalqni oʻz farzandidek sevishi, fuqarolar esa hukmdorni oʻz otasidek hurmat qilib, eʼzozlashi lozim”.

Murojaatnomada ustuvor yoʻnalish sifatida taʼlim-tarbiya sohasiga alohida urgʻu berildi. Chunki har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini taʼminlaydigan yosh avlodning sogʻlom va barkamol boʻlib voyaga yetishi hal qiluvchi oʻrin tutadi. Shu maqsadda “Yangi Oʻzbekiston – maktab ostonasidan, taʼlim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan gʻoya asosida keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu oʻrinda bir narsaga eʼtiboringizni qaratmoqchi edim. Biz qachonki taʼlim toʻgʻrisida gapirsak, albatta tarbiyani ham qoʻshib aytamiz. Sababi taʼlim va tarbiya yagona, uzviy jarayon. Taʼlim bor joyda, albatta tarbiya ham boʻladi. Lekin bu masalada boshqacha qarashlar ham bor. Yaʼni tarbiya oilada beriladi, taʼlim muassasalarida esa faqat taʼlim berish kerak, degan. Mening fikrimcha, maktab, litsey, texnikum, universitet oʻqituvchisimi, shu bilan birga u ham tarbiyachidir. Nafaqat taʼlim dargoxida, balki mahallada ham, oilada ham. Chunki azal-azaldan qishloqda ham, mahallada ham oʻqituvchiga munosabat, eʼtibor boshqacha boʻlgan. Ziyoli inson sifatida uning fikrlariga quloq solishgan.

Davlatimiz rahbari “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”da so‘zlagan nutqlarida shunday ta’kidladilar: “Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz. Men ishonaman – hurmatli ota-onalar bu tashabbusni albatta qo‘llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo‘ladilar”.

O‘zbekiston Prezidenti tomonidan Murojaatnomada keltirilgan quyidagi vazifalar professor-o‘qituvchilar jamoasi uchun ta’lim-tarbiya sohasida tub o‘zgarishlarni amalga oshirishdek ulkan mas’uliyat yuklaydi: “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Buning uchun eng avvalo yosh avlodga bog‘cha, maktab va oliygohda sifatli ta’lim-tarbiya berishni yo‘lga qo‘yamiz”.

Murojaatnomada bola tug‘ilganidan to 30 yoshgacha bo‘lgan davrda uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishi uchun ko‘mak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratilishi zarurligi ta’kidlanadi. Chunki dunyo tajribasidan ma’lumki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o‘n, yuz barobar ko‘p foyda keltiradi.

So‘nggi yillarda milliy ta’lim tizimida sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu o‘zgarishlarni quyidagilarda ko‘rish mumkin.

1. Maktabgacha ta’lim tizimi tubdan o‘zgarimoqda. Aloxida vazirlik tashkil qilindi. Ilgari maktabgacha ta’lim muassasalari Xalq ta’limi vazirligi tasavvurida edi. Ushbu vazirlik respublikamizdagi eng katta vazirlik hisoblanardi. Bolalar bog‘chalari, 10 mingga yaqin maktab, pedinstitutlar, pedkollejlari va x.z. Maktabgacha ta’lim qamrovi taxminan 17-18 foizni tashkil qilardi. 2021 yil yakuni bilan maktabgacha ta’lim qamrovi 65 foizga, 2023 yil oxirida esa 75 foizga yetkazilishi, qo‘shimcha 2 mingta nodavlat bog‘cha tashkil etilib, xususiy sektor ulushi 25 foizga yetkazilishi kutilmoqda.

2. Maktab ta’limini tubdan yaxshilash uchun 2021 yili 30 ta yangi maktab qurilishi, 320 ta maktabni ta’mir va moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida byudjetdan 2 trillion so‘m ajratilishi reja qilingan. Ta’lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o‘quv dasturlari, o‘qituvchi va domlalar uchun uslubiy qo‘llanmalarni ilg‘or xalqaro mezonlarga moslashtirish ishlari bajariladi.

Murojaatnomada bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish zarurligiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu borada kelgusi o'quv yilida boshlang'ich sinflarda davlat ta'lim standarti o'rniga, ilg'or xorijiy tajriba asosida, bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan "Milliy o'quv dasturi" joriy etiladi. Umumta'lim maktablaridagi ta'lim sifati poytaxtda ham, olis qishloqlarda ham yuqori bo'lishi ta'minlanadi. Boshqa tumandagi olis maktabga borib, dars beradigan o'qituvchilar oyligiga 50 foiz, boshqa viloyatga borib ishlasa – 100 foiz ustama haq to'lanashi ko'zda tutilgan. 2021 yilda 10 ta Prezident maktabi, kimyo-biologiya, matematika, axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan 197 ta maktab o'z faoliyatini boshlaydi.

Raqobatbardosh milliy kadrlarning yangi avlodini tayyorlash maqsadida Toshkent shahrida yangi zamonaviy universitet tashkil etiladi. Mazkur universitetda xorijlik yetakchi olimlar va professor-o'qituvchilar jalb qilinib, yoshlarga eng zamonaviy dasturlar asosida ta'lim-tarbiya beriladi.

3. Oliy ta'limning qamrovi va sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. 2021 yildan boshlab oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshiriladi. OTMga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingga yetkazamiz. Kirish testlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar talabaga 4 yil mobaynida Prezident stipendiyasi beriladi[3]. «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyalari uchun 1993-2003 yillarda o'tkazilgan tanlov natijalarida 55 aspirant va 20 talaba-magistrantlar Prezident Davlat stipendiyalariga sazovor bo'ldilar. 2004 yil 16 mart kuni O'zbekiston Respublikasining Davlat stipendiantlari seminar – ko'rgazmasi tashkil etildi va o'tkazildi». 2005 yil 7 mayda Toshkentda Konfusiy instituti ochildi. O'zb.Resp. Prezidentining 2007 yil 5-sentyabr qaroriga muvofiq Singapur menejmentni rivojlantirish instituti tashkil etildi. 2003 – yil 1-iyuldan "Iste'dod" jamg'armasi o'z faoliyatini boshladi. Ta'lim soxasiga sarflanayotgan xarajatlar ulushi Ya.I.M. – tarkibida 12% ni tashkil etmoqda. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida bu ko'rsatkich 3-5% dan oshmaydi. Bugungi kunda birgina o'rta-maxsus va kasb-xunar ta'limida turli soxa va yo'nalishlar bo'yicha 840 mingga yaqin zamonaviy bilim va kasbni egallagan yuqori malakali kadrlar tayyorlanganligi bu soxada ijobiy ma'nodagi "portlash effekti" ro'y bera boshlaganidan dalolatdir.

Bugungi kunda Oliy va o'rta-maxsus o'quv yurtlari hamda umumta'lim maktablari huzurida 1187 ta axborot –resurs markazlari mavjud bo'lib, ularda o'zbek, qoraqalpoq, rus va boshqa tillardagi 15 mln. Nusxadan ortiq darslik, o'quv.-usl., badiiy, texnikaviy va ma'lumotnoma yo'sinidagi kitobi bo'lgan 15276 ta kutubxonani birlashtirgan. Ularning 13 mln.ga yaqin kitobxonlari bor. Bu borada 2006 yil 20

iyundagi O‘zbekiston Prezidentining “Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta’minlashni tashkil etish to‘g‘risidagi” qarori diqqatga sazovordir. 2002 – yilda mamlakatimizda Internet tizimidan 136 ming kishi foydalangan bo‘lsa, 2007 yilga kelib bu ko‘rsatkich 2 mln.ga yetdi. “UZ” domen zonasidagi veb-saxifalar soni o‘n karra ko‘payib, 4,5 mingdan ortiqni tashkil qildi. 2004-2009 yillarga mo‘ljallangan “Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy Dasturining” xayotga tadbiiq etilishi ta’lim sifati va mazmun – mohiyatini tubdan yaxshilash imkonini berdi. “Ushbu dasturga muvofiq, yurtimizda mavjud bo‘lgan o‘n mingga yaqin umumta’lim maktabining modiy-texnik bazasini mustaxkamlash, ta’lim jarayonining mazmsunini tubdan takomillashtirish, o‘qituvchilarning mexnatini modiy va ma’naviy rag‘batlantirish bo‘yicha katta ishlar qilinmoqda”.

Bozor munosabatlari qonuniyatlariga ko‘ra, mahsulotning sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillardan biri bu raqobatdir. Mamlakatimizda turli sohalarda, jumladan, qishloq xo‘jaligi, qurilish, sanoat, tibbiyot, farmatsevtika va xokazo sohalarda davlat-xususiy sherikchiligi joriy qilingani holda ta’lim tizimida mavjud emas edi. Endi esa maktabgacha ta’lim, o‘rta ta’lim, oliy ta’limda ham sog‘lom raqobat muhiti yaratilmoqda. Xususiy bog‘cha, maktab, universitetlar tashkil qilinmoqda. Davlat-xususiy sherikchilik asosida Qo‘qon nodavlat universiteti, “Tashkent International University” xalqaro universiteti, Britaniya menejment universiteti, TEAM universiteti, Akfa universiteti kabi nodavlat oliy ta’lim muassasalari tashkil etildi .

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkin yoshlarimizda tanlash imkoniyatini paydo qilish orqali ilm-fanga muhabattini uyg‘otish, tabiiy ravishda ta’lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantiradi. OTM moliyaviy tomondan mustaqil bo‘layotganini e’tiborga olsak, endi ular o‘rtasida ko‘proq yoshlarni jalb qilish uchun amaliy harakatlar olib boriladi. Bu esa ta’limga o‘zgacha rukn beriladi deb xisoblayman.

REFERENCES

1. SH.Mirziyoyev.O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan nutqi. //Xalq so‘zi №186 son.2020.
2. O‘zbekiston Prezidenti SH.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi // <https://president.uz/uz/lists/view/3851>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.2020 yil 29 dekabr <https://www.youtube.com>

BO‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT O‘QITUVCHILARIDA VALEOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Yuldashev Ma‘mirjon Mamajonovich

Farg‘ona davlat universiteti jismoniy madaniyat
nazariyasi va uslubiyoti kafedrasida katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va valeologik madaniyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘qitish prinsiplari haqida batafsil so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: valeologiya, madaniyat, valeologik madaniyat, turmush tarzi, gigiyenik tarbiya, sog‘liqni saqlash.

ABSTRACT

This article describes in detail the pedagogical conditions for the development of valeological culture in future physical culture teachers and the principles of teaching in the educational process aimed at the development of valeological culture.

Key words: valeology, culture, valeological culture, lifestyle, hygienic education, health care.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunida sog‘lom avlodni tarbiyalashga xizmat qiluvchi muhim shart–sharoitlarini yaratish, “Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun jismoniy shaxslar madaniy – estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarida darsdan tashqari ta‘lim muassasalarini tashkil etish”, shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish borasida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan:

o‘quv – tarbiya jarayonining sog‘lomlashtirishga qaratilgan amaliy harakatlarni tashkil etish, sog‘lom turmush madaniyati meyorlarini ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratish;

ta‘lim oluvchilarning tibbiy – gigiyenik madaniyatini oshirish, ularning jismoniy tarbiya va sport borasidagi faolliklarini kuchaytirish hamda jismoniy kamolot darajasini oshirish yo‘lida tashkiliy uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish. Mazkur

yo‘nalishlarning belgilab derilishi sog‘lom avlodni voyaga yetkazish muammosining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligining isbotidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu muammoning ijobiy yechim topishida, oliy o‘quv yurtlari talabarlari sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishda quyidagi obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarining yaratilishi muhim ahamiyatga ega:

A) subyektiv shart – sharoitlar; jamiyatda valeologik madaniyatni shakllantirish muammosining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi;

talabalarda valeologik madaniyatni rivojlantirish jarayoniga ijtimoiy jamoatchilikning jalb etilganligi;

talabalar o‘rtasida valeologik madaniyatni targ‘ib etish ishiga mas‘ul bo‘lgan shaxslar – ota-ona, pedagog hamda jamoat tashkilotlari vakillarining bu borada muayyan bilimlarga ega ekanliklari;

bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining valeologik madaniyati va uning mohiyati xususidagi bilimlarni o‘zlashtirganligi;

ulara valeologik madaniyat ko‘nikmalarini hosil qilishga bo‘lgan qiziqish va ichki intilishning mavjudligi;

ommaviy axborot vositalari sahifalarida jamiyatda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish muammosining keng ko‘lamda izchil, shuningdek, samarali yoritib berilayotganligi va hokazolar;

B) obyektiv shart – sharoitlar;

jamiyatda valeologik madaniyatni qaror toptirishga oid mavzularda yaratilgan manbalar (ilmiy) ilmiy – ommabop, ommabop va metodik adabiyotlar, darslik, qo‘llanma, tavsiyanoma hamda ko‘rgazmali qurollarning mavjudligi;

bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat jarayonining axborot va texnik vositalar bilan yetarli darajada ta‘minlanganligi va hokazolar.

Oliy o‘quv yurtlari talabalarida valeologik madaniyatni rivojlantirish yuqorida qayd etib o‘tilganidek, murakkab jarayondir. Valeologik madaniyati mazmunida ijtimoiy, tibbiy, psixologik va pedagogik jihatlarning bir butun, yaxlitlikda namoyon bo‘lishi ana shu murakkablikni asoslovchi dalildir. Oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari tomonidan bu borada olib boriladigan faoliyat bir tomonlama xususiyat kasb etishi shubhasiz. Shu bois, talabalar o‘rtasida valeologik madaniyatni rivojlantirishga mas‘ul, ayni vaqtda tibbiy, psixologik va pedagogik bilimlardan to‘laqonli ravishda xabardor bo‘lgan, kadrlarni mazkur jarayonga tayyorlash ehtiyoji yuzaga keladi.

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirish negizida pedagog xodimlarni salomatlikka doir ko'nikmalari bilan qurollantirishda, qator an'anaviy o'qitish usullari bilan birgalikda hozirgi kunda omma o'rtasida keng tarqalayotgan treninglarni o'tkazish asosida ularni talaba – yoshlarda valeologik madaniyatni rivojlantirishga pedagogik tayyorgarlikni oshirish kutilgan samarani berdi.

Darsdan tashqari ta'lim – tarbiya jarayonida oliy o'quv yurtlari talabalarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda quyidagi pedagogik hamda tashkiliy ishlar amalga oshiriladi. Unga ko'ra, pedagogik shart – sharoitlar mazmuni quyidagicha yoritiladi:

Metodlar:

1) og'zaki metod, uning mazmunini ifodalovchi quyidagi shakllarda o'z aksini topadi: ma'ruza, nazariy seminar; konferensiya (atrof – muhit muhofazasi, inson salomatligi, shuningdek, shaxsning kamolotiga yetishiga mas'ul bo'lgan mutaxassislarni jalb etgan holda);

2) ko'rgazmali metod mazmunini ifodalovchi shakllar – sog'lom turmush madaniyati mazmunini ifodalovchi slayd, buklet, plakat va boshqa didaktik materiallar to'plami; video – syujet (sport, yuqumli kasalliklar va ekologiya)lar va hokazolar.

3) amaliy metodlar mazmunini ifodalovchi shakllarda esa: audio va video trening mashg'ulotlari; rasmlar tanlovi, ta'lim – tarbiya jarayonida jismoniy mehnatning kichik elementlaridan mashqlar qilish; “Agar valeologik madaniyatni rivojlantirishni murakkab deb bilsangiz, u holda o'ylab ko'ring, nosog'lom turmush madaniyatini narxi qancha turadi?!” tamoyili asosida uyushtirilgan kecha va musobaqalar; uchrashuv (tibbiyot xodimlari, psixolog, pedagog, yoshlar ittifoqi vakillari, ijtimoiy tashkilotlarning a'zolari, mahalla fuqarolar yig'inlari, yong'in va yo'l harakati xavfsizligi bo'limlarining mutaxassislari va boshqalar ishtirokida); ekspeditsiya ekologik xavf unsurlari (ko'rinishlari) mavjud bo'lgan hududlarda bo'lish, ekologik o'zgarishlarning sodir bo'lish sabablari va oqibatlari haqida bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining nazariy bilimlarini boyitish;

Vositalar:

jonli nutq; shaxsiy namuna ko'rsatish (ota – onalar, fan o'qituvchilari, tibbiyot xodimlari, mahalla faollari, yetuk sportchilar, bolalar ijtimoiy tashkilotining yetakchi va liderlari; badiiy adabiyotlar, ilmiy, ilmiy – ommabop va ommabop asarlari, o'quv manbalari (darslik, o'quv dasturi va qo'llanmalari); illyustrativ materiallar – rasm, buklet, plakat, syujet, slayd va boshqalar; tabiiy xom - ashyolar (tuproq namunalari) ular ekologik xavf mohiyatini yoritish uchun xizmat qiladi, sport buyumlari, turli

jihozlar va hokazolar; ommaviy axborot vositalari sahifalarida berilayotgan maqola, teleko'rsatuv va radio eshinishlar statistik ma'lumotlar; texnik (kodoskop) va axborotli texnologiya (kompyuter) vositalari; masofadan turib o'qitiladigan darslar uchun o'quv materiallari va boshqalar.

Yuqoridagi ta'lim – tarbiyaning muayyan shakl, metod hamda vositalari yordamida bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirish quyidagi ishlarning amalga oshirilish lozimligini taqozo etadi:

pedagogik kadrlarni tayyorligini oshirish; oila, institut, mahalla, ijtimoiy tashkilotlar sog'likni saqlash, yong'indan saqlash, huquqni himoya qilish organlari, yoshlar tashkiloti hamkorligini yuksaltirish;

valeologik madaniyatining mazmuni va bilimlar majmui (o'quv va qo'shimcha to'ldiruvchi materiallar va b.)ni ishlab chiqish;

valeologik madaniyat yuzasidan zamonaviy axborot texnologiyalari bilan qurollangan o'quv qo'llanmalari va ko'rgazmali o'qitish vositalarini yaratish va talabalarni ta'minlash.

bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonida o'qitishning quyidagi prinsiplariga tayanildi:

- oddiydan murakkabga – valeologik madaniyat tushunchasining o'zi keng qamrovli ibora bo'lib, bir necha omillardan iborat. Har bir mezonni xususida talabalarda ko'nikmalar hosil qilish natijasida valeologik madaniyat haqida ongida valeologik madaniyat piramidasi vujudga keltiriladi, ya'ni ularda valeologik madaniyatga oid oddiy tushunchalardan boshlab, o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida muayyan tizimli yaxlit tasavvur hosil qilinadi;

- mavzular orasidagi uzviylik va izchillik – valeologik madaniyati talabalar ongiga singdirishda uzviylik va uzliksizlik tamoyiliga rioya qilingan taqdirdagina ko'zlagan maqsadga erishish mumkin;

- shaxsni shakllantirishda onglilik – tadqiqot ishimizning bosh maqsadi valeologik madaniyati tushunchalarini bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilaridaning ongiga singdirish. Zero, talabalar ongli ravishda o'z turmush madaniyatini tanlay olmas ekan, muammo o'z yechimini qidiraveradi;

- fanlararo aloqadorlik – valeologik madaniyati tushunchasini ifoda etadigan omillar shartli ravishda tibbiyot, jismoniy tarbiya, psixologiya, ekalogiya, gigiyena, mehnat, etika, estetika va boshqa fanlar bilan uzviy bog'langan holda talabalarga ko'nikmalar hosil qilinsa, birinchidan, ularda yaxlit tasavvur hosil bo'ladi, ikkinchidan talabalarni o'qitish jarayoniga kompleks yondoshishga undaydi;

- o‘qitishda faollik – o‘qitish jarayonida trening o‘tkazish talabalarni guruhda faol bo‘lish, erkin fikr yuritish va o‘z qarashlarini ifodalay olishga chorlaydi;
- ta‘lim – tarbiyaning birligi – mazkur tamoil ajralmas pedagogik qonuniyat bo‘lib, ushbu qonuniyat asosida olib borilgan sog‘lom turmush madaniyatini talabalar ongiga singdirishdagi faoliyatimiz xususida dissertatsiya ishining yuqoridagi bandida batafsil fikr yuritilgan;
- o‘qitishda ilmiylik – bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida qo‘llagan referat yozish, katalog bo‘yicha ishlash, internet saytlarida ushbu mavzuga doir materiallar berish va hokazolar orqali ularning jahon miqyosidagi axborot tarmoqlari bilan ishlash, motivatsiyalarini kuchaytirish, qo‘llagan ayrim metodlar yordamida ilmiy dunyoqarashining kengaytirishga yordam beradi;
- ko‘rgazmalilik – o‘qitishda ko‘rgazmali usuldan foydalanishning samarasi katta. Yuqorida qayd etganimizdek, tadqiqot ishimiz mobaynida “Valeologik madaniyat” blokli ko‘rgazmali qurol shuningdek, kichik ko‘rgazma materiallarini ishlab chiqishga erishildi;
- ta‘limda tabaqalashtirish – bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining imkoniyati, qobiliyati, bilimni o‘zlashtirish darajalari, istaklariga ko‘ra valeologik madaniyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim – tarbiya jarayonida ularga tabaqalashtirilgan yondashuv asosida ushbu sohadan bilimlarni berish o‘zining kutilgan natijalarini beradi. Mazkur harakat bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining o‘qishga bo‘lgan faolligini kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, shaxsiy erkinligini ta‘minlaydi. Bu esa o‘z navbatida talabaning o‘z nuqtai nazari, bilimlarini to‘la namoyon etishga imkon beradi;
- o‘qitishda aqliy fikrlashga yo‘naltirish – bu tamoyil asosida sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim – tarbiya jarayoni.
- bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilari mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Bizning pedagogik faoliyatimiz jarayonida tayyorlagan tajriba – sinov materiallarimiz ushbu tamoyilga asoslangan holda tanlandi. Bu sohada ko‘zda tutilgan samaradorlikka erishilganligi ishning so‘nggi bandida asoslab berilgan;
- ta‘limda axborot texnologiyalarini qo‘llash - bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining valeologik madaniyati sohasidagi nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirishga erishilsa, ikkinchi tomondan, uzluksiz ta‘lim tizimida yangi zamonaviy o‘quv adabiyotlarini yaratish, ya‘ni, valeologik madaniyatni rivojlanlantirishning multimediali elektron qo‘llanmasini yaratish – davr talabidir;

• bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining o'z kuchiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish – bu tamoiylga amal qilish har qanday ko'zlagan maqsadga erishishdagi muhim omildir. Shu bois, biz valeologik madaniyatning masalan, faol – harakat borasidagi omiliga to'xtalamiz, Respublikamizdagi yetuk sportchilarimizning erishgan yutuqlaridan namuna keltirish va hokazolar orqali ularning o'zligini anglashlariga turtki berib, bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytirishga harakat qilamiz. Zero, ushbu ishonch uning kelgusida yetuk sportchi yoki biron – bir kasb egasi, qisqasi, sog'lom shaxs bo'lib yetishishida asos bo'ladi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan vazifalarni samarali hal etishda ta'lim muassasasi xodimlari quyidagilarga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiq deb topildi:

- faoliyatning izchil va puxa bo'lishini ta'minlash;
- faoliyat jarayonida intizom talablariga rioya qilish;
- eksperimentator o'qituvchilarni ma'naviy hamda metodik jihatdan qo'llab – quvvatlash;
- sinov jarayonida ota – onalar bilan hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish;
- bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirish borasidagi jahon tajribalariga tayanib ish ko'rish;
- bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda mutafakkirlar qoldirgan meros – buyuk manbalarda sog'lom turmush madaniyatiga oid bildirgan qarash va nasihatlaridan keng ko'lamda foydalanish;
- bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalari xizmatidan samarali foydalanish;
- texnik vositalardan keng ko'lamda foydalanish.

Valeologik madaniyatni bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilari ongiga singdirishda ko'rgazmali qurollar asosiy o'qitish vositasi hisoblanadi. Shu bois ilmiy tadqiqot ishini olib borish jarayonida ko'rgazmali qurollarga alohida e'tiborni qaratdik. quyida ushbu vositaning mohiyati borasidagi fikrlarni bayon etamiz. Ko'rgazmali qurolida valeologik madaniyatning mazmuni, nosog'lom turmush madaniyatining belgilari va sog'lom turmush kechirish uchun zarur talablar aks ettirilgan. Ko'rgazmali qurolning aynan ushbu ko'rinishda bo'lishidan asosiy maqsad: talabalarning diqqatini o'ziga torta olish;

bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilari tomonidan valeologik madaniyat mohiyatining to'laqonli o'zlashtirilishiga erishish;

bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida fanga bo'lgan qiziqishni uyg'ota olish;

bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida tasavvurini boyitish, tassavurini kuchaytirish;

bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarning amaliyotda qo'llay olishlariga turtki berishdan iborat.

Ko'rgazmali vositaning eng ta'sirchan jihati – har bir bo'lakning rasmi alohida ishlanganligidadir. O'qituvchi har bir omil haqida tushuntirish ishlarini olib borish mobaynida o'ziga tegishli bo'lgan qismini ajratib olib, talabalarga ko'rsatishi mumkin. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilaridan valeologik madaniyati borasidagi nazariy bilimlar bilan qurollantirish, ularni ma'naviy tarbiyalanganlik darajasini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni/ Qonunlar hujjatlari to'plami,-T; 2020 yil 23 sentabr O'RQ- 637 sonli Qarori.
2. Mampirjan, Y. (2022). DEVELOPMENT OF VALEOLOGIC PHYSICAL CULTURE OF FUTURE TEACHERS OF PHYSICAL CULTURE. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 8, 57-62.
3. Юлдашев, М. (2023). ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ ЎҚИТУВЧИЛАРИДА ВАЛЕОЛОГИК МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(18), 1172-1177.

ИМПОРТ-ЭКСПОРТ МУНОСАБАТЛАРИ МАМЛАКАТ ТАШҚИ- ИҚТИСОДИЙ АЛОҚАЛАРИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ БОШ ОМИЛИ

Ҳилола Шарипова

Тошкент давлат юридик университети
ўқитувчиси, юридик фанлар бўйича
фалсафа доктори (PhD)

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада импорт-экспорт муносабатлари мамлакат ташқи-иқтисодий алоқалари ривожланишининг бош омиллари ёритиб берилган. Маълумки, бугунги кунда савдо профицити иқтисодий ўсишга ёрдам беради. Кўпроқ экспорт деганда, фабрика ва ишлаб чиқариш объектларидан кўпроқ маҳсулот ишлаб чиқарилиши, шунингдек, ушбу фабрикаларнинг ишлашини таъминлаш учун иш билан банд бўлганларнинг сони кўнайиши тушунилади. Экспортдан тушган тушум, шунингдек, мамлакатга истеъмол харажатларини рағбатлантирувчи ва иқтисодий ўсишга ёрдам берадиган маблағлар оқимини англади. Импорт мамлакатдан пулларнинг чиқиб кетишини англади, чунки бу маҳаллий компаниялар (импортчилар) томонидан чет эл корхоналарига (экспорт қилувчиларга) тўланадиган тўловлар ҳақида ҳам қисқача ёритиб ўтилган.

Калит сўзлар: *Экспорт, акциядорлик жамиятлари, савдо профицити, импорт, кичик бизнес, хусусий мулк, бозор иқтисодиёти.*

ABSTRACT

In this article, import-export relations are the main factors of the development of foreign economic relations of the country. It is well known that today trade surplus helps economic growth. More exports mean more output from factories and production facilities, as well as more people employed to keep those factories running. Export earnings also represent an inflow of funds into a country that stimulates consumer spending and promotes economic growth. Import refers to the outflow of money from a country, as it is also briefly explained in terms of payments made by domestic companies (importers) to foreign companies (exporters).

Key words: *Export, joint-stock companies, trade surplus, import, small business, private property, market economy.*

КИРИШ

Ҳозирги кунда мамлакатимизда ташқи савдо алоқаларининг самарадорлигини янада ошириш, ташқи савдони либераллаштириш, экспорт

салоҳиятини мустаҳкамлаш ҳамда рақобатбардош маҳаллий маҳсулотларни ташқи бозорларга чиқариш тизимини такомиллаштириш, маҳсулот ишлаб чиқарувчи корхоналар билан хорижий шериклар ўртасида савдо соҳасида узок муддатли барқарор шериклик муносабатларини шакллантириш долзарб аҳамият касб этмоқда.

Албатта, иқтисодиётнинг либераллаштирилиши унинг хорижий инвесторлар учун янада мақбуллаштирилиши, импорт-экспорт муносабатларини ҳуқуқий тартибга солиш тўғрисидаги масалани кўндаланг қўймоқда. Бу ҳолат бир томондан хорижий капитал киритиш ҳисобидан мамлакат иқтисодий ривожланиш имкониятларини кенгайтириши ва иккинчи томондан тегишли давлат иқтисодиётини импорт-экспорт муносабатларига боғланиб қолмаслигига эришишни таъминловчи қонунчилик базасини шакллантиришни тақозо этади. Бунда импорт-экспорт муносабатлари соҳасидаги миллий қонунчилик халқаро хусусий қонунчилик билан мувофиқликда шаклланиши зарур.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Таъкидлаш лозимки, импорт-экспорт муносабатларини ривожлантириш, хорижий инвесторлар учун алоҳида қулайликларга эга, солиқ, божхона, валюта, тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш учун имтиёзлар ва кафолатлар тизимидан иборат махсус ва алоҳида тартиботни жорий этади ва шу орқали Ўзбекистоннинг инвестиция жозибадорлигини оширади.¹⁷

Иқтисодиётни либераллаштириш 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини амалга оширишнинг муҳим шартларидан биридир. Стратегиянинг «Иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришнинг устувор йўналишлари» бобида хусусий мулк ҳуқуқи ва кафолатларини ҳимоя қилиш, хусусий тадбиркорлик ва кичик бизнесга тўлиқ эркинлик бериш, улар фаолиятига давлат идораларининг ноқонуний аралашувига йўл қўймаслик, давлат мулкани хусусийлаштиришни янада кенгайтириш, хўжалик юритувчи субъектларнинг устав жамғармаларида давлат иштирокини камайтириш, давлат мулки хусусийлаштирилган объектлар базасида хусусий тадбиркорликни ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш, мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш жараёнларида давлатнинг иштирокини камайтириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилган.

¹⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғриси”даги ПФ-4947-сон Фармони, 2017 йил 7 февраль.

Мамлакатимизда бозор иқтисодиётига ўтиш ва бозор муносабатларини чуқурлаштириш жараёнида либераллаштириш, ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ҳаётнинг барча жабҳаларини демократлаштириш, миллий хўжаликда таркибий ўзгаришларни жадаллаштириш макроиқтисодий мутаносибликнинг асосий ҳаракатлантирувчи кучи бўлиб келаётир. Либераллаштириш тамойиллари туфайли қатор йиллар мобайнида мамлакатимизда иқтисодий ўсиш барқарор турибди.

Ўзбекистонда иқтисодиётни либераллаштириш корхоналарни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш, монополиядан чиқариш ва рақобатни ривожлантириш, миллий иқтисодиётнинг барча соҳаларида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни кенг кўламда ривожлантириш орқали амалга оширилмоқда. Либераллаштириш узлуксиз, доимий жараён сифатида бундан кейин такомиллашиб бораверади. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик, оила тадбиркорлигини ривожлантириш, «Ҳар бир оила - тадбиркор» Дастурини изчил амалга ошириш унинг кафолати бўла олади.

Ўзбекистонда бозор муносабатларига ўтишнинг илк босқичида чакана савдо ва умумий овқатланиш шаҳобчалари, уй-жой ва маиший хизмат объектлари хусусий қўлларга сотилди, имтиёзли ва текин берилди. Мақсад аҳолида бозор кўникмаларини ҳосил қилиш ва мустаҳкамлаш эди. Иккинчи ва учинчи босқичларда ўрта ва йирик корхоналар давлат тасарруфидан чиқарилди. Натижада акциядорлик жамиятлари, давлат улуши бўлган компаниялар, уюшмалар юзага келди.¹⁸

Бозор қанчалик мукаммал восита бўлмасин, барча муаммоларни ҳал этишга қодир эмас. У давлат аралашувисиз иқтисодий мувозанатни таъминлай олмайди. 2007-2008 йилларда бошланган глобал молиявий иқтисодий инқироз сабоқлари буни яққол кўрсатди. Бозор ўзича барчага баробар фоиз ставкаси, баҳо ва даромадлар механизмини ярата олмайди. Истеъмол ва жамғариш ўртасидаги нисбатни сақлаш микродаражада давлат иштироки ва назорати билангина таъминланиши мумкин. Худди мана шу икки нарсада ишлаб чиқариш ва аҳоли даромадларини ўстиришнинг беқиёс имконияти мужассам.

Босқичма-босқич эркинлаштириб бориш ўтиш даврининг ўзидаёқ ўзининг ижобий натижаларини бера бошлади. 90-йиллар ўрталарига келиб ялпи sanoat маҳсулоти, кейин эса ялпи ички маҳсулот ишлаб чиқариш бозор ислохотларидан олдинги даражада тикланди. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози йилларида ҳам иқтисодиётда ўсиш давом этди. Ислохотларни

¹⁸ Cheffins Brian. Dividends as a Substitute for Corporate Law: The Separation of Ownership and Control in the United Kingdom. – ECGI - Law Working Paper №69 / 2006. – 2006..

чуқурлаштириш, таркибий қайта қуришлар, ишлаб чиқаришни модернизациялаш, диверсификациялаш, кичик бизнесни ривожлантириш, хусусий мулкнинг устувор ролини таъминлаш, давлатнинг иқтисодийдаги иштирокини босқичма-босқич камайтириб бориш ҳисобига иқтисодий самарадорлик таъминланди.¹⁹

Маълумки, савдо профицити иқтисодий ўсишга ёрдам беради. Кўпроқ экспорт деганда, фабрика ва ишлаб чиқариш объектларидан кўпроқ маҳсулот ишлаб чиқарилиши, шунингдек, ушбу фабрикаларнинг ишлашини таъминлаш учун иш билан банд бўлганларнинг сони кўпайиши тушунилади. Экспортдан тушган тушум, шунингдек, мамлакатга истемол харажатларини рағбатлантирувчи ва иқтисодий ўсишга ёрдам берадиган маблағлар оқимини англатади. Импорт мамлакатдан пулларнинг чиқиб кетишини англатади, чунки бу маҳаллий компаниялар (импортчилар) томонидан чет эл корхоналарига (экспорт қилувчиларга) тўланадиган тўловлардир. Импортнинг юқори даражаси барқарор ички талаб ва ривожланаётган иқтисодийни кўрсатади. Агар импорт асосан машина ва ускуналар каби самарали активларга эга бўлса, янада яхши бўлади, чунки улар узоқ муддатда самарадорликни оширади.

Агар экспорт яхши ўсаётган бўлса, лекин импорт сезиларли даражада пасайган бўлса, бу дунёнинг қолган қисми ички иқтисодийга нисбатан яхши ҳолатда эканлигидан далолат беради. Аксинча, агар экспорт кескин пасайиб, лекин импортнинг ўсиши кузатилса, бу ички иқтисодийнинг чет эл бозорларига нисбатан яхшиланаётганлигидан далолат беради.²⁰

Мамлакатнинг импорти ва экспорти унинг алмашинув курси ўртасидаги ўзаро боғлиқлик туфайли мураккабдир. Валюта курси савдо профицитига (ёки дефицитга) таъсир қилади, бу эса ўз навбатида валюта курсига таъсир қилади ва ҳоказо. Умуман олганда, заиф миллий валюта экспортни рағбатлантиради ва импортни қимматроқ қилади. Аксинча, кучли миллий валюта экспортни қийинлаштиради ва импортни арзонлаштиради.

Мамлакатимизда ҳар йили 30 мингдан зиёд кичик бизнес субъектлари барпо этилмоқда. Кичик бизнеснинг ялпи ички маҳсулотдаги ҳиссаси 56,9 фоизга, саноат ишлаб чиқаришида эса 45 фоизга етказилди. Тадбиркорлик фаолиятдан олинадиган даромадлар улуши 52 фоизни ташкил этди. Кейинги

¹⁹ Cheffins Brian. Dividends as a Substitute for Corporate Law: The Separation of Ownership and Control in the United Kingdom. – ECGI - Law Working Paper №69 / 2006. – 2006..

²⁰ Baker M., Wurgler J. Why Are Dividends Disappearing? An Empirical Analysis. – Harvard University Working paper, 2002; Baker M. Wurgler J. A Catering Theory of Dividends. – Harvard University Working paper, 2002; Baker M., Wurgler J. Investor Sentiment. A Cross Section of Stock Returns. – Harvard University Working Paper, 2003 <http://www.harvard-law.edu/>

икки йилда 378 акциядорлик жамиятидаги давлат улуши савдога қўйилди. Хўш, бу нима беради?²¹

Биринчидан, акциядорлик жамиятлари давлатга тегишли қисмининг сотилиши давлат ғазнасига мўмай маблағ келтиради. Иккинчидан, давлатнинг қўли хўжалик юмушларидан бирмунча бўшайди. Учинчидан, мамлакатда тадбиркорлик муҳити кенгайди. Бундан ҳам давлат, ҳам мулкдорлар ва оддий кишилар ютади. Асосийси, бозор ислохотларини чуқурлаштириш шуни талаб қилади.

Давлатнинг монопол мавқеи углеводород хомашёси, рангли металллар, уран қазиб олиш, темир ва автомобил йўллари, авиаташувлар, электр энергияси ишлаб чиқариш, электр ва коммунал тармоқларда сақланиб қолиши лозим. Бошқа соҳалардаги давлат активларини давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш давом этади. Хусусийлаштирилган давлат мулки объектлари чет эллик инвесторларга сотилмоқда. Жумладан, юзлаб мулк мажмуалари танлов асосида инвестиция киритиш шарти билан «0» қийматда янги мулкдорларга сотилди. Улар эса инвестиция киритиш, минглаб ишчи ўринларини яратиш мажбуриятини олди.²²

Иқтисодиётни либераллаштириш жараёни пировард мақсад бўлмаслиги керак. Агар эркинлаштириш суръатлари, иқтисодиётнинг ўсиш сифат кўрсаткичлари, аҳоли турмуш даражаси баробарида кечса янада яхши бўлади. Ўзбекистон иқтисодий ўсиш прогнозларига кўра, дунёдаги тез ривожланаётган мамлакатлар қаторидан жой олди. Минг йиллик ривожланиш мақсадларига эришгани учун озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш борасида ҳам олдинги ўринларга чиқди. Ушбу кўрсаткичлар ҳозирги шароитда анча юқори ҳисобланади. Чунки жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози ҳали тўла барҳам топгани йўқ, давлатларнинг бир-бирига санкция ва эмбарголар қўллаши авж олмоқда. Қолаверса, муҳим товарларга ташқи талаб камайиб, нархлар пасайиб бормоқда, талабга нисбатан таклиф устунроқ. Бу каби ташқи иқтисодий ва сиёсий беқарорлик миллий иқтисодиётга ўзининг салбий таъсирини ўтказмасдан қолмайди, албатта.

Валюта ва ташқи савдо бозорини эркинлаштириш иқтисодиётни либераллаштиришнинг муҳим бўғинларидан бири бўлиб, давлат пул-кредит сиёсатига жиддий ўзгаришлар киритишни талаб қилади. Монетар сиёсат давлат

²¹ Baker M., Wurgler J. Why Are Dividends Disappearing? An Empirical Analysis. – Harvard University Working paper, 2002; Baker M. Wurgler J. A Catering Theory of Dividends. – Harvard University Working paper, 2002; Baker M., Wurgler J. Investor Sentiment. A Cross Section of Stock Returns. – Harvard University Working Paper, 2003 <http://www.harvard-law.edu/>

²² Cheffins Brian. Dividends as a Substitute for Corporate Law: The Separation of Ownership and Control in the United Kingdom. – ECGI - Law Working Paper №69 / 2006. – 2006..

ёки унинг Марказий банки томонидан макроиктисодий вазиятга таъсир кўрсатиш мақсадида муомаладаги пул массасини ошириш ёки пасайтириш орқали амалга ошириладиган воситадир. Бу сиёсат фоиз ставкаси ва айирбошлаш курси, тўлов баланси, устидан назорат, инфляцияни жилловлаш, умумий бандликни ошириш, баҳолар даражасини меъёрлаш ва бошқа тадбирларни ҳам ўз ичига олади.²³

Ҳаракатлар стратегиясига мувофиқ, 2017 йил 2 сентябрда Ўзбекистон Республикаси Президенти Валюта сиёсатини эркинлаштириш тўғрисидаги фармонни имзолади. Ундан асосий мақсад, барча бозор иштирокчилари учун бир хил шароит яратиш бўлиб, бозордаги турли-туман валюта курслари ўрнига ягона расмий курс белгиланди. Корхона ва аҳолида чет эл валютасини эркин сотиб олиш имкони пайдо бўлди. Эндиликда аҳолида пул ўтказмаларини миллий валютада олишни афзал кўраётгани кузатила бошлади. Асосийси, валюта бозоридаги ноаниқлик, нуфузли валюта курсларининг ҳар куни, ҳар соатда ўйнаб туриши аҳолида ажиотаж, яъни шов-шув талабни кучайтираётган эди. Энди эса Президент ва Марказий банк кафолати остида валюта бозорига аниқлик ва шаффофлик киритилди. Бугун ўзбекистонлик турист, бизнесмен, талаба ёки даволанувчи чет элда туриб конверсион картасидаги валютани банкоматдан хоҳлаган миқдорда нақд маблағ сифатида ечиб олиши мумкин.

Иккинчидан, либераллаштириш иқтисодиётнинг қайси соҳасида кечмасин, комплекс характерга эга бўлиб, маълум шарт-шароитларни тақозо этади. Айни пайтда мамлакатда макроиктисодий барқарорлик ва инвестицион фаоллик сақланиб турибди, иқтисодий ўсиш бўйича давлат дастурларини рўёбга чиқариш жадал бормоқда. Солиқ ва банк тизими ислохотлари кетмоқда, бизнесни юритиш ва экспорт соҳасидаги маъмурий тўсиқлар олиб ташланмоқда. Булар ҳаммаси пул-кредит тизимини такомиллаштириш, соҳани либераллаштиришга хизмат қилади.

Валюта бозори либераллашуви ташқи савдога ҳам ижобий таъсир кўрсатмоқда. Бу соҳада рақобатбардошликни ошириш, экспорт корхоналарини қўллаб-қувватлаш, фермер хўжаликлари, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг экспорт фаолиятини рағбатлантириш, уларга имтиёзлар тизимини такомиллаштириш, божхона тартиб-қоидаларини соддалаштириш ва ташқи савдо операцияларини амалга ошириш муддатларини кескин қисқартириш, ташқи савдо тарифларини пасайтиришга оид

²³ Correia da Silva L., Goergen M., Renneboog L. Dividend Policy and Corporate Governance. – Oxford University Press: Oxford, 2004.

хужжатларни расмийлаштиришларнинг электрон шаклига ўтиш ва бошқа чоратadbирлар кўрилмоқда.

Расмий валюта курси қийматини юқори даражада маъмурий йўл билан сунъий ушлаб турилиши миллий товар ва хизматлар экспорти ривожининг асосий тўсиқларидан бири эди. Бошқача айтганда, валюта бозори эркинлашмагани миллий товар ва хизматларнинг ташқи бозордаги рақобатбардошлигини пасайтирар, экспортда хомашё ҳиссаси юқори қолишига олиб келарди. Энди эса мамлакат экспорти таркибида нохомашё товарлари ҳиссасини ошириш, соҳада институционал қайта қуришлар, охир-оқибатда импорт ўрнини босадиган моделдан экспортга йўналтирилган ташқи иқтисодий моделга ўтилмоқда. Аммо экспортга йўналтирилган ишлаб чиқариш рақобатбардош маҳсулотларни тақозо қилади. Бу эса четдан машина ва асбоб ускуналар, янги техника ва технология киритишни талаб қилади. Бозор иқтисодиёти тартибига кўра, ташқаридан кирмаса, ташқарига чиқариб ҳам бўлмайди. Шу ўринда миллий иқтисодиётни икки томонлама қатновли катта магистрал йўлга ўхшатиш мумкин.²⁴

Иқтисодий ҳаётнинг барча жабҳаларини, жумладан, валюта бозорини либераллаштириш, давлатнинг халқаро имижини билан боғлиқ катта ҳодиса. Лекин улар устидан, шунингдек, эмиссия, чет элдан пул кўчирмалари устидан қатъий назорат ўрнатилмаса, иқтисодиётнинг реал ўсиши ва муомаладаги пул миқдори ўсиш суръатлари ўртасидаги фарқ сифатида доимо пайдо бўладиган инфляцияни келтириб чиқариши ҳеч гап эмас. Монетар сиёсат билан фискал сиёсатни қўшиб олиб бориш бундай ҳолатларнинг олдини олиш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати (REFERENCES)

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғриси”даги ПФ-4947-сон Фармони, 2017 йил 7 февраль.
2. Cheffins Brian. Dividends as a Substitute for Corporate Law: The Separation of Ownership and Control in the United Kingdom. – ECGI - Law Working Paper №69 / 2006. – 2006..
3. Baker M., Wurgler J. Why Are Dividends Disappearing? An Empirical Analysis. – Harvard University Working paper, 2002; Baker M. Wurgler J. A Catering Theory of Dividends. – Harvard University Working paper, 2002; Baker M., Wurgler J.

²⁴ Correia da Silva L., Goergen M., Renneboog L. Dividend Policy and Corporate Governance. – Oxford University Press: Oxford, 2004.

Investor Sentiment. A Cross Section of Stock Returns. – Harvard University Working Paper, 2003 <http://www.harvard-law.edu/>

4. Correia da Silva L., Goergen M., Renneboog L. Dividend Policy and Corporate Governance. – Oxford University Press: Oxford, 2004.

5. Гулямов С.С. Развитие законодательства об акционерных обществах в системе корпоративных отношений и проблемы его совершенствования: Дисс. ...докт. юрид. наук. – Т.: Ташкентский Государственный юридический институт, 2005.

XALQARO XUSUSIY HUQUQNI BIRLASHTIRISH MUAMMOLARI

Azizboyeva Zamira Malik qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 3-kurs talabasi

G-mail: malikovna3006@gmail.com

+998337571050

ANNOTATSIYA

Bugungi globallashuv jarayonida xalqaro miqyosda huquqiy munosabatlarning tartibga solinishi va rivojlanishi alohida e'tibor talab qiladi. Ushbu maqolada aynan xalqaro xususiy huquq tushunchasi hamda uni tizimlashtirish, ya'ni birlashtirish borasida dunyo tajribasi o'rganilib, kamchiliklar va yutuqlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlar katta ahamiyatga ega ekanligi, individlar o'rtasida hududiy chegara bilmas munosabatlar vujudga kelishi, o'zgarishi va tugashini ham yaxlit huquqiy manba bilan tartibga solinishi ortiqcha vaqt va ziddiyatlarni oldini olishini inobatga olgan holda, xalqaro xususiy huquqni birlashtirishda muammolar yoritiladi. Bundan tashqari, maqolada muammolarni bartaraf qilish va bu jarayonni tartibga solish usullari bo'yicha takliflar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *xalqaro xususiy huquq, unifikatsiyalashgan qoidalar, integratsiyalashuv, yurisdiksiya, kollizion normalar, Gaaga konferensiyasi, UNCITRAL, UNIDROIT.*

ПРОБЛЕМЫ УНИФИКАЦИИ МЕЖДУНАРОДНОГО ЧАСТНОГО ПРАВА

Азизбаева Замира Малик кизи

Ташкентский государственный юридический университет

Студент 3 курса факультета международного права и сравнительного
правоведения

G-mail: malikovna3006@gmail.com

+998337571050

АННОТАЦИЯ

В современном глобализационном процессе регулирование и развитие правоотношений в международном масштабе требует особого внимания. В данной статье исследуется именно понятие международного частного права, а также мировой опыт его систематизации, то есть унификации, анализируются недостатки и достижения. Также будут освещены проблемы

интеграции международного частного права, учитывая, что научные исследования, проводимые в этом отношении, имеют большое значение, поскольку регулирование возникновения, изменения и прекращения территориально неограниченных отношений между отдельными лицами с помощью единого правового ресурса предотвращает чрезмерное время и конфликты. Кроме того, в статье будут рассмотрены предложения по устранению неполадок и способы регулирования этого процесса.

Ключевые слова: *международное частное право, унифицированные правила, интеграция, юрисдикция, коллизионные нормы, Гаагская конференция, UNCITRAL, UNIDROIT.*

PROBLEMS OF UNIFICATION OF PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Azizbaeva Zamira Malik kizi

Tashkent State University of Law

3rd year student of the Faculty of International Law and Comparative
Legislation

G-mail: malikovna3006@gmail.com

+998337571050

ANNOTATION

In the modern globalization process, the regulation and development of legal relations on an international scale requires special attention. This article explores exactly the concept of private international law, as well as the world experience of its systematization, namely unification, analyzes the shortcomings and achievements. Also, the problems of integration of private international law will be highlighted, given that scientific research conducted in this regard is of great importance, since the regulation of the emergence, change and termination of territorially unlimited relations between individuals through a single legal resource prevents excessive time and conflicts. In addition, the article will discuss troubleshooting suggestions and ways to regulate this process.

Keywords: *private international law, unified rules, integration, jurisdiction, conflict of laws rules, The Hague Conference, UNCITRAL, UNIDROIT.*

KIRISH

Bugungi kunda xalqaro xususiy huquqni birlashtirish dunyo miqyosida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunga dunyo aholisining o‘sishi va insoniyatning o‘zaro munosabatga kirishishga bo‘lgan ehtiyojini yildan-yilga ortib borishi sabab bo‘lmoqda. Shaxslararo munosabatlar geografik omil natijasida, ya’ni turli davlatlar hududida sodir bo‘lishi, ularning huquqiy jihatdan tartibga solinishi uchun esa

ulardan birining qonunchiligini tanlash yoki ushbu davlatlar uchun umumiy bir manba mavjudligi asosida hal etilishiga olib keladi. Bu esa shuni taqazo etadiki, xalqaro hamjamiyatning bugungi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, o'z yechimini topishi shart bo'lgan vazifalardan biri bir davlatning o'z ichki qonunchiligi bilan tartibga solingan muosabatda chet el elementi aralashishi bilan unga yechim berishni, ya'ni xalqaro xususiy huquq qoidalari mujassam munosabatlarini hal etish qoidalarini uyg'unlashtirish masalasidir.

Xalqaro xususiy huquq— turli davlatlar yoki joylashuvdagi jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquq sohasi. Uning asosiy vazifalaridan biri xalqaro nizolarga nisbatan amaldagi qonunchilikni aniqlashdan iborat. U xususiy huquq tizimida yuridik fanning bir tarmog'i sifatida tan olingan alohida huquq sohasi hisoblanadi. Ushbu soha xalqaro hayot sharoitida yuz beradigan xususiy, ya'ni fuqarolik huquqi va fuqarolik protsessual huquqi bilan tartibga solinadigan, shuningdek oilaviy, mehnat, tadbirkorlik, iqtisodiy protsessual munosabatlar, ya'ni chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarni o'z ichiga oladi.²⁵ Bu milliy chegaralarni kesib o'tadigan xususiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar umumiy huquqda **"conflict of laws"** ya'ni **"qonunlar to'qnashuvi"** deb ataladigan bir nechta yurisdiksiyaga jiddiy aloqador bo'lgan xususiy nizolarni hal qilish qoidalarga aytiladi. Ammo, qo'llaniladigan moddiy qoidalar ham xalqaro xususiy huquqning bir qismidir. Amerika xalqaro huquq jamiyati uni *"milliy chegaralar orqali xususiy munosabatlarni tartibga soluvchi konvensiyalar, namunaviy qonunlar, milliy qonunlar, huquqiy qo'llanmalar va boshqa hujjatlar to'plami"* deb ta'riflaydi.²⁶

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, xalqaro xususiy huquqiy munosabatlar subyektlari, **chet el elementi bilan murakkablashgan** shartnomaviy va majburiyat-huquqiy munosabatlarning tartibga solinishi, xalqaro tashishlar, xalqaro oila va vorislik munosabatlari hamda xalqaro fuqarolik va iqtisodiy protsessual masalalar bilan shug'ullanuvchi huquq sohasi hisoblanadi. Ushbu chet el elementlari qatoriga:

- ✓ **huquqiy munosabatlarning subyektlari** – turli davlatlarning jismoniy yoki yuridik shaxslari;
- ✓ **huquqiy munosabatlar obyektlari** – boshqa davlatda vujudga keladigan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlar, shuningdek mulk yuzasidan paydo bo'ladigan boshqa huquqlar;

²⁵ Xalqaro xususiy huquq: Darslik. / Mualliflar jamoasi // y.f.d., dots.I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. T.: TDYU, 2019. - 14 bet.

²⁶<https://libguides.law.cua.edu/c.php?g=625517&p=4361619#:~:text=Private%20International%20Law%20is%20the,will%20govern%20a%20transnational%20matter>

✓ **yuridik faktlar** - davlatlar hududida o‘rin topadi.²⁷

Shu bilan birga, xalqaro xususiy huquq quyidagi uch muammolarga yechim beradi. **Birinchidan**, sud "xorijiy" deb belgilangan taraf yoki mulk ustidan yurisdiksiyani amalga oshirishi mumkin yo mumkin emasligi masalasi bilan shug'ullanadi. **Ikkinchidan**, u huquqni tanlash masalasi bilan - qaysi huquq normalari qo'llanilishi kerakligini aniqlaydi. **Uchinchidan**, u A mamlakati sudining hukmi B mamlakati sudlari tomonidan tan olinishi yoki ijro etilishiga qanchalik haqli ekanligi bilan bog'liq. Agar ish A davlatining sudlarida ko'rilayotgan bo'lsa, bu sud o'z qonunini (forumning) yoki shartnoma tuzilgan yoxud bajarilishi kerak bo'lgan joyda amal qiladigan qonunni qo'llashi kerakmi, degan savolga javob beradi.²⁸

Demak, "Xalqaro xususiy huquq" chegaralar tashqarisi bilan bog'liq xususiy bitimlarni tartibga soluvchi ichki huquqning moddiy qoidalariga ishora qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xalqaro xususiy huquq transcchegaraviy bitimlar va nizolarga turli xil milliy qonunlarni qo'llashni o'z ichiga oladi. Xalqaro xususiy huquqning unifikatsiyalash muammosi zamonaviy dunyoda dolzarb va murakkab muammodir. Xalqaro xususiy huquq transcchegaraviy munosabatlarni tartibga solish maqsadiga xizmat qilsa-da, shuningdek xalqaro shartnoma va konvensiyalar mavjud bo'lsa-da, xalqaro xususiy huquqning birlashtirish muammoligicha qolmoqda.

Xalqaro xususiy huquqning unifikatsiyasi - bu chegara huquqiy masalalarini hal qilishda umumiy qoidalarni yaratish va huquqiy tamoyillarni birlashtirishga qaratilgan jarayon. Bu shuni anglatadiki, transcchegaraviy vaziyatlar bilan bog'liq nizolarni hal qilishda xalqaro miqyosda amal qiladigan yagona qoidalar qo'llanilishi kerak. Oddiy so'zlar bilan aytganda, xalqaro xususiy qonunlar har qanday xorijiy element ishtirok etganda nizoni hal qilish yo'lini aniqlash vositasi sifatida ta'riflanishi mumkin.²⁹ Biroq, xalqaro xususiy huquqni birlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarga qaramay, jarayonni qiyinlashtiradigan bir qator muammolar mavjud.

Turli xalqlarning ichki qonunlarini birlashtirishga birinchi urinish 1886-yilda Bern konvensiyasi orqali amalga oshirildi, unga ko'ra mualliflar va yozuvchilarning adabiy asarlari ustidan manfaatlarini himoya qilish uchun Xalqaro ittifoq tuzildi. Keyin Birinchi jahon urushidan keyin Xususiy qonunlarni birlashtirish instituti tashkil etildi. Institut turli davlatlarning fuqarolik qonunlarini birlashtirishda ma'lum muvaffaqiyatlarga erishdi. 1929-yildagi Varshava konvensiyasi (keyinchalik 1955-yilgi Gaaga konvensiyasi bilan o'zgartirilgan) bu borada muhim ahamiyatga ega

²⁷ Xalqaro xususiy huquq: Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019. – 13b.

²⁸ <https://www.law.berkeley.edu/php-programs/courses/fileDL.php?fid=7587>

²⁹ <https://blog.ipleaders.in/private-international-law-unification/>

bo'lib, u yuk va odamlarni havo orqali tashishni tartibga soluvchi yagona qonunlarni belgilab berdi.³⁰

Quyida biz xalqaro xususiy huquqning unifikatsiya bilan bog'liq bo'lgan ba'zi asosiy muammolarni ko'rib chiqamiz.

1. Milliy huquqiy tizimlardagi farqlar.

Har bir davlatning o'ziga xos huquqiy tizimi mavjud bo'lib, u boshqa davlatlar tizimidan farq qiladi. Nikoh, meros, shartnoma majburiyatlari va boshqalar masalalarni hal qilish turli mamlakatlarda turli xil qoidalar, tamoyillar, huquqiy tushunchalar va yondashuvlarga asoslanishi mumkin. Misol tariqasida, ba'zi mamlakatlar umumiy huquq, ba'zilar kontinental huquq va boshqalari bo'lsa Islom huquqi kabi turli xil huquqiy tizimlarga ega.³¹ Ushbu farqlar xalqaro nizolar yuzaga kelganda amaldagi qonunni aniqlash va uni talqin qilishda, shuningdek qonunlarni uyg'unlashtirish va yurisdiksiyalar o'rtasidagi samarali hamkorlikni olib borishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

2. Qarorlarning qo'llanilishi va ijro etilishi bilan bog'liq muammolar.

Xususiy xalqaro huquq bir nechta yurisdiksiyalar bilan bog'liq ishlar bilan shug'ullanar ekan, turli mamlakatlarda qarama-qarshi hukmlar chiqarish xavfi mavjud. Bu ishtirok etayotgan tomonlar uchun chalkashlik va noaniqlikni keltirib chiqarishi va huquqiy tizimning umumiy samaradorligiga putur yetkazishi mumkin.

Qolaversa, bir davlatda qabul qilingan qarorlarning ijrosini ta'minlash boshqa davlatda ularni tan olish va majburiy ijro etishning samarali mexanizmlarining yo'qligi sababli muammoga aylanishi mumkin. Bu ko'pincha uzoq va murakkab jarayon bo'lishi mumkin bo'lgan ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama shartnomalarni ratifikatsiya qilishni talab qiladi. Chet el qarori boshqa mamlakatda amalga oshirilishi kerak bo'lganda, ba'zi mamlakatlar xorijiy sud qarorlarini tan olmasligi yoki ularni faqat ma'lum sharoitlarda bajarishi mumkin. Ya'ni, ushbu holatda murakkablik shundan iboraki, bunda taraflar adolat va qonun oldida tenglik tamoyiliga zid ravishda, bir-birining manfaatlariga putur yetkazadigan o'zlari uchun qulay holatlarni tanlashga harakat qilishadi. Ushbu jarayonni yengillashtirishga qaratilgan xalqaro shartnomalar va konvensiyalar mavjud bo'lsa-da, xorijiy sudlar tomonidan chiqarilgan qarorlarni izchil va samarali tartibda tan olish va bajarilishini ta'minlashda hali ham qiyinchiliklar mavjud.

³⁰ <https://blog.ipleaders.in/private-international-law-unification/>

³¹ <https://openstax.org/books/introduction-political-science/pages/11-3-types-of-legal-systems-around-the-world>

3. Kollizion normalar, ya'ni konflikt qonunlari qoidalariga turlicha yondashuvlar.

Kollizion normalar xalqaro xususiy huquq normalari bo'lib, muayyan ishda qaysi huquq qo'llanilishi kerakligini belgilaydi. Turli mamlakatlarda bunday normalarga nusbatan turlicha yondashuvlar bo'lishi mumkin, bu esa xususiy huquqni integratsiyalashuviga qo'shimcha murakkablik kiritadi.

4. Madaniyat va tildagi farqlar.

Madaniyat va tildagi farqlar huquqni to'g'ri tushunish va qo'llash, ayniqsa shartnomalarni to'g'ri talqin qilishda, huquqiy nizolarni hal qilishda va samarali aloqada muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Umar Saidning fikricha, huquqni birlashtirish - bu milliy miqyosda amal qiladigan qonunlarni birlashtirish jarayoni; yoki milliy huquqni muhofaza qilish organlarini birlashtirish. Nozik qonunlarni, ya'ni odat huquqini amalga oshirishga olib keladigan qonunlarni birlashtirish juda qiyin, negaki har bir mintaqada turli xil urf-odatlar mavjud.³²

Bu ham samarali muloqotni va hamkorlikni qiyinlashtirishi, shuningdek ish natijalariga ta'sir qilishi mumkin.

5. Texnologiyaning jadal rivojlanishi va globallasuv.

Zamonaviy texnologiyalar va globallasuv xalqaro xususiy huquqda nafaqat xususiy tadbirkorlar, balki oddiy insonlar uchun ham yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, elektron tijorat, kiberjinoyatchilik va boshqa faoliyat sohalari huquqiy normalarni yangi voqelikka moslashtirishni talab qiladi, bu esa xalqaro xususiy huquqning uyg'unlashuvini murakkablashtiradi. Avvalambor, e-tijorat va elektron shartnomalar tuzilishi kengayishi bilan amaldagi qonun va yurisdiksiyani aniqlash yanada murakkablashadi. Kiberfazoda va transchegaraviy operatsiyalarda samarali tartibga solish zarurati xalqaro xususiy huquq asoslarini doimiy ravishda moslashtirish va yangilashni talab qiladi.

Boshqa so'z bilan aytganda, global bitimlarning o'zgaruvchan tabiati, ya'ni murakkabligi va xilma-xilligining oshishi bilan xalqaro xususiy huquq xalqaro savdoning yangi shakllariga moslashishda doimiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Kiber-kosmik, elektron tijorat va xalqaro arbitraj amaliyoti kabi yangi sohalar mavjud qonunlar va tartibga solishlarni doimiy ravishda yangilab turish va tuzatishni talab qiladigan noyob huquqiy masalalarni keltirib chiqaradi.

³² <https://adcolaw.com/blog/apprehend-the-codification-and-unification-of-law/>

6. Uyg'unlashtirish harakatlari yetarli emasligi.

Xalqaro xususiy huquqni birlashtirish yo'lida ishlaydigan bir nechta xalqaro tashkilotlar mavjud. Ushbu tashkilotlar transchegaraviy operatsiyalarni yengillashtirish va qonunlarning ziddiyatlarini hal qilish uchun turli yurisdiksiyalarda huquqiy prinsiplar va qoidalarni uyg'unlashtirish va muvofiqlashtirishga qaratilgan. Ushbu sohadagi ba'zi taniqli tashkilotlarga quyidagilar kiradi:

➤ Xalqaro xususiy huquq bo'yicha **Gaaga konferensiyasi (HCCH)**: HCCH xalqaro xususiy huquqni izchil rivojlantirish va kodifikatsiyalashga qaratilgan global hukumatlararo tashkilotdir. U bolalarni o'g'irlash, xalqaro asrab olish, nikoh, ajralish va aliment majburiyatlari kabi turli mavzularda ko'plab konvensiyalar va protokollarni ishlab chiqdi.³³

➤ Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi (**UNCITRAL**): Birlashgan Millatlar tashkiloti bosh Assambleyasining xalqaro savdo huquqi bilan shug'ullanadigan yordamchi organidir. Uning asosiy yo'nalishi tijorat huquqiga qaratilgan bo'lsa-da, UNCITRAL xalqaro xususiy huquq masalalarini ham hal qiladi. Bu bir necha namunaviy qonunlar va konvensiyalarni ishlab chiqdi.³⁴

➤ Xalqaro xususiy huquqni birlashtirish instituti (**UNIDROIT**): U xalqaro darajada xususiy huquq qoidalarini uyg'unlashtirishga qaratilgan mustaqil hukumatlararo tashkilotdir. U shartnoma huquqi, tijorat huquqi va madaniy boyliklar kabi sohalarga qaratilgan. UNIDROIT xalqaro tijorat shartnomalarining UNIDROIT tamoyillari kabi muhim vositalarni ishlab chiqardi.³⁵

➤ Yevropa Ittifoqi (**YI**): Yevropa Komissiyasining ma'lumotlariga ko'ra, hozirda Evropa Ittifoqida 16 millionga yaqin xalqaro juftliklar mavjud. Shu sababli, chegaradosh oilaviy muammolar tez-tez sodir bo'lishi mumkin. Er-xotin ajrashganda, oila a'zolari, shu jumladan bolalar ko'pincha turli mamlakatlarda yashashadi va ularning huquqiy nizolari murakkablashadi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda Evropa Ittifoqida xalqaro ajralishlar va ajralishlar soni ko'paygan.³⁶ Shuning uchun ham Yevropa Ittifoqi a'zo davlatlar ichida xalqaro xususiy huquqni birlashtirishda muhim rol o'ynaydi. U transchegaraviy huquqiy masalalarni tartibga soluvchi turli xil qoidalar va ko'rsatmalarni qabul qildi, shu jumladan yurisdiksiya,

³³

[https://www.hcch.net/en/about#:~:text=The%20HCCH%20\(Hague%20Conference%20on,1%20of%20the%20Statute\)](https://www.hcch.net/en/about#:~:text=The%20HCCH%20(Hague%20Conference%20on,1%20of%20the%20Statute))

³⁴ <https://uncitral.un.org/>

³⁵ <https://www.unidroit.org/>

³⁶ Calabuig, Rosario Espinosa. "Cross-Border Family Issues in the EU: Multiplicity of Instruments, Inconsistencies and Problems of Coordination." *Diversity and Integration in Private International Law*, edited by Verónica Ruiz Abou-Nigm and María Blanca Noodt Taquela, Edinburgh University Press, 2019, pp. 65–82. *JSTOR*, <http://www.jstor.org/stable/10.3366/j.ctvrs90px.9>. Accessed 8 Oct. 2023.

hukmlarni tan olish va ijro etish, shuningdek qonun qoidalarini tanlashni tartibga harakat qiladi.³⁷

Ushbu tashkilotlar tadqiqot, hamkorlik va konvensiyalar, namunaviy qonunlar va ko'rsatmalarni ishlab chiqish kabi sa'y-harakatlariga qaramay, erishilgan uyg'unlik darajasi yetarli emas. Ko'pgina mamlakatlar ushbu konvensiyalarni ratifikatsiya qilmagan yoki ijrosini amalga oshirmagan. Bu ham aslida xalqaro xususiy huquqni qo'llashda qo'shimcha kelishmovchilik va nomuvofiqliklarga olib keladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalqaro xususiy huquqning birlashtirish turli yurisdiksiyalar o'rtasida hamkorlikni talab qiladigan murakkab jarayondir. Xalqaro xususiy huquqning integratsiyasi hamda uyg'unlashtirish jarayoni yuqorida qayd etilgan bir qator muammolarga duch kelmoqda. Ularni hal qilish bo'yicha Gaaga konferensiyasi, UNIDROIT kabi turli xil xalqaro vositalar va tashkilotlar mavjud bo'lib, ular ushbu muammolarni hal qilish uchun xalqaro unifikatsiya qoidalarini soddalashtirish va muvofiqlashtirish ustida ishlamoqda. Biroq, maqbul qonunchilikni aniqlash bilan bog'liq murakkablik va noaniqlik, qarama-qarshi qarorlar va parallel protsesslar, qarorlarning ijro etilishidagi muammolar, huquqiy tizimdagi farqlar va texnologik taraqqiyotning ta'siri - bularning barchasi xalqaro xususiy huquqning birlashtirishga va uzluksiz integratsiyasiga to'sqinlik qiluvchi omillardir. Ushbu muammolarni hal qilish xalqaro hamkorlikni, huquqiy asoslarni uyg'unlashtirishni va rivojlanayotgan global landshaftga doimiy moslashishni talab qiladi.

Demak, xalqaro xususiy huquqni birlashtirish muammosini hal qilish uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va yagona standartlarni ishlab chiqish zarur. Xalqaro konvensiyalarning ishlab chiqilishi va xalqaro xususiy huquqning barcha jihatlarini tartibga soluvchi yagona huquqiy hujjatning yaratilishi yanada samarali integratsiyalashuvga yordam beradi va xalqaro nizolarda huquqni qo'llashda bir xillikni ta'minlaydi. Qachonki xalqaro hamkorlikning samarali darajasiga erishilsa, xalqaro xususiy huquqning birlashtirish jarayoni osonlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Xalqaro xususiy huquq: Darslik. / Mualliflar jamoasi // y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. T.: TDYU, 2019. - 354 bet.
2. <https://libguides.law.cua.edu/c.php?g=625517&p=4361619#:~:text=Private%20International%20Law%20is%20the,will%20govern%20a%20transnational%20matter>
3. <https://www.law.berkeley.edu/php-programs/courses/fileDL.php?fid=7587>

³⁷ Trimmings, Katarina, and Burcu Yüksel. "Non-Uniform Application of European Union Private International Law." In *Diversity and Integration in Private International Law*, edited by Verónica Ruiz Abou-Nigm and María Blanca Noodt Taquela, 83–94. Edinburgh University Press, 2019. <http://www.jstor.org/stable/10.3366/j.ctvrs90px.10>.

4. <https://blog.iplayers.in/private-international-law-unification/>
5. <https://openstax.org/books/introduction-political-science/pages/11-3-types-of-legal-systems-around-the-world>
6. <https://adcolaw.com/blog/apprehend-the-codification-and-unification-of-law/>
7. [https://www.hcch.net/en/about#:~:text=The%20HCCH%20\(Hague%20Confere%20nce%20on,1%20of%20the%20Statute\)](https://www.hcch.net/en/about#:~:text=The%20HCCH%20(Hague%20Confere%20nce%20on,1%20of%20the%20Statute))
8. <https://uncitral.un.org/>
9. <https://www.unidroit.org/>
10. Calabuig, Rosario Espinosa. “Cross-Border Family Issues in the EU: Multiplicity of Instruments, Inconsistencies and Problems of Coordination.” *Diversity and Integration in Private International Law*, edited by Verónica Ruiz Abou-Nigm and María Blanca Noodt Taquela, Edinburgh University Press, 2019, pp. 65–82. *JSTOR*, <http://www.jstor.org/stable/10.3366/j.ctvrs90px.9>. Accessed 8 Oct. 2023.
11. Trimmings, Katarina, and Burcu Yüksel. “Non-Uniform Application of European Union Private International Law.” In *Diversity and Integration in Private International Law*, edited by Verónica Ruiz Abou-Nigm and María Blanca Noodt Taquela, 83–94. Edinburgh University Press, 2019. <http://www.jstor.org/stable/10.3366/j.ctvrs90px.10>.

CHET EL ELEMENTI BILAN MURAKKABLASHGAN NIKOH MUNOSABATLARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Tog‘aymurodova Zuhra

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

O‘zbekistonning chet el davlatlari bilan munosabatlari rivojlanib bormoqda. Ushbu maqolada bugungi kundagi dolzarb mavzulardan biri bo‘lgan chet el elementi bilan murakkablashgan nikoh masalalari bayon qilinadi. Bunda nikoh tuzish, nikohdan ajralish va nikohni haqiqiy emas deb topish masalalarini huquqiy tartibga solishga asosan to‘xtalib o‘tiladi. Davlatlarning huquqiy tizimi har xilligi sababli, chet el elementi bilan murakkablashgan nikohlarni huquqiy tartibga solishda turli muammoli vaziyatlar vujudga keladi.

Kalit so‘zlar: *chet el elementi bilan murakkablashgan, nikoh munosabatlari, nikoh yoshi, chet el fuqarosi, nizolarni hal etish, shaxsiy qonun tushunchasi, kollizion norma, konsullik nikohlari.*

АННОТАЦИЯ

Отношения Узбекистана с зарубежными государствами каждый день развиваются. В этой статье будут рассмотрены вопросы брака с иностранным элементом, который сегодня является одной из актуальных тем. В ней в основном затрагивается правовое регулирование вопросов заключения брака, развода и признание брака недействительным. Из-за разнообразия правовой системы государств, возникают различные проблемные ситуации в правовом регулировании браков с иностранным элементом.

Ключевые слова: *с иностранным элементом, брачные отношения, брачный возраст, иностранный гражданин, разрешение споров, понятие личного права, коллизионная норма, консульские браки.*

ABSTRACT

Day by day Uzbekistan's relations with foreign countries are developing. This article will address the issues of marriage with a foreign element, which is one of the current topics. It mainly deals with the legal regulation of marriage, divorce and the recognition of marriage as invalid. Due to the diversity of the legal system of states, various problematic situations arise in the legal regulation of marriages with a foreign element.

Keywords: *with a foreign element, marital relations, marriageable age, foreign citizen, dispute resolution, the concept of personal law, conflict of law norms.*

KIRISH

Hozirgi taraqqiy etib borayotgan zamonda oilaviy munosabatlar ham kundankunga rivojlanmoqda. Davlatlar har bir sohada aloqalar oʻrnatib, munosabatlarga kirishishmoqda, shu tariqa turli davlatlar fuqarolari yoki fuqaroligi boʻlmagan shaxslar oʻrtasida ham fuqarolik munosabatlari vujudga kelmoqda. Misol uchun, chet el elementi bilan murakkablashgan mulkiy munosabatlar, oila, nikoh munosabatlarini hozirgi kunda tez-tez uchratamiz. Bunday munosabatlar xilma-xillashib borgani sayin, taraflar oʻrtasidagi huquqiy holatlar, nizolar kelib chiqa boshlaydi. Bundan tashqari, nizolarni hal etishda qaysi davlat huquq tizimini qoʻllashni aniqlashda ham muammolar paydo boʻladi. Buning sababi, har bir davlatning oʻz huquqiy tizimi mavjudligi va ular bir-biridan farq qilishidir. Masalan, nikoh munosabatlarini oʻrnatishda asosiy eʼtibor qaratiluvchi dunyo davlatlaridagi nikoh yoshini koʻrib chiqsak, Oʻzbekistonda bu yosh erkaklar va ayollar uchun oʻn sakkiz yoshni, Yaponiyada yigirma yoshni, Ozarbayjonda erkaklar uchun oʻn sakkiz, ayollar uchun oʻn yetti yoshni, Shvetsiyada oʻn besh yoshni, Xitoyda esa yigirma ikki yoshni tashkil qiladi³⁸. Koʻrib turganimizdek, chet el elementi bilan murakkablashgan nikoh munosabatlarida yosh bilan bogʻliq tafovutlar mavjud, yaʼni Oʻzbekistonda oʻn sakkiz yoshga toʻlgan Yaponiya fuqarosi uylansa, Yaponiyada bu nikoh haqiqiy emas deb topiladi. Bu kabi nizolarni huquqiy tartibga solishda, xalqaro xususiy huquq asosiy oʻrinni egallaydi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi³⁹, hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktda⁴⁰ har bir shaxs nikoh qurish huquqiga ega ekanligi belgilab qoʻyilgan. Ular nikohdan oʻtayotganlarida ham, nikohda boʻlgan vaqtda ham va nikoh bekor qilinayotganda ham bir xil huquqlardan foydalanadilar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Chet el elementi bilan murakkablashgan nikohlarni roʻyxatga olish, tugatish yoki haqiqiy emas deb topishni tartibga solib turuvchi xalqaro hujjat mavjud emas. Chet el elementi bilan murakkablashgan nikoh tushunchasiga toʻxtalib oʻtsak, bu tushuncha subyektlar oʻrtasida vujudga kelgan nikoh munosabatlarida, subyektlarning biri chet el fuqarosi boʻlishi tushuniladi. Bunday munosabatlardan kelib chiqqan nizolarni hal etishda taraflarning shaxsiy qonuni aniqlanadi hamda ularning shaxsiy qonunidan foydalanib nizolar hal qilinadi. Shaxslar qaysi davlat fuqarosi boʻlsa, uning shaxsiy qonuni sifatida oʻsha davlatning qonunchiligi olinadi yoki ularning doimiy yashash joyiga nisbatan shaxsiy qonun belgilanadi. Shaxsiy

³⁸ Xalqaro xususiy huquq darslik (2019)

³⁹ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi

⁴⁰ Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt

qonun taraflar o'rtasida tuzilgan nikohni ro'yxatga olishga, haqiqiy yoki haqiqiy emas deb topishga, tugatishga, hamda boshqa nizolarni hal etishga yordam beradi. Masalan, Norvegiya, Fransiya, Meksika kabi davlatlarda bir jinsli nikohga ruxsat berilgan bo'lsa, O'zbekistonda bunday nikohlar tan olinmaydi, chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarni tartibga solishda shu kabi normalarga e'tibor qaratiladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari chet el davlatida nikoh qurayotganda yoki chet el fuqarolari bilan nikoh munosabatlarini o'rnatayotganda O'zbekistonning konsullik idoralariga murojaat qilishadi⁴¹. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi⁴². Chet davlatlarida bunday vazifalarni konsullik idoralari bajaradi. Elchixonalarning asosiy faoliyati bu vakillik, davlatlararo diplomatik aloqalarni ta'minlashga qaratilgan, konsullik idoralari esa bevosita mamlakat fuqarolarining boshqa mamlakat hududidagi huquq va manfaatlarining himoyasini ta'minlaydi. Konsullik idoralari yurisdiksiyaviy harakatlarni (notarial harakatlar va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish) amalga oshiradilar⁴³. 1963-yilgi Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasida hamda O'zbekistonning ikki tomonlama kelishuv va shartnomalarida konsullik idoralarining vazifalari belgilab qo'yilgan. Shu hujjatlarga asosan, konsullik idoralari nikohni qayd etish huquqiga ega bo'ladilar. Nikoh munosabatlarida nizo kelib chiqqanida, uni huquqiy tartibga solishda yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, shaxsning shaxsiy qonuniga yuzlaniladi. Shaxsiy qonunni aniqlashda, jismoniy shaxs fuqarosi bo'lgan davlatning qonuni olinadi yoki doimiy yashab kelayotgan davlatining qonunchiligidan foydalaniladi. Bundan tashqari, ba'zi bir davlatlarda shaxsning shaxsiy qonunidan emas, balki subyektlar nikohdan o'tgan joyning qonunchiligi qo'llaniladi⁴⁴. Shaxsiy qonun aniqlangach, nizo shu normalar bilan hal etiladi. Fransiyada nikohni tan olish uchun nikoh fransuz qonunchiligiga zid bo'lmasligi lozim⁴⁵. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga binoan, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs bilan tuzilayotgan nikoh O'zbekistonda yoki undan tashqarida tuzilishidan qat'iy nazar qonunchilikka muvofiq bo'lishi lozim⁴⁶. Ko'plab davlatlarning qonunchiligida va xalqaro konvensiyalarda nikohga monelik qiluvchi holatlar ham belgilab o'tilgan. Bularga, nikoh yoshiga yetmaganlik, nikohdan o'tuvchilarning biri yoki ikkalasi qonuniy boshqa nikohda bo'lishi, shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindosh bo'lishi hamda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb

⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi

⁴² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

⁴³ Лукашук И.И. Международное право. Особенная часть: Учебник

⁴⁴ Xalqaro xususiy huquq darslik (2019)

⁴⁵ Французский гражданский кодекс

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi

topilgan bo‘lishi kiradi. Shu kabi holatlar aniqlansa jismoniy shaxslarning nikoh tuzishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Agar nikohdan o‘tayotgan shaxslar barcha talablarga rioya qilgan bo‘lsalar, nikoh qayd etiladi. Qayd etilgan nikohni endi fuqarosi bo‘lgan davlat haqiqiy deb tan olish masalasi ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistonda chet elda tuzilgan nikohlar O‘zbekiston qonunchiligiga zid kelmasa haqiqiy deb tan olinadi. Bu amaliyotni biz Fransiyada, Rossiyada, Markaziy Osiyo davlatlarida⁴⁷, Germaniyada (barcha harakatlar qonunchilikka to‘g‘ri kelishi shart) uchratamiz. Shu bilan birga, ba‘zi bir davlatlarda nikoh davlat organlari tomonidan tuzilsagina tan olinadi (Germaniya), ba‘zi davlatlarda esa diniy tuzilgan nikohlar ham tan olinsa (Buyuk Britaniya), boshqa bir guruh davlatlarda diniy nikohdan o‘tish uchun avval davlat organida nikohdan o‘tish talab qilinadi (Italiya, Chexiya, Polsha)⁴⁸. Xalqaro xususiy huquqda oqsoq nikoh tushunchasi ham qo‘llaniladi. Davlatlar qonunchiligining xilma-xilligidan kelib chiqib, bir davlatda tan olingan, boshqasida haqiqiy emas deb topilgan nikohlar huquqiy oqibat keltirib chiqarmaydi, shu sababli ham nikohning taraflar shaxsiy qonuniga binoan bo‘lishi talab qilinadi.

Shunday qilib, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar fuqarolik munosabatlariga kirishayotganlarida bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladilar, bu munosabatlar kollizion normalar bilan tartibga solinadi. Chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bilan tuzilgan nikoh davomida nizolar kelib chiqib, taraflar ajrashishga qaror qilsa, bu jarayon davlatlar qonunchiligidan kelib chiqib hal qilinadi. Misol uchun, O‘zbekistonda fuqaro chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bilan nikohdan ajralmoqchi, bu holatda O‘zbekiston qonunchiligi qo‘llaniladi, agar bu holat O‘zbekistondan tashqarida amalga oshirilayotgan bo‘lsa, hamda tegishli davlat qonunchiligiga rioya qilingan bo‘lsa nikohdan ajralish O‘zbekiston Respublikasida haqiqiy deb tan olinadi. Nikohdan ajralish FHDYo organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo‘lsa, O‘zbekistondan tashqarida bu vazifani diplomatik vakolatxonalar yoki konsullik idoralari bajaradi. Xitoyda nikohdan ajralish jarayonida taraflar yashab kelayotgan davlatining huquq tizimi qo‘llaniladi, agar ularning yashash joyi bitta bo‘lmasa, fuqarolik olgan davlatining qonunchiligi qo‘llaniladi, shunda ham muammo bo‘lsa va ular bir davlat fuqarosi bo‘lishmasa, nikoh qayd etilgan davlat qonunchiligi qo‘llaniladi⁴⁹. Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi Minsk Konvensiyasiga muvofiq, nikohdan ajralishda tomonlarning ikkisi ham konvensiyaga a‘zo bo‘lgan davlatlarning fuqarolari bo‘lsa, qaysi davlat organiga

⁴⁷ Законодательство по международному частному праву стран Центральной Азии

⁴⁸ Европейское семейное право учебник

⁴⁹ Законодательство по международному частному праву стран Восточной Азии – Проектная группа «Современная конструкция международного частного права» – Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики»

nikohdan ajratishni so‘rab murojaat qilgan bo‘lsa, shu davlatning huquq tizimi qo‘llaniladi⁵⁰. Belgiyada nikohdan ajralish uchun taraflar o‘z xohishiga ko‘ra shu qarorga kelgan bo‘lishi, shu nikohdan ajralish turi mavjud bo‘lgan davlat fuqarolari bo‘lishi va shunday davlatda doimiy yashash joyiga ega bo‘lishi lozim. Fransuz qonunchiligiga ko‘ra, nikohdan ajralish uchun agar taraflar umumiy yashash joyiga ega bo‘lsa, domitsiliy qonuni qo‘llaniladi. Domitsiliy – biror davlatda doimiy yoki oddiy yashash joyiga ega bo‘lganligidan kelib chiqib, shaxsiy qonunni belgilash hisoblanadi⁵¹. O‘zbekistonning qonun hujjatlariga binoan davlatda nikohdan ajratish FHDYo organlari tomonidan amalga oshiriluvchi holatlar, xorijda diplomatik vakolatxonalar va konsullik idoralari tomonidan amalga oshirilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga binoan, fuqarolar bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar o‘rtasida nikohdan ajralish jarayonlari chet el davlati qonunchiligiga binoan amalga oshirilgan bo‘lsa, O‘zbekistonda haqiqiy deb tan olinadi. O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab kelayotgan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekistonning vakolatli idoralari bilan nikohdan o‘tmoqchi yoki nikohdan ajralmoqchi bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan bosqichlar amalga oshiriladi⁵². Dunyoning ko‘plab davlatlarida nikohdan ajrashishda taraflarning oddiy yashash joyi qonunchiligi qo‘llaniladi. Agar jarayonda barcha qonuniy bosqichlarga amal qilingan bo‘lsa, nikohdan ajralish haqiqiy deb tan olinadi, mulkiy va boshqa oilaviy holatdan kelib chiqqan nizolar ana shu davlat qonun normalariga asosan hal qilinadi.

Nikoh munosabatlarini huquqiy tartibga solishda yana bir “nikohni haqiqiy emas deb topish” tushunchasi mavjud. Nikoh haqiqiy emas deb topilishi uning aslida nikoh tuzilgan paytidan boshlab mavjud bo‘lmaganini bildiradi. 1993-yilgi Minsk Konvensiyasiga binoan nikohni haqiqiy emas deb topishda nikohni qayd etishda qo‘llanilgan ahdlashuvchi tomonning qonun normalari qo‘llaniladi⁵³. Taraflarning soxta nikoh tuzganligi bu nikohni haqiqiy emas deb topishga asos bo‘ladi, chunki soxta nikohlar nikohning qayd etilishidan vujudga keladigan moddiy manfaatlarni ko‘zlab tuziladi va er-xotinlik munosabatlari mavjud bo‘lmaydi. Bundan tashqari, nikoh tuzish shartlarining buzilishi (masalan, nikoh yoshiga yetmagan shaxslar o‘rtasida nikoh munosabatlari o‘rnatilishi) uning haqiqiy emas deb topilishiga asos bo‘ladi. Chet el elementi bilan murakkablashgan nikohlarni haqiqiy emas deb topishda davlatlarning kollizion normalaridan foydalaniladi. Nikohni haqiqiy emas deb topishga sabab, nikoh qayd etilayotganda qonuniy shartlarga rioya qilinmaganlik

⁵⁰ Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi Minsk Konvensiyasi

⁵¹ И.В. Гетьман-Павлова «Международное частное право» учебник

⁵² O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi

⁵³ Xalqaro xususiy huquq darslik

hisoblanadi. Shunday ekan, nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari davlatlar tomonidan belgilanadi.

XULOSA

Demak, chet el elementi bilan murakkablashgan nikoh munosabatlarini huquqiy tartibga solishda davlatlarning qonunchilik normalariga murojaat qilinadi, hamda kollizion normalardan foydalaniladi. Nikoh munosabatlarida kelib chiquvchi nizoli vaziyatlarni hal etish uchun qo'llaniluvchi davlatning qonunini aniqlab olish muammo keltirib chiqaradi, hamda jarayonning uzoq davom etishiga olib keladi. Agar fuqarolar va chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar nikoh tuzayotganida, kelajakda nizoli vaziyatlar kelib chiqsa, qaysi davlat qonunchiligidan foydalanishlari, nizo qanday yo'l bilan hal qilinishini, bundan tashqari mulkiy holatlarni nikoh shartnomasida hal belgilab olishsa, bu nizolarni tezda hal qilinishi va ikki tomonning ham natijadan qoniqadi va ko'plab nizoli vaziyatlarga yechim beradi. Albattaki, tuzilgan nikoh shartnomasi soxta nikohga asos bo'lmasligi lozim. Nikoh munosabatlarini qonunlar, kollizion normalar bilan tartibga solinishi ularning jamiyatdagi roli va ahamiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Zero, nikoh munosabatlaridan vujudga keluvchi oila - jamiyatning bo'g'ini hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Xalqaro xususiy huquq darslik (2019)
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
<https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
3. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt <https://lex.uz/docs/-2640479>
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
6. Французский гражданский кодекс <http://oceanlaw.ru/wp-content/uploads/2018/02/%D0%A4%D1%80.%D0%9A%D0%BE%D0%B4%D0%B5%D0%BA%D1%81-123.pdf>
7. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi
8. Законодательство по международному частному праву стран Центральной Азии <https://pravo.hse.ru/intprilaw/CA>
9. Европейское семейное право учебник http://osu.ru/sites/sempravo/docs/Erokhina_ESP_uchebnik_2016.pdf
10. Законодательство по международному частному праву стран Восточной Азии – Проектная группа «Современная конструкция международного частного

право» – Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики»

11. Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Minsk Konvensiyasi

12. И. В. Гетьман-Павлова «Международное частное право» учебник

13. Лукашук И.И. Международное право. Особенная часть: Учебник

XALQARO XUSUSIY HUQUQDA IQTISODIY NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULLARI

Fotima Tog‘aymurodova

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi kunda xalqaro xususiy huquqda iqtisodiy nizolarni hal etishning muqobil usullari va bosqichlari o‘rganilib, ular birma-bir ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, xalqaro xususiy huquqda iqtisodiy nizolarni mediatsiya, arbitraj yoki boshqa usullar yordamida hal etish haqida ma‘lumotlar beriladi. Bir qancha xalqaro arbitraj sudlari faoliyati bilan tanishtiriladi. Shuningdek, O‘zbekistonda xalqaro xususiy huquqqa oid iqtisodiy nizolarni hal etish muqobil usullarining xususiyatlari ochib beriladi. O‘zbekistonning chet el elementi bilan murakkablashgan iqtisodiy nizolarni hal etish bo‘yicha tajribasi o‘rganiladi.

***Kalit so‘zlar:** iqtisodiy nizo, muzokara, mediatsiya, kelishuv, ekspert xulosasi, arbitraj, ICC, ICSID.*

АЛЬТЕРНАТИВНЫЕ МЕТОДЫ РАЗРЕШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СПОРОВ В МЕЖДУНАРОДНОМ ЧАСТНОМ ПРАВЕ

Фотима Тогаймурадова

Ташкентский государственный

юридический университет

студент 3-курса

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются альтернативные методы и этапы решения экономических споров в современном международном частном праве, которые рассматриваются один за другим. Кроме того, приводится информация о решении экономических споров с помощью посредничества, арбитража или иных методов в международном частном праве. Будет ознакомлена деятельность ряда международных арбитражных судов. Также будут раскрыты особенности альтернативных методов разрешения экономических споров в Узбекистане, касающихся международного частного права. Будет изучен опыт Узбекистана по разрешению экономических споров, осложненных иностранным элементом.

***Ключевые слова:** экономический спор, переговоры, медиация, соглашение, экспертное определение (заключение), арбитраж, ICC, ICSID.*

ALTERNATIVE WAYS TO RESOLVE ECONOMIC DISPUTES IN PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Fotima Togaymurodova

Tashkent State University of Law

3rd year student

ABSTRACT

This article examines alternative methods and stages of economic dispute resolution in modern international private law, which are considered one after the other. In addition, information is provided on the resolution of economic disputes through mediation, arbitration, or other methods of international private law. The activities of a number of international arbitration courts will be introduced. The features of alternative methods of settlement of economic disputes in Uzbekistan relating to international private law will also be revealed. The experience of Uzbekistan in resolving economic disputes complicated by foreign elements will be studied.

Key words: *economic dispute, negotiation, mediation, compromise, expert opinion, arbitration, ICC, ICSID.*

KIRISH

Xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi munosabatlar vujudga kelishi bilan, ular o'rtasida nizolar ham kelib chiqishi mumkin. Bunday nizolardan biri iqtisodiy nizolardir. Iqtisodiy nizolar – bu yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki yuridik shaxslar tomonidan iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq fuqarolik yoki boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolardir⁵⁴. Iqtisodiy nizolar chet el elementi bilan murakkablashganda xalqaro xususiy huquq bilan tartibga solishni talab etadi. Demak, iqtisodiy nizo xalqaro xususiy huquq nomalari asosida hal etilishi uchun subyektlar yoki ulardan biri chet el fuqarosi yoki chet el yuridik shaxsi bo'lishi yoki nizolashilayotgan obyekt chet elda joylashgan bo'lishi, yoki nizoga sabab bo'lgan holat yoki hodisa chet elda sodir bo'lgan bo'lishi lozim. Davlat va xorijiy yuridik shaxs o'rtasida kelib chiqqan iqtisodiy nizolar bir tarafda davlat tursa ham xalqaro xususiy huquq normalari asosida hal etiladi. Kelib chiqqan har qanday nizo taraflar uchun muqobil yechimni talab qiladi. Bundan tashqari, 1969-yilgi Xalqaro shartnomalar to'g'risidagi Vena konvensiyasida shartnomalar bilan bog'liq nizolar, boshqa xalqaro nizolar singari, faqat tinch yo'l bilan va adolat va xalqaro huquq

⁵⁴ <https://tehn-ozersk.ru/wp-content/uploads/2020/11/%D0%9F%D0%9E%D0%9F%D0%94-4-1-%D0%90-2-%D0%BD%D0%BE%D1%8F%D0%B1%D1%80%D1%8F.pdf>

tamoyillariga muvofiq hal qilinishi kerak, deb keltirib o‘tilgan⁵⁵. Xalqaro xususiy huquqda iqtisodiy nizolarni hal etishning bir qancha yo‘llari mavjud. Bunda subyektlar kelishgan holda kelib chiqqan nizoni hal etish uchun o‘zlariga qulay usulni tanlashlari mumkin. Xalqaro xususiy huquqda iqtisodiy nizolar xalqaro konvensiyalar, milliy qonunchilik, xalqaro shartnomalar asosida tartibga solinadi. O‘zbekistonda chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlardan kelib chiqadigan iqtisodiy nizolar xalqaro xususiy huquq normalari, xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilik asosida hal etiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xalqaro xususiy huquqda nizolarni muqobil usullarda hal etish deganda, olimlarning har xil yondashuvlari mavjud. V.I.Kuzinaning fikriga ko‘ra, “nizolarni muqobil usullarda hal qilish” bu birgalikda zarur huquqiy natijaga erishish uchun nizoni hal qilish va (yoki) qonun bilan taqiqlanmagan huquqiy nizoni hal qilishning eng samarali nodavlat (xususiy) usulini qo‘llash hisoblanadi⁵⁶. S.V.Nikolyukin “nizo”, “mojaro” tushunchalarini tahlil qilib, xulosaga keladi. Ushbu olimning ta’kidlashicha, “nizolarni muqobil hal qilish” so‘zlarining kombinatsiyasida qarama-qarshiliklarni hal qilish mexanizmlarining butun majmuasi mavjud bo‘lib, ular ko‘p hollarda yuqori samaradorlik va moslashuvchanlik tufayli ziddiyatli vaziyatlarni hal qilishning an’anaviy usullarini almashtirishi mumkin⁵⁷. Xalqaro xususiy huquqda iqtisodiy nizolarni hal etishning muqobil usullari quyidagilardan iborat:

- Muzokara
- Mediatsiya
- Kelishuv
- Ekspert xulosasi
- Arbitraj

Iqtisodiy nizolarni hal etish uchun taraflar ko‘p hollarda, arbitraj sudlari yoki mediatsiyani tanlashadi. Ba’zi hollarda ular o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra muzokaralar o‘tkazish, tomonlar uchun maqbul kelishuvga erishish yoki ekspert xulosasi asosida ham nizoni hal qilishlari mumkin.

Muzokaralar – tomonlar (muzokarachilar) o‘rtasida o‘z maqsadlariga va umumiy yechimga erishish uchun aloqa, bunda tomonlarning har biri vaziyatni nazorat qilish va muammoni hal qilishda teng imkoniyatlarga ega. Muzokaralar nizolarni hal qilishning eng oddiy, keng tarqalgan, samarali va arzon vositalaridan

⁵⁵ 1969-yilgi Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi.

⁵⁶ V.I.Kuzina Nizolarni muqobil usulda hal etish tushunchasi, farqli jihatlari, afzalliklari va kamchiliklari//Ijro monitoringi. 2012. No4. 72-bet.

⁵⁷ S.V.Nikolyukin Rossiya Federatsiyasida mediatsiyaning huquqiy texnologiyalari: ilmiy va amaliy protseduralar. M, 2013. 57-bet.

biridir, shu jumladan, iqtisodiyot sohasida ham, chunki ular qo‘shimcha xarajatlarga olib kelmaydi, ular tomonlar uchun xavf tug‘dirmaydi va nizoni hal etishni muhokama qilishga qaratilgan bo‘ladi⁵⁸. Muzokaralar bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. *Birinchi bosqich*, muzokaralarga tayyorgarlik. Bu bosqichda taraflar muzokara olib borish uchun o‘z talablarini bildiradi yoki kelib chiqqan nizo yuzasidan muzokarani qanday olib borish bo‘yicha murojaat etishadi. *Ikkinchi bosqich*, muzokara jarayoni. Ushbu bosqich taraflarning o‘z takliflari bilan bo‘lishishi, ularning nizoni hal etish bo‘yicha bir to‘xtamga kelishini o‘z ichiga oladi. *Uchinchi bosqich*, muzokaralarni yakunlash va uning natijalari tahlili. Bu bosqichda taraflar muzokaralarni yakunlaydi va ularning barchasini qondiradigan yechim bilan nizoni hal etishadi. Tomonlarning vakillari ko‘rishib, nizo kelib chiqqan holatni o‘rganishadi, muammoni hal etish uchun o‘zlarining takliflarini berishadi. Muzokara mediatsiyaga o‘xshash bo‘ladi, ammo mediatsiya jarayonini alohida o‘qitilgan litsenziyaga ega mediatorlar olib boradi. Muzokaralarning nizolarni hal qilishning boshqa muqobil usullariga nisbatan afzalliklari quyidagicha aniqlanishi mumkin:

- ushbu jarayonda tomonlar bevosita birgalikda harakat qiladi;
- iqtisodiy nizo subyektlari o‘zaro munosabatlarning turli jihatlarini iloji boricha nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Misol uchun, muhokama vaqti va chegaralarini mustaqil ravishda belgilash;
- muzokaralar jarayoniga va ularning natijalariga ta’sir qilish;
- muzokaralar nizo subyektlariga tomonlarning har birini qondiradigan va ulardan birini yutqazishi bilan yakunlanishi mumkin bo‘lgan uzoq davom etadigan sud jarayonidan qochadigan kelishuvni ishlab chiqishga imkon beradi;
- muzokaralardagi nizo subyektlarining o‘zaro birgalikdagi harakati maxfiylikni saqlashga imkon beradi⁵⁹.

Ko‘rib turganimizdek, xalqaro xususiy huquqqa oid iqtisodiy nizolarni hal etishning muqobil usuli sifatida muzokaralar tomonlarga nizoga yechim topishda ko‘plab qulayliklar yaratadi.

Mediatsiya – ikki yoki undan ortiq tomonlarning nizolarini uchinchi tomon – mediator ishtirokida muqobil hal qilishning universal texnologiyasi, bu nizo bo‘yicha ma’lum bir kelishuvni ishlab chiqishga yordam beradi, tomonlar nizoni hal qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish jarayoni va uni hal qilish shartlarini to‘liq nazorat qiladi⁶⁰. Mediatsiya jarayoni quyidagi prinsiplarga asoslangan bo‘lishi lozim:

1. Ixtiyoriylik
2. Vijdoniylik

⁵⁸ E.A.Gureva. Nizolarni hal etishning muqobil usullari. Elektron o‘quv-metodik qo‘llanma. 2022-yil. 30-bet.

⁵⁹ E.A.Gureva. Nizolarni hal etishning muqobil usullari. Elektron o‘quv-metodik qo‘llanma. 2022-yil. 30-bet.

⁶⁰ <https://studfile.net/preview/9409063/page:54/>

3. Tomonlarning teng huquqliligi va hamkorligi
4. Mediatorning xolisligi va mustaqilligi
5. Maxfiylik

Mediatsiya nizoni hamma taraflar uchun muqobil yechimlar bilan hal etishga yordam beradi. Hozirgi kunda mediatsiya bahsli nizolarni hal qilishning qonuniylashtirilgan shakli maqomiga ega bo'ldi va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida nizolarni hal qilishning bir vositasi sifatida qaraladi. Mediatsiya jarayonida bevosita ishtirok etuvchi taraflardan tashqari yanani bir shaxs bu mediator hisoblanadi. Mediator bu – mediatsiya jarayonini olib boruvchi, taraflardan hech biriga bo'ysunmaydigan xolis shaxs hisoblanadi. Mediatsiya jarayonida mediator taraflar bilan alohida ko'rishib, kelib chiqqan nizoni o'rganadi va ularning ham fikrini va nizoga qanday yechim xohlayotganini bilib, taraflar uchun muqobil yechimni beradi. Mediatorning bergan yechimi majburiy kuchga ega hisoblanmaydi. Agar taraflar rozi bo'lsa, kelishuv tuzilgan hisoblanib, nizo hal etiladi.

Nizolarni hal qilishning muqobil usullaridan biri tomonlarning *kelishuv* bitimi tuzishi. Bu xalqaro xususiy huquq ishtirokchilari uchun qarama-qarshiliklarni bartaraf etishning eng maqbul vositalaridan biridir. Buning sababi shundaki, kelishuv bitimida nizoni hal qilish shartlari tomonlarning o'zlari tomonidan, ularning manfaatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, muzokaralar davomida belgilanadi, bu ular o'rtasidagi barqaror qulay munosabatlarni saqlashga yordam beradi. Taraflar kelishuvga erishganda kelishuv bitimi tuziladi. Bunda, avval, tomonlar nizoni hal etish tartibi va nizoga yechim berishadi. Kelishuvga erishish maqsadida takliflar birma-bir ko'rib chiqiladi. Kelishuvga erishishning birinchi bosqichida tomonlar o'z takliflarini bersa, ikkinchi bosqichida ushbu takliflarni qabul qilish yoki qilmaslik ko'rib chiqiladi. Taklifni qabul qilish yozma bo'lishi kerak, bu taklifni qabul qilinganligini tasdiqlovchi hujjat bo'ladi⁶¹. Taraflar kelishuv bitimini sud bosqichlaridan birida yoki suddan tashqari ham tuzishlari mumkin.

Xalqaro xususiy huquqqa oid iqtisodiy nizolarni hal etishning yana bir muqobil usuli bu *ekspert xulosasi*. Ekspert xizmatiga muhtoj bo'lgan tomonlar ICC xalqaro ekspertiza markaziga murojaat qilib, ularni qiziqtirgan muayyan sohada mutaxassis tayinlashni so'rashlari mumkin. 1976 yilda tashkil etilgan markaz o'z faoliyatini ICC ekspertiza reglamentiga muvofiq amalga oshiradi. Markaz maxsus bilimlarni talab qiladigan texnik, moliyaviy, huquqiy va boshqa masalalar bilan shug'ullanadi. Tomonlar o'z shartnomalarida ekspertiza o'tkazish uchun markazda qo'llaniladigan qoidalarga murojaat qilishlari yoki undan keyinchalik foydalanishlari mumkinligi

⁶¹ Paulette Khumalo. Compromise: settlement agreements.
<https://www.financialinstitutionslegalsnapshot.com/2023/03/compromise-settlement-agreements/>

haqida kelishib olishlari mumkin. Iqtisodiy nizoni hal etishda tomonlar ekspert so‘rab markazga murojaat qilib, biron bir masala bo‘yicha tahlilni, ko‘pincha yozma hisobot yoki tavsiyanoma shaklida taqdim etish uchun mutaxassis tayinlashni so‘rashlari mumkin. Markaz tomonidan amalga oshirilgan ekspert tanlovi, nizolarni do‘stona hal qilishda yoki muayyan faktlarni aniqlashda yordam so‘rab bunday mutaxassisga murojaat qilishi kerak bo‘lgan tomonlar uchun majburiy hisoblanadi⁶². Demak, nizoni hal etishning muqobil usuki sifatida ekspert xulosasidan taraflar nizoning kelib chiqish asosini bilish maqsadida va uni hal etishda foydalanishlari mumkin.

Xalqaro xususiy huquqda iqtisodiy nizoga *arbitraj* sudlarida ham yechim berish mumkin. Arbitraj sudlari nodavlat tashkilot hisoblanib, asosan, fuqarolik masalalarida, iqtisodiy masalalarda ham kelib chiqadigan nizolarni hal etishda yordam beradi. Bunda tomonlar nizoni arbitraj sudlarida ko‘rib chiqishni kelishib olishlari mumkin. Bugungi kunda xalqaro iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadigan ko‘p nizolar tomonlarning kelishuvi asosida xalqaro tijorat arbitrajlarida ko‘rib chiqilmoqda. Chunki, davlat sudlarining bosqichlari ko‘p va unda davlatning yurisdiksiyasi ustunroq bo‘ladi. Arbitraj sudlarida esa, bosqichlari ko‘p bo‘lmaydi va qaysi davlat huquqini qo‘llashni tomonlar kelishib olishlari va bundan tashqari, xalqaro huquqiy normalardan ham foydalanilishi mumkin va bu davlat sudlariga qaraganda nizolashayotgan taraflarga ko‘proq qulaylik yaratadi. Arbitraj sudlari 2 xil bo‘lishi mumkin. Bular, ad hoc arbitraj va institutsional arbitraj. Ad hoc arbitraj taraflar kelishuvi asosida nizoni hal etish uchun bir martalik tuziladigan arbitraj hisoblanadi. Institutsional arbitraj esa, doimiy faoliyat yuritadi. Arbitraj sudi tomonlar qo‘llashga kelishgan huquqdan foydalanadi, agar tomonlarning kelishuvi bo‘lmasa, nizo yuzaga kelgan davlat huquqi, shuningdek, nizo doirasida foydalanilishi mumkin bo‘lgan amaldagi xalqaro huquq normalari qo‘llaniladi⁶³. Hozirda dunyoda ko‘plab xalqaro tijorat arbitrajlar xalqaro xususiy huquqqa oid iqtisodiy nizolarga yechim berish bilan o‘z faoliyatini olib bormoqda. Ulardan biri, ICC (International Chamber of Commerce) dunyodagi eng mashhur xalqaro iqtisodiy nizolarni hal etish bo‘yicha arbitraj hisoblanadi. Ushbu arbitraj sudi 1923-yilda tashkil etilgan bo‘lib, xalqaro tijorat va investitsiyaviy nizolarni hal etish bilan shug‘ullanadi va dunyodagi kelib chiqadigan iqtisodiy nizolarning katta qismini ko‘rib chiqib, hal etadi. Bundan tashqari, ICSID (International Centre for Settlement of Investment Disputes) – Xalqaro investitsiyaviy nizolarni hal etish markazi. Markaz xalqaro mulkiy huquq doirasida nizolarni hal qilish uchun tashkil etilgan. Bu bir tomondan davlatlar va boshqa tomondan xorijiy jismoniy va yuridik investorlar o‘rtasida yuzaga keladigan

⁶² <https://iccwbo.ru/blog/2016/alternativnoe-razreshenie-sporov/>

⁶³ G.M.Velyaminov. Xalqaro iqtisodiy huquq va protsess (akademik kurs): darslik. - M.: Volters Kluver, 2004-yil. 333-bet.

nizolarni anglatadi. Bunday nizolar xususiy huquq sifatida qaraladi. Davlatlar va chet ellik shaxslar o'rtasidagi investitsiya nizolarini hal qilish tartibi to'g'risidagi 1965-yilgi Vashington konvensiyasining maqsadi va markazni tashkil etish sababi bunday investitsiya nizolarini milliy yurisdiksiyadan olib tashlash va ularni xalqaro arbitrajga o'tkazishdir. Xalqaro arbitrajlarda ishni ko'rish bir qancha xalqaro huquqiy hujjatlar, davlatlarning milliy qonunchiligiga asoslanadi. Taraflar o'rtasida kelib chiqqan iqtisodiy nizoni ko'rib chiqilishi uchun arbitraj sudiga arbitraj bitimi topshiradi. Arbitraj sudi qarorlari yakuniy va tomonlar uchun majburiy hisoblanadi. Ammo, Chet el arbitrajlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi 1958-yilgi Nyu York konvensiyasiga ko'ra, sudlardan farqli jihati, xalqaro arbitraj sudlarining qarorlarini ijrosini ta'minlashdan oldin ijrosi ta'minlanishi uchun yuborilgan davlat sudi tomonidan ularning milliy qonunchiligiga zid emasligi tekshirilib, so'ng ijroga qaratiladi.

Xalqaro xususiy huquqqa oid iqtisodiy nizolar O'zbekistonda nizoni hal etishning muqobil usullarida ham hal etiladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 10-moddasiga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslar o'zlarining fuqarolik huquqlarini himoya qilish maqsadida sud, iqtisodiy sud yoki arbitraj sudlariga murojaat etishlari mumkin⁶⁴. O'zbekistonda arbitraj sudlari faoliyati "Xalqaro arbitraj faoliyati to'g'risida"gi Qonun, mediatsiya "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun asosida tartibga solinadi. Iqtisodiy nizolarni hal etishda arbitraj va mediatsiya usullari sud tartibidan tashqari usullar hisoblanadi. O'zbekistonda xalqaro xususiy huquqqa oid iqtisodiy nizolarni hal etish uchun taraflar o'zlariga maqbul usulni tanlashlari mumkin, ammo ba'zi masalalar sud tartibida ko'rilishni talab etadi. Misol uchun, Xo'jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq nizolarni hal etish to'g'risidagi 1992-yilgi Kiyev bitimining 4-moddasiga binoan, ko'chmas mulk bilan bog'liq nizolar faqat davlat sudlarida ko'rilishi lozim⁶⁵. O'zbekistonda iqtisodiy nizolarni hal etishning bir usuli bu mediatsiya. Mediatsiya suddan tashqari nizoni sudda ko'rib chiqish jarayonida, sud qaror qabul qilish uchun alohida (maslahat) xonaga kirgungiga qadar, shuningdek, arbitraj sudida nizoni ko'rib chiqish jarayonida qo'llanilishi mumkin. Mediatsiya jarayonida, sud jarayonida, nizoni vakolatli davlat organida ko'rib chiqish paytida taraflar tomonidan erishilgan mediatsiya bitimi darhol sudga yoki tegishli ish bo'yicha mas'ul bo'lgan vakolatli davlat organiga yuboriladi⁶⁶. Mediatsiya jarayoni taraflarning xohishiga tayanadi. Agar, taraflardan biri xohlamasa, istagan vaqtda mediatsiyada ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Hozirgi kunda

⁶⁴ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.

⁶⁵ Xo'jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq nizolarni hal etish to'g'risidagi 1992-yilgi Kiyev bitimi.

⁶⁶ Rustambekov, I. (2020). GENESIS OF ALTERNATIVE DISPUTE RESOLUTION MECHANISMS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.. Review of law sciences, (November Exclusive issue), 7-20. doi: 10.24412/2181-1148-2020-7-20

O‘zbekistonda chet el elementi bilan murakkablashgan iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda sudda ham, suddan tashqari ham mediatsiya muqobil usul sifatida ko‘p qo‘llanilmoqda. O‘zbekistonda xalqaro xususiy huquqqa oid iqtisodiy nizolarni hal etishning yana bir muqobil usuli arbitraj hisoblanadi. O‘zbekistonda xalqaro tijorat arbitraji (TIAC – Tashkent International Arbitration Centre) O‘zbekiston Respublikasi Savdo sanoat palatasi huzurida o‘z faoliyatini olib boradi. Chet el jismoniy yoki yuridik shaxsi bilan iqtisodiy nizo kelib chiqqanda taraflar aynan mana shu arbitraj sudiga murojaat etishlari mumkin. Arbitraj sudining qulayligi iqtisodiy sudlarga nisbatan bosqichlari kamligida. Bundan tashqari, taraflar kelishuv bo‘lgan taqdirda arbitrlar sonini va nizoni qaysi huquq bo‘yicha ko‘rib chiqishni tanlashlari mumkin bo‘ladi. Arbitraj sudlarida taraflarga ko‘proq erkinlik berilgani, jarayonning davlat sudlaridagi kabi cho‘zilib ketmasligi ularning nizolashayotgan taraflarga qulayligidan dalolat beradi. Ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda nizoni hal etishning muqobil usullaridan, asosan, mediatsiya va arbitraj boshqa usullarga qaraganda ancha rivojlangan. Lekin, hozirgi kunda taraflar o‘rtasida kelib chiqqan xalqaro xususiy huquqqa oid iqtisodiy nizolarni va boshqa nizolarni hal etishda muzokara va kelishuv usullaridan ham keng foydalanib kelishmoqda. Nizoni hal etishning muqobil usullaridan biri ekspert xulosasi O‘zbekistonda unchalik ham mashhur emas va bu usuldan shaxslar boshqa usullarga qaraganda kamroq foydalanmoqda. Ammo, bu bilan O‘zbekistonda chet el elementi bilan murakkablashgan iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etish usullari cheklangan deb bo‘lmaydi. O‘zbekistonda xalqaro xususiy huquqqa oid iqtisodiy nizo kelib chiqsa, taraflar xalqaro huquq normalari va milliy qonunchilikka muvofiq nizoni hal etishning muqobil usullaridan o‘zlariga maqbulini tanlashlari va ana shu usul yordamida nizoni hal etishlari mumkin.

XULOSA

Xalqaro xususiy huquqda iqtisodiy nizolar davlat, yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar o‘rtasida kelib chiqishi mumkin. Kelib chiqqan iqtisodiy nizoni tomonlar o‘zlariga maqbul usulda hal etish huquqiga egadirlar. Ko‘plab subyektlar tomonidan keng qo‘llanilib kelayotgan xalqaro xususiy huquqda iqtisodiy nizolarni hal etishning muqobil usullari mavjud. Bular, muzokara, mediatsiya, kelishuv, ekspert xulosasi va arbitraj usullaridir. Bitim tuzgan tomonlar nizoni ulardan biri joylashgan davlat sudlarida ko‘rib, hal etish haqida kelishib olgan taqdirda yoki muayyan mamlakalning milliy qonunchiligida ayrim turdagi nizolar faqat davlat sudlaridagina ko‘rib hal etilishi mumkinligi qat’iy belgilab qo‘yilgan hollarda nizo tegishli davlatning protsessual qonunchiligiga muvofiq ko‘rib hal etiladi. Boshqa hollarda, taraflar shartnoma tuuzishda yoki keyinchalik ham kelishib nizoni hal etishning

muqobil usullaridan o‘zlariga maqbul usulni tanlab o‘rtasida kelib chiqqan nizoni hal etishlari mumkin. Nizoni hal etishning muqobil usullaridan muzokara, mediatsiya va kelishuv usullari bir biriga o‘xshash, ammo ularning farqlari muzokarada tomonlarning vakillari ishtirok etadi, mediatsiyada tomonlarning iqtisodiy nizosini hal etishda mediator ishtirok etadi, kelishuvda esa, tomonlarning o‘zlari mediator va vakillarsiz o‘zlari kelishib nizoni hal etishadi. Ekspert xulosasi usulida esa, tomonlar vujudga kelgan iqtisodiy nizoni qayerdan, nima sababdan kelib chiqqani yoki shu nizoni hal etishga yordam beruvchi ma’lumotlarni aniqlash maqsadida ekspertizaga berishi mumkin va mana shu masala yuzasidan ekspert xulosasi nizoni hal etishda yordam beradi. Bundan tashqari, arbitraj ham maqbul usullardan biri hisoblanadi. Arbitraj sudlarini qulay tomonlaridan biri, nizoni hal etishda qaysi davlat huquqidan va xalqaro huquq normalaridan foydalanishni taraflar kelishgan holda tanlashlari mumkinligidir. Xalqaro xususiy huquqda iqtisodiy nizolarni hal etishning muqobil usullari nizoni davlat sudlarida ko‘rib chiqishdan ko‘ra, taraflar uchun ko‘proq ustunliklarga ega. Misol uchun, taraflar uchun qulayliklar, sudga nisbatan nizoni tezroq hal etish imkoniyati, taraflar nizoni hal etishdan yutqazishlarsiz chiqishi va boshqa ko‘plab ustunliklar. Iqtisodiy nizoni hal etishning turli muqobil va boshqa yo‘llari, davlat sudlari kabi usullari ko‘pligi nizoni hal etishda taraflarning o‘zlariga eng qulay usulini tanlash imkoniyatini beradi. Nizolarni hal etishning muqobil usullari taraflar uchun o‘rtada kelib chiqqan nizoni hal qilishda ko‘plab qulayliklar yaratishiga qaramay, ularning katta qismi qarorlari tomonlar uchun majburiyat yuklamaydi. Agar, tomonlar o‘rtada tuzilayotgan shartnomada nizoni hal etishda qaror ijrosini bajarish majburiyatini yuklab qo‘yishi taraflarning nizoni hal etishda kelib chiqadigan majburiyatidan qochish holatlarining oldini olish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. <https://tehn-ozersk.ru/wp-content/uploads/2020/11/%D0%9F%D0%9E%D0%9F%D0%94-4-1-%D0%90-2-%D0%BD%D0%BE%D1%8F%D0%B1%D1%80%D1%8F.pdf>
2. 1969-yilgi Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi.
3. V.I.Kuzina Nizolarni muqobil usulda hal etish tushunchasi, farqli jihatlari, afzalliklari va kamchiliklari//Ijro monitoringi. 2012. No4. 72-bet.
4. S.V.Nikolyukin Rossiya Federatsiyasida mediatsiyaning huquqiy texnologiyalari: ilmiy va amaliy protseduralar. M, 2013. 57-bet.
5. E.A.Gureva. Nizolarni hal etishning muqobil usullari. Elektron o‘quv-metodik qo‘llanma. 2022-yil. 30-bet.
6. <https://studfile.net/preview/9409063/page:54/> .

7. Paulette Khumalo. Compromise: settlement agreements.
<https://www.financialinstitutionslegalsnapshot.com/2023/03/compromise-settlement-agreements/>
8. <https://iccwbo.ru/blog/2016/alternativnoe-razreshenie-sporov/>
9. G.M.Velyaminov. Xalqaro iqtisodiy huquq va protsess (akademik kurs): darslik. - M.: Volters Kluver, 2004-yil. 333-bet.
10. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
11. Xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq nizolarni hal etish to‘g‘risidagi 1992-yilgi Kiyev bitimi.
12. Rustambekov, I. (2020). GENESIS OF ALTERNATIVE DISPUTE RESOLUTION MECHANISMS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.. Review of law sciences, (November Exclusive issue), 7-20. doi: 10.24412/2181-1148-2020-7-20

HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGI BO'YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Saidxanova Xonzoda Shoumid qizi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, O'zbekiston iqtisodiyotida hududlar raqobatbardoshligi bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, muammolar va yechimlar hamda tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan. Raqobat mavjud bo'lishining boshqa shartlaridan biri tovar-pul munosabatlarining ma'lum darajada rivojlangan bozor tizimida amal qilishidan dalolat beradi. Hozirgi kunda bu sohani naqadar kerakligi, undagi turli xildagi muammolar va ularni yechish yo'llari va keyinchalik kutilayotgan natijalar tahlil qilingan.

***Kalit so'zlar:** Iqtisodiyot, hududlar raqobatbardoshligi, tadbirkorlik, tendensiya, monopoliya, texnik taraqqiyot, xususiylashtirish, resurslar.*

ABSTRACT

This article analyzes the reforms, problems and solutions implemented in the economy of Uzbekistan in terms of regional competitiveness, as well as issues related to business activities. One of the other conditions for the existence of competition is evidence that commodity-money relations operate in a market system that is developed to a certain extent. Currently, the importance of this field, various problems and ways to solve them, and the expected results have been analyzed.

***Key words:** Economy, regional competitiveness, entrepreneurship, trend, monopoly, technical development, privatization, resources.*

KIRISH

Bugungi davrda jahonda bozor iqtisodiyoti o'zining yetuklik darajasi va rivojlanish xususiyatlaridan qat'iy nazar, raqobatning mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib, o'z shakllarini o'zgartirib boradi. Muhtaram birinchi prezidentimiz I.A. Karimov raqobatning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyatini ko'rsatib: "Raqobat bo'lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Raqobat-bu, tadbirkorlikning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, u iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o'z manfaatlarini to'laroq yuzaga chiqarish, ya'ni yaxshi daromad olish, o'z mavqeini mustahkamlash, o'z qobiliyatini namoyon etish va imij (obro' – e'tibor) ga ega bo'lish uchun boshqalar bilan kurashuvdir. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunida raqobat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "raqobat-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar

muomalasining umumiy shartsharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi"⁶⁷.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Raqobat kurash vositalari va usullari jihatidan halol raqobat va g'irrom raqobatga bo'linadi. Halol raqobat - qonuniy, yo'l berilgan va hamma tan olgan, insoniy usullar bilan o'zaro bellashuvdir. Bu raqobatda madaniy usullar qo'llaniladi, Bu usullardan narx vositasida raqobatlashuv, tovar sifatini oshirish orqali kurashish, servis (xizmat ko'rsatish) orqali bellashuv keng tarqalgan. Bu usullardan alohida-alohida emas, balki birgalikda foydalanish ham qo'llaniladi. G'irrom raqobat – man etilgan vositalar yordamida va g'ayriinsoniy usullar bilan olib borilgan kurashdir. Bu raqobat turi yovvoyi bozor iqtisodiyotining belgisi hisoblanadi. G'irrom raqobat yuz berganda josuslik, qo'poruvchilik, reket, tuxmat, tovar belgisini o'g'irlash va hatto, qotillik kabi usullar qo'llaniladi, raqibni turli yo'llar bilan obro'sizlantirish choralari ko'riladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sarf-xarajatdagi ustunlik, bozordagi salmoqli ulush, ijodiy yondashuv va tadbirkorlikka ega rahbarlik, iste'molchilarning o'sish bazasi va jalb etish imkoni mavjudligi, o'ta individuallashtirilgan mahsulot kabilar raqobatning kuchli belgilari bo'lib hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatda kuchsizlik belgilari bo'lib, yuqori xarajatda ishlab chiqarish, raqobatdan orqada qolish vaziyati, mahsulotni takomillashtirishdagi oqsashlar, o'sib kelayotgan xavf-xatar oldida ojizlik, soha doirasida maslahatning yetishmovchiligi, moliyaviy zaxiralar yetishmovchiligi, mahsulot sifatining pastligi hisoblanadi. Raqobatli afzallik deganda tovar yoki markaning firmaga o'zining bevosita raqobatchilariga nisbatan ma'lum bir afzallik beradigan xarakteristika va xususiyatlari tushuniladi. Bu xarakteristikalar g'oyatda xilma-xil bo'lishi va tovarning o'ziga ham, asosiy xizmatga qo'shimcha xizmatlarga, ishlab chiqarish, savdo shakllariga ham taalluqli bo'lishi, hamda firma yoki tovarga xos bo'lishi mumkin. Demak, bunday afzallik nisbiy bo'ladi va tovar bozorida yoki bozor segmentida eng yaxshi mavqega ega bo'lgan raqobatchiga nisbatan belgilanadi. Bu eng xavfli raqobatchi imtiyozli raqobatchi deb ataladi. Raqobatchining nisbiy afzalligi turli omillar bilan belgilanadi. Umuman olganda, bu omillarni ular vujudga keltiradigan ichki va tashqi afzalliklardan kelib chiqqan holda ikki keng toifaga ajratish mumkin. Agar raqobatli afzallik tovarning ajralib turuvchi sifatlariga asoslangan bo'lsa, u tashqi afzallik deb ataladi, bu sifatlar xarajatlarning qisqartirilishi yoki samaradorlikning oshirilishi hisobiga xaridor uchun qiymatli bo'ladi. Binobarin, tashqi raqobatli afzallik firmaning bozor qudratini oshiradi, ya'ni u bozorni imtiyozli raqobatchidagiga nisbatan yuqoriroq sotish

⁶⁷ O'zbekiston respublikasining "Raqobat to'g'risida" gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2011 – yil 14 – noyabrda qabul qilingan va Senat tomonidan 2011 – yil 5 – dekabrda ma'qullangan.

Ushbu maqolada sotsial psixologiyada katta guruhlarning o'rganilishining ahamiyati bayon etilgan. Psixologik bilimlar juda uzoq o'tmish tarixga ega bo'lsada, lekin u fan sifatida falsafadan XIX asrga kelib ajralib chiqqan. Psixologiyani alohida fan sifatida ajralib chiqishga o'sha davrda kishilik jamiyatida yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlari yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: *Sotsial, psixologiya, katta guruhlar, psixologik bilimlar, shaxs, psixologik holatlar, Shaxsning ijtimoiy-psixologik xarakteristikasi.*

ABSTRACT

This article describes the importance of studying large groups in social psychology. Although psychological knowledge has a very long past history, it was separated from philosophy as a science in the 19th century. The social, economic, and political changes that took place in the human society at that time were highlighted for the separation of psychology as a separate science.

Key words: *Social, psychology, large groups, psychological knowledge, person, psychological conditions, Social-psychological characteristics of the person.*

KIRISH

Buguni kunda shaxs o'zining kimligini anglashga intilishdan, o'z ruhiy dunyosini va o'zgarlar ruhiyatini bilish istagi paydo bo'lishdan, tabiat va jamiyat hodisalarini tushunishga ehtiyoj sezishdan, o'tmish, hozirgi zamon, kelajak haqida mulohaza yuritishdan e'tiboran psixologiya fan sifatida rivojlana boshladi. Psixologik bilimlar juda uzoq o'tmish tarixga ega bo'lsa-da, lekin u fan sifatida falsafadan XIX asrga kelib ajralib chiqdi. Psixologiyani alohida fan sifatida ajralib chiqishga o'sha davrda kishilik jamiyatida yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar sabab bo'ldi, chunki bular ijtimoiy zaruriyatning taqozosi edi. Psixologik holatlarni tadqiq qilish, ya'ni psixika mohiyatini tushunish maqsadida o'sha davrda eksperimental ilmiy psixologik laboratoriyalar vujudga kela boshladi. Etimologik jihatdan "guruh" ikkita ildizga qaytadi: "tugun" va "aylana". XVII asrda guruh atamasi (italyancha groppo, gruppo dan) rassomlar va haykaltaroshlar tomonidan tasviriy materialni tartibga solish usulini belgilashda ishlatilgan bo'lib, unda ko'rinadigan birlikni tashkil etuvchi figuralar yaxlit badiiy tassurot qoldiradi. XVIII

asrda. bu so'z ma'lum miqdordagi bir hil jonsiz narsalarni birlashtirish imkoniyatining ko'rsatkichi sifatida keng tarqalgan bo'lib, a'zolari ularni ajratib turadigan ba'zi umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan haqiqiy inson jamoalarini nomlash uchun ishlatila boshlanadi. Biroq "guruh" so'zi bilan belgilangan hodisa keng va ongli ilmiy va psixologik qiziqish mavzusiga aylanguniga qadar butun bir asr o'tdi. Ijtimoiy guruhning psixologik kashfiyoti inson munosabatlarining maxsus haqiqati sifatida 19-asrning ikkinchi yarmida sodir bo'ldi, psixologik va sotsiologik bilimlarning yangi "tantanali" bo'limi - ijtimoiy psixologiyani rivojlantirish uchun hal qiluvchi stimullar bo'lib xizmat qildi. Aynan o'sha paytda K. D. Kavelin, P. L. Lavrov, N. K. Mixaylovskiy, H. Rossiyada N. Nadejdin, G. V. Plexanov, A. A. Potebnya va boshqalar, Germaniyada V. Vundt, G. Simmel, F. Tennis, D. S. Mill va G. Spenser Angliyada, S. Siegele Italiyada, 3. Dyurkheim, G. Le Bon va G. Tarde Frantsiyada, F. Gidzings, 4. Cooley, E. Ross, A. Small, W. Thomas va AQShda L. Uord o'z davridagi ijtimoiy-tarixiy jarayonlarni (davlatlarning shakllanishi, inqiloblar, urushlar, sanoatlashtirish, urbanizatsiya, aholining ijtimoiy va kasbiy harakatchanligining oshishi va boshqalar) tushunishga harakat qilib, tahlilga o'tdi. Asosan spekulativ - bu xalqning, jamiyatning, ommaning, olomonning, jamoatchilikning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, bu tarixni borishini yirik ijtimoiy jamoalar psixologiyasi belgilaydi, deb hisoblaydi. Shaxsning ijtimoiy-psixologik xarakteristikasi Shaxs tushunchasi. Jamiyat va shaxsning o'zaro munosabati. Shaxs faolligi. Shaxsning guruhdagi o'rnini, kommunikativ, perseptiv va interaktiv ta'sirlar tizimidagi o'rnini muammosi. Shaxs va uning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Ijtimoiy-psixologik tahlilda differensial psixologik ma'lumotlarga e'tibor qaratish. Shaxs tiplari va ularning psixologik xarakteristikasi. Shaxsning kommunikativ xususiyatlari. Shaxsning kognitiv murakkabligi va kognitiv stili muammosi. Shaxs va o'zaro ta'sir muammosi. Shaxsni birgalikdagi harakatlarga tayyorgarligi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XIX asrning oxiriga kelib. "milliy xarakter", "milliy ong (o'z-o'zini anglash)", "ijtimoiy tafakkur", "mentalitet", "jamoaviy vakolatxonalar" kabi tushunchalar ijtimoiy psixologiyaning kontseptual apparatiga qat'iy kirib keldi. G.M. Andreevaning fikriga ko'ra, ijtimoiy psixologiya uchun ko'p odamlarning oddiy bayonoti yoki hatto uning ichida qandaydir munosabatlarning mavjudligi yetarli emasligini ta'kidlash muhimdir. Shaxs mansub bo'lgan guruhlarining mazmunli xususiyatlari, muayyan ijtimoiy guruhning shaxsiga ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash alohida qiziqish uyg'otadi. Guruhni ijtimoiy faoliyat subyekti sifatida taklif qilingan talqiniga asoslanib, biz uning guruhga xos psixologik xususiyatlari sifatida belgilanadigan ba'zi bir (faoliyat subyekti sifatida)

xususiyatlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Uchun guruh psixologik xususiyatlari olimlar murojaat guruh manfaatlarini, guruh ehtiyojlarini, guruh normalari, guruh qadriyatlar, guruh fikriga, guruh maqsadlari. Konkret faoliyat odamlarning tabiiy ehtiyojlari asosida tashkil bo'ladigan bunday tabiiy guruhlarning o'zi kishilarning soniga karab katta kichik guruhlarga bo'linadi. Katta guruhlar uni tashkil etuvchilarning maqsadlari fazoviy joylashishlari, psixologik xususiyatlariga qarab, uyushgan va uyushmagan turlarga kichiklari esa o'z navbatida endi shakllanaetgan diffo'z hamda taraqqiyotning yuksak pogonasida kutarila olgan jamoa turlariga bo'linadi. Guruhlarning ijtimoiy psixologiya uchun ayniksa muxim hisoblangai turlariga ta'rif berish va ularning psixologik qonuniyatlarini o'rganishni maqsad kilib kuygan holda, bevosita katta guruhlarning ijtimoiy psixologik qonuniyatlarini o'rganishga utamiz. Katta guruhlar psixologiyasiga xos xususiyatlar va ularni ilmiy tadqiq qilish printsiplari.

Katta guruhlar kishilarning shunday birlashmalariki, undagi odamlar soni avvalo ko'pchilikni tashkil etib, ma'lum sinfiy, ilmiy, irkiy, professional belgilar ularning shu guruhga mansubligini ta'minlaydi. Katta guruhlarni tashkil etuvchilar ko'p sonli bo'lganligi va ular hulq-atvorini belgilovchi mexanizmlarning o'ziga xosligi tufayli bo'lsa kerak, ijtimoiy psixologiyada olimlar ko'pincha kichik guruhlarda ish olib borishini afzal kuradilar. Lekin katta kishilar uyushmasining psixologiyasini bilish juda katta tarbiyaviy va siyosiy mafkuraviy ahamiyatiga ega. Bu sohadagi tadqiqotlarning kamligi bir tomondan, aytib utilganidek, ko'pchilikni kamrab olishda qiyinchiliklar bo'lsa, ikkinchi tomondan, katta guruhlar psixologiyasini o'rganishga karatilgan metodik ishlar zaxirasining kamligidir. Masalan, ishchilar yoki zielilar sinfi psixologiyasi o'rganilishi kerak, deylik. Avvalo usha ishchilarning soni ko'p, qolaversa, ishchilarning o'zi turli ishlab chikarish sharoitlarida ishlaetgan, turli iklim sharoitlarida yashayotgan turli millatga mansub kishilardir. Ularning barchasini kamrab oladigan yagona ishonchli metodikani topish masalasi tadqiqotchi oldiga juda jiddiy muammolarni quyadi. Shuning uchuk ham xar bir katta guruhga taallukli bo'lgan asosiy etakchi sifatni topish va shu asosda uning psixologiyasini o'rganish xozircha ijtimoiy psixologiyadagi asosiy metodologik yo'llanma bo'lib kelmoqda.

Bugungi kunda "Ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya" (psixologiya fanlari) dastur yoshlarning olam, jamiyat va insonning o'rganishi psixologik bilimlarga zaruratning mavjudligi; ularning dunyoqarashini boyitish va rivojlantirishda psixologik qonuniyatlarni o'rganish ehtiyojining mavjudligi; inson psixologiyasining umumiy psixologik qonuniyatlarini, shaxs va voqelik, shaxs va jamiyat, shaxs va predmetlar olami orasidagi munosabat, voqelikni anglashi, olamni psixologik tahlili,

psixologik hodisalarning kechishi, psixologiyaning tarixiy va nazariy rolini jamiyatda olib borilayotgan ishlar orqali amalga oshirishga qaratilganligini harakterlaydi. Jamiyat va insonni o'rganishning shaxs va voqelik, shaxs va jamiyat, shaxs va predmetlar olami orasidagi munosabat, voqelikni anglash, olamni psixologik tahlili, psixologik hodisalarning kechishi, psixologiyaning tarixiy va nazariy rolini jamiyatda olib borilayotgan ishlar orqali amalga oshirishga qaratilganligi bilan harakterlanadi. Ilmiy bilimlar tizimida sotsial psixologiyaning tutgan o'rni. Predmeti haqida qarashlar. Sotsial psixologiya metodini tushunish umumiy psixologiya va sotsiologiya predmetini tushunishga bog'liqligi. Psixologiya va sotsiologik adabiyotlarda sotsial psixologiya predmetini birdek tushunish yo'qligi. Sotsial psixologiya predmetiga nisbatan mavjud uch nuqtai nazar. Odamlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va muomala. Ijtimoiy psixologiya qonuniyatlari. Ijtimoiy munosabatlar va shaxslararo munosabatlar tizimida muomalaning o'rni. Odamlar o'rtasidagi kommunikativ jarayonning xususiyati: informatsiyaning harakatlanishi davomida boyishi va rivojlanishi. Shaxslararo idrokning emotsional tomoni, shaxslararo atraksiya ko'rinishi, simpatiya, antipatiyaning turli ko'rinishlarini ochib beradi. Muomala jarayonida o'zaro ta'sir mexanizmlari, odamlar amaliy faoliyati va muomala jarayonida o'zaro ta'sir metodlari va usullarining ahamiyati. O'zaro ta'sir psixologiyasining etnik tomonlarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi, shuningdek, shaxslararo idrok aniqligini oshirishdagi amaliy vositalarni qo'llash, ijtimoiy psixologik trening o'tkazish va uning samaradorligini aniqlash kabi jihatlarni yoritishdan iborat. Sotsial psixologik g'oyalar shakllanishi tarixi Ijtimoiy falsafiy va sotsiologik ta'limotlarda ijtimoiy-psixologik g'oyalarni rivojlantirishi. Sotsial psixologiyani mustaqil fan bo'lib ajralib chiqishida ijtimoiy, ilmiy va ideologik nazariyalarni yaratish bo'yicha birinchi harakatlar. "Xalqlar psixologiyasi" uni tarixiy sabablari va vazifalari, Lasarus, Shteyntal tomonidan uni programmasi shakllanishi. "Xalqlar psixologiyasi" ga Vilgelm Vundtni maxsus yondashuvi. Omma va olomon psixologiyasi. Tard ishlarida uch manbalarni va uch tugallanishni "Ijtimoiy harakat instinkti nazariyasi" (Mak Daugall). Sotsial psixologiyani chet eldagi hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan asosiy nazariy konsepsiyasi. Yevropa sotsial psixologiyasida katta guruhlar va ommaning ijtimoiy jarayonlarini tahlil qilishga qiziqishning uyg'onishi.

Qolaversa, katta guruhlar jamiyatning tarixiy taraqqiyoti mobaynida shakllangan guruhlar bo'lgani uchun ham har qanday guruhni o'rganishdan oldin, xoh bu sinflar bo'lsin, xoh millatlar yoki xalqlar psixologiyasi bo'lsin, uning xayot tarzi, unga xos bo'lgan odatlar, udumlar, an'analar o'rganiladi. Ijtimoiy psixologik ma'noda, xayot tarznni o'rganish deganda, u yoki bu guruhga ta'alluqli bo'lgan kishilar o'rtasida amalga oshiriladigan muloqot tiplari, o'zaro munosabatlarda ustun bo'lgan psixologik

omillar, qiziqishlar, qadriyatlar, ehtiyojlar va boshqalar nazarda tutiladi. Ana shularning umumiyliigi tufayli har bir shaxsda, ya'ni u yoki bu katta guruhga mansub bo'lgan shaxsda tipik xislatlar shakllanadi. Masalan, 90 yillarning yoshlariga xos bo'lgan tipik sifatlar ana shular o'rtasida keng tarqalgan urf-odatlar, moda, so'zlashish xususiyatlari, qadriyatlar, qiziqishlar va hokazolar tufayli shakllanadi. Shuning uchun ham 20 yoshli kishining psixologiyasini tuliq ravishda o'rganish uchun undagi bilish jarayonlarining o'ziga xosligi, shaxsi, xarakteri va individual psixologik xususiyatlaridan tashqari, yana unga o'xshash yoshlarda ustun bo'lgan psixologik xislatlarining qanchalik namoyon bo'lishini, u mansub bo'lgan va asosan vaqtini o'tkazadigan guruhlar psixologiyasini, milliy sifatlarini ham nazarda tutish va ularni o'rganish zarur. Bu degani, har bir shaxs ongida uning yakka, alohida orttirgan shaxsiy tajribasiga aloqador psixologik tizimlardan tashqari, uning qaysi millat, elat sinfi mansubligi singdirilgan psixologik tizimlar ham mavjuddir va uni ilmiy tadqiqotchi inkor etmasligi kerak.

REFERENCES

1. Андреева Г. М. Социальная психология. – Москва. 2008.
2. Ғозиев Э. Ғ. Ижтимоий психология. – Тошкент. 2010.
3. Кузмин Е.С. Основы социальной психологии. – Москва. ЛГУ 2001.
4. Парнин В.Д. Основы социально-психологической теории. – Москва. 2001.
5. Каримова В.М. Социал психология. – Фарғона. 2002.
6. Петровский А.В. Социалная психология. – Москва. 2003.
7. Введение в практическую социалную психологию / Под ред. Ю. Жукова, Л. Петровской, О. Соловевой. – Москва. 1996.
8. Лебедева Н.М. Введение в этническую и кросс-культурную психологию. – Москва. 1998.
9. Майерс Д. Социалная психология. – Санкт Петербург. 1997.
10. Шибутани Т. Социалная психология. Ростов на Дону, 1998.

ЧАСТНАЯ СОБСТВЕННОСТЬ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОШЛЫЙ, НЫНЕШНИЙ И ЭВОЛЮЦИОННЫЙ ВЗГЛЯД

Шерматов Нуриддин

Преподаватель кафедры Гражданского право
Ташкентского государственного юридического университета
e-mail: shermatov.nuriddin@internet.ru

АННОТАЦИЯ

В этой статье исследуется сложная эволюция частной собственности в Узбекистане, анализируется ее историческое происхождение, правовая база, экономические и социальные последствия. В нем рассматривается трансформационный путь от системы коллективной собственности советской эпохи к признанию и защите прав частной собственности в эпоху после обретения независимости. В эссе подчеркивается роль прав собственности в стимулировании экономического развития, привлечении иностранных инвестиций и развитии предпринимательства. В нем также рассматриваются социальные и культурные аспекты этого перехода, а также проблемы и противоречия, которые он породил. Кроме того, в эссе обсуждаются потенциальные будущие перспективы частной собственности в Узбекистане, подчеркиваются роль государственной политики, потенциальные изменения в правах собственности и глобализация. В итоге данная аннотация представляет собой всесторонний обзор многогранной роли частной собственности в развитии и преобразовании Узбекистана.

Ключевые слова: частная собственность, эволюция, правовая база, права собственности, общественная собственность.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonda xususiy mulkning murakkab evolyutsiyasi o'rganilib, uning tarixiy kelib chiqishi, huquqiy asoslari, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari tahlil qilinadi. Unda sovet davridagi jamoa mulki tizimidan mustaqillikdan keyingi davrda xususiy mulk huquqlarini tan olish va himoya qilishgacha bo'lgan transformatsion yo'l ko'rib chiqiladi. Maqolada mulk huquqining iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantirish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, ushbu o'tish davrining ijtimoiy va madaniy jihatlari va u keltirib chiqargan muammolar va qarama-qarshiliklarni o'rganadi. Bundan tashqari, maqola O'zbekistonda xususiy mulkning kelajakdagi istiqbollarni muhokama qilib, davlat siyosatining rolini, mulk huquqidagi potentsial

o'zgarishlarni va globallashuvni yoritadi. Pirovardida, mazkur maqola O'zbekiston taraqqiyoti va o'zgarishida xususiy mulkning ko'p qirrali rolini har tomonlama ko'rib chiqadi.

***Kalit so'zlar:** xususiy mulk, evolyutsiya, huquqiy asos, mulk huquqi, jamoa mulki.*

ВВЕДЕНИЕ

Частная собственность является фундаментальной концепцией экономических, правовых и социальных систем во всем мире. Он служит краеугольным камнем капитализма, позволяя людям владеть, использовать и передавать активы в своих интересах. Однако эволюция частной собственности в Узбекистане представляет собой уникальный пример, на который повлиял исторический, политический и культурный контекст. В этом эссе мы исследуем концепцию частной собственности в Узбекистане, углубляясь в ее исторические корни, современное состояние прав собственности, а также проблемы и возможности, которые ждут впереди.

Историческое происхождение

Чтобы понять нынешнее состояние частной собственности в Узбекистане, необходимо изучить ее историческое происхождение. До советской эпохи Узбекистан, как и другие страны Центральной Азии, имел богатые традиции землепользования и собственности. Кочевые и оседлые общины полагались на четко определенные традиционные практики управления землей и имуществом.

Досоветский Узбекистан: традиционные системы собственности

В досоветском Узбекистане землевладение часто основывалось на общинно-племенной структуре. Кишлак (село) служил центральной единицей общинной организации, где земля находилась в коллективном владении и использовалась для сельского хозяйства и скотоводства. Эти традиционные системы собственности глубоко укоренились в узбекской культуре и регулировались обычным правом и общественным согласием.

Советская коллективизация

Советская эпоха кардинально изменила ситуацию с недвижимостью в Узбекистане. Политика коллективизации Иосифа Сталина привела коммунальную и частную собственность в руки государства. В 1920-х и 1930-х годах земля была конфискована и созданы колхозы, что представляло собой

резкий отход от исторического порядка собственности. Индивидуальное землевладение практически исчезло.

Современный Пейзаж

После распада Советского Союза в начале 1990-х годов Узбекистан, как и другие бывшие советские республики, столкнулся со сложной проблемой: реконфигурацией прав собственности в постсоветскую эпоху.

Правовые рамки

Переход Узбекистана от плановой экономики к рыночной системе потребовал разработки новых правовых структур для защиты прав собственности. Конституция Республики Узбекистан, принятая в 1992 году, заложила основы права собственности. Он признал право на частную собственность, землю и интеллектуальную собственность с целью восстановления индивидуальной и общественной собственности.

Конституция Республики Узбекистан: Конституция устанавливает основные принципы права собственности, включая признание права частной собственности. В нем излагаются конституционные рамки прав собственности в стране.

Также, Гражданский кодекс Республики Узбекистан охватывает различные аспекты частной собственности, включая права собственности, владение имуществом и сделки с имуществом. Он обеспечивает правовую основу для прав собственности и положений, касающихся контрактов, владения и наследования.

Земельные реформы

Важным аспектом прав собственности в Узбекистане является земля. Земельная реформа, начатая в 1991 году, была направлена на передачу земли от колхозов индивидуальным фермерам и частным предприятиям. Земельный кодекс 1998 года дополнительно определил права собственности на землю, гарантируя, что физические и юридические лица могут владеть, арендовать и передавать землю. Этот кодекс имеет решающее значение для регулирования прав собственности, связанных с землей. Он определяет правила владения землей, землепользования, сделок с землей и другие аспекты прав собственности, связанных с землей. В нем также излагаются юридические процедуры регистрации земли. Эти реформы были призваны стимулировать производительность сельского хозяйства и привлечь инвестиции.

Интеллектуальная собственность

В законодательной базе также предусмотрена защита прав интеллектуальной собственности, включая патенты и авторские права. Эти меры были направлены на поощрение инноваций, развитие предпринимательства и привлечение иностранных инвестиций. Также существуют Законы об интеллектуальной собственности. Права интеллектуальной собственности в Узбекистане регулируются различными законами и постановлениями. К ним относятся законы, касающиеся патентов, авторских прав, товарных знаков и других форм интеллектуальной собственности. Узбекистан предпринял усилия по приведению своего законодательства в области интеллектуальной собственности в соответствие с международными стандартами для поощрения инноваций и защиты прав авторов и изобретателей. В Узбекистане также созданы правовые механизмы и положения для защиты прав собственности и обеспечения возможностей для разрешения споров в случае споров, связанных с собственностью.

Экономическое развитие

Признание и защита прав частной собственности сыграли решающую роль в стимулировании экономического развития. Отдельные землевладельцы и частный бизнес инвестировали в сельскохозяйственное производство, способствуя самообеспеченности страны в производстве продуктов питания и экспортно-ориентированном сельском хозяйстве. Право на владение и передачу собственности способствовало росту бизнеса в различных секторах, включая недвижимость, производство и услуги.

Иностранные инвестиции

Права частной собственности сыграли значительную роль в привлечении иностранных инвестиций. Правовая защита прав собственности обеспечивает необходимую безопасность иностранным инвесторам, гарантируя им возможность владеть и управлять активами в Узбекистане. Это привело к увеличению прямых иностранных инвестиций в страну, поддерживая экономический рост.

Права собственности и рыночные реформы

Трансформация прав собственности в Узбекистане также тесно связана с рыночными реформами. Переход от государственных предприятий к частным предприятиям, чему способствовала приватизация активов, позволил создать

более рыночную экономику. Этот переход привел к усилению конкуренции, эффективности и инноваций в различных секторах, включая производство, сельское хозяйство и услуги.

Под руководством президента Шавката Мирзиёева, вступившего в должность в 2016 году, Узбекистан приступил к проведению ряда амбициозных экономических и правовых реформ. Земельные реформы продолжались с упором на обеспечение более гарантированного землевладения для фермеров и поощрение инвестиций в сельское хозяйство. Были предприняты усилия по сокращению бюрократии и коррупции в сделках, связанных с недвижимостью.

Улучшение инвестиционного климата было направлено на привлечение прямых иностранных инвестиций и содействие диверсификации экономики.

Эти реформы были направлены на создание более благоприятной среды для частной собственности, инвестиций и предпринимательства в Узбекистане. Хотя был достигнут прогресс в признании и защите прав собственности, сохранялись такие проблемы, как земельные споры и необходимость проведения продолжающихся правовых и административных реформ.

Социальное восприятие

Концепция частной собственности повлияла на общественное восприятие. Переход от коллективной собственности к частной привел к изменениям в том, как люди воспринимают и взаимодействуют с собственностью.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В этом эссе исследованы сложная и динамичная эволюция частной собственности в Узбекистане, уделяя особое внимание её историческим корням, правовой базе, экономическим последствиям, социальным воздействиям, а также проблемам и возможностям, связанным с этим переходом. После обретения независимости от Советского Союза в начале 1990-х годов Узбекистан встал на путь от системы коллективной собственности к признанию и защите прав частной собственности. Эта трансформация привела к значительному экономическому росту, привлекла иностранные инвестиции и стимулировала предпринимательство. Это также привело к изменениям в социальных представлениях, семейной динамике и культурных ценностях. Однако переходный период не лишен проблем, включая вопросы приватизации земли, имущественные споры и проблемы, связанные с коррупцией. Эссе завершается обсуждением потенциальных будущих перспектив, подчеркиванием важности государственной политики, потенциальных

изменений в правах собственности и интеграции Узбекистана в мировую экономику. В целом, он дает всесторонний обзор того, как частная собственность повлияла на развитие и трансформацию Узбекистана.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (REFERENCES)

1. Научная статья А.Х.Саидова - Право собственности в Республике Узбекистан (2006 г.).
2. Научная статья Р.Шарипова Эволюция права собственности. Обзор законодательства Узбекистана (2008 г.)
3. Институт прогнозирования и макроэкономических исследований. Земельные реформы: опыт стран мира и Узбекистана.
<https://imrs.uz/files/publications/ru/626795.pdf>;
4. Эксперт института бюджетно-налоговых исследований Сергей Воронин - Особенности проведения реформы управления экономикой в условиях Узбекистана;
5. Веб-лекция Azizov & Partners о Приватизация в Узбекистане. Июнь 4, 2021
<https://azizovpartners.uz/ru/2021/06/04/privatizaciya-v-uzbekistane/>

QAROQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA OZIQ–OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING EKOLOGIK MUAMMOLARI

b.f.d.prof. Mambetullayeva Svetlana Mirzamuratovna

Dauletbaeva Guliya Elmuratovna

Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot instituti

ANNOTATSIYA

Maqolada Qoraqalpog'istonda oziq-ovqat xavfsizligi, geografik joylashishi uning hududiy va davriy jihatlari, monitoring qilish ko'rsatkichlari va Qoraqalpog'iston uchun ahamiyatli kabi masalalari o'rganilgan hamda tegishli xulosalar qilingan.

***Kalit so'zlar:** Oziq-ovqat xavfsizligi, milliy miqyosda ta'minlanganlik, oilaviy darajada yetarlilik, individul foydalana olish, ta'minotning davriy barqarorligi.*

ABSTRACT

In the article, issues such as food security in Karakalpakstan, its geographical location, regional and periodic aspects, monitoring indicators and important issues for Karakalpakstan were studied and relevant conclusions were made.

***Key words:** Food security, supply at the national level, sufficiency at the family level, individual availability, periodic stability of supply.*

KIRISH

Mamlakatda ekologik oziq-ovqat xavfsizligi — milliy xavfsizlikning ajralmas qismidir. Aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash muhim ahamiyatli ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar sirasidan. Bugungi kunda bu masala barcha mamlakatlar uchun birdek ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Ekologik oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xalqaro ekspert tadqiqotlari jahonda va uning ayrim mintaqalarida ushbu muammo bilan bog'liq murakkab vaziyat yuzaga kelayotgani jiddiy tashvish va xavotir uyg'otayotganini ko'rsatmoqda. Shuni e'tiborga olgan holda, har yili 16 oktyabrda dunyo aholisining oziq-ovqat tanqisligi muammosidan xabardorligini oshirish maqsadida "Xalqaro oziq-ovqat kuni" keng nishonlanadi.

Mamlakatning ekologik muhitini yaqshilash va oziq-ovqat xavfsizligi darajasi uning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish imkoniyatlariga bevosita bog'liqdir. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan agrar siyosat milliy qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarini rag'batlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va ularni qayta ishlash siyosiy barharorlikning asosiy shartlaridan biri sifatida qaraladi va bu holat ma'lum tarzda tartibga solinadi. 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bilan bog'liq voqealar xalqaro miqyosda narx-navo ko'tarilib, oziq-ovqat ta'minotida uzilishlar yuzaga kelgani Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining ko'plab davlatlarida norozilik va ommaviy tartibsizliklarga sabab bo'lgan edi.

Yer yuzi aholi tez ko'payib borayotgani bilan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish imkoniyatlari cheklangani o'rtasidagi tafovut oziq-ovqat dasturini hal etish masalasi yildan-yilga keskinlashib borayotganining asosiy sababi hisoblanadi.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida oziq-ovqat tanqisligi muammosini bartaraf etish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Bu holat qishloq xo'jaligi va savdo tarmog'ida strategiya va dasturlarning tatbiqiga bog'liq.

Xususan, XX asrning ikkinchi yarmida "Yashil inqilob" nomi bilan tanilgan ekinlarning hosili birdan yuksalishi natijasida oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmi ancha oshdi. FAO ma'lumotlariga ko'ra, 1960 va 2000 yillar orasida bug'doy hosil 208 foizga oshdi hamda sholi, makkajo'xori va kartoshka hosil tegishli ravishda 109, 157 va 78 foizga ko'paydi.

"Yashil inqilob" Ekologik muhitning yaqshilanishiga oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan fan va davlat dasturlari hamkorligining muvaffaqiyatli misolidir. Ko'p mamlakatlarda hukumat turli navlar va urug'lik ta'minotini qo'llab-quvvatlaydi, sug'orish tizimlarini rivojlantiradi va kimyoviy o'g'itlar ta'minotini subsidiya qiladi. Qishloq xo'jaligi sinov-namoyish dasturlari fermerlarga yangi navlar uruqlari, mineral o'g'itlar, pestitsidlar ta'minoti bilan bir qatorda ushbu inqilobning ijobiy natijalari kengroq tatbiq qilinishini qo'llab-quvvatladi. Fan yutuqlari tatbiqi, ekologik takomillashtirish hamda mineral o'g'itlarning samarali qo'llanilishi Osiyo va Lotin Amerikasidagi ko'p mamlakatlarga o'z aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlashda dolzarb masalalarni hal etishga imkon berdi.

O'rta Osiyoning markazida joylashgan O'zbekiston Respublikasi va uning ajralmas qismi Qaroqalpog'iston Respublikasida oziq – ovqat qavfsizligini ta'minlash masalasi eng dalzarb masalalarning biriga aylangani hesh kimga sir emas. Qaroqalpog'ston Respublikasi geografik joylashishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi 37 foiz hududini egallab cho'l zonasi poyasida joylashgan. Qo'shni

Qozog'iston, Turkmaniston Respublikalari va Xorazm viloyati bilan chegaradosh bolib,4 ta zonaga bo'linadi.

1. Janubiy (To'rtkul, Ellikqala, Beruniy, Amudaryo tumanlari)
2. O'rta (Xojayli, Shomanay, Taxiyyatosh, Kegeyli, Nukus tumanlari)
3. SHimoliy (Qanlikul, CHimbay, Qong'irat, Qarao'zak, Taxtak'o'pir tumanlari)
4. Dengiz hududi (Mo'ynaq tumani)

Qaroqalpog'iston Respublikasi er maydoni 164,9 ming kv.km. Xalq soni 1,948ming. Tuprog'i: qum, qumli soz va soz tuproqli erlardan tashkil topgan. Jami 500 ming ga sug'oriladigan er maydoni bulib shundan 447 ming ga sug'arib ekiladi.[20,29-bet]

Qaroqalpog'iston respublikasida ekinlar maydoni va olinadigan hosil bo'yicha ma'lumotlarni keltirish mumkin.

Ekin turi	Ekin maydoni ming.ga	Hosildorlik ts/ga	Olingan Hosil
Paxta	94-110	15-22	220
Bug'doy	50-60	20-30	180
SHoli	20-30	30-45	135
Sabzavot	15-20	20-30	60
Bog'dorchilik	10-15		
Uzum	2		

Qaroqalpog'ston Respublikasida o'rta hisob bilan jon boshiga talab qilinadigan (1 yilga) mahsulotlar miqdori

Non va non mahsulotlari	90,2 kg
O'simlik yog'i	6,3 kg
Guruch	4,9 kg
Go'sht	46,1 kg
Baliq	10,1
Sut	135,6
Poliz	19,5
Kartoshka	50,4
Meva	58,3
Uzum	13,9

Qaroqalpog'iston sharoitida go'sht, tuxum,kartoshka, savzabot va boshqada mahsulotlarning kam etishtiriliyotganligi, ya'niy oziq-ovqat havfsizligini ta'minlash

maqsadida boshqa hududlardan keltirish zarurligi keltirib chiqarmoqda. [18,27bet] Xalqimizning salomatligi, tinchligi har tamonlama taraqqiyotga erishishi sag'lom avlodni tarbiyalashda, jami xalqimiz va davlatimiz oldindagi ulug' maqsadlarga erishishda oziq –ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi asosiy masalalarning biri hisoblanadi. Ushbu mahsulotlarni ko'paytirish maqsadida Davlatimiz rahbari tamonidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmogda. Jumladan "Qishloq-xo'jaligi mahsulotlarining sifat va havfsizlik ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash chora tadbirlar" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilindi. So'ngi yillarda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va eksport geografiasini kengaytirish bo'yicha izchil islohatlar amalga oshirilmogda.[P.Q.]

2016-2019 yillar davomida yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi-171,2 foizga, jumladan meva-savzobachilik-172,6 foizga, chorvachilik mahsulotlari-170 foizga, o'rmon va baliqshilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 177,5 foizga oshdi.

Meva savzabot mahsulotlarining eksport hajmi 1,4 mln tonnadan oshdi 2016 yilga nisbatan 1,5 barabargao'sishga erishildi. Shu bilan birga talablarning tabora kuchayib borishi, respublikamizda etishtirilayotgan mahsulotlarning xalqaro bazorlardagi o'rnini mustahkamlash uchun O'zbekiston Respublikasida *Organik* va *Global G.A.P.* xalqaro standartlari talablariga muvofiq mahsulot ishlab chiqarish, tartibga solish va muvofiqlashtirish tizimlarini rivojlantirish, qishloq va o'rmon xo'laligi mahsulotlarining sifat va havfsizlik ko'rsatkichlarini yaqshilash, eksport geografiasini kengaytirish, shuningdek mamlakatimizning organic mahsulot ishlab chiqarish salohiyatidan to'liq foydalanish imkoniyatini oshirish maqsadida; O'zbekiston Respublikasi organic qishloq-xo'jaligi va organic oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish koncepciyasi chora-tabirlarini amalga oshirishga muvofiq O'zbekiston Respublikasida so'ngi yillarda keng ko'lamli amaliy ishlar islohatlar amalga oshirilmogda: jumladan O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat ta'minoti jamg'armasi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasida ishga tushirilgan 7 ta loyiha doirasida jami 975 mln so'm subsidiya berildi.

Shuningdek, 2022-yilda ishga tushiriladigan 6 ta loyiha doirasida, loyihalar amalga oshirilishi bilan y ana 650 mln so'm subsidiya berish rejalashtirildi.

Yangi loyihalar a malga oshirilishi natijasida meva-sabzavotlarni qayta ishlash quvvati 36,5 ming tonnaga va qayta ishlash darajasi 9,6 foizga, go'sht-sutni 23,4 ming tonnaga va qayta ishlash darajasi 4,6 foizga, boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlari 749,1 ming tonnaga yetkaziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni Qishloq qo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'grisida. 2020 yil.
2. A.R. Babajanov A.M.Muqumov Hududlarni rivojlantirish (o'quv qo'llanma)
3. P.G'ulamov «O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi» Nukus-2017P.
4. R.Normaxmatov, G.YA.Pardaev, SH.I.Ismoilov. Oziq-ovqat mahsulotlari e'kspertizasi ob'ektlari. Darslik. Toshkent.2019.
5. R.Normaxmatov Oziq-ovqat mahsulotlari tovarshunosligi e'kspertizasi asoslari. O'quv q o'llanma. Toshkent.2019.
6. P.З.Григорьева. Безопасность продовольственного сырья продуктов питания. Учебное пособие. Москва 2017.

ИЖТИМОЙ ЖИХАТДАН ХАВФЛИ АҲВОЛДАГИ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР СОДИР ЭТИШГА МОЙИЛ ВОЯГА ЕТМАГАН ШАХСЛАРНИНГ ТАСНИФИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Байжанов Бабил Баҳадирович

Ўзбекистон Республикаси ИИВ Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси
хизмати бўлим бошлиғи

Асланов Бобур Тухтаевич

Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси
Криминология кафедраси ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ:

Мазкур мақолада ижтимоий жиҳатдан хавфли аҳволдаги ҳуқуқбузарликлар содир этишга мойил вояга етмаган шахслар билан ишлашнинг ўзига хос хусусиятлари, амалдаги қонунларда “ижтимоий жиҳатдан хавфли аҳволда бўлган вояга етмаган” тушунчаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш юзасидан таклифлар берилганлиги, вояга етмаганлар ҳуқуқбузарликлари буйича олимларнинг қарашлари кенг ва қамровли ёндашган ҳолда ёритиб берилган.

Калит сўзлар: қонун, ҳуқуқбузарлик, жиноят, ижтимоий жиҳатдан хавфли аҳволда бўлган вояга етмаган, мойил, болалар ва ўсмирлар, чоратадбирлар ва ҳуқуқий оқибатлар.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены особенности работы с несовершеннолетними, склонными к совершению преступлений в общественно опасной ситуации, а также предложения по изменению и дополнению понятий “общественно опасные несовершеннолетние”, определенные в действующем законодательстве, взгляды ученых на правонарушения несовершеннолетних освещены в широком и всестороннем подходе.

Ключевые слова: закон, правонарушение, преступление, социально незащищенные несовершеннолетние, уязвимые, дети и подростки, меры и правовые последствия.

ABSTRACT

This article considers the peculiarities of work with minors prone to committing crimes in a socially dangerous situation, as well as proposals to change and supplement the concepts of “socially dangerous minors” defined in the current legislation, the views of scientists on juvenile offenses are covered in a broad and comprehensive approach.

Keywords: law, offense, crime, socially unprotected minors, vulnerable, children and adolescents, measures and legal consequences.

КИРИШ

Мамлакатимизда вояга етмаганлар ҳуқуқ-эркинликларини таъминлаш, уларнинг қонуний манфаатларини муҳофаза этиш, энг асосийси, баркамол авлодни тарбиялаш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилган. Вояга етмаганлар манфаатларини ҳимоя қилиш борасида мустаҳкам ҳуқуқий база яратилгани самарали ижтимоий ҳимоя тизимини жорий этиш ҳамда ёшларни моддий-маънавий қўллаб-қувватлашда муҳим омил бўлмоқда. Лекин шунга қарамасдан бугунги кунда вояга етмаганлар орасида ҳам хулқ оғиши билан боғлиқ ҳолатлар кузатилиб турилмоқда.

Шунингдек, ғайриижтимоий хулқ-атворли вояга етмаган шахслар жамият томонидан қабул қилинган меъёрий тартиботларга, ҳаётий қонунларга, турмуш тамойилларига мувофиқ ривожланади, тараққий этади, жамиятда ўрнатилган ижтимоий меъёрларга қатъий риоя қилади, амал қилади. Аммо бу ижтимоий меъёрлардан ҳам четга чиқиш, қонунларга бўйсинмаслик, ҳуқуқларни бузиш ҳоллари ҳам жамиятда учраб туради.

Шу боис, вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар ва жинойатчиликнинг олдини олиш уларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш мақсадида ички ишлар органлари ходимлари томонидан бир қанча профилактика чора-тадбирлари амалга ошириб келинмоқда.

Таҳлиллилар шуни кўрсатмоқдаки, 2022 йилнинг 12 ойида Тошкент шаҳар ички ишлар бош бошқармаси ҳуқуқбузарликлар профилактикаси хизматида фаолият олиб бораётган инспектор-психологлар томонидан ҳуқуқбузарликлар содир этишга мойил бўлган вояга етмаган шахслар билан ишлашда қуйида салбий хусусиятларини аниқлашган:

Хусусан инспектор-психологлар томонидан 2 655 нафар тарбияси оғир болалар аниқланган (шулардан, 1 184 таси дарсга келмаслик, 286 таси ўқитувчига нисбатан менсимаслик, 164 таси ноқонуний жисмлар олиб юрган, 612 таси ўқувчилар билан жанжаллашган, 391 та порнографик маҳсулотлар сақлаган, 18 таси эса зўравонлик ёки шавқатсизликни тарғиб этувчи материаллар сақлаган.)

5 183 нафар назоратсиз қаровсиз қолган болалар вояга етмаганларга ижтимоий-ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш марказига жойлаштирилган ҳамда 12 873 нафар ота-оналарга нисбатан Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги қонуннинг 47-моддасига асосан чоралар кўрилган.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ҳуқуқбузарликлар содир этишга мойил бўлган вояга етмаган шахслар томонидан Тошкент шаҳри буйича 2022 йилнинг 12 ойда 308 та жиноятлар содир этилган шундан, оғир тан жароҳати етказиш 6 тани, ўғирлик 136 тани, талончилик 22 тани, босқинчилик 7 тани, фирибгарлик 30 тани, безорилик 38 тани, бошқа жиноятлар 69 тани ташкил этганлигини[1], шунингдек вояга етмаганлар томонидан энг кўп содир этилган ҳуқуқбузарликлар безорилик жиноятлари эканлигини кўриш мумкин.

Файриижтимоий хатти-ҳаракатларни содир этиш нияти кўпинча, болалар ва ўсмирларда муайян вазиятларнинг таъсири натижасида тусатдан пайдо булганлиги кузатилади. Бунга болалар ва ўсмирларнинг ёш ҳусусиятлари, яъни уларда катъий ҳаётий хатти-ҳаракатларнинг мавжуд эмаслиги, ахлоқий ва ҳуқуқий қарашларнинг шаклланмаганлиги, тажриба ва дунёқарашнинг етарли эмаслиги кабилар сабаб сифатида хизмат килган.

Вояга етмаган шахснинг ҳуқуқбузарликлари қандай шаклланади, оиладаги носоғлом ижтимоий-руҳий муҳит сабабларини ўрганиш борасида турли даврлардан бошлаб ҳар хил соҳа мутахассислари томонидан қатор тадқиқотлар олиб борилган. Бу ҳақда шу йўналишда фаолият олиб борган олимларнинг фикларини ёритиш мақсадга мувофиқдир.

Биологик йўналиш тарафдори Ч. Ламброза (1836–1909) атропологик мактабга асос солган бўлиб, ушбу йўналиш криминологик назарияларида жиний хул-атвор инсонни жиноятга ундовчи биологик ҳусусиятлар билан боғлиқ деб фикр юритган. Бу борада жиноятчининг жиноят содир этишга биологик мойиллиги мавжуд ва ушбу ҳусусиятни инсонда йўқ қилиб бўлмайдиган, деган фикр мавжуд бўлган[2] деган ҳамда генетик назарияни илгари сурган. Яъни жиноятчининг фарзанди жиноятчи бўлиб туғилади ва шаклланади деган фикрга келиш мумкин.

О.Конт ва унинг тарафдорлари Ф.Лист (Германия), Е.Ферри (Италия), М.В.Духовный, И.Й.Фонитский, С.В.Позднишев (Россия)ларни келтириб ўтиш мумкин. Ушбу олимлар муълум даражада биологик факторларни рад этмасалар-да, жиний хатти-ҳаракатлар ижтимоий жиҳатдан асосланган деб ҳисоблаб, ўз ғояларини илгари сурадилар.

Ф.Г.Углов эса ўз тадқиқотларининг кўрсатишича, 1500 нафар тараққиётдан орқада қолган болаларнинг 2 фоизи наркотик истеъмол қилмайдиган оналардан, 9 фоизи алкоголь истеъмол қилувчи оналардан, 74 фоизини наркотик моддаларни кўп истеъмол қилувчи оналардан туғилганлиги аниқланган. Жиноятчилик ирсият орқали ўтмайди. Бола

онасининг қорнидан жиноятчи бўлиб туғилмайди. Жиноятчилик атрофдаги муҳит, муносабатлар (ота-она, тенгдошлар, катталар билан бўладиган) таълим – тарбия таъсиридан келиб чиқиши мумкин. Унинг пайдо бўлишига қизиқиш, эҳтиёж, ироданинг пастлиги ҳам сабаб бўлади[3] деб таъкидлаган.

М.О.Камилова ва Ф.К.Исканжановаларнинг фикрича ўсмирлик ёшига хос булган ҳиссий беқарорлик, кўзғалувчанлик, таъсирланувчанлик хусусиятлари ва юзага келган муаммоли вазиятларни тўғри баҳолай олиш малакасининг етишмаслиги ҳамда ўзида юзага келган уй ва ниятларни тезроқ амалга оширишга бўлган интилишнинг кучлилиги уларда ғайриқонуний ҳаракатларни амалга ошириш тўғрисидаги ниятнинг пайдо бўлишига олиб келган[4] деб фикр билдиришганлигини кўриш мумкин.

Ғ.Б.Шоумаров эса ўз ёндошувларида вояга етмаганларнинг оиладаги носоғлом психологик муҳит нафақат эр-хотин ўртасидаги низоларни, балки болалар руҳиятидаги, хулқ-атворидаги ўзгаришларни ҳам келтириб чиқаришлиги[5] мумкинлигини муълум қилган.

Таҳлилларга асосан шуни кўриш мумкинки, олимларнинг фикрларига қисман қўшилган ҳолда бизнингча, бу каби тоифадаги шахсларнинг шаклланишида ташқи вазият (объектив омил), ҳам ички (субъектив омил) мақсадлар билан боғлиқ ҳисобланади. Вояга етмаган шахслар томонидан содир этилаётган ҳуқуқбузарликларнинг салмоғини кўп ҳолатларда ташқи муҳитлар таъсирида амалга ошираётганлигини кўриш мумкин. Шунингдек ҳуқуқбузарлик номаъқбул ижтимоий-иқтисодий, маънавий-ахлоқий муҳитдагина илдиз отиши мумкин деган фикрдамиз.

Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 29 сентябрдаги “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисидаги” қонуннинг 3-моддасида қуйидаги хатбошисида келган *Ижтимоий жиҳатдан хавфли аҳволда бўлган вояга етмаган* – “вояга етмаганнинг назоратсизлиги ёки қаровсизлиги оқибатида унинг ҳаёти ёки соғлиғи учун хавф туғдирадиган ёхуд уни таъминлаш, тарбиялаш ва унга таълим бериш талабларига жавоб бермайдиган шароитда бўлган ёхуд ҳуқуқбузарлик ёки бошқа ғайриижтимоий ҳатти-ҳаракатлар содир этаётган вояга етмаган”[6] тушунчалар бериб ўтилган.

Мазкур қонуннинг 3-моддасида тушунчалар кўрсатилган бўлсада, вояга етмаган шахслар ҳуқуқбузарликларига оилада айрим ота-ота ва унинг ўрнини босувчи шахслар томонидан яратиб берилган салбий шарт-шароитлар натижасида ғайриижтимоий хулқ-атвори шаклланган деган маъноларда келган.

Бизнингча намунали оила, она-она ва унинг ўрнини босувчи шахслар томонидан вояга етмаган фарзандлар тарбияси учун барча шарт-шароит яратиб

берилган бўлсада, уларнинг ҳуқуқбузарликлари ташқи муҳит таъсири натижасида (*кўчада, мактабда ёки ҳуқуқбузарликлар содир этишига мойил шахслар таъсири* остида ёки “интернет ижтимоий тармоқлари “инстаграм”, телеграм, одноклаский ва бошқаларнинг турли сегментларида оммалашган ва кўплаб мунозараларга сабаб бўлган “*Кўк кит*”, “*Тинч уй*”, “*WinX*”, “*югурасан ёки ўласан*” (*беги или умри*) кабилар вояга етмаган ўсмирларни ўз домига тортаётганлигини ва бу ўйинлар ҳам охири ўйинчининг ўз жонига қасд қилиш ҳодисаси билан яқунланади)[7] ортирилган ғайриижтимоий хулқ-атворлари оқибатида юз берилиш мумкин деган фикрдамиз.

Таҳлилларга асосланиб, шуни айтиш жоизки, Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 29 сентябрдаги “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги 3-моддаси хатбошида келган “*Ижтимоий жиҳатдан хавфли аҳволда бўлган вояга етмаган*” тушунчасини қуйидагича “*Ижтимоий жиҳатдан хавфли аҳволдаги ҳуқуқбузарликлар содир этишига мойил вояга етмаган* – жумлалари билан тўлдириш таклиф этилади.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, вояга етмаганлар ҳаётида оиладаги носоғлом ижтимоий-руҳий муҳит нафақат зўравонликларнинг, балки оғир ва ўта оғир жиноятларнинг содир этилишини таъминловчи асосий омил ҳисобланади.

Ички ишлар органлари ходимлари томонидан вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликларни жиловлаш мақсадида қуйидаги ҳуқуқбузарликларнинг махсус профилактикасини амалга ошириб келинмоқда:

Жумладан: “*давомад, тиз, ўсмир, диққат пиёда, қора дори*” ва бошқа чора-тадбирлар.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида шу ўринда таъкидлаш жоизки, жамиятда устувор бўлган оилавий қадриятлар, урф-одатлар ва маросимларнинг ўрни оилада тарбияланаётган фарзандларнинг шаклланишида шунингдек оила аъзолари ўртасида вужудга келадиган барқарор, соғлом ижтимоий муносабатларга боғлиқ деб ҳисоблаймиз.

Шунингдек, вояга етмаганларни назорат қилиш ва қаровсиз қолдирмаслик, уларнинг тарбияси билан шуғулланиш нафақат ота-она ва уларнинг ўрнини босувчи шахсларнинг балким давлат ва жамият олдида турган энг катта вазифа ва мақсадлардан бири эканлигини унутмаслик керак. Чунки юртимизда вояга етмаганлар томонидан содир этиладиган ҳуқуқбузарликлар салмоғи қанча камайса бу бизнинг олдимизга қуйган марралардан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати (REFERENCES)

1. ИИВ Жамоат хавфсизлиги департаментида 2022 йил 12 ой якуни бўйича ҳуқуқбузарликлар профилактикаси хизмати фаолияти юзасидан видеоселектор йиғилишига.
2. Исмаилов И., Абдурасулова.Қ.Р., И.Ю.Фазилов Криминология. – Т., 2015. – 100-б
3. Нима учун киши жиноятга қўл уради? Жиноят содир этаётганди нимага ўзини тўхтатиб қололмайди?
URL:<https://uz.denemetr.com/docs/768/index-71296-1.html?page=2>
4. М.О.Камилова ва Ф.К.Исканжанова: Ғайриижтимоий хатти-харакатлар ва қизиқишлар болалар ва ўсмирларда хулқ оғишининг келтириб чиқарувчи омил сифатида” URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/ayriizhtimoiy-hatti-arakat-va-izi-ishlar-bolalar-va-smirlarda-hul-o-ishini-keltirib-chi-aruvchi-omil-sifatida>.
5. Қаранг:Шоумаров Ғ.Б. Вояга етмаган жиноятчилар билан ишлашнинг психологик масалалари. // Таълим тизимида психологик хизмат: муаммолар, ечимлар. Термиз, 2002. 7-9 бет.
6. Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 29 сентябрдаги “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги Қонун.
7. Н.И.Тайлоқов . Жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликка мойил ўқувчиларни аниқлаш ва уларни тарбиялаш .Китоб. Тошкент - 2017 й. 14-бет. URL: <https://www.researchgate.net/>

SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIDA YARIMO‘TKAZGICH MATERIALLARINING O‘RNI, ULUSHI VA O‘SISH TENDENSIYALARI

Axmadaliyeva Gulnora Xamraqulovna

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sog‘liqni saqlash tizimida ishlatiladigan materiallar, ularni ishlatilish sohalari, o‘rni va ularni sog‘liqni saqlash bozoridagi o‘sish tendensiyalari ko‘rsatib o‘tilgan.

Key words: *Sog‘liqni saqlash, yarimo‘tkazgichlar, komponentlar, diagnostika, maishiy tibbiy elektronika, diagnostika, tibbiy asboblari, integral mikrosxemalar sensorlar, segmentlar.*

МЕСТО, ДОЛЯ И ТЕНДЕНЦИИ РОСТА ПОЛУПРОВОДНИКОВЫХ МАТЕРИАЛОВ В СИСТЕМЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ

Ахмадалиева Гулнора Хамракуловна

Преподаватель Ферганского медицинского
института общественного здравоохранения

АННОТАЦИЯ

В данной статье показаны материалы, используемые в системе здравоохранения, области их использования, их место и тенденции роста на рынке здравоохранения.

Ключевые слова: *Здравоохранение, полупроводники, комплектующие, диагностика, бытовая медицинская электроника, диагностика, медицинские приборы, интегральные схемы, датчики, сегменты.*

THE PLACE, SHARE AND GROWTH TRENDS OF SEMICONDUCTOR MATERIALS IN THE HEALTH CARE SYSTEM

Akhmadaliyeva Gulnora Khamrakulovna

Teacher of Fergana Public Health Medical Institute

ABSTRACT

This article shows the materials used in the healthcare system, their areas of use, their place and growth trends in the healthcare market.

Keywords: *Healthcare, semiconductors, components, diagnostics, consumer medical electronics, diagnostics, medical devices, integrated circuits, sensors, segments.*

KIRISH

Sogʻliqni saqlash yarimoʻtkazgichlari bozori ilovalar boʻyicha (tibbiy tasvirlash, maishiy tibbiy elektronika, bemorlarni diagnostika monitoringi va terapiyasi, tibbiy asboblari), komponentlar boʻyicha (integral mikrosxemalar (analog, mantiq, xotira, mikro), optoelektronika, sensorlar va diskret komponentlar) va segmentlarga boʻlinadi. Bozor oʻlchamlari va prognozlari yuqoridagi barcha segmentlar uchun qiymat boʻyicha taqdim etilgan.

Sogʻliqni saqlash yarimoʻtkazgichlari bozorining hajmi 2023-yilda 7,47 milliard AQSh dollarini tashkil etadi va 2028-yilga kelib 12,82 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, bu prognoz davrida 11,41 foizga oʻsadi. Sogʻliqni saqlashda ishlatiladigan koʻplab qurilmalar yarimoʻtkazgich texnologiyasiga asoslangan. Sensorlar, integral mikrosxemalar, diskret qurilmalar, xotira quvvatini boshqarish qurilmalari va boshqalar kabi yarimoʻtkazgich komponentlari klinik diagnostika va terapevtika, tibbiy tasvirlash, portativ va uy sogʻliqni saqlash kabi sohalarda turli xil ilovalarda qoʻllaniladi. Bozor hajmi Shimoliy Amerika, Yevropa, Osiyo Tinch okeani, Lotin Amerikasi, Yaqin Sharq va Afrika kabi mintaqalarda turli tibbiy ilovalarda foydalanish uchun integral mikrosxemalar, optoelektronika, sensorlar va diskret komponentlar kabi yarimoʻtkazgich komponentlarini sotishdan olingan daromadni oʻz ichiga oladi. Tadqiqot shuningdek, bozorning asosiy parametrlarini, oʻsishga taʼsir qiluvchi asosiy omillarni va prognoz davrida bozor hisob-kitoblarini va oʻsish surʼatlarini qoʻllab-quvvatlash uchun sanoatda ishlaydigan asosiy sotuvchilarni kuzatib boradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bozor tibbiy asboblari sohasida turli xil oʻzgarishlarga guvoh boʻlmoqda, bu esa ilgʻor yarimoʻtkazgichlarga boʻlgan talabni oshirishi kutilmoqda. Portativ dializ mashinalari bozorda kuchayib bormoqda va Baxter kabi provayderlar pandemiyadan keyingi FDA ruxsatini oldilar, bu elektron sogʻliqni saqlash yozuvlarini bemorlarning retseptlari va davolanish maʼlumotlariga bevosita ulash uchun moʻljallangan. Bunday ishlanmalar ilgʻor yarimoʻtkazgichlarga boʻlgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Bemorlarni masofaviy nazorat qilish qurilmalaridan foydalanishning koʻpayishi, diagnostika va davolash usullarining rivojlanishi va yuqumli boʻlmagan kasalliklarning yuqori darajasi kabi omillar ham sogʻliqni saqlash yarimoʻtkazgichlari bozorining oʻsishiga yordam berishi kutilmoqda.

Tibbiyot xodimlari va shifoxonalarning katta qismi hozirgi texnologik standartlarga javob bermaydigan va yangi texnologiyalarga oʻtishga qodir boʻlmagan turli xil eskirgan uskunalardan foydalanishda davom etmoqda. Bunga qoʻshimcha ravishda, yangi texnologiyalarning oʻsishi va oʻzlashtirilishiga toʻsqinlik qiladigan

bunday qurilmalarning mavjudligi va moliyalashtirilmaganligi sababli butun dunyoda ishlatilgan tibbiy texnologiyalar uchun katta bozor mavjud.

COVID-19 pandemiyasi boshlanganda, iste'molchilar va provayderlar sog'liqni saqlash xizmatidan xavfsiz foydalanish va yetkazib berish yo'llarini izlashlari sababli telesog'liqni saqlashdan foydalanish keskin oshdi. Mashhurlik ortib borayotgan teletibbiyot sohaslaridan biri bu bemorlarni masofadan kuzatishdir. Bemorlarni masofadan turib kuzatish pandemiya davrida bemorlarni uyda kuzatish va davolash imkonini berib, sog'liqni saqlashga foyda keltiradi. Bundan tashqari, bemorni masofadan kuzatish bemorlarning COVID-19 virusi yuqishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda o'tkazishi kerak bo'lgan vaqtni sezilarli darajada qisqartirdi. Binobarin, bemorlarni masofaviy nazorat qilish tizimlariga talab keskin oshib, bunday tizimlarda ishlatiladigan yarimo'tkazgich komponentlariga sezilarli talabni keltirib chiqardi.

Tibbiy ko'rish segmenti rentgen, kompyuter tomografiyasi, magnit-rezonans tomografiya va pozitron emissiya tomografiyasidan iborat bo'lib, ular tibbiy tasvirlash orqali saraton va surunkali kasalliklar kabi turli kasalliklarni tashxislashda qo'llaniladi. Sog'liqni saqlash sanoatida texnologik taraqqiyot va texnologiyaning tobora ortib borishi bilan tibbiy radiatsiya sohasida asbob-uskunalar va texnikalar nuqtai nazaridan ko'plab yutuqlar kuzatildi. So'nggi bir necha yil ichida interventsion rentgenografiyaning muhim yutuqlaridan biri bu nurlanish dozasini mos ravishda oshirmasdan yuqori sifatli, yuqori aniqlikdagi tasvirlarni olish uchun asosiy va yordamchi texnologiyalarga e'tiborning ortishi bo'ldi. Tibbiy asboblarning sanoatida rentgenologik diagnostika testlariga e'tibor kuchayishi va surunkali kasalliklarning ortib borayotgan yuki tufayli har yili o'tkaziladigan tasvirlash va diagnostika testlari soni ortib bormoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Dunyo aholisining istiqbollari" ma'lumotlariga ko'ra, 65 va undan katta yoshdagilar soni barqaror o'sib bormoqda. 2050-yilga kelib, dunyoning keksa yoshdagi aholisi (60 yosh va undan katta) 2 milliardga yetishi prognoz qilinmoqda, ularning 80 foizi past va o'rta daromadli mamlakatlarda yashashi mumkin. Shu sababli, keksa yoshdagi aholi sonining ko'payishi va ortopedik va yurak-qon tomir muolajalari sonining ortib borishi tibbiy ko'rikdan foydalanishni yanada kuchaytirishi mumkin. Tibbiyot sohasida stomatologik ilovalar kamroq va qisqaroq skanerlashni talab qiladi. Listerine Professional ma'lumotlariga ko'ra, og'iz bo'shlig'i kasalliklari eng keng tarqalgan sog'liq muammosi bo'lib, butun dunyo bo'ylab o'rtacha 3,9 milliard odamga ta'sir qiladi. Shunday qilib, stomatologiya sohasida rentgen tasviriga bo'lgan asosiy talab o'rganish bozorida turli yarimo'tkazgichlarga bo'lgan talabni oshirishi kutilmoqda.

Sog'liqni saqlash yarimo'tkazgichlari bozori prognoz davrida o'rtacha darajada o'sishi kutilmoqda. 2022-yil sentyabr - Analog Devices yangi MAX77659 integral mikrosxemasi chiqarilishini e'lon qildi, taqiladigan qurilmalar, eshitish apparatlari va narsalar interneti qurilmalari uchun bitta induktorli, ko'p chiqishli quvvatni boshqarish. 2022-yil noyabr oyida BioIntelli Sense qorong'u va och teri pigmentatsiyasida qon kislorodining etarli darajasini ta'minlash uchun qayta ishlash texnologiyasi bilan birlashtirilgan patentlangan FDA tomonidan tasdiqlangan puls oksimetri sensori chipsetini chiqarishni e'lon qildi. Bunday yangiliklar ilg'or yarimo'tkazgichlarga bo'lgan talabni oshirmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda yarimo'tkazgich materiallar ko'plab ilg'or raqamli qurilmalarni quvvatlaydigan muhim texnologiya vositalaridir. Yarimo'tkazgich sanoati keyingi o'n yillikda tibbiy texnologiyalardagi yutuqlar tufayli kuchli o'sishni davom ettiradi. Bu doimiy ilmiy-tadqiqot xarajatlari va taniqli o'yinchilar o'rtasidagi raqobat bilan birlashtiriladi. Bozor turli mintaqalarda tibbiy asboblarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan to'rtta asosiy yarimo'tkazgich komponentlarini o'z ichiga oladi. Bozor ko'rsatkichlari sog'liqni saqlash bozorida ishlaydigan turli sotuvchilar tomonidan taklif qilinadigan yarimo'tkazgich mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlarni o'z ichiga oladi. Mintaqalar va ilovalar bo'yicha daromadlarni taqsimlash nuqtai nazaridan, raqamlar sog'liqni saqlash sohasidagi joriy dastur tendentsiyalari asosida yarimo'tkazgich komponentlarini kuzatib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M. "Oliy majlisga va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasi". Xalq so'zi gazetasi. №272-son, 2-3 betlar. 21.12.2022-yil.
2. S.X. Umarov "Tibbiyot texnikasi". – Toshkent- 2014 y.
3. A.N. Remizov. Tibbiy va biologik fizika. Ibn Sino nomidagi nashriyot. – T.: 2005-yil.
4. Ливенсон А. Р. Электромедицинская аппаратура. М: 1981 г.
5. Muhammadmusayevich, E. R. (2022, April). KO'ZNING KAMCHILIKLARI VA TIBBIYOTDAGI DAVO CHORALARI. In *E Conference Zone* (pp. 124-126).
6. Ravshanbek, E. (2023). OPTICAL PART OF THE EYE AND RELATED DISEASES. *World Bulletin of Public Health*, 19, 180-181.
7. YAKUBOVA, S., NOSIROV, N., & Tulanov, O. (2018). The basic equation of the molecular-kinetic theory of gases. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(1), 17-19.

8. Nosirov, N. V. (2022). Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik-psixologik omillardan foydalanishning ahamiyati. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(4), 81-85.
9. Ahmadaliyeva, G. H. (2022). YARIMO 'TKAZGICH MODDALAR VA ULARNING XARAKTERISTIKALARI. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(1), 91-93.

TEXNOLOGIYA FANINI BIR NECHTA FANLAR BILAN BOG'LAB O'TISHDAGI USLUBIY TAVSIYALAR

Eshonov R.M.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o'qituvchisi

Karimova J.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

BM yo'nalishi 1421-guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola umumiy o'rta ta'lim maktablariga texnologiya fani mashg'ulotlarini o'zaro va boshqa fanlar bilan bog'lab o'tish bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan. Shu bilan birga bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini ta'minlab beruvchi asosiy talablar ham yoritilgan.

***Kalit so'zlar:** dasturiy vositalar, texnologiya, transformatsiya, raqamli texnologiyalar, audiovizual, axborot texnologiyalari, dadaktik vositalar.*

МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО СВЯЗИ ТЕХНОЛОГИИ С НЕСКОЛЬКИМИ ДИСЦИПЛИНАМИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье приведены методические рекомендации общеобразовательных школ по тому, как связать уроки технологии между собой и другими предметами. При этом также выделены основные требования, обеспечивающие необходимый и достаточный уровень подготовки будущих учителей к педагогической деятельности.

***Ключевые слова:** программные средства, технологии, трансформация, цифровые технологии, аудиовизуальные, информационные технологии, дидактические средства.*

METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS IN CONNECTING TECHNOLOGY WITH SEVERAL DISCIPLINES

ABSTRACT

This article provides general secondary schools with methodological recommendations on how to connect technology classes with each other and other subjects. At the same time, the main requirements that ensure the necessary and sufficient level of preparation of future teachers for pedagogical activities are also highlighted.

Key words: *software tools, technology, transformation, digital technologies, audiovisual, information technologies, didactic tools.*

KIRISH

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar hamda bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy, intellektual va kasbiy salohiyatiga nisbatan qo'yilayotgan yuqori talablar ta'lim muassasalari oldiga xalqaro talablarga javob bera oladigan sifatli kadrlar tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Bu vazifalarni bajarish yo'lida esa ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Har bir mavzu mazmunini yoritishda uning mohiyatini o'quvchilar tomonidan chuqur, ilmiy asoslangan holda tasavvur etishlari, vaqtdan unumli foydalanish, nazariy bilimlarini amalda, hayotga va ishlab chiqarishga qo'llash imkoniyatlarini keng yoritish, ularning politexnik tushunchalarini kengaytirish maqsadida o'qituvchi tomonidan tuziladi hamda u kalendar mavzuli rejada o'z ifodasini topadi. Tabiiy ilmiy turkumdagi fanlarning o'zaro bog'liqlik rejasi. Bu hujjatda texnologiya fani, fizika, matematika, kimyo, chizmachilik va boshqa fanlarning o'zaro bog'lanishi ochib beriladi. Mavzuni o'rganishga kirishilganda o'quv materialining fizika, matematika, kimyo, chizmachilik va hakoza fanlardan o'quvchilar olgan bilimni yetkazishga harakat qilmaydi. O'qituvchi suxbat o'tkazish yo'li bilan o'quvchilarning bu sohadagi bilimlarini qanday o'rganganliklarini aniqlaydi va ana shu fanlardan olgan bilimlar asosida ularga ishlov berilayotgan metallarning tuzilishi va kirish jarayonini tushuntirib boriladi. Tabiiy-ilmiy turkumdagi fanlar texnologiya fani, fizika matematika, kimyo, chizmachilik fanlarida kesish jarayoni va kesuvchi asbob, uning geometriyasi: qirqindi hosil bo'lish jarayoni to'g'risidagi umumiy tushuncha, kesish chuqurligi, surish va kesish tezligi, asboblarning chidamliligi. Kesuvchi asboblarning turlari, parmalar, kesgichlar, frezalar, dastarralar va h.k. Qattiq jismlarning xossalari (qirqish qattiqroq jismning uncha qattiq bo'lmagan jismga botishi, pona. Kuch, massa va tezlanishi, ishqalanish ish va issiqlik). To'g'ri chiziq va tekisliklarning fazodagi paralelligi, ko'p yoqli burchaklarning xossalari, eritmalar emulsiyasi, mineral moylar va hayvon yog'lari, surib sovitish moddalari. Hamma fanlarda chizma va rasmlarning tutgan o'rni benihoyat kattadir chunki birorta detall yoki buyumni yasashdan avval uning chizmasi yoki eskizi chiziladi va o'quvchilarga ko'rsatiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Texnologiya darslarida texnologiya va matematikani bo'g'lab o'tishda o'quvchilarga to'g'ri burchak, perpendikulyar va parallel chiziqlar, to'g'ri burchakli uchburchak va to'g'ri to'rtburchak kabi shakllarni hosil qilishga oid tushunchalar zarur bo'ladi. Bulardan tashqari, o'quvchilar mehnat darslarida simmetriya o'qi,

shakllarni simmetrik chizish, aylana, urinmalar o'tkazish chizg'ich, go'nya, transportir, burchak o'lchagich, sirkul kabi turli asboblar yordamida detall yoki buyumlarning burchaklarini, yoy markazlarini, to'g'ri va egri chiziqli boshqa o'lchamlarini aniqlashlariga to'g'ri keladi. Bunday paytlarda geometriyaga oid bo'lgan bilimlar zarur bo'ladi. Binobarin, maktab geometriya kursida chizish va o'lchash qurollaridan foydalanish, yuzalarni almashtirish kabi ishlarni bajarishda katta imkoniyatlar bor. Vazifa shulardan texnologiya darslarida o'rinli foydalanishdan iborat. Shuningdek, berilgan buyumlarning uzunligi, eni, balandliga, yuzasi, hajmi kabi turli o'lchamlarini aniqlash, qancha material va vaqt sarf bo'lishini hisoblash kabi ishlarni bajarishda esa arifmetikaga oid bilimlar zarurdir.

Ma'lumki, texnologiya darslarida texnologiya va jismoniy tarbiyaning bo'g'lab o'tishda fanning asosiy qismi amaliy mashg'ulotlardan iborat. Shu sababli o'quvchilarning amaliy mashgulotlarda charchab qolmasliklari ko'p jihatdan ularning jismoniy chiniqishlariga bog'liqdir. Bundan texnologiya va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'zaro muvofiqlashtirish zarur degan oqilona xulosa kelib chiqadi. Binobarin, yoshlarni jismoniy tarbiyalash bilan ularni mehnatga tayyorlashning o'zaro kompleks bog'langan masalasi hal etiladi, ya'ni unda shaxsning mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan professional jismoniy xususiyatlari, harakat malakalari, ahloqiy-irodaviy va sotsial sifatleri shakllanadi. Xususan arralash, randalash ishlarini gimnastika bo'lsa, bolg'alash ishlarini boks deb tushunamiz, chamalash ishlarini mo'ljalga olish kabi mashg'ulotlarga muvofiqlashtirish mumkin. Shuni alohida ta'kidlab o'tish o'rinliki, agar jismoniy tarbiya mashqlari 4-sinflardagi texnologiya darslariga umumiy tarzda bog'lansa ularni yuqori sinflarda bu bog'lanishlar o'rganiladigan muayyan ixtisosliklar: masalan, duradgor, tokar, elektr payvandchi, suvoqchi, g'isht teruvchi, slesar santexnik kabi kasblarga bevosita moslashtirish oson bo'ladi. Texnologiya va ekologiya fanlarini bo'lab o'tish hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida ish asboblari va xom ashyolardan tejamkorlik bilan foydalanish kun tartibidagi asosiy talablardan bo'lib qoldi. Amaliy mashg'ulotlarda xom ashyolardan va asbob-uskunalardan tartibsiz foydalanish pirovard oqibatda ekologiya muammosiga kelib taqaladi. Shuning uchun o'quvchilarga yog'och, metall, plastmassa kabi materiallarni berayotganda nima uchun bu xom ashyolarni tejamkorlik bilan ishlatish zarurligini aytib o'tish lozim. Ularga bu narsalarning uzoq davrlar mobaynida va qanday yo'llar bilan vujudga kelishini hamda tabiatga qanchalik ta'sir ko'rsatkichi yoki bog'liqligini gapirib o'tish mumkin. Yuqorida aytilgan fikrlar texnologiyadagi fanlararo uzviy bog'lanishlar ta'lim samaradorligini oshirishdagi muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Bilamizki, bitta darsni birdaniga hamma fanlar bilan bog'lab o'tib bo'lmaydi, balki o'rganiladigan mavzuga mos

keluvchi tushuncha va ma'lumotlarni tanlab olib, zarur paytda ulardan foydalaniladi. Shuningdek, texnologiya darslarida boshqa fanlar, jumladan chet tili, iqtisod kabi fanlardagi tushunchalardan ham keng foydalanish mumkin. Hozirgi kundalik turmushning barcha javoblarida, fizika, texnika va boshqa tabiiy fanlarning integratsiyasi jarayonlari keng qo'llanilib kelinmoqda. Shuning uchun ham bo'lajak mutaxassis o'quvchilar, maktabda umumiy o'rta ta'lim predmetlari bo'yicha keng integrativ bilimlar bilan qurollangan bo'lishlari lozim.

Texnologiya	Fizika	Kimyo
Yog'ochning kimyoviy va texnologik xossalari	Elastiklik kuchi (deformatsiya)	Modda va uning xossalari. Organik moddalar
Yog'ochga ishlov berishda qo'l asboblardan foydalanish texnologiyasi	Ishqalanish kuchi. Bosim	Modda va uning xossalari
Kauchuk to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Polimerlar va metallarning birikmalardan hosil bo'lgan konstruksiyalar	Deformatsiya. Temperatura	Kislotalar
Ta'mirlashda qo'llaniladigan zamonaviy qurilish materiallari. Shahar va qishloqlarda suv, gaz, elektr energiya va issiqlik ta'minoti tizimi, undan foydalanish	Tok kuchi. Kuchlanish	Moddalarning toifalanishi, bo'linishi
Go'sht mahsulotlarining ozuqaviy qiymati, ahamiyati, ularning sifatiga bo'lgan talablar	Temperatura	Moddalarni toifalanishi
Kimyoviy tolalarni olinishi. Kimyoviy tolalarning xossalari	Temperatura. Deformatsiya	Ishqorlar. Kislotalar

Bunda o'qituvchi maqsadga yo'naltirilgan, uslubiy va ilmiy asoslangan va o'quv materiallarining mazmuni, mohiyati bo'yicha maqsadga muvofiq integrativ materiallarni tanlashning prinsiplarini bilishi zarur. Binobarin, o'qituvchi nafaqat dasturdagi mavzularga oid integrativ materiallarni yig'ishi, balki uni tizimlashtirishi, ular bilan o'quvchilarni darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tanishtirish maqsadida zaruriy metodlarni izlab topishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi buyicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
2. Muslimov N.A, Qo'ysinov O.A, Abduraxmonov Sh, Abdullaeva Q.M, Gaipova N.S, "Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyalari". Metodik qo'llanma. - T.: 2014 y.

3. Muhammadmusayevich, E. R. (2022, April). KO'ZNING KAMCHILIKLARI VA TIBBIYOTDAGI DAVO CHORALARI. In *E Conference Zone* (pp. 124-126).
4. Muhammadmusayevich, E. R., & Erkinovna, E. M. (2023). BOLALARDA TANA HARORATI BOSHQARILISHINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION*, 2(1).
5. Ravshanbek, E. (2023). OPTICAL PART OF THE EYE AND RELATED DISEASES. *World Bulletin of Public Health*, 19, 180-181.
6. YAKUBOVA, S., NOSIROV, N., & Tulanov, O. (2018). The basic equation of the molecular-kinetic theory of gases. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(1), 17-19.
7. Nosirov, N. V. (2022). Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik-psixologik omillardan foydalanishning ahamiyati. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(4), 81-85.
8. Nosirov, N. (2023). Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 477-480.
9. Ahmedov, M., Solajirov, I., & Nosirov, N. (2018). The role of competencies in creating innovative learning environments. *World Social Science. Scientific-practical journal. Moscow*, (3).

BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI METODIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Nosirov Nodirbek Valijonovich

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini metodik kompetentligini takomillashtirishning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Har bir o'sib kelayotgan yosh avlodning buguni zamon talablariga to'la qonli javob berishlari uchun axborot kommunikatsiyasining o'rni beqiyosdir.

***Kalit so'zlar:** Muloqot, o'qituvchining tashabbuskorligi, ta'lim-tarbiyaviy, ijtimoiy- psixologik, kreativ kompetentlikni shakllantirish, pedagogik va psixologik darajalari, metodika, metodik kompetentlik, pedagogika, kasbiy mahorat, malaka.*

КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Носиров Нодирбек Валижонович

Преподаватель Ферганского медицинского
института общественного здравоохранения

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены специфические аспекты повышения методической компетентности будущих учителей технологического образования. Место информационного общения несравнимо для того, чтобы каждое подрастающее молодое поколение в полной мере отвечало требованиям времени.

***Ключевые слова:** Коммуникация, инициатива педагога, формирование учебно-воспитательной, социально-психологической, творческой компетентности, педагогико-психологического уровня, методология, методическая компетентность, педагогика, профессиональное мастерство, квалификация.*

KEY ASPECTS OF IMPROVING METHODOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE TECHNOLOGICAL EDUCATION TEACHERS

Nosirov Nodirbek Valijonovich

Teacher of Fergana Public Health Medical Institute

ABSTRACT

This article describes the specific aspects of improving the methodological competence of future teachers of technological education. The place of information communication is incomparable for each growing young generation to fully respond to the demands of the time.

Keywords: *Communication, initiative of the teacher, formation of educational-educational, social-psychological, creative competence, pedagogical and psychological levels, methodology, methodological competence, pedagogy, professional skill, qualification.*

KIRISH

Respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilish va ta'limning xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash maqsadida izchil va keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimida yo'lga qo'yiluvchi pedagogik-psixologik xizmat mohiyatidan kelib chiqqan holda umumiy o'rta ta'lim maktablarida undan foydalanish har bir o'quvchining ichki imkoniyatlarini o'rganish, keng ko'lamli tadqiq qilish, ularda muayyan yo'nalish bo'yicha namoyon bo'luvchi ijodkorlik qobiliyatni aniqlash va darajalarini belgilash, mavjud holatlarga muvofiq o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini yanada boyitishga xizmat qiluvchi rivojlanish dasturlarini yaratish mumkin bo'ladi. Hammasining zaminida yosh avlodga oilada, ta'lim muassasalarida, xalq ta'limi tizimining boshqa tarmoqlarida beriladigan maxsus ta'lim-tarbiya yotadi. Ayniqsa keng dunyoqarash, ilmiy salohiyat, mustaqil va ijodiy fikrlash xususiyatlari har bir o'quvchi-yoshlarda shakllangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir [1].

Kreativlikni rivojlantirishning eng unumli yo'llaridan biri barcha o'quvchilarni kichik yoshidan mahsuldor ijodga va kasbga o'rganish bilan mashg'ul bo'lishga jalb etish, darslarni ijodiy tarzda tashkil qilish, turli xil noan'anaviy dars usullaridan keng foydalanishdir [2]. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, texnologik ta'lim darslaridagi mashg'ulotlarini muvafaqiyatli o'tish, texnologik ta'lim va tarbiyasida sifat samarasiga erishish ko'p jihatdan o'quvchilarning kreativ fikrlashiga bog'liq ekanligini ko'ramiz. Texnologik ta'lim darslarini hususiyatlari shundan iboratki, o'quvchilarda texnologik ta'lim darsi va texnik ijodkorligini rivojlantirish jarayoniga

oid ko'nikma va malakalarini xilma-xil nazariy va amaliy mashg'ulotlarni bajarish orqali o'zlariga kerakli va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlarni egallab oladilar. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan texnologik ta'lim o'qituvchilari oldidagi mas'uliyat shundan iboratki, o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni takomillashtirish, ichki imkoniyatlarni o'rganish, ijodkorlik qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirishdan iborat.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Texnologik ta'lim darslarini o'quv jarayonini tashkil qilish o'quvchilarni muayyan texnologiya fani bo'yicha malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirishga xizmat qilib qolmay, balki ularning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini o'stirish va ularni texnologik ta'lim darsiga bo'lgan qiziqizshlari va munosabatini tarbiyalashda ham juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan texnologiya fani darslari g'oyat muhim ahamiyatga egadir [3].

Texnologik ta'lim darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya metodlarini qo'llash, metod va vositalari, ta'lim jarayonining muvaffaqiyati, uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir. Ta'lim nazariyasida o'qitishda turli yangi pedagogik texnologiyalar metodlarini qo'llash asosiy o'rin egallaydi. Yangi pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro xamkorligi va uzviy ravishda faollik ko'rsatishidir. Chunki agar darsda o'qituvchi bosh figura, ya'ni yetakchi fikr bildiruvchi bo'lib qolsa, o'quvchilar ma'suliyati va javobgarlik hissi susayadi. Demak, ular mustaqil fikr yuritish, mushohada qilish, xulosa chiqarishdan yiroqda bo'ladi [4-6].

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayonida qo'llash o'qituvchidan o'rganuvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillikni, bilimlarni puxta o'zlashtirishni, zarur malaka va ko'nikmalarni, ularni kuzatuvchanlik, tafakkur va mantiqiy nutqni, xotira va ijodiy tasavvurni tarbiyalashga imkon beradi. O'qituvchining o'rganuvchilarni metodik kompetentligini oshirishda quyidagi ko'rsatmalarga amal qilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

- ❖ O'rganuvchi o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli topshiriqni yaxshi tushuna olishi, qiyin va murakkab masalalarni turli jihatlarni ang'lay olishi.
- ❖ Ko'plab xilma xil g'oyalar, fikrlar, taxminlar, variantlarni taklif etish va ilgari surish.
- ❖ Biror goyani turli xil tasvirlar, tafsilotlar bilan to'ldira olish, bildirilgan fikrlarni takomillashtirish.
- ❖ O'rganuvchi fikrining nostandartligi, antiqaligi, qiziqarliligiga e'tiborli bo'lish.
- ❖ O'quvchilar tomonidan berilayotgan goya yoki fikrlarni rivojlantirish,

topqirlikni shakllantira olish.

❖ O'quvchining ijodiy faoliyatiga xissiy qiziqish, qiziquvchanlik, ijodiy motivatsiya, extiyojning mavjudligini rivojlantirish.

❖ O'quvchilarni biror yangicha fikr va g'oya o'ylab topishga ko'nikma va malaka hosil qilish.

❖ Ushbu uslublarni qo'llash jarayonida o'quvchilardan ko'plab fikr va g'oyalar olish maqsadiga erishguncha harakat qilishi.

❖ O'quvchilarning aytgan fikrlarini tasavvur qilishga harakat qilish.

❖ O'quvchining to'g'ri javobi mavjud bo'lmagan taqdirda ham fikrlashga harakat qilishga o'rgatish.

❖ O'quvchi to'g'ri javobni topgan bo'lsa ham, yana boshka javob variantlarini o'ylab topishga undash.

❖ O'quvchining auditoriyada, o'quvchilar o'rtasida o'z fikrini erkin bayon qila olishga o'rgatish.

❖ O'quvchining bildirgan o'z goyalarini o'quvchilar davrasida muhokama kilishga o'rgatish.

❖ O'quvchilarni aytgan fikrlarini, xatto ularni, amaliyotda qo'llab bo'lmasa ham inobatga olish.

❖ O'quvchilarning fikrlari uchun masu'liyatni xis etishi, muayyan fikrlarni tashqi rag'batsiz ham amalga oshirish mumkinligini o'rganish.

❖ O'quvchilarning taqdim etgan fikr va g'oyalarini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini tanqid qilmagan holda, tahlil qilib berish. O'qituvchining yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatmalarga amal qilishi o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini va auditoriya faolligini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Shuningdek, o'qituvchi dars jarayonida yuqorida qayd etilgan ko'rsatmalarni amalga oshirish davomida o'quvchilarga nafaqat bilim berish balki shu bilan birga ularda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan o'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini hamda ma'naviy dunyoqarashni shakllantiradi. Buning uchun texnologik ta'lim darslarini o'qitishda – “Muammoli vaziyat”, “Klaster”, “Venn” diagrammasi, “O'zing o'yla, o'zing izla, o'zing top”, “Kim ko'p yangilik biladi?”, “Ijodkor kim”, “Tabiat va texnologiya” va hokazo kabi metod va o'yinlardan foydalanilsa, o'quv mashg'uloti davomida katta samaralarni qo'lga kiritish mumkin. Shunday qilib, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ko'pqirrali, murakkab pedagogik-psixologik jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etish pedagogning pedagogik-psixologik bilimlarni puxta o'zlashtirganligini, tashkiliy-texnologik va metodik jihatdan to'g'ri tashkillashtira olishini taqozo etadi. Shuningdek, bu jarayonni tashkil etishda o'quv jarayonidagi

holatni to'la o'rganishi, bu yo'ldagi amaliy harakatni tizimli olib borish uchun zarur chora-tadbirlarni aniq belgilashni bilishi lozim [7-10].

XULOSA

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, ta'lim oluvchilarda keng fikrlash, ijodiylik, ijodiy tafakkur – kreativlikni, ijodiy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida turli xil usullar, bilim, ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantiruvchi yangi pedagogik texnologiyalar qo'llash yordamida ularda avvalo keng tafakkurni, irodaviy xususiyatlarni, o'ziga nisbatan ishonch tuyg'usini, faollik va faoliyatni, mehnat qilish ko'nikmalarini, maqsad sari intilish xususiyatlarini tarkib toptirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T., 2017. –B.39.
2. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi // Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2013.
3. Mannonov J.A. Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari: ped.f.f.doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – T.: 2020. – 52 b.
4. M. K. Shomirzayev Combined In Technology Courses Use Of Technologies //The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2021. – T. №. 05. – P. 389- 396 betlar.
5. B.E.Qodirov "Elektron axborot ta'lim muhitida o'quvchilarning hunarmandchilikka oid tayanch kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi": Diss. p.f.f.d. (PhD) – Termiz: 2021-yil 142-bet.
6. Ахмедов, М., Салижонов, И., & Носиров, Н. (2018). Роль компетенций в создании инновационной среды обучения. *Мировая общественная наука. Научно-практический журнал*.
7. YAKUBOVA, S., NOSIROV, N., & Tulanov, O. (2018). The basic equation of the molecular-kinetic theory of gases. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(1), 17-19.
8. Nosirov, N. V. (2022). Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik-psixologik omillardan foydalanishning ahamiyati. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(4), 81-85.

9. Nosirov, N. (2023). Bo ‘lajak texnologiya fani o ‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 477-480.
10. Ahmedov, M., Solajirov, I., & Nosirov, N. (2018). The role of competencies in creating innovative learning environments. *World Social Science. Scientific-practical journal. Moscow*, (3).
11. Muhammadmusayevich, E. R. (2022, April). KO’ZNING KAMCHILIKLARI VA TIBBIYOTDAGI DAVO CHORALARI. In *E Conference Zone* (pp. 124-126).
12. Muhammadmusayevich, E. R., & Erkinovna, E. M. (2023). BOLALARDA TANA HARORATI BOSHQARILISHINING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION*, 2(1).
13. Ravshanbek, E. (2023). OPTICAL PART OF THE EYE AND RELATED DISEASES. *World Bulletin of Public Health*, 19, 180-181.
14. A.M.Ismatov va boshqalar “Texnologiya fani mashgulotlari jarayonida o’quvchilarning kreativ kompetentligini shakllantirishda pedagogik va psixologik darajalarini namoyon qilish shakllari” “Respublika janubida elektr energetika sohasining rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy -xalqaro anjuman materiallari to’plami. Termiz. 16-17 dekabr. 2022 yil.

DUKKAKLI DONLI EKINLAR ZARARKUNANDALARINING BIOLOGIK VA EKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Toshtemirova Muazzam

Farg'ona davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti
Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD)

Nomonova Shahnoza

Biologiya turlari mutaxassisligi magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada dukkakli donli ekinlarning zararkunandalari bo'lgan, malhamchi qo'ng'iz, shu kabi zararkunandalarning biologik va ekologik xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Dukkakli donli ekinlar, no'xat, mosh, loviya, malhamchi qo'ng'iz, no'xat qo'ng'izi, dumli ko'k kapalak.*

АННОТАЦИЯ

В статье описаны биологические и экологические особенности вредителя зернобобовых культур жука, а также таких вредителей.

Ключевые слова: *Бобовые культуры, горох, маш, фасоль, мучнистый червец, гороховый жук, синяя бабочка хвостатая.*

ABSTRACT

The article describes the biological and ecological features of the pest of leguminous crops, the beetle, as well as such pests

Key words: *Legumes, peas, mung beans, beans, mealybug, pea beetle, tailed blue butterfly.*

KIRISH

O'simliklarni zararli organizmlardan ishonchli himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi „Respublikada o'simliklar karantini va himoyasi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“ gi PF-6262-son farmoni bo'yicha bir qancha ishlar olib borildi.

Malhamchi qo'ng'izlar (*Mulabris Fbr.* avlodi).

Markaziy Osiyoda malhamchi qo'ng'izlarning bir necha turlari zarar yetkazadi. Ular: *M. frolovi Germ., M. biguttata Gebl., M. cincta Ol., M. quadripunctata L., M. scabiosae Ol., M. calida Pall., M. turcestanica Esch., M. andecimpunctata Gebl., M. sedecimpunctata Gebl.* lardan iborat.

Zarari. Malhamchi qo'ng'izlar lichinkalik stadiyasida zararsizgina emas, balki qizil bosh shpanka singari, chigirtka ko'zachalarida parazitlik qilib foyda ham

keltiradi. Voyaga yetgan qo'ng'izlar no'xat, beda, zig'ir, xantal, soya, indov gullarini, ba'zan barglarini ham kemiradi. Biroq bu qo'ng'izlar lalmikor ekinlardagina sezilarli darajada zarar yetkazadi.

Tarqalishi. Frolov malhamchisi (*Mulabris frolovi Germ.*) Markaziy Osiyo, Qozog'iston va Sibirda uchraydi; *Mulabris biguttata Gebl.* O'zbekiston, Tojikiston va Shimoliy Afg'onistonda borligi aniqlandi; belbog'li malhamchi (*Mulabris cinsta Ol.*) Gresiya, Kichik Osiyo, Suriya, Eron, Misr, Jazoirda tarqalgan. Markaziy Osiyoda bu turning alohida kenja turi *Mulabris cincta Shrenki Gebl.* uchraydi. To'rt nuqtali malhamchi (*Mulabris quadripunctata L.*) Markaziy va Old Osiyoda hamda O'rta va Janubiy Yevropada uchraydi; *Mulabris Scabiosae Ol.* Markaziy Osiyoda, Yaqin Sharq mamlakatlarida, Kavkaz ortida, Volganing qo'yi qismlarida hayot kechiradi; Turkiston malhamchisi (*Mulabris turkestanica Esch.*) va o'n olti nuqtali malhamchi (*Mulabris sedecimpunctata Gebl.*) O'zbekistonda tarqalgan; o'n bir nuqtali malhamchi (*Mulabris undecimpunctata Gebl.*) Markaziy Osiyo respublikalarida uchraydi.

Malhamchi qo'ng'izlarning tanasi cho'zinchoq bo'lib, yon tomonlari birmuncha siqilib turadi. Oldingi ko'kragi qanotustliklarining tubiga qaraganda torroq. Mo'ylovlari to'g'nag'ich shaklida bo'lib, tasbehsimon bo'g'imli, oldingi va o'rtancha oyoq panjalari besh bo'g'imli, keyingi oyoqlariniki to'rt bo'g'imli; qalqonchasi yaqqol ko'rinib turadi.

Mulabris frolovi Germ. tanasining uzunligi 11-16 mm, rangi metalldek yaltirab turadigan qopa tusda, qora tuklar bilan qoplangan. Qanotustliklarining rangi ko'kish qora, tublarida qizil dog' bor; qanotustliklarining o'rtasi yonida qizil dog' va uchlari yonida tishsimon belbog' bor. Tanasi rangi qora, metalldek yaltirab turmaydi. Qanotustligining uchi, mo'ylovlari va oyoqlari qora rangli, kallasi va orqasining oldi qopa tuklar bilan qoplangan.

Mulabris biguttata Gebl.- tanasining uzunligi 12—15 mm. Qanotustligi qopa, asosida sariq dog', uchlari yonida belbog' bor, ba'zan o'rta qismi yonida sariq dog' ham bo'ladi. Qanotustligi qizil tusda, qora belbog'li va dog'li.

Mulabris cincta Ol tanasining uzunligi 15—27 mm. Qanotustligining tubi o'rtasi va uchida qopa rangli uchta serbar belbog' bor. *M. quadripunctata L.* Tanasining uzunligi 10—16 mm, qanotustligida to'rtta qopa dumaloq dog' bor, ularning ikkitasi qanotustligining asosiga va ikkitasi o'rtasiga joylangan, qanotustligining uchining cheti tishsimon hoshiya bilan o'ralgan. Qanotustligining uchi umuman och rangli yoki kambar qora hoshiyali. Qanotustligining juda bo'lmaganda o'rtasida va uchi yaqinida qora belbog'i bor.

Mulabris scabiosae Ol. tanasining uzunligi 10—12 mm, orqasining oldingi qismi kul rang kalta tuklar bilan, ulardan yuqorisi esa ancha uzun qora tuklar bilan qoplangan. Qanotustliklari sariq. Yelka bo'rtmasidan boshlanib orqaga tomon kengaygan hamda qanotustliklari chetiga nisbatan parallel o'tadigan va qisman unga tutashgan dog' bor, oldingi belbog' o'rnidagi nuqta, shuningdek qanotustliklari o'rtasidagi va uchi yonidagi arrasimoi qirrali belbog'lar qopa rangli, qanotustliklarining uchi esa kambar qora hoshiya bilan o'ralgan. Orqasining old qismi faqat qopa tuklar bilan qoplangan; qanotustliklarining asosiy rangi qizil. *Mulabris calida* Pall. tanasining uzunligi 12—27 mm. Qanotustliklarining tubidan nariroqda ikkita nuqta hamda uchi yonida va o'rtasida qora rangli belbog'lar bor, uchi qora hoshiya bilan o'ralmagan.

Mulabris turkestanica Esch. tanasining uzunligi 10—12 mm. Qanotustliklarida qora rangli sertish uchta belbog' bor, oldingisi ko'pincha ikkita nuqtaga bo'lingan; uchi kambar qora hoshiya bilan o'ralgan. Qanotustliklari qizil tusda, qora nuqtalar bilan qoplangan, belbog'siz. Kallasi va orqasining old qismi och rangli tuklar bilan qoplangan, oyoqlari ko'pincha qizil.

Mulabris undecimpunctata Gebl. tanasining uzunligi 15 mm. Qanotustliklarining uchi oldidagi chok ustida yaxlit qora dog' bor; bundan tashqari, qanotustliklarining tubi yonida ikkita, o'rtasida ikkita va uchida bitta dog' bor, bu dog'lar chok ustidagi dog' bilan bir qatorda turadi; oyoqlari malla sariq.

Mulabris Sedecimpunctata Gebl. tanasining uzunligi 12—17 mm. Qanotustliklaridagi chokida yaxlit dog' yo'q oldingi dog'lar ham shunday joylashgan; qanotustliklarining uchi yonida uchta nuqta bor, ularning o'rtanchasi boshqalaridan yuqoriroqda turadi; oyoqlari qora, var. Reitt niki esa sariq.

Malhamchi qo'ng'izlarning tuxumi cho'zinchoq shaklda bo'ladi. Birinchi yoshdagi lichinkasi—triungulini—keyingi yoshlardagi lichinkalarga o'xshamaydi; tanasi bukchaymagan cho'zinchoq; oyoqlari katta; jag'lari baquvvat; tanasida ko'zga yaqqol tashlanib turadigan qilchalar bor; ularning ikkitasi(tananing ketki uchidagisi) ancha uzun. Boshqa yoshlardagi lichinkalarning tanasi yo'g'on, orqasi tashqariga tomon bukchaygan, oyoqlari kalta.

Soxta g'umbagining tanasi sariq; yoki qo'ng'ir tusda bo'ladi va orqasi tashqariga tomon salgina bukchayib turadi; po'sti qattiq oyoqlari o'rnida ko'zga yaqqol tashlanib turadigan va ba'zan ancha uzun bo'rtmalar bo'ladi. G'umbagi erkin, voyaga yetgan qo'ng'izga o'xshaydi. Uning orqasining old qismida, ba'zi turlarda esa boshqa segmentlarning tergitlarida ham ko'zga tashlanib turadigan tikanlar bor.

Dukkakli don ekinlari zararkunandalar bilan ko'p zararlanadigan ekinlardan hisoblanadi. Professor V.V. Yaxontov dukkakli don ekinlari bilan oziqlanadigan

umurtqasiz jonivorlarning 72 turdan iborat dunyo faunasi ro'yxatini tuzib, 1931 yildayoq ta'riflab bergan edi. Bulardan 51 turi hasharotlar sinfiga mansubdir. A.I Petrov 1962 yil zararkunandalarning 29 ta turi dukkakli don ekinlariga tushishini aniqlagan.

XULOSA

Umuman olganda qizil bosh shpankanikiga o'xshaydi. Qo'ng'izlari ko'p metamorfozli, yiliga bir marta avlod beradi. Soxta g'umbaklik stadiyasida qishlaydi. Qo'ng'izlari tuxum quyish uchun quduqcha qaziydi. Urg'ochi qo'ng'izlar bir necha o'ntadan, ba'zan bir necha yuztadan tuxum qo'yadi.

Malhamchi qo'ng'izlarning lichinkalari chigirtka ko'zachalari ichida oziqlanadi. Jumladan, Frolov malhamchisi marokash chigirtkasi (*Dosiotaurtis maroccanus Thub.*) ning hamda qir chigirtkasi (*Calliptamus turanicus Tarb.*) ning tuxumlari bilan, *Mulabris Scabiosae Ol.* nomli mahamchi morokash hamda otbosar chigirtka (*Dociosta Orus krauss; Gnd.*) ning va ba'zi boshqa chigirtkalarining tuxumlari bilan oziqlanib yashaydi. To'rt nuqtali malhamchi lichinkalari esa voha chigirtkasi (*Calliptamus italicus L.*) ning ko'zachalarida yashaganligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Кимсанбоев Х.Х ва бошқалар. Умумий ва қишлоқ хўжалик энтомологияси. Тошкент – 2003
2. Муродов С.А. Умумий энтомология курси. Тошкент – 1988.
3. Насруллаев Д.Н., Файзуллаев Б. Ўсимликлар ҳимоясининг уйғунлашган тизимини такомиллаштириш. Самарқанд – 2014.
4. Fayzullayev B., Ahmedov S.I., Xudoyqulov A.M. Qishloq xo'jalik entomologiyasi va karantin asoslari fanidan laboratoriya mashg'ulotlari. Samarqand – 2014.
5. Ҳамраев А. ва бошқ. Агрэнтмологик картограмма. Ташкент – 1994.
6. Ҳамраев А.Ш . Насридинов К. “Ўсимликларни битлари, тур таркиби ва ҳаёт тарзи”. Тошкент – 2003.
7. Ҳамраев А.Ш, Насридинов К. Ўсимликларни биологик ҳимоя қилиш. Тошкент – 2003.
8. Хўжаев Ш.Т., Холмуродов Э. Энтомология, қишлоқ хўжалик экинларини ҳимоя қилиш ва агротоксикология асослари. Тошкент – 2010.
9. Ҳамраев А.Ш., Хасанов В.А., Ahmedov S.I. va boshqalar. О'симliklarni biologik himoya qilish. Toshkent – 2014

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZIYORATGOHLARNING AHAMIYATI

Eshiniyazov Berdiniyaz Ansatbay uli

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

berdiniyaz.eshiniyazov@ndpi.uz

Saliev Erkin Polatbay uli

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Geografiya o'qitish
metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Tursinbaev Alpamis Kenesbaevich

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Nukus shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston

ANNOTACIYA

Ayni paytda jahonda globallashtirish davrida davom etayotgan barcha sohalardagi o'zaro integratsiya jarayonlari turizm sohasini yanada rivojlantirishga turtki bo'lmoqda. Ziyorat turizmi turizmning boshqa sohalari qatori alohida ahamiyatga ega bo'lib, barcha xalqlarning ma'naviy va moddiy madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois dunyoning barcha davlatlari ushbu sohani rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanmoqda. Ziyorat turizmi nafaqat dunyo xalqlariga o'z milliy o'zligini anglashda yordam beradi, balki ular o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirishga ham keng yo'l ochadi. Ma'naviy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida bu sohaning tobora rivojlanib borishi xalqlar o'rtasidagi madaniy-ma'naviy munosabatlar uchun zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: *turizm, ziyoratgohlar, ziyorat turizmi, madaniy-ma'naviy munosabatlar, madaniy meros obyektlari.*

ЗНАЧЕНИЕ СВЯТЫНЬ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

АННОТАЦИЯ

В настоящее время продолжающиеся процессы взаимной интеграции во всех сферах мира в эпоху глобализации стимулируют дальнейшее развитие туристической сферы. Паломнический туризм, наряду с другими направлениями туризма, имеет особое значение и служит развитию духовной и материальной культуры всех народов. Поэтому все страны мира используют все возможности для развития этой отрасли. Паломнический туризм не только помогает народам мира осознать свою национальную самобытность, но и открывает широкий путь для развития культурно-гуманитарных связей между ними. Дальнейшее развитие этой области как важной составляющей

духовной культуры создает основу для культурных и духовных связей между народами.

Ключевые слова: туризм, святыни, паломнический туризм, культурно-духовные связи, объекты культурного наследия.

THE IMPORTANCE OF SHRINES IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ABSTRACT

Currently, the processes of mutual integration in all spheres, which are ongoing in the era of globalization in the world, give impetus to the further development of the tourism sector. Pilgrimage tourism, along with other areas of tourism, is of particular importance and serves the development of the spiritual and material culture of all peoples. Therefore, all countries of the world are using all opportunities to develop this industry. Pilgrimage tourism not only helps the peoples of the world to understand their national identity, but also opens a wide way for the development of cultural and humanitarian relations between them. The growing development of this field as an important component of spiritual culture creates a foundation for cultural and spiritual relations between peoples.

Keywords: *tourism, shrines, pilgrimage tourism, cultural and spiritual relations, objects of cultural heritage.*

KIRISH

Davlatimiz doimo ko'plab madaniyatlar va sivilizatsiyalarning kesishish markazi bo'lib kelgan, bu yerda turli dinlar targ'ib qilingan, shuning uchun ham mamlakatimizda islom, buddizm va xristian dinlariga tegishli noyob yodgorliklar saqlanib qolgan. Shu munosabat bilan mahalliy va xorijiy ziyoratchilar va sayyohlar oqimini shakllantirish va ular uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, respublikaning ziyorat turizm salohiyatini keng targ'ib qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmini yana-da rivojlantirish va ziyoratchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon loyihasi ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi PF-6165-son «Ichki va ziyorat turizmini Yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022 yil 15 yanvardagi PF-52-son «Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini Yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish to'g'risida», 2022 yil 28 yanvardagi pf-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari, 2022 yil 18 fevraldagi pq-135-son «turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori,

o‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 2018 yil 15 fevraldagi 120-son «muqaddas qadamjolar, ziyoratgoh, masjid va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to‘g‘risida», 2021 yil 24 fevraldagi 100-son «ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlarida belgilab berilgan vazifalar davlatimizda ziyorat turizmini yanada rivojlantirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Ziyorat turizmi o‘z sohasida juda ko‘p davrlarni bosib o‘tgan va bugingi kunda turizmning eng daromadli sohalaridan biriga aylandi. Ziyorat so‘zi arab tilidan tarjima qilinganda “safar”, “sayohat” ma’nolarini anglatadi. Turkiy xalqlar tilida u mahalliy ziyoratgohlarni diniy maqsadda ziyorat qilishni ifodalaydi. Lotinchadan tarjima qilinganda “palmarius”, “palmovnik” – Palma (G‘alaba daraxti) palmanavdasini olib yurish so‘zidan oilangan.

Diniy va Ziyorat turizmining nazariy masalalari, uning rivojlanishi hamda hududiy hususiyatlari ko‘plab iqtisodchi, geograf va tarixchi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan bu masalada xorijlik olimlardan K.Griffin, G.Vilkinson, D.H.Olsen, N.Nilson, R.Raj, S.Singh, S.Nolan, V.Vang, K.Huang, J.S.Chen, X.Oxovat, L.E.Hudman, M.L.Nolan, R.Eid, R.H.Jekson kabi olimlarning tadqiqotlarida Ziyorat turizmi masalalari tadqiq etilgan.

Shu jumladan MDH davlatlari olimlari A.V.Babkin, G.N.Gujina, T.T.Xrislov, S.R.Erdavletov, A.IZiryaynov, T.A.Prokopenko, S.Y.Jitenov, D.A.Troitskiy, T.L.Dubnik, T.V.Boyka, K.A.Mazin, S.V.Dusuyen, V.N.Yakunin, G.P.Doljenko, L.B.Savenkovalarning ilmiy ishlarida diniy va ziyorat turizm sohasini rivojlantirish masalalari o‘rganilgan.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda tarixiy-madaniy ob’ektlar, muqaddas qadamjolarga e’tibor kuchayib, ziyorat turizmini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Respublikamizda 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra jami 8 210 ta madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, shundan 7 827 tasi davlat mulki va 383 tasi xususiy mulk hisoblanadi.

Islom dini ta’limotiga ko‘ra aziz-avliyo va allomalarning maqbaralari va qabrlarini ziyorat qilish mustahab, savobli amallardan sanalib, ziyorat orqali insonlar o‘tmishdan ibrat olib, ularning qalblari yumshab, dunyoning o‘tkinchi ekanini anglab, savobli va hayrli ishlar qilishga undaydi. Zero, islom dini ta’sirida ziyoratgohlar haqidagi qarashlarning ilohiy jihatlari, ularning ajdodlardan avlodlarga o‘tib, odamlarning ruhiy-ma’naviy tasavvurini boyishiga xizmat qilayotganligi muhimdir

Hozirgi kunda dunyoda 10 dan ortiq ziyorat turizmining yirik markazlari

mavjud bo'lib, ular orasida Islom qadriyatlari yuqori bo'lgan O'rta Osiyo davlatlarining borligi mamlakatimizda ushbu tarmoqni rivojlantirish imkoniyatlari kattaligidan dalolat beradi.

Ziyorat turizmi va ziyoratgohlarga oid qarashlar asosida muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar asosan uch turga bo'linadi. Bular quyidagilar:

- Xalqaro ahamiyatga ega ziyoratgohlar;
- Respublika ahamiyatiga ega ziyoratgohlar;
- Mahalliy ahamiyatga ega ziyoratgohlar

Mamlakatimiz turistik resurslarga boyligi bilan ajralib turadi. Markaziy Osiyoda, xususan vatanimizda ham buyuk avliyolar, olimlar, yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari ham, ko'plab turistlarni o'ziga jalb etadi. Ko'pgina avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qayta rekonstruksiya qilinib, asl holatiga qaytarilmoqda. Butun jahonga tanilgan allomalarimizdan Imom al-Buxoriy, G'ijdivoniy, Bahoviddin Naqshbandiy, Imom al-Moturidiy, Mahmudi A'zam, Zangiota, Shayx Hovand Tohur kabi ko'plab aziz avliyolar, imomlar maqbaralari musulmon ahli ziyorat qiladigan va ma'naviy oziqa oladigan maskanlarga aylantirilmoqda. Imom Al-Buxoriy majmuosini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyat ega bo'lib, musulmon olamida bu ziyoratgoh muhim va ahamiyatli ziyoratgoh hisoblanadi. Ziyoratshi turistlarga infratuzilmalarni shakllantirish bilan ularga qulay shart-sharoit yaratish, bugungi kunning muhim masalalaridan biridir. Xorijiy davlatlar fuqoralari, ziyoratchi turistlarning mamlakatimiz ziyoratgohlariga va boshqa turistik obyektlariga ortiqcha qiyinchiliklarsiz kelib ketishlarini ta'minlash, samarali reklama tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha hukumatimiz tomonidan keng qamrovli shora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Imom Al-Buxoriy ziyoratgohi

Musulmon olamining mashhur allomalaridan biri Imom al-Buxoriy 810-yil 21-iyulda Buxoroda tavallud topgan, 870-yilda Samarqanddan (hozirgi Samarqand viloyatining Chelak tumani) 25 km uzoqlikda joylashgan Xartang qishlog'ida vafot etgan va u yerda dafn etilgan. Biroq, bu joy asrlar davomida qarovsiz qolgan edi lekin davlatimiz mustaqillikka erishgach, majmua qayta tiklanib rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi hukumati 1997-yil 29-aprelda Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligini hijriy qamariy taqvim bo'yicha nishonlash to'g'risida qaror qabul qildi.

Respublikamiz hududida boshqa dinlar singari islom madaniyati va uning so'fiylik oqimiga oid ko'plab muqaddas joylar mavjud. Eng qimmatbaho, noyob yodgorliklar va qadamjolar YUNESKO ning Butunjahon merosi obyektlari sifatida tan olingan. Ular orasida Islom olamida Muborak Buxoro ma'nosini anglatuvchi

Buxoroyi-Sharif deb nomlangan Buxoro shahri, ko'plab bebaho yodgorliklarga ega Samarqand shahri, Amir Temurning vatani hisoblanuvchi Shahrisabz, shaharlari qadimiy va boy tarixga ega bo'lib, butun hayoti davomida jiddiy o'zgarishlarga duch kelgan. Hozirgi kunda O'zbekistonda 10 dan ortiq muqaddas va e'zozlangan nasroniy va musulmon joylari, ziyoratgohlar mavjud.

Ушбу анти-социологик хатти-ҳаракатнинг шаклланиши асосан “шахс ўсмирлик даврида ёмон тарбияланса ёки уларга турли салбий ижтимоий иллатлар ўз таъсирини ўтказса, ушбу камчиликлар уларнинг келгуси ҳаётига ҳам таъсир этади. Криминологик тадқиқотларда ёшлар жинсий фаолият йўлига қанча эрта кирса, бу фаолият шунча узоқ давом этиши ва хавфлироқ тус олиши”[15] билан, ғайриҳуқуқий қилмишни содир этиш эҳтимоли юқори бўлишлигидан далолат беради.

Анкета сўров иштирокчиларига “Сизнингча ҳуқуқбузарлик содир этиш эҳтимоли юқори бўлган шахслар деб кимларни тушунасиз”? деган саволга респондентларнинг а) 63 % – “жиний фаолиятни тирикчилик манбаи сифатида касб қилиб олганлар; б) 28 % – гиёҳвандлик ва психотроп воситалари ҳамда алкаголь ичимликлар таъсирида бўлган ёки руҳий асаб касаллигига чалинган шахсларнинг психологик ҳолатининг бузилиши ёки агрессив ҳолатида бўлганларни в) 6 % – ғаразли мақсадларда ўч олишга бўлган истакнинг юқорилиги натижасида юзага келишини; с) 3 % – оғир ва ўта оғир жиноятлар содир этган рецидивист шахслар”, деб жавоб беришган.

Тадқиқотлар натижаси шуни кўрсатмоқдаки, ҳуқуқбузарлик содир этиш эҳтимоли юқори бўлган шахс қонунга итоаткор тоифаларга қараганда ҳуқуқбузарлик содир этишда анча фаол ва агрессив ҳолатда бўлишлиги ҳамда уларда шаклланган кучли ғайриижтимоий хулқ-атвор натижасида ўзларини ҳуқуқбузарликдан тўхтата олмасликда намоён бўлади. Чунки, айрим жиноятчиларнинг хулқига ижтимоий қадриятларга мослаша олмаслик (дезадаптация) ва ўз-ўзини бошқаришдаги нуқсонлар мавжуд бўлади.

Хуқуқбузарлик содир этиши эҳтимоли юқори бўлган шахсларнинг қуйидаги тоифаларини кўрсатиб ўтиши мақсадга мувофиқдир: а) оғир ва ўта оғир жиноят содир этган рецидивистлар; б) педофил ва маньяк тоифадаги[16] ақли норосо руҳияти бузилганлар; в) жиноят олами ахлоқ нормаларига буйсинувчилар[17]; с) терроризм ва экстремизм жиноятини содир этган[18] ва уларнинг таъсирида яшовчилар; д) гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалари[19] таъсирида бўлган шахслар; е) коррупцияга оид хуқуқбузарлик содир этувчи[20] ва ушбу хатти-ҳаракатини давом эттираётганлар; к) шахснинг аввал бир неча бор ва давомли хуқуқбузарликлари натижасида руйхатга олинмай (латентлигича) қолиб кетган ёки ички ишлар органлари ходимларига мурожаат қилмаганлар; к) ғайрихуқуқий қилмиши натижасида ўзига нисбатан қидирув эълон қилинганлар; э) яширин тарзда аҳборот технологиялари соҳасида хуқуқбузарлик содир этаётган кибер (“хаккер”) жиноятчилар[21]; и) буюрма сосида жиноят содир этувчи ёлланма қотил шахс тоифаларини киритиш мумкин. Таъкидлаш жоизки, мазкур шахслар ўз ғаразли мақсадларини амалга ошириш жараёнида шахс, жамият ва давлатга зарар етказиш хавфи юқорилиги билан ажралиб туради.

Иккинчи гуруҳ: Хуқуқбузарлик содир этишига мойил шахс “маиший-оилавий шароитларда ғаразли ёт туйғулар ва бошқалар ҳисобидан қонунга ҳилоф равишда бойлик орттириш каби салбий иллатларнинг мавжудлиги; фуқароларнинг атрофда бўлаётган воқеа ва ҳодисаларга лоқайд, эътиборсиз муносабатда бўлишлиги”[22], шунингдек, “ўзининг ғайриижтимоий хулқ-атвори туфайли бошқалар таъсирига тез тушиб қолиши ва қизиқишлари доираси, моддий ва маънавий эҳтиёжлари, қадриятлари ва ҳаётий режалари, хуқуқий онги ва хуқуқий маданият даражасининг пастлигида”[23] намоён бўлади. Айниқса вояга етмаган шахсларнинг назоратсиз қолиши сабабли, тўғри келган шахслар билан танишишига ва турли хил салбий йўналишга эга бўлган шахс ёки гуруҳ таъсирига тушиб қолишига олиб келади. “Афсусланарли томони шундаки, назоратсиз қолган ўсмирлар ўқишни ташлаб кетиб, мактаб тарбиясидан маҳрум бўлган болаларга, ёмон шароитлар ва кўча-қуйдаги салбий ҳолатлар таъсирида жиноят қилишга мойил бўлиб қоладилар”[24]. Шунини алоҳида таъкидлаш жоизки, жиноятни содир этишга мойил шахслар одатда, майда ижтимоий гуруҳларда таркиб топган айрим салбий ижтимоий омиллар таъсирида шаклланади[25] ва ривожланади.

Анкета сўров иштирокчиларига, “Сизнингча “хуқуқбузарлик содир этишига мойил шахслар” деганда кимларни тушунасиз? деган саволга респондентларнинг 1) 61 % – “шахснинг турли ёт ва зарарли ғояларга

берилувчанлиги, қўзғалувчанлиги ва тез таъсирга берилувчанлигини; 2) 23% – шахсинг онгида ҳуқуқбузарликларни амалга ошириш қарори шаклланганлигини; 3) 14 % – ҳуқуқбузарликларни амалга ошириш имкониятлари мавжуд бўлишлигини; 4) 2 % – шахсларнинг ҳуқуқбузарликни содир этишга даъвогар бўлишлиги” деб жавоб беришди. Назаримизда, ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил шахслар ўзининг ғайриижтимоий хулқ-атвори туфайли, ички ва ташқи салбий муҳит таъсирига осонликча тушиб қолиши ва онларида ҳуқуқбузарлик содир этиш қарорининг шаклланганлиги билан ажралиб туради.

Ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил шахслар тоифалари қуйидагилардан иборат: а) наркалогия диспансери руйхатида турувчи гиёҳвандлик моддалари ва алкоголь ичимликларга ружу қуйганлар; б) ижтимоий жиҳатдан хавфли аҳволда бўлган оила, қаровсиз ва назоратсиз вояга етмаганлар; в) ички ишлар органлари пробация назоратидаги (ОЧЖ ва АТИ) маҳкумлар; г) ўзига нисбатан профилактика иши юритилган ёки маъмурий назорат ўрнатилганлар; д) ахлоққа қарши ҳуқуқбузарлик содир этганлар (фоҳиша ва бесоқолбозлар); е) орттирилган иммунитет танқислиги синдроми вирусини (ОИВ/ОИТС) юқтирганлар; з) иш ва яшаш жойи аниқ бўлмаганлар; э) руҳий асаб касалликлар шифохонаси ҳисобида турувчи шахслар тоифалари ҳисобланади.

Таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, Ўзбекистон Республикаси бўйича 2021-2022 йилларда Соғлиқни сақлаш муассасалари ҳисобида турган ҳуқуқбузарлик содир этиш эҳтимоли юқори бўлган гиёҳвандлар, спиртли ичимликка ружу қуйганлар ва руҳий асаб касалликлари диспансери ҳисобидаги тажовузкор руҳий касал шахсларни ҳисобга олиш 2021 йилга нисбатан 2022 йилда 3 фоизга (54691дан 56354га) ошган. Шундан уларнинг ҳуқуқбузарликлар содир этиш эҳтимоли ҳолатини олдини олиш мақсадида, тегишли тиббиёт муассасаларига мажбурий тарзда даволанишга юборилганлари 6 фоизга (7224дан 8528га) ошганлигини кўриш мумкин.

Учинчи гуруҳ: **Ҳуқуқбузарлик содир этиш эҳтимоли наст бўлган шахслар** ҳуқуқбузарликни руҳий ёки жисмоний таъзйиқ остида, ўзини ҳуқуқбузардан химоя қилиш сабабли (зурурий мудофаа жараёнида) ёки иқтисодий томондан оғир аҳволга тушиб қолиши (қарз, қашшоқлик ва соғлиқдаги муаммолар) натижасида мажбурликдан ёки эҳтиётсизлик оқибатида содир этиши мумкин. 3.3. Нуриллоеванинг фикрича, “аҳоли қашшоқлигини тўхтовсиз камайтириш, жамият аъзоларининг маданият ва онглилик даражасини оширишдан иборатдир”[26] деган бўлса, Н.Т.Волкова ва С.М.Иншақовларнинг “Қашшоқлик ахлоқийлик чегараларини ювиб кетади ва

одам ҳамма нарсани қилишга тайёр бўлиб қолади”[27] мазмундаги фикрларига асосланган ҳолда ҳуқуқбузарлик, хусусан жиноят содир этишга мойиликнинг объектив ва субъектив сабаблари бевосита моддий (ижтимоий-иқтисодий) ҳамда маънавий-ахлоқий омиллар билан ўзаро алоқадорликда юзага келади[28] деб ҳисоблашади. Шу хусусида, криминология адабиётларида қийнчиликлар ва бошқа шароитлар туфайли “ўзларида руҳий четга чиқиш хусусияти мавжуд бўлганларни, жиноят содир қилишга мойил шахслар тоифалари эканлиги[29] асослантирилган.

Анкета сўров иштирокчиларига, *Сизнингча “ҳуқуқбузарлик содир этиш эҳтимоли нист бўлган шахслар” деганда кимларни тушунасиз?* деб саволга респондентларнинг 43 % – “иқтисодий томондан етишмовчилик (қарз ва камбағаллик) сабабли, ҳуқуқбузарликка қўл урадиган тоифаларни; 21 % – ҳуқуқбузарлик содир этмаган аммо ўзида шаклланган ғайриижтимоий ҳуқуқ-атворли шахсларни; 22 % – ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни шаклланмаган шахсларни; 4 % – ҳуқуқбузарликни эҳтиётсизлик оқибатида содир этадиганларни; 0 % – руҳий босим ва жисмоний таъйиқ остида ҳуқуқбузарликка қўл урадиган шахслар тоифалари” деб жавоб беришган.

Таъкидлаш жоизки, ғайриижтимоий йўналишга эга бўлган шахслар томонидан “жиноятлар содир бўлишига таъсир этувчи ҳолатлар ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маданий ҳаётдаги ташкилий-хўжалик, жамият аъзоларининг хатти-ҳаракатлардаги ва табиатдаги бахтсиз воқеалар туфайли келиб чиқадиган камчиликлар ҳисобланади”[30]. Масалан, “назорат остидаги шахсларнинг муваффақиятсизликка учрайвериши ишсизлиги, турар жойига эгасизлиги, таълим олиш имконига эга бўлмаслиги”[31] оқибатида, ижтимоий воқелик таъсирида ёки руҳий ҳолатининг бузилиши натижасида ҳуқуқбузарликларга қўл уриши мумкин.

Шу хусусида, М. Муқумованинг мавзуга оид қарашларида, “шахс томонидан жиноят қонунида назарда тутилган нормани бир нечтасини бузган тоифаларни қуйидагича: *биринчидан*, содир этилган жиноятнинг ижтимоий хавфлилик даражаси янада ортиб бориши; *иккинчидан*; жамиятга етказилган зарарнинг маънавий ва моддий даражаси ҳам юқорилаб бориши; *учинчидан*, жиноят содир қилган кишининг шахсида жиноятчига хос бўлган хусусиятлар янада кўпроқ ва мустаҳкамроқ йиғилиб бориши; *тўрттинчидан*, мазкур содир этилган жиноятлар бошқа шахсларга нисбатан таъсири ҳам борган сари ортиб бориши”[32], каби ҳолатлар илгари судланган (рецидивист) шахсларнинг ғайриҳуқуқий қилмишга хос хусусият эканлиги илгари сурилган.

Таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, 2022 йил 12 ой якуни бўйича республика бўйича илгари судланган шахслар томонидан содир этилган жиноятлар 11 635 тани ташкил этиб, ўтган даврга нисбатан 2 127 тага ёки 17,6 фоизга кўпайишига (9 508/11 635) йўл қўйилган. Хусусан: Сирдарё вилоятида 153,9 фоизга (115/292) (1-ўрин), Хоразм вилоятида 108,9 фоизга (79/165) (2-ўрин), Тошкент шаҳрида 93,4 фоизга (1 267/2450) (3-ўрин), Тошкент вилоятида 76,1 фоизга (1057/1861) (4-ўрин), Қорақалпоғистон Республикасида 69,2 фоизга (195/330) (5-ўрин), Сурхондарё вилоятида 39,4 фоизга (467/651) (6-ўрин) ва Жиззах вилоятида 30,2 фоизга (235/306) (7-ўрин) ошиб кетишига йўл қўйилган.

Шунингдек, маъмурий назорат қонуни таъсири остига тушувчи 9 032 нафар шахсларнинг 6 249 нафарига (69,2 %) нисбатан маъмурий назорат ўрнатилган бўлиб, илгари судланганлар томонидан жиноятчилик салмоғи юқори бўлишига қарамай, бу кўрсаткич Қорақалпоғистон Республикасида 20,4 фоизни (67/329), Навоий вилоятида 32,5 фоизни (151/464), Қашқадарё вилоятида 61,7 фоизни (358/580), Тошкент шаҳрида 65 фоизни (673/1035) ва Фарғона вилоятида 67,8 фоизни (770/1 135) ташкил этган.

Ўта хавфли рецидивистларнинг 61,7 фоизига (2 487 нафардан 1 534 нафар) нисбатан маъмурий назорат ўрнатиш чоралари кўрилган бўлса-да, жойларда ушбу тоифадаги шахслар турмуш тарзини доимий ўрганиб бориш, улар устидан қатъий профилактик назоратни амалга ошириш тадбирлари талаб даражасида ташкил этилмаганлиги оқибатида, бу кўрсаткич, Қорақалпоғистон Республикасида 27,1 фоизни (19/70), Навоийда 28,1 фоизни (25/89), Тошкент шаҳрида 45,2 фоизни (236/522), Хоразм вилоятида 7,7 фоизни (94/197) ва Сурхондарё вилоятида 51,6 фоизни (112/217) илгари судланганлар ташкил этганлигини кўриш мумкин[33]. Бизнингча, кучли ғайриижтимоий типга эга бўлган шахснинг такрор (рецидивист) жиноят содир этишга мойиллини ортиб бориши, бошқаларга нисбатан салбий фикр ва таъсир уйғонишига ҳамда шахс, жамият ва давлатга нисбатан зарар етказиш эҳтимоли юқорилигида намоён бўлади.

Тадқиқотларда шахсдаги қуйидаги хусусиятлар уларнинг ҳуқуқбузарлик, шу жумладан жиноят содир этишга мойиллигини белгилаши кўрсатилган:

– сурункали ичкиликбозлик ва гиёҳвандлик касаллиги, дарбадарлик, гадоичилик, руҳий четга чиқиш[34];

– илгари жиноий жавобгарликка тортилганлар, ҳеч қаерда ишламайдиганлар, моддий жиҳатдан етишмовчиликдан қийналаётганлар, олий маълумотга эга бўлмаганлар, ажрашган ёки оилали бўлмаганлар, мунтазам спиртли ичимликлар истеъмол қиладиганлар, ижтимоий фойдали меҳнат билан шуғулланмайдиган ёки ишсизлар [35];

– ичкиликбозлик ва гиёҳвандлик[36];

– туғма рухий касаллар, яъни ғайриқонуний ҳаракатларни амалга оширишга ундайдиган психологик жиҳатларга эга бўлганлар, ғайриқонуний ишларни касб қилиб олганлар, мураккаб психологик муҳит ҳукмрон бўлган тўлиқ бўлмаган оилада яшаётганлар[37];

– енгил йўл билан бойлик орттиришга интилувчилар [38];

– “сурункали ичкиликбозликка, гиёҳвандликка, психопатияга (телбалик, девоналик) мойиллик хромосомавий бузилиш, асаб тизимининг ўзига хослиги ва модда алмашинуви бузилганлар”[39];

– “жазони ижро этиш муассасаларидан озод этилган, ахлоқ тузатиш ишлари жазосини ўтаб бўлган ёшлар, ўзининг жиноят содир этишга мойиллиги, турли ёт ва зарарли ғояларга берилувчанлиги билан ижтимоий ҳимоя ва жамоатчилик назоратига муҳтож тоифалари”[40] эканлигини аниқлаш орқали асослантирилди.

Тадқиқот натижаларига асосланган ҳолда қонунчиликка киритиш юзасидан куйидаги таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди:

Ўзбекистон Республикасининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги қонуннинг 3-моддаси хатбошисига, “*ҳуқуқбузарлик содир этиши эҳтимоли юқори бўлган шахс*” тушунчасини куйидагича таҳрирда: “*ҳуқуқбузарлик содир этиши эҳтимоли юқори бўлган шахс* – жиноий фаолият турмуш тарзига айланган, жиноий урф одатлар ва анъаналарга риоя этувчи, шунингдек суд томонидан ўта хавфли рецидивист деб топилган жисмоний шахс; (*ушбу таклифлар сўровга жалб этилган 300 нафар респондентларнинг 63 фоизи томонидан мақулланган*).

Мазкур қонуннинг 3-моддасида кўрсатилган “ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил шахс” тушунчасини куйидагича таҳрирда: “*ҳуқуқбузарлик содир этишига мойил шахс* – ғайриижтимоий хулқ-атворга эғалиги, шунингдек ижтимоий, иқтисодий ва психологик ёрдамга муҳтожлиги сабабли зиддиятли вазиятларда ҳуқуқбузарлик содир этиши мумкин бўлган жисмоний шахс” (*ушбу таклифлар сўровга жалб этилган 300 нафар респондентларнинг 56 фоизи томонидан мақулланган*). Мазкур тушунчалар келгусида ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил шахслар билан профилактик ишлашни ҳуқуқий тартибга солишни ва белгилашни такомиллаштиришга хизмат қилади.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил шахслар хати-ҳаракатлари жамиятдаги ахлоқий хулқ-атвор нормаларини бажармаслик ёки тан олмаслик, амалдаги барча қонунларга итоатсизлиги, ёлғон, тухмат, ҳақорат, жамият томонидан қораланган кейим кийим шаклини бузиш,

ўқиш ва ишлашдан бош тортиш, бепарволик, эрта жинсий ҳирси уйғониши, мастлик, жиноят олами вакиллари таъсирига тушиши ва уларга эргашиши ёки бошқа ҳолатлар оқибатида маъмурий ёки жинойӣ қонун нормаларига зид равишда амал қилишида намоён бўлади. Мазкур хулосалар, ички ишлар органлари ходимларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикасини таъминлаш ва ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил шахслар билан келгусида профилактик ишлашнинг ўзига хос хусусиятларини тадқиқ этишни тақозо этмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар (REFERENCES)

1. Камалова Д.Г. Жиноятга тайёргарлик кўришнинг хусусиятлари ва унинг учун жавобгарликни такомиллаштириш: Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т., 2018. – Б. 5.
2. Кудрявцев В.Н. Причины правонарушений. – М., 1976. – Б. 124.
3. Васильев В. Л. Юридическая психология. – М., 1999. – С. 222–224.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси (2014) тўғриси”даги 371-сон. Қонуни. [Электрон манбага мурожаат вақти 12.06.2023].//URL: <https://lex.uz/docs/2387357>
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80.000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. Ш– Тартибли / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. Ўз. Рес. ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.608.
6. Ўзбекистон Республикасининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси (2014) тўғриси”даги 371-сон. Қонуни [Электрон манбага мурожаат вақти: 12.06.2023].//URL: <https://lex.uz/docs/2387357>
7. Қаранг: Душанов.Р.Х. Жиноятчи шахс психологияси: Ўқув-амалий қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2011. 19 б.
8. Раҳмонов Р, Муродов. А.,Хўжақулов. С. Ижтимоий жиҳатдан хавфли аҳволда бўлган оилалар билан ишлашда профилактика инспекторлари ва фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ҳузуридаги жамоат тузилмаларининг ўзаро ҳамкорлиги: Ўқув қўлланма /. – Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. –Б.9
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80.000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Э. IV. Ш– Тартибли / Таҳрир ҳайъати: А.Мадвалиев (раҳбар) ва бошқ. Ўз. Рес. ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.70.
10. Қаранг: Ўзбекситон Республикаси Ички ишлар вазирининг (2022) 42-сонли Жамоат хавфсизлигини таъминлаш департаменти Пробация хизмати фаолиятига янги иш услубларини татбиқ этиш тўғрисидаги Буйруқ.

11. Қаранг: Ўзбекистон Республикаси “Ички ишлар вазирлиги, Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги, Ёшлар сиёсати ва Спорт вазирлининг 2023 йил 30 мар кунида”ги қўшма Қарор.-Т. Бет-2-3
12. Қаранг: Душанов Р.Х. Жиноятчи шахс психологияси: Ўқув-амалий қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2011. 12-26 б.
13. Қаранг:Исмаилов.И. Криминология. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2007 й. Т.–, бет-115
14. Ахмедов Ҳ.Э. Маъмурий назорат остидаги шахсларга оид профилактик чор а тадбирларни такомиллаштириш. юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган Диссертация. Тошкент ш – 2021 йил. Бет-65
15. Абдурасулова Қ.Р. Криминология: Дарслик / Масъул муҳаррир: ю.ф.д., проф. М.Ҳ. Рустамбоев. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2008. – Б. 69.
16. Pedofiliya. [Электрон манбага мурожаат вақти: 208.05.2023]. [URL:https://uz.wikipedia.org/wiki/Pedofiliya](https://uz.wikipedia.org/wiki/Pedofiliya).
17. Қаранг: Душанов Р.Х. Жиноятчи шахс психологияси: Ўқув қўлланма /– Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2011. – 57-65 б..
18. Ўзбекистон Республикаси Олий суди пленумининг“Терроризм ва экстремизмни молиялаштиришга оид жиноят ишлари бўйича суд амалиётининг айрим масалалари тўғриси”да 27.11.2021 йилдаги 32-сон Қарори. [Электрон манбага мурожаат вақти: 19.06.2023]. URL: <https://lex.uz/docs/5748890>
19. Ўзбекистон Республикаси “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида”ги Қонун. [Электрон манбага мурожаат вақти: 19.06.2023]. URL: <https://lex.uz/mobileact/86044>
20. Ўзбекситон Республикаси “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги ЎРҚ-419-сон қонун. [Электрон манбага мурожаат вақти: 19.06.2023]. URL: <https://lex.uz/docs/3088008>
21. Саттаров. Ш. Кибер жиноятчилик, таҳлил, таҳдид ва химоя. [Электрон манбага мурожаат вақти:19.06.23]. URL:<https://ictnews.uz/uz/09/08/2017/>
22. Отажонов А.А. Жиноятга дахлдорлик: жиноят-ҳуқуқий ва криминологик жихатлар: Юрид. фан. номз. ... дис. автореф. – Т., 2009. – Б.15.
23. 23) Қаршиев. Ғ.С. Ёшлар рецидив жиноятчилигининг профилактикасини такомиллаштириш.Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Ўз.Рес. ИИВ Академияси. –Т.,-2020 йил. Бет-60
24. Маҳмудов Р. Ҳуқуқ ва маданият. Тошкент, 1994, 43-б.

25. Гаухман А.Д. Проблемы уголовно-правовой борьбы с насильственными преступлениями в СССР. – Саратов, 1981. (Gaukhman A.D. Problems of the criminal law struggle against violent crimes in the USSR. - Saratov, 1981)
26. Нуриллоева З.З. Уголовно-правовая и криминологическая характеристика рецидивной преступности по законодательству Республика Таджикистан: Дис. ... канд. юрид. наук. – Т., 2010. – С.131.
27. Иншаков С.М. Зарубежная криминология. – М., 1997. – С.41.
28. Волкова Т.Н. О значении нравственности в предупреждении женской преступности// Предупреждение преступности. – Алмата, 2003. –№1(5). – С.66.
29. Исмаилов И. Криминология. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, Тошкент -2007. Бет-5-6
30. Абдурасулова Қ.Р. Закирова А.Г.ва.Исмаилов.И. Криминология. Дарслик. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси. Т.-2023 йил Бет-63.
31. Ахмедов Ҳ.Э. Маъмурий назорат остидаги шахсларга оид профилактик чор а тадбирларни такомиллаштириш. юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган Диссертация. Тошкент ш – 2021 йил. Бет-38
32. Мукумова М.З. Бин неча жиноят содир этганлик учун жазо тайинлаш хусусиятлари: Юрид. фан. номз. дисс. ... автореф. - Т., 2005. - Б. 24.
33. ИИВ Жамоат хавфсизлиги департаментида 2022 йил 12 ой якуни бўйича ҳуқуқбузарликлар профилактикаси хизмати фаолияти юзасидан видеоселектор йиғилиши.
34. Абдурасулова Қ.Р., Ниёзова С.С. Жиноятчилик ва жиноятчи шахси муаммолари: Ўқув қўлланма. – Т., 2006. – Б.51.
35. Ўразалиев М.Қ. Алкоголизм, фоҳишалик ва гиёҳвандликнинг жиноятчилик билан алоқадорлиги, уларнинг криминологик хусусиятлари ва олдини олишни такомиллаштириш: Юрид. фан. д-ри ... дис. автореф. – Т., 2016. – Б.18, 23.
36. Зарипов З.С., Мухторов Ж.С. Маиший турмушда содир этиладиган жиноятларнинг криминологик тавсифи ва профилактикаси // Криминология. Махсус қисм: Дарслик / Муаллифлар жамоаси. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – Б. 303.
37. Расулев А.К. Ахборот технологиялари ва хавфсизлиги соҳасидаги жиноятларга қарши курашишнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминологик чораларини такомиллаштириш: Юрид. фан. д-ри (DSc) ... дис. автореф. – Т., 2018. –Б. 22-23.

38. Махкамов О.М. Солиқ ёки бошқа мажбурий тўловларни тўлашдан бўйин товлашнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминологик жихатлари: Юрид. фан. д-ри ... дис. автореф. – Т., 2015. – Б. 10.
39. Қаранг: Исмаилов.И. Криминология. Ўқув қўлланма. Ўзбекистон Республикаси.ИИВ. Академияси, 2007 й.. Т.–, бет-80
40. Қаршиев Ғ.С. Ёшлар рецидив жиноятчилигининг профилактикасини тако миллаштириш.Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Ўз.Рес.ИИВ Академияси. –Т.,-2020 йил. Бет-30.

УДК-660.662.2.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ПЕРЕРАБОТКИ ОРГАНИЧЕСКИХ ОТХОДОВ МЕТОДОМ ПИРОЛИЗА С ПОЛУЧЕНИЕМ ТОПЛИВНОГО ГАЗА.

Икромов А.А.,

Эшмухамедов М.А.,

Ташкентский государственный технический университет

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены методы по разработке мероприятий по обезвреживанию ликвидации твердых отходов нефтеперерабатывающих заводов, утилизации отходов по сокращению их образования в процессах переработки нефти и разработки экономичных промышленных методов утилизации.

Предложено что, переработкой органических твердых и полужидких отходов методом пиролиза с получением топливного газа низкой калорийности и побочных продуктов, можно использовать в отраслях экономики.

Ключевая слова: *Донные осадки, резервуар, смолисто-асфальтеновые вещества, парафин, нефтепродукт, окружающей среда, конденсат, пресс-сушка, шлам, псевдооживленный слой, шлам, дымовые газы, электрофильтры, скрубберы, труба Вентури, теплообменник, утилизация*

ABSTRACT

The article provides methods for the development of measures for the disposal of solid waste from oil refineries, waste disposal to reduce their formation in the oil refining processes and the development of economical industrial disposal methods.

It is shown that the processing of organic solid and semi-liquid wastes by the pyrolysis method with the production of fuel gas of low calorific value and by-products can be used in sectors of the economy.

Key words: *Bottom sediments, tank, resinous-asphaltene substances, paraffin, oil product, environment, condensate, press drying, sludge, fluidized bed, sludge, flue gases, electrostatic precipitators, scrubbers, Venturi pipe, heat exchanger, disposal*

АННОТАЦИЯ

Мақола нефтни қайта ишлаш заводларининг қаттиқ чиқиндиларини зарарсизлантириши усулларини ишлаб чиқиши ҳамда нефтни қайта ишлаш жараёналарида қаттиқ чиқиндиларни ҳосил бўлишини камайтириши ва уларни

қайта ишланінг иқтисодий самарадор саноат усулларини ишлаб чиқишга қаратилган.

Органик қаттиқ ҳамда қуюқ чиқиндиларни пиролиз усулида қайта ишлаб паст калорияли ёқилги газини ва оралиқ маҳсулотларни олиш усулидан иқтисодиёт соҳасида фойдаланиш мумкинлиги кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: тубдаги чўкма қолдиқлар, резервуар, қуйқа-асфальтен моддалар, парафин, нефт маҳсулотлари, атроф муҳит, конденсат, босим остида қуришиш, шлам, муаллақ қайнар қават, шлам, тутун газлари, электрфильтр, скруббер, Вентура қувури, иссиқлик алмаштиргич, утиллаш.

ВВЕДЕНИЕ

До настоящего времени не разработаны экономичные промышленные методы утилизации, обезвреживаниями ликвидации твердых отходов нефтеперерабатывающих заводов. В небольшом количестве отходы сжигаются, основная же масса вывозится в отвалы. Находясь в накопителях и в отвальных ямах, они загрязняют почву, грунтовые воды и окружающий воздух. Такое положение объясняется не столько трудностями создания соответствующей технологии, сколько следующими обстоятельствами. При относительно низкой цене на топливо, потребляемое заводами для собственных нужд, затраты энергии на дооборудование для извлечения из отходов нефти полезного продукта намного превышают стоимость этого продукта. Многими предприятиями уделяется недостаточное внимание также природоохранной деятельности. В связи с ужесточением требований к охране окружающей среды и повышением цены на топливо отвозить отходы в отвал или сжигать их без использования тепла недопустимое расточительство.

Количество образующихся на НПЗ твердых отходов зависит от технологии и организации производства и составляет на некоторых заводах от 8 до 10% потребляемого топлива. Поэтому, при разработке мероприятий по ликвидации и утилизации отходов должна предшествовать разработка мер по сокращению их образования в процессах переработки нефти.

В резервуарах, используемых для хранения нефти и нефтепродуктов, периодически накапливаются донные осадки в виде плотного слоя, который необходимо регулярно удалять.

Донные осадки только условно отнесены к твердым, фактически — это пастообразные и полутвердые вещества (кроме отработанных катализаторов) уменьшающие емкость резервуара и снижающие качество хранимого продукта.

Наиболее быстро накапливаются осадки в резервуарах для хранения сырой нефти и темных нефтепродуктов [1,2].

Количество осадков, выпадающих в аппаратах, резервуарах и сооружениях, зависит от качества сырой нефти и содержания в ней механических примесей. На содержание в нефти механических примесей, в свою очередь, влияют условия ее добычи, способы разработки месторождений и качество подготовки нефти на промыслах. Регулируя дебиты нефти по скважинам, и создавая необходимые условия для ее отстаивания после добычи, можно значительно сократить содержание в ней механических примесей. В образовании донного осадка в резервуарах с сырой нефтью участвуют и минеральные соли, растворенные в пластовой воде, сопровождающей нефть. Следовательно, чем лучше обезвожена и обессолена нефть на нефтяных промыслах, тем меньше будет осадок в резервуарах с сырой нефтью на заводах [3,4]. В осадках, выпадающих в резервуарах, содержится 26—45% смолисто-асфальтеновых веществ и 15—30% парафина; остальное приходится на связанную нефть, механические примеси и воду. При этом количество механических примесей и воды в осадках сырой не обессоленной нефти достигает 10—15%, а обессоленной — всего 1—2%.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ.

Очистка резервуаров от осадков связана с большими трудовыми и материальными затратами. Обычно осадок на днище резервуара с сырой нефтью состоит из двух слоев:

- менее плотного, который размывается водой и при очистке резервуара выводится по специальному илопроводу в грязевой амбар;
- плотного осадка, который на ряде заводов все еще удаляется из резервуара вручную и выводится в отвалы или в те же грязевые амбары.

За последние годы на ряде заводов для предотвращения накопления парафинистых осадков в резервуарах применяют специальную систему «Старт». В этой системе под действием мощной струи продукта происходит размыв осадка. Струя продукта, подаваемого в резервуар с помощью медленно вращающегося сопла (сопло расположено на некотором расстоянии от днища и снабжено сменными насадками), перемешивает продукт во всем объеме резервуара, но наиболее эффективно — в придонном слое. Способ пригоден для резервуаров любой емкости, предназначенных для хранения темных нефтепродуктов (рис. 1). Он обеспечивает однородность хранимого продукта и практическое отсутствие осадка; отпадает необходимость чистки резервуара,

ликвидируются связанные с этим потери нефтепродуктов и загрязнение окружающей среды [4].




Рис. 1. Размещение размывочного устройства в резервуаре (а) и разрезе вращающегося сопла (б): 1- корпус резервуара; 2- подводящий трубопровод; 3- вращающееся сопло; 4- лопасти тормозного устройства; 5-крепление тормозного устройства; 6-подводящий трубопровод; 7-неподвижная стойка; 8-вращающаяся обойма; 9- сопло.

Для удаления осадков из резервуаров с более легкими продуктами может быть применен другой метод. В днище резервуара монтируется кольцо из трубы диаметром 200 мм, в которое через равные расстояния врезаны перфорированные трубки диаметром 150 мм. В каждой трубке имеется 20—30 отверстий диаметром 10—15 мм. Коллекторное кольцо соединено с паропроводом (рис. 2). Для откачки осадка в корпус резервуара врезаны штуцеры диаметром 100 мм, соединенные с указанным коллектором.




Рис. 2. Система предотвращения отложений в резервуарах для светлых нефтепродуктов: 1 — корпус; 2 — кольцо; 3 — перфорированные трубки; 4 — перфорированный коллектор; 5 — штуцеры

Перед зачисткой из резервуара насосом откачивается продукт до «мертвого» остатка. Затем в резервуар подают 40— 50 м³ дизельного топлива, а в коллектор — водяной пар. Остаток разогревается водяным паром до требуемой температуры, после чего смесь дизельного топлива с осадком и

образовавшимся конденсатом водяного пара откачивается в резервуар с топочным мазутом (при сохранении качества мазута в соответствии с требованиями ГОСТа). Разработан также способ очистки резервуаров с сырой нефтью от парафинистых отложений, которые разбавляют горячей оборотной водой, нагретой до 80—90 °С. Когда парафин полностью расплавится, воду сбрасывают в канализацию, а всплывающий парафин подкачивают в сырую нефть. На других заводах для растворения осадка применяют керосин, который растворяет и нефть, содержащуюся в эмульсии осадка. Однако и в этом случае не исключается очистка резервуаров от плотного осадка вручную, так как механические примеси и более твердые столообразные соединения, содержащиеся в осадке, не удаляются. Очистку резервуаров указанными способами необходимо проводить 2—3 раза в год [5-7].

Изучается возможность применения твердых нефтяных отходов (шламов и нефтяной грязи) для приготовления диспергированных активированных эмульсионных топливных смесей при помощи аппаратов УДА (универсальных дезинтеграторов-активаторов), в которых одновременно осуществляются диспергирование, смешение и активация компонентов смеси с изменением некоторых физико-химических свойств [8,9]. Опыты показали, что после обработки в подобных аппаратах некоторые шламы можно использовать в качестве котельного топлива непосредственно или в смеси с топочным мазутом. Диспергированию с помощью УДА были подвергнуты также смесь нефтяных шламов и нефтегрязи из заводского пруда-накопителя (верхний слой), среднесуточная проба шлама от отдельных процессов и пена, образующаяся в заводских очистных сооружениях.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЯ.

Таким образом, из сказанного выше видно, что все перечисленные методы переработки шламов, конечно, требуют капитальных и эксплуатационных затрат, однако в условиях возрастающего дефицита и значительного удорожания топлива эти затраты могут оказаться целесообразными. Выбор способа переработки зависит от качества шлама и состава содержащихся в нем нефтепродуктов и механических примесей.

В последнее время предпочтение отдают печам с псевдоожиженным слоем инертного теплоносителя, в качестве которого чаще всего используют кварцевый песок [10]. Его поддерживают в псевдоожиженном состоянии при помощи нагретого воздуха. Осадок сжигают при 800—1000°С.

Печи с псевдоожиженным слоем обычно используют для сжигания нефтяных шламов с содержанием механических примесей не более 20%. По

сравнению с печами, других конструкций они имеют большую удельную тепловую нагрузку и производительность; протекающие в них процессы легко автоматизируются. Схемы установок и печи с псевдоожиженным слоем для сжигания нефтяных шламов приведены на рис.3.

Для сжигания остатков с большим содержанием механических примесей применяют многоподовые и вращающиеся печи барабанного типа. В них можно подвергать термическому обезвреживанию нефтяные шламы с 70% механических примесей и разнообразным гранулометрическим составом.




Рис. 3. Схема установки с печью для сжигания нефтяных шламов: 1-шнековый насос; 2-печь с псевдоожиженным слоем; 3-теплообменник; 4-воздуходувка; 5-циклон

Их конструкции продолжают совершенствоваться, тепло сжигаемого шлама используется для производственных целей (выработки пара, горячей воды и т.д.). Большое внимание уделяется оснащению печей блоками дожига дымовых газов с улавливанием пыли и кислых газов.

Сжигание шламов и других твердых отходов в печах сопряжено с рядом следующих экологических, экономических и технических проблем: из дымовых труб печей с псевдоожиженным слоем в атмосферу выбрасываются мелкие частицы, содержащиеся в сжигаемых отходах и образующиеся при истирании твердых частиц.

В скрубберах удастся уловить лишь часть таких частиц. Наиболее мелкие разносятся на большие расстояния, оседая на значительных площадях (количество мелких частиц, не улавливаемых в скруббере, достигает 130—200 мг/м³). Зола из отстойников, содержащую большую часть металлов (кроме увлекаемых с дымовыми газами через дымовую трубу), приходится вывозить в отвалы и зарывать в землю, чтобы исключить загрязнение грунтовых вод. Вследствие недостаточной эффективности сжигания дымовые газы, отходящие в атмосферу, наряду с мелкой золой содержат значительное количество CO, SO₂ и углеводородов; поэтому в ряде случаев печи для сжигания шламов необходимо дооборудовать блоками дожига и очистки газов от серы.

Опубликован ряд работ, посвященных переработке органических твердых и полужидких отходов методом пиролиза с получением топливного газа низкой

калорийности и побочных продуктов (жидких смол), которые можно использовать в отраслях экономики [10]. Пиролиз твердых остатков — один из наиболее перспективных способов их обезвреживания и использования. Он наиболее приемлем и в экологическом отношении, так как позволяет органическую часть отходов (ил, шлам, нефтегрязь) не превращать в токсичные продукты сгорания, а использовать как дополнительное топливо для сжигания отходов.




Рис.4. Схема пиролиза по методу ВНИИ нефтехима: 1 — топки; 2 — печь сушки; 3 — печь пиролиза; 4 — водоохлаждаемый конвейер; 5—магнитный сепаратор; 6 — дробилка; 7 — циклоны; 8 — холодильники; 9 — вентиляторы; 10 —отстойник.

Предложено несколько методов и схем установок для пиролиза твердых индивидуальных и смешанных отходов, различающихся аппаратным оформлением. Для переработки отходов нефтеперерабатывающих и нефтехимических предприятий может быть использована следующая схема (рис. 4) [10]. Твердые отходы по этой схеме подвергаются сушке во вращающейся барабанной печи, передвигаясь в потоке с теплоносителем (в случае полужидких или пастообразных отходов вращающаяся печь может быть заменена другим сушильным аппаратом). Высушенные отходы направляются в реактор, также представляющий собой вращающуюся печь с внутренним нагревом. Контактная с встречным потоком бескислородного газового теплоносителя, отходы разлагаются при 550—600° С.

Твердый продукт пиролиза после выгрузки из печи охлаждается на конвейере водой (без непосредственного контактирования с ней) и, пройдя дополнительную обработку (извлечение металлов, дробление и тонкий помол), направляется потребителям. Парогазовая смесь разделяется в системе охлаждения и конденсации с получением смолы, воды и газа. Смола откачивается на склад и используется в качестве топлива или для других целей. Вода подвергается термическому обезвреживанию в топке сушильной печи. Газ используется в качестве топлива в самом процессе. При избытке газа часть его

можно передавать в печи или котлы-утилизаторы для получения водяного пара или горячей воды.

Из смолы можно извлекать и другие вещества, например технические смолы и масла. Получаемый по одной из схем твердый минеральный продукт «пикарбон» может быть использован в качестве заменителя природных и синтетических углесодержащих материалов в ряде отраслей промышленности (например, в металлургии — в составе защитных материалов, применяемых при розливе сталей).

ЗАКЛЮЧЕНИЯ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ.

Таким образом, из проведенного выше анализа видно, что имеющиеся пиролизные установки для производства этилена из нефтяного сырья, смолы пиролиза твердых отходов целесообразно перерабатывать вместе со смолами, полученными на этиленовых пиролизных установках. Возможно, экономически будет оправданным строительство специальных установок пиролиза для смеси твердых отходов, полученных при переработке нефтяного сырья, с бытовыми и другими видами отходов или одной мощной установки по переработке отходов с нескольких нефтеперерабатывающих заводов, химических и нефтехимических предприятий. А это значит, что при использовании в отраслях экономики всех продуктов пиролиза твердых отходов с установки мощностью 100 тыс. т в год экономия (по сравнению с захоронением отходов) составит 1,3 млн. руб. в год. Срок окупаемости капитальных вложений — до 2,5 лет. Технология переработки твердых отходов методом пиролиза может быть полностью безотходной [11-13].

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА (REFERENCES)

1. Бернадинер М.Н., Шурыгин А.П. Огневая переработка и обезвреживание промышленных отходов. М., Химия, 1990.
2. Бикбулатов И.Х., Шарипов А.К. Хранилище реактор для избыточного активного ила, сырых остатков и шламов // Инженерная экология. 2000, №5, С. 47 – 52.
3. Воловик А.В., Шелков Е.М., Долгоносова И.А. Переработка бытовых и промышленных отходов в высокотемпературной шахтной печи // Экология и промышленность России. – 2001, № 10, с. 9 – 12.
4. Крюков, Б. Н. Современная технология утилизации твердых бытовых отходов / Б. Н. Крюков, А. В. Леонов // Интеграл. - 2005. - № 5 (25).
5. Бобович Б.Б. и Девяткин В.В., «Переработка отходов производства и потребления», М2000г.

6. Шаимова А.М., Насырова Л.А, Ягафарова Г.Г, Фасхутдинов Р.Р. Получение свалочного газа - экономия первичных природных энергоресурсов: Сб. тезисов Международной научно - практической конференции // Нефтегазопереработка и нефтехимия - 2006, Уфа, март 2006. -Уфа, 2006.- с. 246-248.
7. Xiaojun Ma "Study on the pyrolysis of the cured fibers from liquefied we (*cwminghamia lanceolate*;) by thermogravimetry-mass spectromery" WOORESEARCH - June №1 page 95-100, (2013).
8. Shangguan Ju, Li Zhuan-li, Li Chun-hu "Investigation on activated semi-coke desulfurization" Journal of Environmental sciences № 1, p. 91-94, (2005).
9. Kang, M.Y. Heo, Kim, J.H., Cho, S.S/, Seo, P.D., Riko, C.M. & Lee< S.C.2012. Effects of carbonized rice hull and wood charcoal mixed with pyroligneos acid on te yield, and antioxidant and nutritional gualitu of rice.-Turk. J.For. 36:45-53.
10. Safaev M.A. Conversion hard home departure. Stuttgart, Germany, European Applied Sciences, № 9, 2017 y.
11. Эшмухамедов М.А.,Сафаев М.М. Тургунов А.А., Экологический чистый метод получения низкомолекулярных углеводов при термохимической конверсии растительной биомассы и углеродсодержащих отходов, “Нефтегазопереработка 2017” Международная научно-практическая конференция. 23 мая 2017 года. г.УФА, Россия,3 стр.
12. М.А. Эшмухамедов, М.Мухамеджанов, М.М. Сафаев, Ф.Н. Носиров, Получение продукций из смол подземной газификации угля, “Достижения проблемы и современные тенденции развития горно металлургического комплекса” международная научная конференция. 12-14 июня 2017 года.НавГТИ. Навоий 2017. 2стр.
13. М.А.Эшмухамедов., М.М. Сафаев, Ф.М. Бадриддинова, Ё.Ю. Хожиболаев, Получение сульфата аммония высших сортов из композиции газов пиролиза угля, «Современные технологии получения и переработки композиционных и нанокпозиционных материалов» Республиканская научно-техническая конференция. 25-26 мая 2017 г. Ташкентский государственный технический университет Государственное унитарное предприятие «Фан ва тараккиёт». Ташкент 2017. С 115-117.

3ES5K ELEKTROVOZNI JT-3 XAJMDA TA'MIRLASHNI TASHKIL ETISH

Vohidova Parvinabonu Primqulovna

Toshkent davlat transport universiteti magistranti

Uzbekistan, Toshkent sh.

Vohidov Azizbek Primqulovich

“O‘ztemiryo‘mashta‘mir” UK teplovoz mashinisti

Uzbekistan, Toshkent sh.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning lokomotiv parkidagi 3ES5K rusumli elektrovozni JT-3 hajmida ta‘mirlashni texnologik jarayoni keltirib o‘tilgan. Ta‘mirlash vaqtida ta‘mirlashga tayyorlash, defektatsiya, qismlarga ajratish, yig‘ish, boshqarish va sinovdan o‘tkazish bo‘yicha ishlar va qabul qilish tartibi keltirib o‘tilgan. Elektrovoz mexanik qismlari va elektr jihozlardan iborat bo‘lib ular o‘z navbatida, g‘ildiraklar ustidagi reszor osma va buksa qutilari tizimi orqali, elektrovoz aravalari tormoz tizimi va pnevmatik qurilmalarni ta‘mirlash jarayonlari keltirib o‘tilgan.

***Kalit so‘zlar:** 3ES5K elektrovozi, texnik diagnostika, ta‘mirlash, texnologik jarayon.*

ОРГАНИЗАЦИЯ РЕМОНТА ЭЛЕКТРОВОЗА ЗЭС5К В ОБЪЕМЕ ТР-3

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлен технологический процесс ремонта электровоза типа 3ES5K в локомотивном парке АО “Узбекистон темир йуллари” в объеме ТР-3. При ремонте приводятся работы по подготовке к ремонту, дефектации, разборке, сборке, контролю и испытаниям, а также порядок приемки. Электровоз состоит из механических частей и электрооборудования, которые, в свою очередь, приводятся в движение через систему рессорно-подвесных и буксовых коробок на колесах, тормозной системы тележек электровоза и пневматического оборудования.

***Ключевые слова:** Электровоз ЗЭС5К, техническая диагностика, ремонт, технологический процесс.*

ORGANIZATION OF REPAIR OF ELECTRIC LOCOMOTIVE 3ES5K IN THE SCOPE OF CP-3

ABSTRACT

This article presents the technological process of repairing an electric locomotive of type 3ES5K in the locomotive fleet of JSC “Uzbekistan Temir Yo‘llari” in the volume of CP-3. During repairs, work is carried out to prepare for repairs, defects, disassembly, assembly, control and testing, as well as the acceptance procedure. The electric locomotive consists of mechanical parts and electrical equipment, which, in turn, through a system of spring suspensions and axle boxes on wheels, the braking system of electric locomotive bogies and pneumatic devices are also equipped with devices for holding traction motors in place.

Keywords: *Electric locomotive 3ES5K, technical diagnostics, repair, technological process.*

KIRISH

Elektrovozlarni joriy ta‘mirlash elektrovozning ishlashini ishonchli ta‘minlash uchun, uning alohida qismlarini almashtirish va tiklashda va ularni sozlashda amalga oshiriladi. Joriy ta‘mirlash vaqtida harakat xavfsizligini ta‘minlash, shuningdek, elektrovozning rejali ta‘mirlash oralig‘ida ishlashi paytida uning texnik holatini va ishchanligini ta‘minlash bo‘yicha ishlar to‘plami amalga oshiriladi. Elektrovozlarning joriy ta‘mirlanishi asosiy uzellarni tekshirish va qayta ko‘rib chiqish, moslama va mexanizmlarning ishlashini tekshirish, zarur ta‘mirlarni bajariladi, yeyilgan qismlarni almashtiriladi [1].

Texnologik jarayonda quyidagilar belgilangan:

JT-3 hajmida ta‘mirlash vaqtida 3ES5K rusumli elektrovozni tayyorlash, defektatsiya, qismlarga ajratish, yig‘ish, boshqarish va sinovdan o‘tkazish bo‘yicha ishlarni bajarish, qabul qilish tartibi;

yeyilgan va shikastlangan qismlarni ta‘mirlashning maqbul usullari aniqlash;

ta‘mirlangan uzellar va detallar uchun ruxsat etilgan yuqori yeyilish va bardoshlik o‘lchamlari, yuqori yeyilish va bardoshlik o‘lchamlari, bu o‘lchamlarni tiklash bilan ularni ta‘mirlashdan chiqarish tartibi belgilangan normative xujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Ushbu texnologik jarayonni amalga oshirish davrida mehnat unumdorligini oshirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va ta‘mirlash sifatini yaxshilash uchun mo‘ljallangan mexanizatsiya va avtomatizatsiya vositalaridan yanada to‘liq foydalanishga qaratilgan [2-3].

3ES5K rusumidagi (1-rasm)da elektrovozlarning JT-3 hajmidagi joriy ta‘mirlash lokomotivlardan foydalanish boshqarmasining tasdiqlangan jadvaliga muvofiq

amalga oshiriladi. 3ES5K rusumidagi elektrovozlarning JT-3 ta'mirga kirish, ta'mirda turish vaqti "O'zbekiston temir yo'llari" AJ boshqaruv raisi tomonidan 2021-yil 12-apreldagi 361-N sonli buyrug'i asosida amalga oshiriladi [4].

Elektrovozni ta'mirlashga qabul qilish va qo'yish.



1-rasm. Elektrovozining tashqi ko'rinishi

Elektrovoz mexanik qism va elektr jihozlardan iborat. Mexanik qismga aravalar va kuzov kiradi. Kuzov aravalarining ramalariga suyanadi, ular o'z navbatida, g'ildiraklar ustidagi reszor osma va buksa qutilari tizimi orqali, elektrovoz aravalari tormoz tizimi va pnevmatik qurilmalar shuningdek, tortish motorlarini tutib turish uchun qurilmalar bilan jihozlangan [5]. Tortish samaradorligini oshirish uchun turli xil zarbalarni yutuvchi qurilmalar qo'llaniladi.

Elektr jihozlari tortuv motorlaridan iborat (o'qlar soniga ko'ra), yordamchi mashinalar, siqilgan havo kompressorlar, uskunalarni sovutish uchun ventilyatorlar, tortuv transformatorlari, rektifikator-inverter konvertorlari va turli elektr va elektron uskunalari. Tortuv elektr dvigatellari (TED) aravalarda joylashgan. TEDning tutib turuvchi mahkamlash uskunalari. Tutib turuvchi uskuna suspenziya bilan tortuv motori bir tomondan arava ramasiga biriktirilgan va boshqasi podshipnik orqali g'ildiraklar juftligining o'qiga tayanadi [6]. Qolgan elektr jihozlari elektrovozning kuzovida va tomida joylashgan.

Maqsadga ko'ra, elektr jihozlari yuqori voltli (oqim kollektorlari, asosiy kalitlar va boshqalar) va past kuchlanishli (kontaktlar, klapanlar o'rni va boshqalar)ga bo'linadi. Energiya uskunasi yuqori voltli kamerada (YVK) elektrovoz ramasida joylashgan pantograf ko'tarilganda kirish taqiqlangan joyda o'rnatilgan. Eshiklar elektro-pnevmatik blokirovkalar bilan qulflangan. Elektr tortuv motorlarining terminallaridagi kuchlanishni o'zgartirish orqali tezlikni tartibga solidi [7-8].

Asosiy texnik parametrlari

“3ЭС5К” (ЭРМАК) elektrovozi O‘TY temir yo‘l magistralida yuk poyezdlarini tortish uchun mo‘ljallangan. Elektrovoz quyidagi sharoitlarda normal ishlashi mumkin:

Dengiz sathidan balandlik ko‘pi bilan	1200 M
Atrofdagi havo harorati:	-50°C - +45°C
Tok turi: bir fazali o‘zgaruvchan tok	50 Gts
Nominal kuchlanish	25 kv
Maxsimal kuchlanish	29 kv
Elektrovoz kuchlanishda to‘liq quvvat bilan ishlaydi	22,5 kV – 27,5 kV
Rels koleyasi	1520 mm
O‘q formulasi	2 ₀ -2 ₀
Lokomotivning ekipirovkalanish massasi	300t
Tok qabul qilgich bo‘ylama o‘qining rels kallagi ustidagi ishchi balandligi:	5050mm
Avtomatik biriktirgichlar o‘qlari bo‘ylab elektrovozning nominal uzunligi	35004 mm
To‘liq baza	52506 mm
G‘ildirak diametri	1250-1160 mm
Elektr yuritma usuli	O‘zgaruvchan- o‘zgarmas- o‘zgaruvchan tok
Davomli rejim quvvati:	9180 kVt
Davomli tezlik	51 km/soat
Maksimal ekspluatatsion (foydalanish) tezligi	110 km/soat
Maksimal sinov tezligi	120 km/soat
Ishga tushirish tortuv kuchi	339 kN
Davomli tortuv kuchi	232 kN
Elektr tormozlash usuli	Rekuperativ tormozlash
Maxsimal elektr tormoz kuchi	225 kN
Reyka kallaklarining yuqori qismidan pastga tushirilgan holatda pantograf skidining ishchi yuzasiga qadar nominal balandlik	5050 mm

Elektrovozning mexanik uskunalarini ta‘mirlash

Elektrovozning mexanik qismiga yuk tushadi, bundan tashqari, mexanik qism tortish kuchlarini elektromotordan reaktorga o‘tkazadi va elektrovoz harakatidan kelib chiqadigan dinamik yuklarni qabul qiladi [9]. Elektrovoz vagon tipidagi kuzovga ega. Ikki o‘qli elektr lokomotiv aravasi ramadan iborat, g‘ildirak juftligi,

buksa uzeli, ressor osmasi, tutqichli tormoz uzatmasi, tortish motorlari va tortish mexanizmlarining suspenziyalari.

Shakli silindrsimon bloklar ko‘rinishidagi yon tayanchlar yordamida aravalarga tayanadi, elektrovoz ikki bosqichli prujinali suspenziyaga ega: birinchi qadam buksa va arava ramalari o‘rtasida, ikkinchisi arava va kuzov ramalari orasida.

Aravacha ramalarini ta‘mirlash

Aravacha mexanik komponentlar va tortish motorlarini birlashtirish uchun ishlatiladi. Ular kuzov og‘irligini oladi, tortish va tormoz kuchlarini uzatadi va elektrovozni yo‘l bo‘ylab boshqaradi.


Texnik parametrlari

Uzunligi	4780mm
Kengligi.....	2750 mm
Og‘irligi.....	21200kg
Qo‘l tormozi va taroqli moylash moslamasi bilan og‘irligi....	21300kg

Dvigatel podveskasi: prujina o‘qli

Osilgan buksa qadami: mustaqil, individual.

Aravachaning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: arava ramasi 1, buksa uzeli prujinali osmasi 5, 2ta buksali g‘ildiraklar juftligi 4 va tortuv elektr dvigateli 3, tormoz tizimi 6, buksa uzelinig gidravlik amortizatorlari 7, kuzov tayanchlari 8, gorizontaal gidravlik amortizatorlar 10, vertikal gidravlik amortizatorlar 9, tortish dvigatelining suspenziyasi va bo‘ylama surish. Aravachaning yon tomonida greben moylash tizimi o‘rnatilgan. Vertikal va gorizontaal o‘rnatish ta‘minlanadi.



2-rasm. Elektrovozning aravacha ramasi

Aravachaning ramasi aravaning barcha funksional birliklarini, g‘ildirak juftliklari bo‘ylab ramadan vertikal va gorizontaal yukni qabul qiladi, taqsimlash (prujinkali suspenziya yordamida), tortish va tormoz kuchlarini qabul qilish uchun

yagona tizimga mo'ljallangan [10]. Rama barcha arava birliklarining birlashtiruvchi, boshqaruvchi elementidir.

Aravacha ramasining og'irligi va o'lchamining parametrlari:

Rama uzunligi	4700 mm
Rama kengligi	2580mm
Rama balandligi	1180 mm
Arava ramasining og'irligi	2868 kg

Aravacha ramalari rejadagi to'liq payvandlangan to'rtburchaklar shaklidagi struktura bo'lib, ikkita yon devordan o'rtacha nur va ikkita so'nggi to'sinlar bilan bir-biriga bog'langan. Yon devorlar va quti tipidagi nurlar to'rtta prokat po'latdan payvandlangan.

Aravacha ramalarning pastki qismiga quyidagilar payvandlanadi: quyma kichik o'q qutisi va katta o'q qutisi, tormoz tizimining qurilmalarini biriktirish uchun, bo'ylama ustunni qo'yish uchun kronshteyn.


Yon ustunlar bilan birikma hosil qilish uchun yostiqlar yon devorlarning tashqi vertikal varaqlariga payvandlanadi [11]. Aravacha ramalarining yuqori to'shamlariga quyidagilar payvandlanadi: prokladkalar va flexikoil korpusining tayanchlari, vertikal gidravlik amortizatorlarni o'rnatish uchun gardishlar va gorizontal gidravlik amortizatorlarni o'rnatish uchun tutqichlar, tutqichlar tormoz tizimining osma tutqichlarini biriktirish uchun yon devorlarning vertikal varaqlariga payvandlanadi. Tutqichlar aravaning ramasining o'rta o'qining vertikal varaqlariga payvandlanadi, ularga tortish motorlarining suspenziyalari va tormoz tizimining suspenziyalari tutqichlari biriktiriladi.

Результаты. 1 Из двух исследованных видов боярышника наиболее близок к фармакопейному кроваво-красному по спектральным характеристикам экстрактов из цветков и плодов боярышник перистонадрезанный. Количества каротиноидов, выявленные в плодах указанных растений, совпадают, что не противоречит литературным данным, а по содержанию и устойчивости антоцианов перистонадрезанный боярышник превосходит кроваво-красный. Последнее имеет немаловажное значение для производства, поскольку устойчивые антоцианы меньше подвержены деградации в технологических процессах, например, при сушке сырья. При сопоставлении ЧПС настоек производства ОАО «Флора Кавказа» (условно принято как «стандарт») и «Синтез» (табл. 2), выявлено, что статистически значимое различие имеют экстинкции левых точек перегиба, минимумов, а также значения производной во 2-й правой точке перегиба, $Z(-)=3$, остальные 14 показателей совпадают, соответственно $Z(+)=14$. Сопоставление ЧПС настоек производства ОАО «Флора Кавказа» и «Марбиофарм» показало, что статистически значимые различия имеют экстинкции левых точек перегиба, ступенек, минимумов, а также значения производных в левых точках перегиба, т. е. $Z(-)=4$, остальные показатели статистически совпадают: $Z(+)=13$.

Для оценки ЧПС как тестов качества использовали настойку на 70% этаноле (стандарт), водный настой и настойку на 40% этаноле цельных плодов боярышника перистонадрезанного, приготовленные по требованиям фармакопеи [11]. Сравнение фитопрепаратов боярышника аптечной сети проводили на продукции фармацевтических предприятий «Марбиофарм» (г. Йошкар-ола), «Синтез» (г. Курган) и «Флора Кавказа» (ст. Преградная), применяющих для настоек боярышник кроваво-красный. СП извлечений сравнивали по 17 числовым показателям (табл. 1 и 2). Поскольку сырьем других производителей, например, Хабаровской фармацевтической фабрики, служат боярышники даурский (*S. dahurica* Koente ex Schneid.), колючий или другие, то сопоставлять ЧПС производимых ими настоек нецелесообразно. В каждое определение включали по 6–8 независимых проб, полученные данные обрабатывали статистически методом малой выборки [14]. Сопоставление ЧПС разных извлечений проводили с помощью непараметрического *Z*-критерия знаков в несколько модифицированном виде: при равенстве значений сравниваемых пар адекватных ЧПС присваивали *Z*-критерию значение «0», и эти пары исключали из дальнейшего анализа, при достоверных ($p < 0,05$) различиях присваивали «-» или «+», соответственно. Затем подсчитывали количество «-» или «+» и общепринятым способом [15] определяли состоятельность нулевой гипотезы при уровне значимости $\alpha = 0,05$.

При сопоставлении СП «стандартного» экстракта и водного настоя получены равные длины волн для максимумов, аналогично и для минимумов (табл. 1), *Z*-критерию каждого этих двух ЧПС присвоено значение «ноль», и они из дальнейшего анализа исключены. Среди оставшихся 15 показателей только длины волн 2-й точки перегиба сравниваемых СП совпадают ($p > 0,05$), соответственно $Z(+)=1$. Остальные 14 показателей имеют статистически значимое различие. При сопоставлении ЧПС «стандарта» и настойки в 40% этаноле оказались равными длины волн левых точек перегиба.

Вывод. Таким образом, при сравнении СП извлечений, приготовленных в стандартных и в отличающихся искусственно измененных условиях, полученные значения *Z*-критериев указывают на несостоятельность нулевой гипотезы и достоверное различие соответствующих ЧПС тех и других извлечений. Напротив, для СП настоек, приготовленных в определенных условиях промышленного производства, значения *Z*-критериев дают основания для принятия нулевой гипотезы, т.е. различие ЧПС для СП настоек недостоверно. Итак, использованные для сравнений ЧПС указывают на отклонение СП извлечений от стандарта или на совпадение с ним.

ЛИТЕРАТУРА (REFERENCES)

1. Гуревич Михаил Александрович, Гаврилин Алексей Александрович Сердечные гликозиды в современной клинической практике // Альманах клинической медицины. 2014. №35. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/serdechnye-glikozidy-v-sovremennoy-klinicheskoy-praktike> (дата обращения: 12.09.2023).
2. Gheorghide M, Patel K, Filippatos G, Anker SD, van Veldhuisen DJ, Cleland JG, Metra M, Aban IB, Greene SJ, Adams KF, McMurray JJ, Ahmed A. Effect of oral digoxin in high-risk heart failure patients: a pre-specified subgroup analysis of the DIG trial. *Eur J Heart Fail.* 2013;15(5):551–9.
3. Усманова, М., Эрназарова, М., Куйлиева, М., & Хасанова, Г. (2021). Дорихона фаолиятини ташкил этиш, дорилар саклаш чора тадбирлари. *Экономика и социум*,(11), 90(6).
4. O.J.Meliqulov, N.D.Kodirov, & E.S.Baymuradov (2022). 4–XLOR-5,6-DIMETILTENO[2,3-D]PIRIMIDINNING TO'YINGAN GETEROSIKLIK BIRIKMALAR BILAN REAKSIYASI. *Ta'lim fidoyilari*, 18 (5), 285-288.
Кодиров, Н. Д., Баймуратов, Э. С., & Нажмитдинов, Х. Б. (2022). ПОЛУЧЕНИЕ, ИССЛЕДОВАНИЕ И МЕХАНИЗМ ДЕЙСТВИЕ БИОЛОГИЧЕСКИХ АКТИВНЫХ ВЕЩЕСТВ. *ББК 30.16 Б 63, 3, 57.*
5. Нажмитдинов, Х. Б. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АМАРАНТА В МЕДИЦИНЕ, КАК СРЕДСТВА ЛЕЧЕНИЯ ЗАБОЛЕВАНИЙ. *Вестник науки*, 3(6 (63)), 1227-1231.
6. Нажмитдинов, Х. Б. (2023). ТРИТЕРПЕНОВЫЕ САПОНИНЫ: ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В МЕДИЦИНЕ И В ФАРМАЦИИ. *Вестник науки*, 3(6 (63)), 1237-1241.
7. Нажмитдинов, Х. Б. (2023). ЛЕЧЕНИЕ РЕВМАТОИДНОГО АРТРИТА С ПОМОЩЬЮ НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ. *Вестник науки*, 3(6 (63)), 1232-1236.
8. Qodirov, N. D., Qo'Yliyeva, M. U., & Boymurodov, E. S. (2021). DORILAR NAQIDA TUSHUNCHA, FARMAKALOGIK XOSSALARI, SAQLASH UCHUN SHAROIT YARATISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 580-586.
9. Боймуратов, Э. С., & Койлиева, М. У. (2022). Фитотерапия при лечении сахарного диабета. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 4-2).

O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH USULLARI VA ADABIY ATAMALAR TAHLILI

(Erkin Vohidovning adabiy-estetik qarashlari misolida)

Mirsanova Moxira Xusniddin qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti

Tel: +998 99 525 68 63

moxiramirsanova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirish, o‘quvchilarda o‘qish jarayonida ko‘p uchraydigan xatolarni bartaraf etish, shuningdek, Erkin Vohidovning adabiy-tanqidiy qarashlarini maktab darsliklaridagi adabiyotga oid atamalar bilan taqqoslash, o‘quvchilarga ta‘lim berishda adabiyotning o‘rni, mohiyati haqida so‘z yuritish kabi masalalar to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: estetik qarash, ijodkor, uslub, adabiy-estetik qarash.

АННОТАЦИЯ

Целью данной статьи является повышение читательской грамотности учащихся, устранение типичных ошибок в процессе чтения, а также сравнение литературно-критических взглядов Эркина Вахидова с терминами литературы в школьных учебниках, ознакомление учащихся с важностью литература в образовании. Говорят о таких вопросах, как говорят о месте и сути.

Ключевые слова: эстетический взгляд, творец, стиль, литературно-эстетический взгляд.

ABSTRACT

This article aims to improve the reading literacy of students, to eliminate common mistakes in the process of reading, as well as to compare the literary and critical views of Erkin Vahidov with the terms of literature in school textbooks, to teach students about the importance of literature in education. They talk about issues such as talking about the place and essence

Key words: aesthetic view, creator, style, literary-aesthetic view.

KIRISH

Bolalar tarbiyasi asosan ota-onalar va tarbiyachilar tomonidan shakllantirilib, yillar davomida ular ulg‘ayib voyaga yetgunicha muttasil olib boriladi. Bu narsa doimo bir xil e‘tibor bilan ota-ona nazoratida qaralsa, bola tarbiyali, odob-axloqli bo‘lib shakllanadi. Hali o‘qish, yozish, chizishni bilmaydigan maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar dunyo sirlaridan bexabar bo‘lishadi. Shunga qaramay, bizni

qurshab turgan olamni tezroq bilib olishga uning sirlarni o'rganishga intiladilar. Unda oilada ota-onalar, bog'chalarda esa tarbiyachilar, maktabda esa o'qituvchilar yaqindan yordam beradilar, ya'ni ular badiiy asarlardan parchalar o'qishni, mazmun va mohiyatini tushunishni o'rganadilar. Badiiy kitoblarning rasmlarini rang-barang harflarini o'qib o'rganishga muvaffaq bo'ladilar. Ulg'ayib ketayotgan yosh avlodni komil insonlar qilib tarbiyalashda kattalar adabiyotining ajralmas bir bo'lagi bo'lgan bolalar adabiyotining ham ahamiyati katta. Bolalar adabiyoti o'z oldiga kelajak avlodni jismonan baquvvat, ruhan pok, fikran sog'lom, iymon-e'tiqodi butun, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tarbiyalashdek katta va murakkab vazifani qo'yganligi bilan ajralib turadi.

Adabiyot bevosita ham, bilvosita ham insonni tarbiyalaydi. Tarbiya borasida adabiyotga teng keladigani yo'q. Chunki oddiy tarbiyaviy ahamiyatga ega voqeani so'zlab berib nasihat qilsangiz ham bu adabiyotdir, chunki adabiyot shu kabi voqeliklarning sayqallanib qog'ozga ko'chishidir. Taniqli shoirimiz Erkin Vohidov ijodi va adabiy-estetik qarashlari tahlili orqali ham fikrlarimizni yanada to'ldiramiz.

Kadrlar tayyorlash milliy darsturda, «Ta'lim to'g'risidagi» qabul qilingan Qonunda ham xuddi ana shu masala ko'ndalang qilib qo'yilgan. Zotan xalqning bir bo'lagi sanalgan bu yosh avlod qisqa vaqt ichida voyaga yetib ulg'ayadi. Shuning uchun ham bu avlodga alohida e'tibor bilan qarash lozim. Bolalar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos bo'lishi, ular qalbida chuqur o'y-fikrlar uyg'otishi, yorqin obrazlar va yuksak g'oyalarga boy bo'lishi, ularni ulkan va porloq ishlarga ilhomlantirishi zarur.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'qish darsliklarida yuzdan ortiq shoirlarning ko'plab xilma-xil mavzulardagi she'rlari berilgan. Biz O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ijodiga ham alohida to'xtalishni maqsad qildik. Ijodkor she'rlarini boshlang'ich sinf o'quvchilari qay darajada o'zlashtira oladi? Qaysi jihatlariga etibor berish lozim? Kabi savollarga javob qidirishga ham urinib ko'ramiz. Erkin Vohidov ijodi nihoyatda barkamol ijod namunalari hisoblanadi. Ularning ichida bolalar uchun mo'ljallanganlari ham bisyor.

Taniqli shoirimiz Erkin Vohidovning adabiyot haqidagi mulohazalari bilan o'rtoqlashib, fikrlarimizni davom ettirsak: "Adabiyot sohasiga kirgan har qanday odamda shaxsiy manfaatdan ko'ra ijtimoiy manfaat kuchliroq bo'lishi lozim. U har qanday hujumlarga, ginalarga, ta'na toshlariga bardosh bergan holda, yuragidagi o'ylarni baralla aytish darkor"! Sehr darajasidagi yuksak san'at bo'lmagan joyda qolgan hammasi behuda kuchanish quruq gap. San'atning, adabiyotning, she'riyatning katta- kichikka talabi bitta. Qalblarni zabt etish! Zabt etilgan qalblarga

esa ezguluk urug‘ini sochish! Bizga mukofot o‘sha urug‘larning mingdan biri bergan hosilni ko‘rish, xolos”¹⁰⁰.

Darhaqiqat, badiiy adabiyotning o‘rni juda kuchli. Insonni ma’naviy kamol topishida ham, uning tafakkuri va dunyoqarashini shakllanishida ham, uning o‘rni beqiyos ekanligi qayd etiladi. Yosh avlodning tarbiyasi uchun, har taraflama barkamol bo‘lishi uchun yozilayotgan ijod namunalari mukammallikni talab etadi. Qalbni zabt etadigan ijod namunasi chin iste’dod sohiblari tomonidagina yaratiladi. Bunday namunalar millionlab qablarga ezgulik urug‘ini olib kirishga harakat qiladi. Albatta, ularning har biridan ulug‘ maqsadlar ko‘zlangan. Chunki she’r ham, avvalo, badiiy adabiyotdir.

She’r haqidagi mulohazalarga to‘xtalamiz, uning zamiridagi turli tahliliy yondoshuvlarni, qarashlarni kuzatamiz. Shu o‘rinda Erkin Vohidov “Mendan she’riyat nima deb so‘rashsa, she’riyat – go‘zal fikrning go‘zal ifodasi”¹⁰¹ - deb javob bergan bo‘lar edim, deydi. “Go‘zal fikrning – go‘zal ifodasi” bu ta’rif shuni ko‘rsatadiki, ijodkorga ilhom bergan fikr, avvalo, go‘zal bo‘lmog‘i kerak, buning uchun ijodkorning qalbi, shaxsiyati go‘zal bo‘lsagina bu ishlarni yuzaga chiqish imkoni kengayadi. Shunda go‘zal satrlar yuzaga keladi. She’riyat inson qalbidagi nozik torlarni shunday mayinlik bilan chertadiki, qalb to‘lqinlanib ketadi, agar u yaxshi yozilgan she’r bo‘lsa, kitobxon qalbini larzaga soladi, uning tushunchalarini boyitadi, didini o‘stiradi. Bolalarga o‘sha go‘zal fikrlar singdirilgan, go‘zal qoliqlar bilan boyitilgan satrlarni o‘rgatish, o‘rgatganda ham onson va tez o‘rgatish, she’r yod oldirish ko‘nikmalari va usullarini o‘rgatish lozim.

2023-yilda chop ettirilgan yangi darslikning 3-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan O‘qish Savodxonligi kitobida she’rga berilgan ta’rifni keltirsak:

“She’r (arabcha: shuur – sezgi) – fikrning his-tuyg‘uga qorishliq ifodasi sifatida vujudga kelgan, hayajonli she’riy nutq bilan ifoda etilgan, ma’lum ichki ohangga ega badiiy asar. “She’r” atamasi o‘rniga ba’zan “nazim” so‘zi ham qo‘llaniladi. She’rning eng kichik ko‘rinishi mumtoz adabiyotda 1 baytdangina iborat bo‘lib, “fard”; o‘zbek folklorida esa 4 qatorni tashkil etib, “to‘rtlik” deb ataladi”¹⁰²

Etiborimizni ikki ta’rifni tahliliga qaratsak, avvalo birinchi ta’rifda shoirona yondoshuv mavjud. Shoir o‘zining go‘zal his-tuyg‘ulari singdirilgan she’rlaridan xulosa qilgan holda “go‘zal fikrning – go‘zal ifodasi” deya ta’rif bergan. Maktab darsligidan keltirilgan ta’rifda esa adabiyot nazariyalarida keltirilgan she’rning ilmiy

¹⁰⁰ Vohidov E. Shoiru, she’ru shuur. Adabiy o‘ylar. – Toshkent, 1987. 39-bet.

¹⁰¹ Vohidov E. Shoiru, she’ru shuur. Adabiy o‘ylar. – Toshkent, 1987. 29-b

¹⁰² Toirova M.E. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, I qism./ Toirova M.E. –Toshkent. “Novda Edutainment”, 2023. – 24 b

ta'rifi berilgan. Bolalarga ilmiy atamalarni o'rgatishda shunga o'xshash fikrlarni taqqoslagan holda o'rgatsak bu ham o'ziga xos jihat bo'lar edi.

Adabiyotni o'z mohiyatiga ko'ra jo'shqin daryoga qiyos qilsa bo'ladi. Daryo suvlaridan dalalar, dov-daraxtlar gullab-yashnasa, adabiyot inson qalbiga ezgulik urug'ini sepadi, uni hayotda to'g'ri yashashga, ulug' maqsadlar yo'lida kurashishga o'rgatadi. Ezgulik urug'i unib chiqqan qalblardan ezgulik hosilini terish bu bolalarga ta'lim-tarbiya berib uning kelajakda ko'rsatadigan natijasidir. Daryo irmoqlardan vujudga keladi. Adabiyotimiz irmoqlari esa adiblarimiz yaratgan asarlardan iborat. Daryolarning sersuvligi, hayqirib oqishi irmoqlar suviga bog'liq bo'lgani singari, adabiyotning jo'shqinligi, kurashchanligi – hayotda tutgan o'rni undagi asarlarning sifatiga qarab belgilanadi. Shunga ko'ra adabiyot ta'limi o'z oldiga bir qator maqsadlarni qo'yadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi adabiy ta'lim asosan sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar ustuvorligini ko'zda tutadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni o'qishning bir necha turlari ya'ni, ongli, tez, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatib boriladi. O'qituvchi ongli tez, to'g'ri, ifodali o'qishga o'rganishda ulgurmayotgan o'quvchilar bilan qanday ishlar olib borish kerak? To'g'ri o'qish - tushinarli qilib xatosiz o'qishdir. Ma'lumki ayrim o'quvchilar ko'pincha ba'zi harflarni tushurib, bog'inlar, so'zlarning o'rnini o'zgartirib o'qiydilar. Bunday xatolarga yo'l qo'ymasliklari uchun qiynalib o'qiydigan o'quvchilarga katta hajmdagi matnlarni qismlarga bo'lib o'qishni tavsiya qilish anchagina yengillik yaratadi. To'g'ri o'qishga o'rgatish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

-dastlab 3-4 bo'g'inli so'zlarni o'qish , 5-6 bo'g'inli so'zlarni esa bo'g'inlarga bo'lgan holda o'qishdir;

-tanish matnlarni o'qitishda o'qish surati biroz oshirilgan bo'ladi. Shunday qilinganda bolalar notanish matnlarni ham tutilmay o'qish malakasiga ega bo'ladilar;

-to'g'ri o'qishni bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar o'zlashtirishi uchun tovush, bo'g'in va so'zlarni to'g'ri, aniq, sof talaffuz etish katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, talaffuzda **p** yozuvda esa **b** yoziladigan so'zlarni to'g'ri o'qishga o'rgatish (oftob,serob); **r** tovushini **l**, **y** deb (bayroq,-bayloq,o'rtoq-o'ytoq) talaffuz etishlarining oldini olish uchun bunday so'zlar yo'zilgan ko'rgazmalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'qish tezligini oshirish ancha murakkab jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bola tez o'qiyman deb shoshiladi, natijada xatolarga yo'l qo'yadi. Bunday vaziyatda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga shoshmasdan o'qish ko'nikmasi o'rgatilishi lozim. O'qituvchi bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarda yaxshi kayfiyat uyg'ota olishi,

sinfda yaxshi muhit yaratishi, har bir bolada “To‘g‘ri va ravon o‘qiy olaman” degan ishonchni uy g‘otishi lozim. Bundan ko‘rinadiki ustozlarimizdan kuchli psixolok bo‘lish ham talab etiladi. Bola psixikasini yaxshi tushungan ustozlarimiz bisyor albatta.

Ongli o‘qish jaroyonida o‘qilayotgan matnni tushunib, asosiy maqsadni uqib, asardagi ayrim o‘z va ko‘chma ma‘noli so‘zlarni izohlash, bunday so‘zlar ishtirokida gaplar tuzish, tuzilgan gaplarni mazmun tomondan jamlab, kichik hikoya hosil qilish, matnning tugallangan qismidagi asosiy fikrni topish mashqlarini tez-tez o‘tkazish, matndagi tabiat tasvirini, insonlarning yaxshi-yomon odatlarini misollar yordamida, asardagi voqealarga bog‘lab gapirib berish maqsadga muvofiq. Qaysi ishlar yaxshi va ularga ergashish mumkin, qaysilari yomon, ulardan nafratlanish kerakligini izohlab berishni o‘quvchilarga topsjiriq tariqasida tavsiya etish mumkin. O‘quvhilar to‘g‘ri, ongli, tez o‘qishni egallagan taqdirdagina ifodali o‘qiy oladilar. Ifodali o‘qishga o‘rgatish, o‘qishga o‘rgatish bilan bir paytda amalga oshiriladi. Ifodali o‘qishga ulgurmayotgan o‘quvchilarga kichik misrali she‘rlardan yod olishga topshiriq berish, kichik misradagi she‘rdagi ohangga, tinish belgilariga alohida e‘tibor bilan yod olish aytiladi. Bundan tashqari bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida uyg‘un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun, avvalo, o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli qilib bajarishga ishonch hosil qilish lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash ancha murakkab jarayon. O‘qituvchining pedagogik mahorati zamonaviy dars o‘tish usullaridan foydalanishi bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchi bilan yakka tartibda ish olib borishi natijasida uning oldini olishga imkon yaratadi. Jahon – keng Dunyoda mamlakat kop, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz O‘zbekistonimiz yakka-yu yagona. O‘zbekistonning kelajakdagi ravnaqi bugungi yosh avlodning to‘laqonli ta‘lim va tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Ana shularni kelajagimiz poydevori bo‘lmish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari diliga jo etib hayotlari mazmuniga aylantirishimiz ona Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashimiz lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Toirova M.E. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, I qism. / Toirova M.E. –Toshkent. “Novda Edutainment”, 2023. – 80 b
2. Vohidov E. Shoiru, she‘ru shuur. Adabiy o‘ylar. – Toshkent, 1987.

3. Umumiy o'rta ta'limning davlat standartlari va o'quv dasturi // O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining Axborotnomasi, 7-maxsus son. Toshkent. «Sharq», 1999.
4. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti // «Boshlang'ich ta'lim». Jurnal. Toshkent, 2005. - №5.5,6.
5. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi o'quv dasturi // «Boshlang'ich ta'lim». Jurnal. Toshkent, 2005. - № 5.
6. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O'zbekiston. 2016. 56-b.
7. Воҳидов Э. Эрк саодати. Тўла асарлар тўплами. VI жилд. –Ташкент, 2018. – 360 б.

IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANIDA O’ZBEK AYOLINING SABR-BARDOSHI VA ICHKI KECHINMALARI TAHLILI

Asila Xaydaraliyeva Dilmurod qizi

Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Iqbol Mirzo qalamiga mansub “Bonu” romani qahramoni Bonuning yaqinlaridan ko’rgan xiyonati, razillik, ikkiyuzlamachilik, insofsizliklarga qanday javob qaytargani; mustahkam iymoni, or-nomusi, iffati yo’lida kechirgan qiyinchiliklari, ichki kechinmalari tasvirlangan.

***Kalit so’zlar:** maktub, retrospektiv syujet, erka ma’suma, Choliqushi, qiz tarbiyasi, “oq pes”, haqiqatgo’ylik, bolaning begonasi, favqulodda matonat, sms, Olmos, e’tiqod, saraton, o’zbek ayoli, bobo meros, favqulodda matonat, o’lim changali, baxtli kunlar eshigi*

ABSTRACT

This article describes how Bonu, the hero of the novel "Bonu" written by Iqbal Mirza, responded to the betrayal, malice, hypocrisy, and dishonesty he saw from his loved ones. The difficulties and internal experiences he endured in the path of strong faith, honor, and chastity are described.

***Key words:** letter, retrospective plot, Cholikushi, education of the girls, “oq pes”, truthfulness, prodigal child, perseverance, death, door to happy days*

KIRISH

O’zbek adabiyotida ayollarga bag’ishlab yozilgan asarlar talaygina. Bu mavzuda qalam tebratmagan ijodkor bo’lmasa kerak. Ayniqsa, ayollarning ichki kechinmalarini ifodalash, tasvirlash qiyin masaladir. Buni faqat mahoratli yozuvchi-shoirlargina uddalay oladilar. Chunki ayol zoti tabiatan murakkab yaratilgan shaxs. Uning xohish-istakalarini, tuyg’ularini payqay olish har doim ham oson kechmaydi. Lekin Iqbol Mirzo bu vazifani maromida ado eta oldi. Avvalo, uning she’riyatiga nazar tashlasak, sermahsul ijodkor ekanligiga amin bo’lamiz. Lekin u nasrda ham barakali ijod qilib ulgurdi. 2014-2017-yillarda shoir bilan bir xonada ish faoliyatini yuritgan publitsist, shoira Munira Ramazonova : “Iqbol aka tinib tinchimas odam edi. Hayotda ham, ijodda ham hech bir mavzuni chetda qoldirgan emas. Uning davra suhbatlarida, yosh ijodkorlar bilan uchrashuv jarayonlarida ko’p bo’lganman. Harakatchan, ilmga tashna ijodkor yoshlarni yaxshi ko’rar, erinmay ularga “O’tgan kunlar”, “Kecha va Kunduz” asarlaridan savollar berib sinardi”. Asarlardagi eng mayda detallarni ham katta mavzu, muammo darjasiga olib chiqa olardi. Uning

ilgariroq yozilgan “Zarb” asari sportchilar hayotini yoritishga bag’ishlangan. Hozir sevib o’qilayotgan “Bonu” romani ham ayol-qizlarning bugungi hayotdagi o’rni, yashash tarsi, kechinmalariga befarq bo’lmagan holda xalqqa bir o’rnak asar sifatida yaratilgan bo’lsa ajab emas”, -desa, shoirning suyuqli shogirti Masihulloh Madaminov ustozining ijodiy faoliyati haqida shunday deydi: “Ustoz ko’nglidagi bor gaplarini qog’ozga tushurar edi. Bir suhbatimizda shunday degan edilar: “Inson yoshi o’tgan sayin tuyg’ulari she’rga sig’may qoladi. Keyin prozaga o’tishga majbur bo’lasan kishi. Ijodkorning hayoti shunday. Yaratilgan nasriy asarlar mana shularning natijasidir. “Bonu” romaniga keladigan bo’lsak, bu qiz bunday mavzuda yirikroq nimadir yaratishimga bir turtki bo’ldi, xolos. Aslida kitobdagi hamma qiyinchilig-u, mushkulotlarni Bonu boshidan o’tkazmagan. Unda jamiyatdagi har bir ayol-qizning hayoti davomida bir marta bo’lsa ham o’zgalardan ko’radigan xiyonati, ikkiyuzlamachilik, ta’magirlik, kamsitilish, musofirlik, adolatsizlik kabilar tasvirlangan. Bu og’riqli nuqtalar faqat Bonuniki emas, zulm, aziyat chekkan barcha opa-singillarimiznikidir” Haqiqatdan ham yozuvchi birgina qiz misolida butun o’zbek ayollarining timsolini yaratdi. Bir so’z bilan aytganda, bu asar-barcha ayollarga bag’ishlangan asardir.

Atrofida ming yaxshi-yomon gap aylangan “Bonu” o’z tilining jozibasi, uslubning o’zgacha ekani bilan ajralib turadi. Roman boshdan oyoq maktub (telegram xabari) tarzida bitilgan bo’lib, g’arbda “epistolyar” deb ataladigan ko’rinishda yozilgan. Kitobxonni zeriktirib qo’ymaslik uchun suhbatlar qisqa-qisqa yoritilgan. Romanning syujet ko’rinishi o’ziga xos. Ya’nikim, asarning bosh qahramoni Bonu yoshlik davrlari haqida gapira turib, bolalik xotiralariga sakrab o’tib ketadi, yoki aksincha. Syujet silsilasining bunday xillma-xilligiga asoslanib, uni retrospektiv syujet desa bo’ladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Bonu” romani ko’plab kitobxonlar, izlanuvchi tadqiqotchilarga ham birdek manzur keldi. Qolaversa, Erkin A’zamning quyida keltirilgan fikrlari asar kuchini yana bir bor isbotladi: “Iqboljon, “Bonu”ni kecha o’qib tugatdim. Bayram kunlari uning ta’sirida edim. Kutganimizdan ziyoda, yashang! Dard, donolik, daqiq tasvirlar, til, til...Havasim keldi. “Choliqushi” yasabsiz. Bo’shshamang, inim!”

Asarning har jumlasida yozuvchining mahorati va asar uchun alohida tayyorgarlik ko’rgani seziladi. Asar faqat voqealar rivojidan iborat emas. Unda qochirimlar, o’xshatish, so’z o’yinlari kabi san’atlarni ko’rish mumkin. Ayniqsa, holatga mos mumtoz baytlar, ibratli hikoyalar, mashhurlardan g’azallar keltirilgani yozuvchining qalam kuchini isbotlaydi. Bundan tashqari asarning tugun bilan boshlangani, qahramon kimga “aka” deya murojaat qilayotganini bilish qiyinroq. Bu

usul asarga nisbatan kitobxonda kuchliroq qiziqish uyg'otadi. Buni o'zbek adabiyotida Oybekning "Qutlug' qon", Abdulla Qahhorning "Qo'shchinor chiroqlari"; Gogolning "O'lik jonlar" asarida ko'rish mumkin.

Asarning bosh qahramoni- Bonu. U oqko'ngil, sodda, husnda tengi yo'q, oila a'zolari ardog'ida o'sib kelayotgan bir ma'suma edi. Talabalik yillarida Olmos degan bir yigit bilan tanishadi va bir-biriga ko'ngil qo'yadi. Asarning bu qismi hayotiy voqealarga juda yaqin-tabiiy chiqqan. O'zbek ayollarida, ayniqsa, bu holat, ya'ni soddalik, oson ishonuvchanlik kuchli. Shuning uchun bo'lsa kerak, Bonu ham bu yigitga ishonib, boshidan ko'p qiyinchiliklarni o'tkazadi. Ko'p asarlarda qizlar yaqinlaridan ayrilsa, yaxshi ko'rgan insonidan panoh kutadi. Bonu ham ayni dadasidan judo bo'lgan kezlari Olmosga qattiq bog'lanib qoladi. Asar davomida Olmos yozuvchi tomonidan oliyanob, sevgini qadrllovchi inson qilib tasvirlanadi. Biroq uning aslida qanday inson ekani asar so'nggida ayon bo'lib, kitobxonga kutilmagan zarba beradi. Bonu juda qiyin vaziyatlarda qolganiga qaramay, o'zligini, iymonini yo'qotmadi. O'zbek oilalarida otalar qizlar tarbiyasiga alohida ahamiyat berishadi. Hamma mushkulotlar Bonuning dadasini o'limini kutib turganday edi. Birdaniga opalarining muomalasi o'zgartirildi, butun badaniga oq pes toshib ketgani bunga misol. Ayniqsa, shu dard qizning nazardan qolishiga sababchi bo'ladi. Qanchalik urinmasin bunga davo topa olmaydi. Qahramonlar o'ta qiyin vaziyatlarda qolishganda ularni tinglovchi yangi qahramonlar voqealar rivojiga qo'shilishi bu barcha asarlar uchun umumiy holat. Bonu uchun Huvaydo bobo yaratganning unga yuborgan tuhfasini edi. U faqat shu inson bilangina dardlasha olardi. Uni o'z otasidek qabul qilgandi. Vafotidan keyin ham uning haqqiga duolar o'qidi. Faqat o'zbek ayollariga umuman qarindoshligi bo'lmagan insonlariga ham kuyunadi.

Bundan tashqari yozuvchi Bonuning yosh bo'lsa ham cho'tkesar, to'g'riso'z, ikkiyuzlamachilikni yoqtirmaydigan inson ekanini ko'rsatgan. U maktabda ishlagan paytida hokimiyatdan tekin kelgan kiyimlar uchun o'quvchilardan pul olmagan sababli ishdan bo'shatiladi. Lekin yosh boshi bilan kattalarning yuziga qo'rqmay haqiqatni ayta oladi. Bundan tashqari Rossiyada uysiz qolganda, fohishalik kabi qabih ishlarga chorlovchilar ham uning iffatini, iymoni sinab ko'rishdi. Lo'lilar qo'lida xizmatkor bo'lib ishlaganda, o'z jonini xafvga qo'yib, bolalarni qoplon itdan saqlab qolgani esa yana maqtovga sazovor. Ular Bonuga begona edi, biroq u o'zbek. O'zbeklarda bolaning begonasi bo'lmaydi.

Asarning kichik bir qismida akasining bobosi Bonuga meros qoldirgan ko'zachani sotib yuborgani, undan oldin ota hovligi sotish kabi gaplardan Bonuning xafa bo'lgani va meroslar uchun kuchi boricha kurshgani- unda ota-bobolarga bo'lgan qadriyati kuchliligidan dalolat beradi.

Asarning so'ngi esa kitobxonda Bonuga nisbatan yanada kuchliroq mehr uyg'onadi. Olmosning asl basharasining ayon bo'lishi-asarning kulminatsion qismidir. Bir patlar Bonuni sevaman deya jonidan kechishga tayyor Olmosning asl maqsadi ayon bo'ldi. U Bonudan o'z manfaati yo'lida foydalanmoqchi bo'lgan edi(o'zi uchun badavlat tanishlar orttirish) Lekin soddagina qiz buni sezmagan. Shunchalik sevgan edi-ki, yozgan smslarini hatto daftarga ko'chirib qayta-qayta o'qirdi. U meni sevardi, faqat ota-onasining ra'yini qaytara olmadi deb o'ylardi. Ba'zida Olmos unga uylanmaganidan xursand bo'lar, badanidagi dog'lari bilan ko'cha-ko'yda uni uyatga qo'yishi haqida o'ylab xavotirlanardi. Asar so'nggida ham Olmos o'zining razil kimsa eknaligini yana bir bor isbotladi. Bonu endigina tinib-tinchib, onasi, o'zi uchun yashayman deb turgan paytda Olmos xotini, do'sti bilan birgalikda "saronman" davolanishga pul kerak deya, do'sti orqali mehribon qizning bor-budini shilishga urinadi. Soddagina Bonu esa bularga oson ishonadi. Bularning hammasi yolg'on ekani keyinroq ma'lum bo'ladi. Ushbu vaqt davomida Bonu yana o'sha eski xotiralarga qaytadi, unga rahmi keladi. Lekin bu xavotir yolg'on fosh bo'lgunga qadar davom etdi. Asarning shu qismida ham u Ibrohim G'afurov aytganday, favqulodda matonat ko'rsatdi" Bonu Ayubdan ham ko'proq yengish, chidash, ko'tarish, qariyb ilojsiz sinov-sinoatlarga duch keldi. Yengib o'tish, omon qolish imkonsiz bo'linb ko'ringan holatlarda ham u favqulodda matonat ko'rsatdi" U hech kimdan xafa bo'lmadi. Ayollar tilida ko'p uchraydigan qarg'ish so'zlarni ham ishlatmadi. Sabr qildi. Hatto Olmosning kasal emasligini bilganda ham "xudoga shukur" deyishga kuch topa oldi. Taniqli ayol yozuvchi Zulfiya Qurolboy qizi "Ayol" hikoyasida Nazokat "Men yaqin orada o'ladigan odamga o'xshamayman. O'zimni juda yaxshi his etyapman" deb o'limi yaqin bo'lsada, o'zini ovutgan edi. Bonu ham balki, o'limi yaqin bo'lmasa ham o'lim changgalidan bir necha marotaba qaytib, shu so'zlarni o'z-o'ziga takrorlagan bo'lsa ajab emas. U doim odamlarga yordam berishni istar, odamiylik hislatlarini isbotlagisi kelardi. Hatto Rossiyada yashagan vaqtlarida qanchadan-qancha odamga yordam qo'lini cho'zaman deb qamoqxonada eshigidan qaytdi. Lekin odamzot sabr bilan hammasini yenggadi deganlariday, Bonu ham g'alaba qildi. Hayoti yaxshilandi, u uchun ham baxtli kunlar eshigi ochildi. Badanidagi dog'lar ham ketib, oldingiday husnga kirdi. U "Men endi hamma teng bo'lgan joyga ketaman",-dedi. Chunki yozuvchi Bonuning keying taqdirini kitobxonning o'ziga xavola etdi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, "Bonu" romani qahramoni bugun barchaga birdek namuna bo'ladigan ayol obrazidir. Uning boshidan o'tkazgan qiyinchiliklari garchi oddiydek tuyulsada, bu sinovlar oldida taslim bo'lmagani uning

metin irodasini, sabrini ko'rsatdi. U bizga haqiqiy o'zbek ayoli siymosini yaratdi. O'ylayamki, bu asarni har bir qiz, ayol mutoalaa qilishi kerak. Zero Bonuning ko'rsatgan jasoratlari barchaga birdek o'rnak bo'lsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Iqbol Mirzo "Bonu" 278 bet, Sharq nashriyoti 2018
2. Zulfiya Qurolboy qizi "Ayol".-T. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2005
3. Iqbol Mirzoning hamkasbi Munira Ramazonova bilan 2023-yil 27-oktabrdagi suhbatdan foydalanildi
4. Iqbol Mirzoning shogirti Masihulloh Madaminov bilan 2023-yil 28-oktabrdagi audio suhbatdan foydalanildi

O‘TKIR HOSHIMOVNING KICHIK HIKOYALARIDAGI “NUTQIY NIQOB”NING IFODALANISHI

Hamroyeva Farida Faxriddinovna

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

+998 90 224 46 57

ANNOTATSIYA

“Nutqiy niqob” narratologiya yo‘nalishining muhim jihatlaridan biri sanaladi. Badeiy asarlarda nutqiy niqob muloqot va ijtimoiy kamuflyajning turli tomonlarini aks ettiruvchi ramz yoki metafora sifatida ishlatiladi. Mazkur maqolada taniqli o‘zbek yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning kichik hikoyalarida nutqiy niqobning ifodalanishi va uning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Adibning yozuvchilik mahorati hamda uning asarlarida tasvirlangan oddiy qishloq hayoti xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *Narratologiya, nutq, nutqiy niqob, novella, metafora, adabiyot, til, uslub.*

ВЫРАЖЕНИЕ «РЕЧЕВОЙ МАСКИ» В ПОВЕСТИЯХ УТКИРА ХАШИМОВА

Хамроева Фариди Фахриддиновна

Научный соискатель Самаркандского государственного института

иностранных языков

+998 90 224 46 57

АННОТАЦИЯ

«Речевая маска» — один из важных аспектов нарратологии. В литературных произведениях речевая маска используется как символ или метафора, отражающая различные аспекты общения и социального камуфляжа. В данной статье рассматривается выражение речевой маски и ее значение в рассказах известного узбекского писателя Уткира Хашимова. Обсуждаются писательское мастерство автора и простая деревенская жизнь, описанная в его произведениях.

Ключевые слова: *Нарратология, речь, речевая маска, роман, метафора, литература, язык, стиль.*

EXPRESSION OF “SPEECH MASK” IN THE STORIES OF UTKIR HASHIMOV

Khamroeva Farida Fakhriddinovna

Scientific applicant of the Samarkand State Institute of Foreign Languages

Phone: +998 90 224 46 57

ABSTRACT

The “speech mask” is one of the important aspects of narratology. In literary works, the speech mask is used as a symbol or metaphor, reflecting various aspects of communication and social camouflage. This article examines the expression of the speech mask and its meaning in the stories of the famous Uzbek writer Utkir Hashimov. The author's writing skills and the simple village life described in his works are discussed.

Key words: *Narratology, speech, speech mask, novel, metaphor, literature, language, style.*

KIRISH

Nutqiy niqob - bu boshqa shaxs uslubidagi tasvir bo'lib, uni tanlash so'zlovchining maqsadlari, vaziyat, muloqot shakli, adresat omili (murojaatning kimga qaratilganligi) bilan belgilanadi. Nutqiy niqob - bu o'quvchilar ongida mustahkamlangan ma'lum turdagi kommunikatorlarning umumlashtirilgan g'oyasiga asoslanib, boshqa birovning nutq xatti-harakatlaridan vaqtinchalik va situatsion foydalanish. Nutqiy niqob asarning g'oyaviy maqsadlaridan kelib chiqib tanlab olinadigan ma'lum lisoniy vositalar majmuasi bilan tavsiflanadi. Nutqiy niqob ma'lum tushunchalar, g'oyalar va qadriyatlarni ifodalash orqali fonetik, grammatik, leksik-sintaktik, stilistik va boshqa turli lingvistik vositalardan foydalangan holda tuziladi.¹⁰³ Badiiy asarlarda nutqiy niqob muallifga ma'lum bir obraz yaratish yoki ma'lum bir fikrni yetkazish imkonini beradigan adabiy vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Masalan, roman yoki qissada qahramon o'zining asl kimligini yoki niyatini yashirish uchun nutq niqobini kiyishi mumkin. Buni dialog orqali ifodalash mumkin, unda xarakter boshqa belgilarda ma'lum taassurot qoldirish uchun ma'lum bir til yoki iboralardan foydalanadi. Qisqa hikoyada ma'lum bir atmosfera yoki kayfiyatni yaratish uchun nutq niqobidan foydalanish mumkin. Masalan, muallif ma'lum bir nutq yoki dialog uslubidan sir yoki sir tuyg'usini etkazish uchun foydalanishi mumkin. Nutq niqobi muayyan mavzu yoki fikrni yetkazish uchun ham ishlatilishi mumkin. Misol uchun, qahramon siyosat, din yoki boshqa ijtimoiy masalalar bo'yicha o'z nuqtai nazarini ifodalash uchun muayyan so'z yoki iboralardan foydalanadi.

¹⁰³ <https://proza.ru/2022/02/01/1516>

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbek adabiyotshunosligida adabiy asar tarkibida muallif nutqi ishtiroki, uning tildan foydalanish mahorati tadqiqotchilar tomonidan turli ilmiy-nazariy masalalar munosabati bilan o'rganilgan. Xususan, muayyan ijodkor uslubi o'ziga xosliklarini tadqiq etishdagi ishlarda M.Yo'ldashev, R.Normurodov, Q.Ergashev, N.Qodirova, badiiy obraz talqinlari tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlarda I.Pardayeva, E.Nasrullayev, Sh.Hayitov, til uslublari va matn tahlilining nazariy asoslariga bag'ishlangan tadqiqotlarda A.Mamatov, Z.Muqimova, I.Ernazarova, komparativistika va adabiy vorisilik sohasidagi G.Xolliyeva, R.Ro'zmanova, T.Sultonov kabi olimlar ishlarida muallif nutqi va uning badiiy asar kompozitsiyasidagi o'rnini haqida jiddiy mulohazalar ilgari surilgan. Ko'rinib turganidek, adabiy asarda muallif nutqi masalasini o'rganish bo'yicha muayyan tajriba to'planganiga qaramay, aynan ingliz va o'zbek adabiyotidagi narrativli strukturalarning qiyosiy tadqiqi haligacha o'rganilmagan. Hozirgi kunda tilshunoslikning va adabiyotshunoslikning boshqa sohalari qatori, narrotologiya sohasi ham ushbu fan sohalari rivojida muhim o'rin tutadi. Bu boradagi nazariy va amaliy atamalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Narrativli strukturalar tahlilini bir qancha olimlarning tadqiqot ishlarida ko'rishimiz mumkin. Jumladan, bu mavzudagi nazariy masalalar M.M.Baxtin, Yu.M.Lotman, V.I.Tyupa, O.S.Babenko, L.D.Gudkov, V.Shmidt, Palmer A., G. A. Borse, U.Eko asarlarida hamda V.O.Kovalenin, N.I. Matveyeva, V.I.Karasik, O.M.Krasnoperov kabi olimlar va tadqiqotchilarining ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" nomli asari katta va kichik novellalardan iborat bo'lib ular muallifning sarguzashtlariga asoslangan. Muallifning o'zi kitobning muqaddimasida "bu asardagi odamlarning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rganman"¹⁰⁴ deb yozadi. Asardagi jonli va hayotiy tasvirlar, o'zbekona yondashuv va xarakter, qahramonlar o'rtasidagi suhbatlar mutolaa ta'sirini kuchaytiradi. Asar adibning bolalik davridagi voqealari asosida qurilgan. Sovet davridagi oddiy qishloq oilalari, odamlar turmush tarzi adibning onasi bilan uyg'unlashtirib tasvirlangan. O'tkir Hoshimov shu kichik asarida ham dunyoning ishlarini mujassamlashtirgan. Mazkur asardan joy olgan novellalarning asosiy qahramoni muallifning onasidir. Muallifning o'zi ham hikoyalardagi asosiy qahramonlardan biridir.

Mavzuni chuqurroq tahlil qilish maqsadida adibning novellalari orasidan "Xiyonat" deb nomlangan novellasini tanladik. Mazkur novella muallif, ya'ni hikoyachining maktabgacha bo'lgan yoshidagi bir voqeaning tasvirlanishidan boshlanadi. Undan so'ng maktab talabasi bo'lgan davridagi ikkinchi voqea

¹⁰⁴ O'tkir Hoshimov, "Dunyoning ishlari". Yangi avlod, - Toshkent, 2019. -B. 3

tasvirlanadi. Keyin esa talabalik davridagi uchinchi voqea bayon qilinadi. Shu tariqa kichkina bir hikoya asar qahramonining uchta sarguzashtini birlashtiradi. O'tkir Hoshimovning bir qancha kichkina novellalardan tashkil topgan asari sobiq Sovetlar Ittifoqi davrida bir mahallada yashovchi oddiy o'zbek oilasining turmush tarzini bayon qilgan. Har bir novellada o'zbekona hayot uchun muhim bo'lgan milliy, madaniy-axloqiy masalalar yoritilgan. O'zbekona uslubda ijod qilingan asarlarni ingliz yoki boshqa G'arb mamalakatlarida adabiyoti namunalari bilan qiyosiy tadqiqot jarayonida birinchi navbatda yuqorida aytilgan milliy g'oyalar, sharqona urf-odat va o'zbekona hayot tarzi masalasiga e'tibor qaratishimiz kerak. Tadqiqot mavzusidan qat'iy nazar ushbu masala e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Narratologiya sohasining asosini voqea-hodisalar tashkil qiladi. Yana bir muhim masala shundan iboratki, biz XX-asr hayotini hikoya qiluvchi novellalar xususida fikr yuritmoqdamiz. Shunday ekan tanlangan ikki novellada tasvirlangan voqea hodisalarning makoni va o'sha paytdagi hayotiy, ijtimoiy hamda siyosiy vaziyatlarni ham inobatga olishimiz zarur. Hikoyachi bularning har biriga alohida e'tibor qaratadi.

Ma'lumki, muayyan adabiy tasvirni yaratish uchun nutqiy niqob qo'llaniladi. Yozuvchi barcha ma'lumotlarni bir hikoyachi nunqi yordamida to'liq ifodalashi qiyin. Buning uchun u bir nechta taqsimlangan rollarni qabul qilish va nutq "niqoblari"ga murojaat qiladi. Bular muallifning, hikoya qiluvchining va qahramonning "niqoblari" bo'lib, ularni matnda ajratish juda oson.

Izlanishlar jarayonida mazkur novellaning boshqa tadqiqotchilarni ham e'tiborini tortganiga guvoh bo'ldik. Masalan yosh tadqiqotchi Aziza Ziyayeva o'zining "Dunyoning ishlari" qissasida ona timsoli" deb nomlangan maqolasida mazkur asardagi har bir hikoyaning oxirida o'ziga xos xulosalar ko'zga tashlanishi, ya'ni hikoya so'ngida so'zlovchi qahramon o'zi tufayli onasi aziyat chekkani uchun pushaymonlik his qilishini aytib o'tgan. Ziyayevaning aytishicha, har bir hikoyada zamirida muayyan bir ibrat bor. Xususan, "Xiyonat" novellasida ona farzandini faqat halolikka, insonlarga yaxshilik qilishga, yomonliklardan qaytishga nundaydi. Hayotimiz davomida ko'plab insonlar bilan yuzlashamiz. Ularning qaysilaridir yaqin do'stimiz, qaysisidir sevgan yorimiz. Ammo oradan vaqtlar o'tgandan so'ng har bir insondan ham xiyonat ta'mini totishingiz mumkin ekan. Hikoyada esa onalar farzand uchun eng yaqin zot sifatida tasvirlanib, undan hech qachon xiyonat ko'rmaslik ta'kidlangan. Adib ushbu novellaning oxirida: "Onang-chi, onang hech qachon xiyonat qildimi senga!" degan so'zlar bilan o'quvchini mulohaza qilishga chorlaydi.¹⁰⁵

¹⁰⁵ Aziza Ziyayeva, G. S. «DUNYONING ISHLARI" QISSASIDA ONA TIMSOLI». Zamonaviy Dunyoda Ilm-fan Va Texnologiya, t. 2, вып. 14, Zenodo, апрель 2023 г., сс. 42–45, doi:10.5281/zenodo.7858503.

“Xiyonat” novellasining boshidanoq nutqning niqoblanganligini sezishimiz mumkin. “Hali maktabga qatnamasdim. Mahallamizdan ikki chaqirimcha narida allaqanday bolalar uyi bor edi.”¹⁰⁶ Shu yerni o‘zida o‘zbekona bir chiroyli ifodani badiiy asarga kiritilganini ko‘ramiz. “...allaqanday bolalar uyi bor edi”. Bu kichkina ifoda aslida xalq tilidan olingan bo‘lib, uni biz “nutqiy niqob” deb qabul qilishimiz mumkin. Chunki yuqoridagi ta’riflarda aytib o‘tganimizdek majoziy ma’noni ifoda etadigan nutqdagi niqobning qo‘llanilishidan maqsadlarning biri nimanidir yashirishdir. Aslida adib o‘sha ozi yashab turgan uydan uzoq bo‘lmagan “allaqanday” bolalar o‘yining qanaqa joy ekanligini yaxshi biladi, u joyni nomi bilan aytishi mumkin. Lekin u ushbu nutqiy niqob shaklidagi ifodasi bilan o‘sha makonning keraksiz yoki foydasiz ekanligini bayon etadi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ma’lumki bu turdagi bolalar uylari sobiq sovetlar hukumati tomonidan bunyod etilgan. Ta’rixga nazar solsak sho‘rolar paytidagi ko‘plab yangi tuzumdagi maktablar, bog‘chalar, teatr va boshqa turdagi muassasalarga nisbatan tanqidiy fikrlar va hatto noroziliklar ham bo‘lganini guvohi bo‘lamiz. O‘. Hoshimovning bu kabi jumalarning tarixiy ahamiyatga ega ekanligi ham e’tirofga sazovordir.

Mazkur novellada boshqa hikoyalardagi kabi qishloqdagi o‘zbek oilalarining hayoti, undagi kamchiliklar, muammolar, faqirona hamda kamtarona tarzda kachib brogan oddiy insonlarning hayotlaridan ko‘plab namunalar keltirilgan. Bu kabi tasvirlarning ba’zilarini aynan nutqiy niqob shaklida bayon etilganiga duch kelishimiz mumkin. “...Shu kuni nima yumush buyurishsa, oyog‘im olti, qolim yetti bolib yugurib yurdim. Yongbqqa boglab qo‘yilgan echkini ikki marta sug‘ordim, hovlidagi supaga to‘shalgan bo‘yra ustiga yoyilgan turshaklarni qush talamasin deb qo‘riqlab o‘tirdim... Hatto rogakamning rezinkasini uzib, ukamga ishtonbog‘ qilish uchun berdim...”¹⁰⁷. Ko‘rinib turibdiki, mazkur porcha kichkina bo‘lishiga qaramay yuqorida aytilgan bir qishloq aholisi hayotini ochib bera oladi. Oxirgi jumlada esa, mavhum ma’nodagi niqob mavjudligini payqashimiz mumkin. “Hatto rogakamning rezinkasini uzib, ukamga ishtonbog‘ qilish uchun berdim” degan gap ichida aslida kata bir ma’no yashiringan. Bir dona rezinkaning yo ishtonbog‘ yoki rogakka rezinasi sifatida ishlatish kabi muammolarning o‘sha davrda odatiy hol bo‘lganligi haqida gapirilmoqda. Yozuvchi bu gaplarni qandaydir yumor ohangi bilan bayon qilgan bo‘lsa-da aslida jamiyatdagi yetishmovchiliklar, kambag‘alona hayotdagi muammolarni ochib bergan.

¹⁰⁶ Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari.Qissa. – Toshkent.: O‘qituvchi. 2018. B. 27.

¹⁰⁷ Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari.Qissa. – Toshkent.: O‘qituvchi. 2018. B. 27.

XULOSA

Adabiy asarlarda nutqiy niqob personajlar, voqea-hodisalar, gʻoyalari haqida maʼlumot yaratish va yetkazish vositasi boʻlib, asarning hissiy-badiiy kuchini oshirishga ham xizmat qiladi. Bugungacha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning koʻpida Oʻ. Hoshimovning asarlari har tomonlama tahlil qilingan, til, uslub, yozuvchilik mahorati va hokazo jihatlari oʻrganilgan, ammo uning hikoyalarida ishlatilgan nutqiy niqob haqidagi fikr mulohazalar mavjud emas. Vaholanki Oʻ. Hoshimov asarlaridagi nutqiy niqob tahlili uning asarlarining ahamiyatligini yanada kengroq ochib berish uchun muhim sanaladi. Chunki adib shunday bir davrda yashaganki, baʼzi bir milliy qadriyatlar, urf odatlar xususan dinga oid masalalar haqida fikr bayon qilish qiyin boʻlgan, hatto imkonsiz ham boʻlgan. Ilmiy tadqiqotlarga aytilishicha nutqiy niqob - bu muloqot paytida ishlatiladigan maʼlumotlarni ifodalash va uzatish vositasidir. Bu jamiyatda ozini tutish va oʻzini namoyon qilish usulini tavsiflovchi mavhum tushuncha hisoblanadi. Aynan shu turli bayon uslubini Oʻ. hoshimov asarlarida, maxsus kichik hikoyalarida koʻp uchraymiz. Taʼkidlash joizki, adibning asarlari shu jihatdan Gʻarb adiblari tomonidan yaratilgan novellaraga koʻproq oʻxshaydi. Albatta hikoyachi turiga oid jihatini inobatga oladigan boʻlsak ikki adibning asarlari mutlaqo farqli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI (REFERENCES)

1. Мамуркина О. В.. "Теория нарратива в современном литературоведении" Царско-сельские чтения, vol. I, no. XV, 2011, pp. 226-230.
2. Hoshimov, Oʻ.Ikki eshik orasi. Roman. Sharq nashriyoti, - Toshkent, 2012. 624 b
3. F Scott Fitzgerald The last of the bells// F Scott Fitzgerald Selected short stories Moscow Progress Publishers 1979 p. 179-195.
4. Кубрякова, Е.С. Текст и его понимание [Текст] / Е.С. Кубрякова // Русский текст. – 1994. – № 2.
5. Лотман Ю.М. Труды по русской и славянской филологии. Тарту.: Ученые записки Тартуского Государственного университета. 1977.
6. Успенский. Б.А. Краткий очерк истории русского литературного языка (XI - XIX вв.), М. 1994г.
7. Qurbonov Bobur. "Majolis un-nafois" va "Latoyifnoma" tazkiralardagi matnlarning qiyosiy tahlili" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 1, 2022, pp. 616-625.

8. F. Scott Fitzgerald. *Babylon Revisited and Other Stories*. The Saturday Evening Post. 1931 p.
9. O‘tkir Hoshimov, “Dunyoning ishlari”. Yangi avlod, - Toshkent, 2019. -B. 45

DRAMADA PSIXOLOGIK TASVIR

Rustamova Ibodat Ikramovna

FarDU adabiyotshunoslik kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari doktori

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada drama qatnashchilarining ruhiy holatinining berilish usullari va o'ziga xosligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *drama, qahramon, ruhiy holat, badiiy tasvir, remarka, xarakter, badiiy obraz, konflikt, dialog, funktsiya, kontekst, badiiy nutq, konflikt, ijodiy jarayon.*

ABSTRACT

This article discusses the ways and peculiarities of the mental state of drama participants.

Key words: *drama, hero, state of mind, artistic image, remark, character, artistic image, conflict, dialogue, function, context, artistic speech, conflict, creative process.*

KIRISH

Psixologik tasvir asar ishtirokchilarning ruhiy holatidir. Drama qatnashchilarining ruhiy holatini haqqoniy tasvirlash sahna asarining hayotiy chiqishini ta'minlaydi. Nasriy asarda muallif hikoyachi nutqi orqali psixologik tasvirni istagan o'rinda berishi mumkin. Qahramon ruhiy olamining emotsional xususiyatlari orqali muallif kitobxonga ta'sir qilishi, uni shu holatga olib kirishi mumkin.

Drama keskin vaziyatlar, ruhiy kechinmalar kurashidir, shu sababli dramada qahramon ruhiy olamini tasvirlash asosiy masalalardan biridir. Muallif imkoniyatlari cheklangan dramatik turda muallif psixologik tasvirni qanday vositalar yordamida beradi? Uning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?

“Drama qahramoni odamdir, dramada odam ustidan voqea, hukmronlik qilmaydi, balki voqea ustidan inson hukmronlik qiladi, inson o'z irodasi bilan voqeani istagancha yakunlaydi, unga istagancha xotima beradi.”¹⁰⁸

Inson ruhiyatining nozik tomonlarini ta'sirli va ishonarli berib borish dramaturgdan juda katta mahorat talab etadi. Drama xarakterlar, ruhiy kechinmalar kurashining asosiga quriladi. Ayniqsa, dramada ko'p qo'llanilgan kollizion

¹⁰⁸ Белинский В.Г. Танланган асарлар. Т., 1955. 144-145-бет.

konfliktida inson ruhiyatidagi keskin kurashlar o'z ifodasini topadi. Psixologik tasvirning dramatik asarlarda o'z o'rni, o'z ahamiyati bor.

Nasriy asarda qahramon ruhiy holatining ko'p o'rinlari muallifning bayoni orqali beriladi.

“Ana o'shanda Elchinning qalbida yovuz bir fikr uyg'ondi. Xomidiy aynan unga jinnixonaga, aynan xojatxonaga osilishi kerak edi, hukm qildi. Faqat hukm ijrosi kechikdi. Elchin Anvar ishlagan institutga borib, Homidiyini ko'rib ham keldi. Uning ko'zlari aylanib, tilini tishlagan holda hojatxonada osilib turishini juda-juda istadi”.¹⁰⁹

Keltirilgan muallif - hikoyachi nutqida asar qahramoni Elchinning ruhiy dunyosidan o'tgan o'ylari, kechinmalari berildi. Ammo dramada aynan shu funktsiya asar ishtirokchilarining zimmasiga yuklatiladi; ayrim o'rinlarda muallif remarkasi yordamida berib boriladi. Dramada qahramon psixologik holatga tomoshabin oldida kirishishi shart, aynan Shu xususiyat nasriy asar qahramonidan uni farqlaydi. Qahramon ruhiy kechinmalarini berayotganda, dramaturgdan sahna imkoniyatlarini hisobga olishi, psixologik vaziyatni yaratishi talab etiladi. Shu vaziyatda tomoshabinni ishontirishi, ko'niktirishi zarur. Nasrda muallif birdaniga kitobxonni psixologik kechinmalar olamiga olib kirishi, so'ngra bo'lib o'tgan kechinmalarni tahlil qilishi mumkin.

NATIJALAR

Dramatik asarda badiiy psixologizmni aks ettirish ijodning eng muhim vav murakkab jihati sanaladi. SHuning uchun bu jarayonni badiiy aks ettirishda drama bosh qahramonining faoliyati muhimdir. Mazkur maqolada aynan shu jihatlar o'rganiladi va ilmiy xulosalar chiqariladi. Maqolaning ilmiy ahamiyati ham ana shu jihatlari bilan belgilanadi.

Psixologik tasvir haqida gap ketganda, ong oqimi haqida albatta to'xtalib o'tish o'rinlidir. Chunki badiiy xarakter yaratishda ong oqimi qahramonlarning ruhiy dunyosini, psixologiyasini ochib berishda katta ahamiyatga ega. Inson ruhiyatining kechinmalari, ziddiyatlari bilan bog'liq bo'lgan badiiy adabiyotda ong oqimi psixologik tasvir masalasini o'rganilishi zarur bo'lgan muammo sanaladi. Shuning uchun ham o'zbek adabiyotshunosligida psixologik tahlil vositalari ichki monolog, ruhiy kolliziya, psixologik parallelizmlar, psixologik portretlar bir qancha ishlarda o'rganib chiqilgan.¹¹⁰

¹⁰⁹ Малик Т. Шайтанат. 3-китоб. –Т., 1997. 227-бет.

¹¹⁰ Қўшжонов М. Абдулла Қодирийнинг тасвирлаш маҳорати. –Т.: Фан, 1996; Умунов Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. –Т.: Фан, 1983; Шодиев Н. Рухият рассоми. –Т., 1971; Йўлдошев Б. Проблемы психологического анализа в узбекской советской прозе. (Внутренний монолог в романах А.Кадыри, Айбека,

Odatdagi psixologik tasvirda so‘zsiz munosabatlar, xatti-harakat, so‘zlash yo‘sini, nutqning alohida ifodalari, portret xarakteristikasi kabilardan qahramonlarning ijtimoiy, individual axloqiy xususiyatlarini, ya’ni ularning botiniy va zohiriy olamini ochishda vosita sifatida foydalaniladi, bularning barchasini muallif amalga oshiradi.

MUHOKAMA

Demak, nasrda psixologik tahlilni muallif amalga oshirar ekan, muallif aralashuvini hazm etmaydigan dramaturgiya janrida psixologik tahlil va tasvir qanday amalga oshiriladi? Dramaturgiyada, eng avvalo, psixologik vaziyat yaratilib, so‘ngra psixologik tasvir turli vositalar yordamida amalga oshirilishi shart.

Psixologik vaziyat asar qahramonining ruhiy holatga tushishi, ya’ni ruhiy qiynoqlar, azoblar, quvonch va shodliklarga tomoshabinni ishontirishidir. Qachonki qahramonning insoniy fazilatlarini, uning irodasi, dunyoqarashi u tanlagan yo‘lga munosib tushgandagina, tomoshabin muallif tomonidan berilgan psixologik tasvirga, yaratilgan psixologik vaziyatga ishonishi mumkin. Psixologik vaziyat esa qahramon xarakter mantiqiga mos tushishi zarur.

Qahramon xarakterining shakllanishida muallif kontseptsiyasini amalga oshirishda, asar dramaturgiyasining yuz berishida psixologik tasvirning ahamiyati katta.

Keyingi yillar dramaturgiyasiga nazar tashlasak, adabiyotning barcha turlari kabi, bu turda ham inson ruhiy olamiga kirib borish, inson qalbining nozik tomonlarini ochish, qisqasi, psixologik dramalar yaratishga katta ahamiyat berildi. Chunki tezkor hayot aynan shu narsani talab etmoqda. O‘zbek dramaturgiyasida O‘.Umarbekovning “Shoshma quyosh” (1978), “Arizasiga ko‘ra” (1982), “Kuzning birinchi kuni” (1981), “Komissiya” (1974) dramalarida psixologik holatlarga katta o‘rin berilgan. Muallifning “Qiyomat qarz” (1976) dramasi ham xuddi shunday dramalar sirasiga kiradi.

Drama bosh qahramoni Sulaymon ota - halol, mehnatsevar, birovning haqqidan qo‘rqadigan, to‘g‘ri so‘z, imoni but, nuroniy chol. O‘g‘lidan urush tufayli ajragan ota qishloqqa ishlash uchun borgan No‘monjon ismli vrach yigitni asrab oladi. No‘monjonga butun mehr-muhabbatini ko‘rsatib xotini Zebi bilan yeru ko‘kka ishonmay yashaydilar. Baxtga qarshi urush boshlanib, No‘monjonni ham urushga olib ketishadi. No‘monjon otaga o‘z puliga ikkita qo‘y olib beradi. Yillar o‘tadi, ammo asrandi o‘g‘ildan darak bo‘lmaydi, qo‘ylar to‘rt yuztaga yetadi.

No‘monjonni tirik ko‘rish, nabirali bo‘lish, elga dang‘illama to‘y qilib berish orzusi bilan yashagan Zebi xola ham olamdan o‘tadi. Yolg‘iz qolgan Sulaymon otaning qalbini ikki narsa yemira boshlaydi. Biri Zebining so‘ng so‘zi - vasiyati bo‘lsa, ikkinchis asrandi yigitdan qolgan qo‘y - qiyomat qarz edi. Aynan shu hayotiy voqea drama syujetiga asos bo‘ladi, asar drammatizmini yuzaga keltiradi. Keltirilgan ikki voqea hayotda Shunday olinganda, hech qanday drammatizm emas edi, u asarda Sulaymon otaning milliy psixologiyasi drammatizm darajasiga ko‘tarildi.

XULOSA

Kuzatishlarimizdan shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, drammatik asarda badiiy psixologizmning berilish Muallif rivoya tarzi boshqa asarlardagi kabi hikoyachi bayoni, tasnifi orqali emas, obrazlar replikasi va dialoglar ko‘rinishida shakllangan bo‘ladi. Badiiy voqelikni tashkillashda drammatik asarda remarkaning o‘rni beqiyos va o‘ziga xosdir.

Dramada psixologik tasvirni haqqoniy ifodalash qahramon ishtirok etayotgan muhitga, drammatik vaziyatga bog‘liqdir. Nasriy asarlarda psixologik tasvir bevosita muallif aralaShuvi orqali amalga oshirilishi, birdaniga bayon etilib berilishi mumkin. Ammo dramada psixologik tasvir ishtirokchilarning aralaShuvlari orqali amalga oshiriladi.

O‘.Umarbekovning “Qiyomat qarz” dramasi bosh qahramoni Sulaymon otaning psixologik holati ishonarli tasvirlab berilgan. Chunki muallif psixologik holatga kirishi uchun zarur bo‘lgan muhitni yarata olgan.

Sulaymon ota - halol, mehnatsevar, birovning haqqidan hazar qiladigan nuroniy chol. Yolg‘iz farzandidan ajrab qolgan ota, qishloqqa vrachlik qilish uchun kelgan No‘monjon ismli yigitni o‘z farzandi singari mehr qo‘yib, frontga jo‘natadi, u ketayotib otaga ikkita qo‘y olib beradi. Yillar o‘tib qo‘ylarning soni to‘rt yuztaga yetadi. Urush tugasa ham, asrandi o‘g‘ildan darak bo‘lmaydi. To‘rt yuzta qo‘yni “qiyomat qarz”ni o‘z egasiga topshirish Sulaymon otaning tinchini, oromini oladi. Psixologik tasvirning birinchi bosqichida ruhiy vaziyat yaratildi. Shundan so‘ng bosh qahramon qator ruhiy kechinmalarni boshidan kechiradi. Ruhiy vaziyat yaratilib, bosh qahramon ruhiy holatga kirishadi. Qo‘ylarning egasiga topshirish hissi, Zebining vasiyatini ado etish mas‘uliyati dramada psixologik tasvirini yuzaga kelishiga asos bo‘ldi.

Sulaymon otaning murakkab o‘zbekona xarakteri psixologik holatlarini yuz berishiga sabab bo‘ldi. Muallif drama syujetida bu narsalarga qanday erishdi?

Ruhiy kechinmalar asosan dramaning ikkinchi ko‘rinishidan boshlanadi. Sulaymon ota o‘lib ketgan umr yo‘ldoshi Zebi bilan xayolan uchrashadi. Berilgan

remarka yordamida bosh qahramon o'tmishini eslaydi. Qo'ylarning qolib ketishi ham, Zebining vasiyati ham hali hayotda drammatizm emas edi. Sulaymon otaning xarakteridan kelib chiqib asarda haqiqiy drammatizm yaratildi.

Ikkita qo'y o'z-o'zidan to'rt yuzta bo'lib qolgani yo'g, Sulaymon ota ularni parvarish qildi, qaradi. Qo'ylarning ko'payishida Sulaymon otaning mashaqqatli mehnati yotadi. Aslida No'monjon qaytib kelib qo'ylarni talab qilganda, o'lib ketgan deb ikkita qo'yning pulini berishi ham mumkin edi. Ammo Sulaymon ota xarakteridagi o'zbekona halollik - milliy psixologiya murakkab psixologik vaziyatni yaratishga sabab bo'ladi. Boshqa millat kishilari kabi o'tib ketgan kishilarning vasiyatini bajarish o'zbeklar uchun ham qarz, ham farzdir. Yuqoridagi muammolarni hal etishda bosh qahramon xakteri bo'rttirilib, drama konfliktini rivojlantirishga olib keladi. Sulaymon ota ikki o't o'rtasida qoladi.

Drama kolxoz pravleniyasidagi majlis bilan boshlanadi. Unda Drama kolxoz pravleniyasidagi majlis bilan boshlanadi. Unda Sulaymon otaning qo'ylarini jamoa xo'jaligiga olib qo'yishi haqida gap bo'ladi. Bu taklif Sulaymon otaning eski dardlarini qo'zg'atishga turtki bo'ladi. Bosh qahramonning o'ylanishiga, iztirob chekishiga, Zebi bilan xayolan uchraShuviga sabab bo'ladi. Zebining vasiyati ham, qo'ylarning Sulaymon otaning qo'lida qolib ketishi ham hali drammatizm emas edi. Sulaymon otaning milliy xakteri uni drammatizm darajasiga olib chiqadi. Muallif xuddi Shu narsalar asosida, ya'ni hayotiy voqelik orqali insoniy drammatizmni ochgan. Majlisdagi gaplar Sulaymon otaning tinchini yo'gotadi. U endi o'zi bilan o'zi so'zlashar, o'tmishga, Zebi bilan kechgan damlariga qaytardi.

Dramada tasvirlangan remarka yordamida Sulaymon otaning kayfiyati qanday ekanligini bilib olish mumkin.

“Sahna ayvondan iborat. Bir yog'i hovliga chiqadi, bir yog'i uyga tutashgan. Uyning eshigiga qulf osig'liq. To'rda pastak so'ri. Sulaymon ota ayvonga kirib xayol bilan o'tiradi.

Nimanidir axtarib, hammayoqqa qaraydi. Ko'p o'tmay bir bo'g'cha ko'tarib chiqadi. So'ri ustida uni ochadi. Bo'xcha xotining kiyimlaridan iborat.

Sochvon, paranji, eski mahsi., dorpech. Chol ularni birpas ko'rib taxlaydi, bo'xchani tugadi”.¹¹¹

Keltirilgan remarkadan joyning tasviridan tashqari, Sulaymon otaning Zebining eslashiga ishora qilinadi, tomoshabinga ma'lumot beriladi. Sochvon, paranji, eski mahsi, dorpech detallari Zebining qaysi zamonda yashagani haqida ma'lumot beradi. Demak, yuqoridagi detallar Sulaymon otaning xayolida Zebining gavgdalanishidan darak beradi.

¹¹¹ Ўша китоб. 83-бет.

Muallif remarkani davom ettirib; “Yana xonaga kirib, eski bir qutini ko‘tarib chiqdi. Uning ichini titkilaydi. Qandaydir qog‘ozlar, xatlar ichidan kichkinagina tugun chiqadi. Qidirgan narsa Shu edi. SHoshib ochadi. Bu yangi chust do‘ppi, shohi qiyiqcha”¹¹²

Bu bilan yana kimningdir eslaganiga ishora beriladi. Sulaymon otaning ruhiy holati, uning iztiroblari detallar yordamida tiklanadi. Keltirilgan birinchi remarkada keksaygan Zebining obrazi xayolan tiklansa, ikkinchi remarkadagi kiyilmagan do‘ppi, bog‘lanmagan qiyiq bosh qahramon armonlarini yanada kuchaytirib yuboradi. Keltirilgan remarka yordamida muallif Zebini sahnaga olib chiqadi. Assotsiativ syujet yordamida Sulaymon ota xayolida kechgan o‘ylar sahnada gavdalaniriladi. Asar remarkasida berilgan detal - tugun, eedi jonli muloqotda ishtirok etadi. Uning mohiyati Zebining nutqida ochiladi.

“Zebi xola: No‘monjonga atab oldim buniyam!

Sulaymon ota: Obbo, sen-ey. Yaxshi, yaxshi.

Zebi xola: Siz bo‘lsangiz kimmiz, unga deysiz.

Urushdan keyin kelaman degan, sizlar bilan turaman degan.

Kelmasa... kelmasa... (yig‘laydi).

Sizni kimga tashlab ketaman? Huvillagan hovlida bir o‘zingiz...”¹¹³

Muallif inson qalbidagi e‘zozlanishi zarur bo‘lgan nozik qirralarni topgan. Sulaymon ota uchun yorug‘ dunyoda Zebidan, uning vasiyatidan ko‘ra azizroq narsa yo‘g. Xuddi Shu holatni dramada ishonarli ochib beradi. Bu muloqotni hech bir kitobxon va tomoshabinni befaqr qoldirmaydi. O‘zligidan, huzur-halovatidan kechib, Sulaymon ota No‘monjonni qidirishga tushib ketadi. Ichki dramatismni kuchaytirish maqsadida muallif qo‘y detalini No‘monjon obraziga olib borib taqaydi. Zebining ham, Sulaymon otaning ham suyangan kishisi No‘monjon edi. Ayniqsa, Zebi xola uni tez-tez o‘ylar, faqat yaxshi orzular qilar edi. Zebining orzu-istaklari tomoshabinning orzu-istaklariga aylanib qoladi.

“Zebi xola: No‘monjonning to‘yini ko‘rsam devdim.

Sulaymon ota: Ko‘rasan, keladi u. Shundaqangi to‘y qilamizki, butun Zarkat gumburlab ketsin. Hali u bola-chaqali bo‘ladi. Ularni kim qaraydining, kim boqadi o‘zing bo‘lmasang? O‘zing boqasan. Bolalari ko‘p bo‘ladi. Fotima-Zuhra, Hasan-Husan, Tohir-Zuhra...”¹¹⁴

Ularning o‘zaro dialoglaridan keyin Zebi xola sahnada ko‘rinmaydi. Sahna qorong‘ilashib ketadi. Amalga oshmagan orzular, armonga aylanib, bosh

¹¹² Ўша китоб. 83-бет.

¹¹³ Умарбеков Ў. Сайланма. –Т., 1985, III том, 84-б. Кейинги кўчирмалар шу манбадан олинади.

¹¹⁴ Ўша китоб. 84-бет.

qahramonning yanada keskin konfliktlar kurashiga olib boradi. Dramatizm yanada kuchaytiriladi. Muallifning navbatdagi remarkasida u yaqqol ko‘rinadi.

“Sahna yorishadi. Sulaymon ota do‘ppiga tikilgan cha o‘tiribdi. Keyin boshini ko‘taradi. Xatlarni yig‘ishtirib bir qo‘yniga, do‘ppi qiyiqchani tugib, ikkinchi qo‘yniga soladi-da, ayvondan chiqib ketadi”.¹¹⁵

Bosh qahramon yuqoridagi dialog va remarkalar yordamida murakkab psixologik holatni boshidan kechiradi. Sulaymon ota ichki tug‘yon natijasida No‘monjonni qidirishga, topishga bel bog‘laydi. Zebining ruhi oldidagi javobgarlik, qiyomat qarzni egasiga topshirishini oldidagi mas‘uliyat unga sira tinchlik bermayotgan bir vaqtda, poezddagi yuz bergan voqealar uning ruhiyatiga yanada kuchli ta‘sir etadi.

Dramaturg No‘monjonni qidirish jarayonida hayotiy muammolarni ham Sulaymon ota atrofida, uning qarashlari yordamida tahlildan o‘tkazadi. Sulaymon ota faqat o‘zining tashviShu quvonchi bilan o‘ralashib qolgan shaxs emasligini ko‘rsatib beradi.

Sunday qilib, dramada ruhiy holat bosh qahramon yoki ishtirokchilarning nutqi orqali beriladi. Muallif ishtirokini xazm etmaydigan dramada ruhiy holatni remarkada berilishi drama janrining o‘ziga xosligini ta‘minlaydi.

REFERENCES

1. Rustamova Ibodat Ikramovna. Rhythm Views on the Plot of the Work // Badiy asar syujetida ritm ko‘rinishlari. // International Journal of Innovative Research. – India, June, 2021, –P. 8355-8357. Impast-faktor.7.512.
2. Rustamova Ibodat Ikramovna. ROVI FUNCTION IN THE STRUCTURE OF THE WORK // Asar strukturasi roviy funksiyasi // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) – India, May, 2021, –P. 624-66. . Impast-faktor.
3. Rustamova Ibodat Ikramovna. PORTRAIT AND ITS ARTISTIC-AESTHETIC FUNCTION IN THE WORKS OF ABDULLA QAHHOR // Abdulla Qahhor asarlarida portretning badiiy-estetik funksiyasi // AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. – America, December, 2021, –P. 230-234. Impast-faktor. 8.047
4. Rustamova Ibodat Ikramovna. NATIONAL DETAIL AND NATIONALISM IN ART INTERPRETATION OF VALUES (ON THE EXAMPLE OF ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL "FATHER") // Badiiy asarda milliy detallar tahlili (U. Hamdam “Ota” romani misolida // AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. – America, December, 2021, –P. 196-198.

¹¹⁵ Ўша китоб. 84-бет.

5. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem" Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 556-559
6. Sabirdinov, A. (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. *Konferentsii*, 1(2).
7. Rustamova I. Abdulla Qahhor hikoyalarida roviy pozitsiyasi va funktsiyasi // "Adabiyotshunoslikning nazariy muammolari" mavzusidagi . ilmiy-nazariy anjuman. –Toshkent: Fan, 2022. -yanvarь.–B. 120-125.
8. Rustamova I. Abdulla Qahhor hikoyalarida ritm va uning o'ziga xosligi // FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник ФерГУ. –2021yil, 6-son. –B.190-193.
9. Rustamova I. Abdulla Qahhor hikoyalarida roviy pozitsiyasi va funktsiyasi. Adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-nazariy onlayn anjumani materiallari. – Toshkent, 2022, –B. 52-55.
10. Rustamova I. Badiiy obraz va uning tarbiyaviy ahamiyati.//"Kadrlar tayyorlash milliy dasturida boshlang'ich ta'limning yangicha tizimi va mazmunini shakllantirish masalalari" Xalqaroro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 1-qism. –Farg'ona, 2010. –B. 27-30.
11. Rustamova I. Badiiy ijodda o'xshatish va uning ahamiyati. //Filologiyaning dolzarb muammolari. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Farg'ona, 2013 yil. –B. 45-50.
12. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem" Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 556-559.
13. Sabirdinov, A. (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. *Конференции*, 1(2).
14. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel "Night and day" by Chulpan. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(6), 119-120.
15. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov's Story "Yanga". *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(6), 196-200.
16. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
17. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. *International*

Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.

18. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Lyrics. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 656-664.

19. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – C. 245-249.

20. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In *Конференции*.

21. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," *Scientific journal of the Fergana State University*: Vol. 2 , Article 12.

22. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(12), 90-94.

23. Oripova, G. M., & Abdurasulova, N. A. Q. (2022). O'ZBEK NASRIDA URUSH MAVZUSI VA "YO'QOTILGAN AVLOD" MUAMMOSI. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 213-220.

24. Oripova, G., & Alijanova, M. A. Q. (2022). ASQAD MUXTORNING "CHINOR" ROMANIDA AYOL PORTRETINING BADIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 221-226.

25. Oripova, G., & Ibrohimova, G. (2022). SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MUMTOZ MUSHTARAKLIKLAR. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 251-255.

26. Oripova, G. M., Akhmadjonova, O. A., Kholmatov, O. U. U., & Muminova, T. S. (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 304-309.

ЗАМОНАВИЙ КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИК ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ (ОЛИЙ ТАЪЛИМ МИСОЛИДА)

Шаҳноза Абдуқайм кизи Хожиева

Немис тили назарияси кафедраси ўқитувчиси, ЎзДЖТУ

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада замонавий олий таълимда касбий тайёргарликни такомиллаштириш, халқаро рақобат шароитида ходимларни касбий тайёрлаш, таълим сифатини оширишга қаратилган фикр-мулоҳазалар ҳақида маълумотлар берилган. Олий таълимни ривожлантиришнинг ўзига хослиги ва тенденцияси турли соҳаларда юқори малакали профессионал кадрлар тайёрлаш учун шарт-шароитларни таъминлашдан иборат.

Калит сўзлар: *компетенция, таълим, категория, инновация, педагогик жараён, муҳит, ёндашув.*

ABSTRACT

This article provides information on the improvement of professional training in modern higher education, professional training of employees in the conditions of international competition, opinions aimed at increasing the quality of education. The uniqueness and trend of higher education development is to provide conditions for training highly qualified professional personnel in various fields.

Key words: *competence, education, category, innovation, pedagogical process, environment, approach.*

КИРИШ

Илмий парадигмадаги «таълим» атамаси «педагогик/таълим жараёни» тушунчасининг деярли бир хил таркибий-мазмунли қисмлари билан боғлиқ. Шу билан бирга, «таълим» атамасининг таърифи 1780 йилда И. Г. Песталоци дидактикаси томонидан киритилган ва узоқ вақт давомида инсонга барча педагогик таъсирлар мажмуаси сифатида тушунилган деб ҳисобланади. Унинг мазмунига энг муҳим аниқлик 1978 йилда ЮНЭСКОнинг 20 Бош конференцияси материалларида қайд этилган, бу ерда таъриф янада замонавий талқинни олди ва таълим шахсининг қобилиятлари ва хатти-ҳаракатларини такомиллаштириш жараёни ва унинг ривожланишини таъминлаши керак бўлган фуқаролик, интеллектуал етуклик, шунингдек, индивидуал ўсиш ва ҳоказолар натижаси сифатида қабул қилина бошлади.

Тадқиқотнинг бир қисми сифатида биз таълим тенденциялари ва замонавий олий таълимда касбий тайёргарликни такомиллаштириш йўллари танқидий кўриб чиқишни таълим, ўқув жараёни, ваколатлар, инновациялар, социализация ва таълим соҳасидаги ҳамкорлик шакллари каби категорик тушунчаларни тушунтириш ва асослаш билан боғлаймиз.

Худди шу нуқтаи назарни В.В.Краевский ҳам қайд этиб, бу, авваломбор, таълим мақсадларидан унинг натижаларига ўтиш, таълим жараёнининг муҳим белгилари таълим ва тарбиянинг яхлитлиги ва бирлиги ҳамда таълим, уларнинг барча таркибий қисмлари нисбий автономияга эга»эканлигини таъминлашдир.

Адабиётлар методологияси

Г.М. Коджаспирова ва А.Ю. Коджаспировлар таълим жараёнини учлик вазифасини – шахсни давлат таълим стандартига мувофиқ тайёрлаш, тарбиялаш ва ривожлантириш масалаларини ҳал этиш билан боғлайдилар. Худди шу ёндашув рус тадқиқотчилари Л.В. Блинова, А.А.Бодалева, И.А.Зимней, Л.В. Лвов, К. Г. Митрофанова, Т. А. В. Хуторский ва бошқаларнинг қарашларида ўз аксини топган. Илмий педагогик нутқда «муҳит» тушунчаси билан, одатда, «шартлар - муҳит - ахборот ва алоқа воситалари» триадаси ўзаро боғлиқдир (Э. А. Алисов, М. С. Артюхина, В. Г. Афанасиев, Л. С. Выготский, Ю. С. Мануйлова, Г. И. Рогалева, Д. А. Хорват ва бошқалар). Улар касбий компетенциялар концепциясига когнитив, фаол (функционал-инструментал) ва шахсий компонентлар тўпламини киритдилар. Шу билан бирга, тадқиқотчилар «таълим жараёни ҳар қандай олий ўқув юрти фаолиятининг марказий бўғини, асоси» эканлигини таъкидлаб, олий таълим дидактикаси доирасида таълим ташқи муҳит билан ўзаро очик алоқада бўлишга, унинг ривожланишнинг янги даражасига ўтиш қобилиятини олдиндан белгилаб берувчи мураккаб тизим сифатида қаралади.

Асосий қисм: Агар биз тўғридан-тўғри олий касбий таълим (кейинги ўринларда - ОКТ) ҳақида гапирадиган бўлсак, шуни таъкидлаш керакки, у «махсус институционал муҳит» сифатида «умумий ҳолда таълим хизматлари амалга оширилишини таъминлайдиган меъёрлар ва ташкилотларнинг ўзаро боғлиқлиги тўплами, иерархияси, механизмлари» сифатида қаралади. Касб-ҳунар таълими ижтимоий гуруҳларнинг ўзаро таъсири доирасида намоён бўладиган ижтимоий муносабатларнинг энг муҳим элементи сифатида эътироф этилади, у мақсадларга эришиш ва шахсни тарбиялаш, ижтимоийлаштириш ва касбий тайёрлаш вазифаларини бажаришга қаратилган.

Замонавий касб-ҳунар таълими бугунги кунда жамият тараққиётининг муҳим воситаси бўлиб, тажриба, «мерос» ўтказиш функциясини бажаради ва

мерос контекстида «уч компонент мавжуд: билим, қадриятлар (ижтимоий жиҳат) ва кўникмалар (ваколатлар)».

«Компетенция», «Компетенцияга асосланган ёндашув» тушунчалари касбий тайёргарликнинг янада амалий йўналишини, унинг ишлаб чиқариш ва бозор иқтисодиёти талаблари билан боғлиқлигини таъминлаш, шунингдек, очиқлик ва жаҳон илмий фаолиятига ва технологик ютуқларга тўлиқ эътибор қаратиш муаммоси билан боғлиқ.

Мамлакатларнинг Болония декларациясига қўшилиши, Европа Кенгаши Симпозиуми тавсияларининг қабул қилиниши бу тушунчаларнинг таълим назарияси ва амалиётида кенг қўлланилишига олиб келди. Британиялик экспертларнинг фикрига кўра, қуйидаги таърифни «компетентлик» тушунчаси билан боғлаш мумкин: «малакали бўлиш қобилияти» ёки «стандартга мувофиқ бирор нарсани яхши (малакали) қилиш қобилияти».

Таълим мухитининг инглиз тилидаги мазмунида компетенцияга асосланган ёндашувнинг таърифлари ва моҳиятини тушунишнинг жиддий таҳлили россиялик тадқиқотчи Г.Р. Ишқилдина ва «барча хорижий мамлакатларда компетенцияга асосланган ёндашув компетенцияларнинг тўртта асосий турининг бирлиги сифатида намоён бўлади» деган хулосага келди.

Кўришиб турибдики, чет эллик олимлар ижтимоий компетенцияларни (улар алоҳида ажратилган ва шахснинг шахсий фазилатлари ва қадриятлари билан боғлиқ), шунингдек, когнитив компетенцияларни (ўз соҳаси бўйича ҳаракат қила олиш учун билиш, билим эга бўлиш) ўз ичига олган касбий (профессионал) компетенцияларни, ҳамда функционал (маълум бир вазиятда ҚАНДАЙ ҳаракат қилишни билиш) компетенцияларга эътибор қаратадилар.

Шу билан бирга, турли муаллифларнинг ҳақиқий профессионал компетенциялари қўйидагича ўзаро касбий фаолиятда вазифаларни бажариш ва типик(оддий) муаммоли вазиятларни ҳал қилиш, малака талабларини амалга ошириш учун зарур бўлган касбий билимлар, кўникмалар ва умумлаштирилган ҳаракат усуллари мажмуи билан, субъектнинг тажрибага эга эканлигини айтиш имконини берувчи касбий фаолият соҳасидаги техник топшириқлар билан, шахснинг касбий соҳадаги муваффақиятли фаолиятини белгиловчи шаклланган шахсий фазилатларнинг ривожланган тизими билан боғлиқ.

Шундай қилиб, илмий ишларни таҳлил қилиб, тадқиқот учун муҳим бўлган биринчи оралиқ хулосаларга келамиз: замонавий жаҳон таълим мухитида «таълим» атамаси жуда кенг маънода - фуқаро, касбий, ижодий шахсни шакллантириш мақсадида шахсни тайёрлаш, тарбиялаш ва ривожлантириш тизими сифатида талқин этилади; бу Қонунчилик палатаси

томонидан 2020-йил 19-майда қабул қилинган ва Сенат томонидан 2020-йил 7-августда маъқулланган «Таълим тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонунида ҳам табиий равишда ўз ифодасини топди; таълим жараёни тадқиқотчилар томонидан таълим, тарбия ва шахс камолоти учлигидан келиб чиққан ҳолда давлат томонидан режалаштирилган таълим натижаларига эришишга қаратилган олий таълим муассасаси фаолиятининг асоси сифатида эътироф этилган.

Олий таълим муассасасида касбий тайёргарлик жараёнининг моҳияти қуйидагилар билан боғлиқ бўлган касбий компетенцияларни шакллантиришдан иборат:

- касбий муаммоларни технологик жиҳатдан ташкиллаштирилган ҳал қилишга тайёрлик билан (муаммони тушуниш, маълумотни танлаш, уни таҳлил қилиш, ҳаракатларни режалаштириш, ресурсларни жалб қилиш, олинган натижаларни тўғри баҳолаш ва пайдо бўлган муаммолар билан боғлиқ ҳолда ўз ҳаракатларини тезда тузатиш);

- ҳал этилаётган касбий вазифаларга мувофиқ мазмунли ва мақсадли ҳаракат қилиш, мавжуд ресурс асосида уларни ҳал қилишнинг ягона тўғри, мақбул йўлини танлаш қобилияти билан;

- ўқиш давомида тўпланган, зарур бўлган ва малакавий талабларни сифатли бажаришга ёрдам берадиган конструктив тажрибани амалга ошириш қобилияти билан;

- битирувчи томонидан қабул қилинган ривожланиш қадриятлари билан, умрбод таълим, касбий ўзини ўзи тарбиялаш, меъёрлар ва касбий хулқ-атворни қабул қилиш ва бошқалар.

Юқорида айтиб ўтганимиздек, олий таълим муассасаларида касб-ҳунар таълимининг ўқув жараёни ташқи муҳит билан ўзаро таъсир қилиш учун очиқ бўлган мураккаб тизим сифатида намоён бўлади, бу унинг ривожланишининг янги босқичига ўтиш қобилиятини олдиндан белгилаб беради. Шу муносабат билан таълим соҳасидаги инновацион жараёнлар ҳақида гапириш мумкин, бу технологик ва иқтисодий режадаги ўзгаришлар, ижтимоий ва жамоат муносабатларидаги ўзгаришлар билан боғлиқ.

Тўғридан-тўғри таълим соҳасига тўхталадиган бўлсак, илмий тадқиқотлар таҳлили шуни кўрсатадики, таълим тизими тараққиётининг эволюцион ривожланиш йўлини ва ўтган йиллар аънаналари ҳамда ютуқларини, шунингдек ўтмишдаги педагогик тажриба ва бошқаларни ҳисобга олмасдан, келажак таълим эҳтиёжларини лойиҳалашнинг имкони йўқ - таълим инновацияси деганда нафақат янгилик, балки таълим тажрибаси ва

анъаналарини ўзлаштирган, келажакда ривожланиш муаммоларини ҳал қилиш учун замонавий воқеликка мослаштирилган инновация тушунилади. Мустақил танқидий фикрлашни ривожлантириш; касбий муаммоларни амалий ҳал этиш тажрибаси; касбий фаолиятда юз берадиган жуда кўп ўзгаришларга тезда жавоб бериш қобилияти; пайдо бўлган муаммоларни ўз вақтида таҳлил қилиш ва ҳал қилиш қобилияти; муваффақиятга йўналтирилганлик ва бошқалар. 21-асрнинг асосий ажралиб турадиган хусусияти инсон капитали, билим, цивилизациянинг ахборот асрига кириб боришини энг муҳим ресурслардан бири деб ҳисоблайдиган “билимлар жамияти” айниқса замонавий шаклда жамиятнинг рақобатбардош ресурсларига асос сола оладиган касб-ҳунар таълими соҳасидаги инновациялар янги иқтисодиётнинг шаклланишини ташкил қилади. Аммо бунинг учун билим талабчан, амалиётга йўналтирилган ва доимий равишда янгиланиб туриши, шу жумладан, мутахассисларнинг саъй-ҳаракатлари асосида шахснинг ўзи, касб эгаси ва ўз билими ҳамда касбий маҳоратини ривожлантиришга қўйган ўз сармоялари ҳақидаги бу қимматли тушунча олий ўқув юртларида касбий тайёргарлик жараёнида белгиланиши керак. Шу муносабат билан Т.Шулц инсон билими “...инвестициялар атрибутига эга бўлган муайян фаолият турлари орқали ривожланади” деб ёзган ва олим инвестиция фаолиятининг бундай турларига ўз-ўзини тарбиялашни боғлаган.

Д.И Фелдштейн таъкидлаганидек, ўз-ўзини тарбиялаш ва ривожланиш - бу ҳаракатнинг энг юқори тури, «абдий ўсиш»дир, унинг ичида янги босқичдаги ҳаракат, аввалги тур натижаларини сублимация қилиш ва кенгайтириш ётади.

ХУЛОСА

Глобаллашув жараёнлари таъсири остида дунёда янги иқтисодий сиёсат, олий касбий таълим парадигмаси ўзгармоқда: «бутун ҳаёт учун» таълим шаклидан «бутун ҳаёт давомида» таълим парадигмасига ўзгармоқда.

Мақсадли касбий тайёргарлик доирасида ўз-ўзини тарбиялаш тушунчаси билан ҳозирги вақтда ахборот ва хулқ-атвор компетенциялари боғлиқ. Шу билан бирга, ахборот компетенцияси ахборотлар массиви билан ишлаш, уни танлаш, тизимлаштириш, таҳлил қилиш ва таржима қилишнинг доимий ривожланиб боровчи ва янгиланиб боровчи кўникмаларини белгилайди; хулқ-атвор компетенцияси касбий фаолиятнинг маълум бир турида керакли натижаларни олиш алгоритмлари билан боғлиқ.

Олий таълимнинг ахборотга бой таълим муҳити ўз-ўзини тарбиялаш, билим даражасини сақлаб қолиш учун катта аҳамиятга эга.

АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ (REFERENCES)

1. Хожиева, Ш. А. К. (2023). ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ЗАМОНАВИЙ КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИК ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 215-222.
2. Ляшенко, М. А. Политика и деятельность ЮНЕСКО в области образования, вторая половина XX века: дис... канд. исторических наук : 07.00.03, М. А. Ляшенко.- Москва, 2001.- 200с.
3. Слостенин, В. А. Педагогика [Текст]: учеб. пособие для студ. пед. учеб. заведений / В. А. Слостенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; под ред. В. А. Слостенина. – М: Изд. центр «Академия», 2002. – 576 с.- С.21.
4. Макарова Н.С. Развитие дидактического знания об образовательном процессе в высшей школе, дис... докт... пед. наук, Омск – 2014, С. 3.
5. Abdullayeva, M. (2022). THE APPEARANCE OF THE TERM “EDUCATION DICTIONARY” IN WORLD LINGUISTICS IS ANALYZED. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 29), 48-52.
6. Скоблева, Э. И. Высшее профессиональное образование как институциональная система/ Э. И. Скоблева// Вестник АГТУ. -2010. -№ 2. -С.30
7. Yakubovna, Abdullayeva S. "Formation of Local Budget Revenues in the Modernization of the Economy." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 189-191.
8. Keldiyorovna, B. D., & Yakubovna, A. S. (2019). Axiological evaluation as the base of knowledge and cultural research of the Spanish and Uzbek languages. *International Journal of Recent Technology and Engineering*, 8(2 Special Issue 11), 3755–3759. <https://doi.org/10.35940/ijrte.B1486.0982S1119>
9. Sokhibakhon Yakubovna Abdullayeva. (2021). THE EFFECTIVE USE OF VIDEO TASKS IN THE GERMAN LANGUAGE LESSONS. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 2(08), 1–5. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/QG2X7>

MEROS MUNOSABATLARINING KOLLIZION MASALALARI

Sultonov Behzod Bahromjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-kurs talabasi

E-mail: sultonovb292@gmail.com

ANNOTATSIYA

Hozirgi davrda xalqaro doirada meros munosabatlari to'liqligicha yagona moddiy-huquqiy normalardan tashkil topgan xalqaro hujjatlardan iborat bo'lmagan, barcha xalqlar uchun umumiy qoidalar ishlab chiqilmagan va tartibga solish amalda qiyin bo'lgan yo'nalish hisoblanadi. Ya'ni meros munosabatlari asosan davlatlarning ichki qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Faqatgina ba'zi masalalar bo'yicha ko'p tomonlama konvensiyalar mavjud. Shu sababdan ushbu sohani o'rganish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada aynan xalqaro munosabatlarda meros huquqining holati, meros huquqi taraflarining biri, bir qanchasi yoki barchasi chet elda bo'lsa, shuningdek meros mulki chet mamlakatda joylashganda meros masalasi qanday hal etilishi, kollizion normalarning qo'llanilishi va istiqbolda merosga oid alohida xalqaro hujjat qabul qilishning imkoniyatlari, turli xil adabiyotlardan, olimlar, soha mutaxassislarining fikrlarini o'rganib chuqur tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar va fikrlarga tayanib yechimlar va xulosalar bayon etildi. Meros huquqi har bir davlatning madaniyati, mentaliteti, hayot tarzi, urf-odat va an'analariga bog'liqligi sababli, dunyo miqyosida har bir davlat uchun bir xil bo'lgan huquqiy hujjat ishlab chiqish mushkulligidan kelib chiqib, universal emas, balki mintaqaviy shartnomalar tuzish samarali degan xulosaga kelindi.

Kalit so'zlar: *meros qoldiruvchi, merosxo'rlar, qonun bo'yicha vorislik, vasiyatnoma bo'yicha vorislik, shartli vasiyatnoma, egasiz qolgan mol-mulkka vorislik, vasiyatnoma, vasiyatnoma shakli, "okkupatsiya" huquqi.*

ABSTRACT

At the present time, inheritance relations in the international framework is a direction that does not consist of international documents consisting of uniform material and legal norms, general rules for all nations have not been developed, and regulation is difficult in practice. That is, inheritance relations are mainly regulated by the internal legislation of the states. There are multilateral conventions on only some issues. For this reason, the study of this field is relevant today. In this article, the situation of the right of inheritance in international relations, how to resolve the issue of inheritance when one, several or all of the parties to the right of inheritance are abroad, as well as when the inheritance property is located in a foreign country, the application of conflicting norms and the adoption of a separate international

document on inheritance in the future possibilities were analyzed in depth by studying the opinions of scientists and specialists from various literatures. Based on the received information and opinions, solutions and conclusions were presented. Due to the fact that the right of inheritance depends on the culture, mentality, lifestyle, customs and traditions of each country, due to the difficulty of developing a legal document that is the same for every country on a global scale, it is necessary to conclude regional rather than universal agreements. it was concluded that it is effective.

Key words: *legatee, heirs, inheritance by law, inheritance by will, conditional will, inheritance of property left without owner, will, form of will, "occupation" right.*

KIRISH

Meros huquqi bu vafot etgan kishidan qoladigan mol-mulk uning vorislariga yoki boshqa shaxslarga, shuningdek ayrim hollarda mahalliy organlar va davlatga egalik qilish uchun o'tishi hisoblanadi. Merosga oid normalar vafot etgan kishidan qoladigan mol-mulkka egalik huquqi kimlarda vujudga kelishi va kimlar birinchi navbatda vorislik qilishlarini tartibga soladi. Meros odatda ikki xil shaklda, vasiyatnoma bo'yicha va qonun bo'yicha vorislarga o'tadi.

Chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda, shu jumladan meros munosabatlarida ikki tomonning kelishuvga erishuvi tomonlarning milliy qonunchiligiga bevosita bog'liqdir. Bugungi davrda deyarli barcha mamlakatlar meros munosabatlarini o'z milliy qonunchiligiga binoan hal etadi. Faqatgina ayrim masalalarda, shu jumladan, vasiyatnoma asosida meros qoldirilayotgan hollarni tartibga solish uchun "Vasiyatnoma shakli to'g'risidagi 1961-yil 5-oktabr qonunlar kolliziyasi to'g'risidagi konvensiya" va 1973-yil 26-oktabrda Vashingtonda o'tkazilgan diplomatik konferensiyada xalqaro shartnomaning shakli to'g'risidagi ko'p tomonlama Konvensiya qabul qilingan.¹¹⁶

Ushbu maqolada bugungi kunda meros huquqi bo'yicha to'plangan bilimlar va fikr-mulohazalar bayon qilinadi. Maqolaning I qismi merosga doir umumiy qarashlar, II qismi esa vasiyatnoma bo'yicha vorislikning kollizion masalalari va III qismi esa egasiz qolgan mol-mulkka nisbatan vorislikni ko'rib chiqadi.

I MEROSGA DOIR UMUMIY QARASHLAR

Meros turli g'oyalar va tushunchalarni o'z ichiga oladi. Ko'pchilik meros nima ekanligi haqida bir xil pozitsiyada turishsada, bu atamaning ma'nosi haqidagi qarashlari juda xilma-xildir. Konsepsiya harakatchan, chunki u doimiy ravishda

¹¹⁶ Богуславский М.М. Международное частное право., Учебник 3-й изд. перераб. и. доп. – М.: Юристь 2000.

xalqaro va milliy miqyosdagi ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy o'zgarishlar, shuningdek, turli manfaatlar va e'tiqodlar ta'siri ostida shakllanadi.¹¹⁷

Umuman olganda, meros – bu yaratilgan va avloddan avlodga o'tadigan shaxslar guruhi bilan bog'liq bo'lgan moddiy va nomoddiy elementlardir.¹¹⁸

Huquqshunos olimlar B.S.Antimonov va K.A.Grav meros huquqiy munosabatlarini ikki xil deb hisoblaydilar: birinchi hodisa (merosning ochilishi), ikkinchisi – merosxo'rlarning xohishiga ko'ra, merosni qabul qilish bilan vujudga keladi.¹¹⁹

I.L. Korneeva esa meros huquqiy munosabatlarini merosni ochish va qabul qilish hamda meros olish bilan bog'liq boshqa harakatlarga oid meros huquqi normalari bilan tartibga solinadigan fuqarolik-mulk huquqiy munosabatlarning bir turi sifatida qaraydi.¹²⁰

Shuni aytib o'tish lozimki, meros huquqiy munosabatlarga beriladigan ta'riflar meros munosabatlarining yuzaga kelishini meros qoldiruvchining vafoti kabi yuridik fakt bilan bog'laydi. Ammo bir narsani unutmaslik lozimki, meros qoldiruvchining vafotidan ancha oldin vujudga keladigan va merosni merosxo'rlarga o'tkazadigan vasiyatnoma ham bor va yuqoridagi ta'riflar unchalik ham to'g'ri emas. Ya'ni meros munosabatlari meros qoldiruvchining o'limidan oldin ham vujudga kelishi mumkin. Misol uchun, ko'pgina davlatlar qonunchiligida vasiyatnoma yozma shaklda tuzilishi va guvoh yoki guvohlar ishtirokida guvohlantirilishi lozimligi belgilab qo'yilgan. Yoki bo'lmasam, O'zbekiston Fuqarolik kodeksida vasiyatnomalar notarius ishtirokida notarial tasdiqlanadi yoxud alohida hollarda notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar qo'llaniladi. Yopiq vasiyatnomalar ham notarius ishtirokida o'tkaziladi. Ushbu nuqtayi nazardan olib qaraganda vasiyatnomani tuzish ham yuridik fakt bo'lib, meros ochilgandan keyin uning mazmuniga ta'sir o'tkazadi. Shuningdek, meros huquqiy munosabatlari mutlaq xarakterga ham ega bo'lishi mumkin. Agarda vasiyatnoma mavjud bo'lmasa, meros qonun bo'yicha merosxo'rlarga o'tadi. Qonun bo'yicha merosxo'rlik masalasi ham har bir davlatda turlicha belgilangan. O'zbekiston qonunchiligiga binoan, agar meros qoldiruvchi o'limidan oldin o'z mol-mulkini vasiyat qilib qoldirmagan bo'lsa, undan qolgan meros mulklari qonun bo'yicha merosxo'rlariga o'tadi.

Shunday qilib meros huquqiy munosabatlar – bu meros huquqi qoidalariga asoslangan va meros qoldiruvchi, merosxo'rlar va boshqa shaxslar o'rtasida

¹¹⁷ Ben Boer and Graeme Wiffen, *Heritage Law in Australia* (Oxford University Press, Melbourne, 2006)

¹¹⁸ Derek Fincham. Assistant Professor, South Texas College of Law; PhD University of Aberdeen; JD Wake Forest.

¹¹⁹ Антимонов Б. С., Граве К. А. Советское наследственное право. М., 1995. С. 4650.

¹²⁰ Корнеева И. Л. Наследственное право Российской Федерации: учеб. для магистров / И.Л. Корнеева. – 3-е изд., перераб и доп. – М.: Юрайт, 2012. – С. 17.

vasiyatnomani tayyorlash, merosni ochish, merosni qabul qilish yoki rad etish bo'yicha vujudga keladigan huquqiy munosabatlar majmuasidir.¹²¹

Endi turli davlatlar qonunchiligini ko'rib chiqsak, dastavval Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 1119, 1121, 1123, 1125, 1134, 1137 moddalarida merosga oid qoidalar qayd qilingan bo'lib, ularga ko'ra meros qoldiruvchi:

- 1) mol-mulkni har qanday shaxsga vasiyat qilish;
- 2) merosxo'rlarning merosdagi ulushlarini belgilash;
- 3) merosxo'rni merosdan mahrum qilish;
- 4) vasiyatnomani bekor qilish yoki o'zgartirish;
- 5) vasiyatnoma sirini buzuvchidan tovon undirishni talab qilish;
- 6) asosiy merosxo'r merosni qabul qilib olmasidan vafot etgan yoki qabul qilmagan yoxud noloyiq merosxo'r deb e'tirof etilganda, ikkinchi merosxo'rni tayinlash;

7) bir yoki bir nechta merosxo'rlarga bir yoki bir nechta shaxslar foydasiga mulkiy xarakterdagi har qanday majburiyatni meros hisobidan yuklash;

8) merosxo'rga umumiy foydali maqsadga erishishga qaratilgan mulkiy yoki nomulkiy xarakterdagi har qanday majburiyatni vasiyatnoma asosida yuklash;

9) vasiyatnomani notarial tasdiqlashda guvohni talab qilish;

10) notariusdan vasiyatnomasini savodsizlik yoki jismoniy nuqsoni va boshqa kamchiliklari tufayli boshqa shaxs tomonidan imzolanishini so'rash;

11) vasiyatnomani bajarilishini ijrochiga topshirish kabi huquqlarga ega.

Shu bilan bir qatorda, merosxo'rning,

- 1) vasiyatnomani o'z qo'li bilan yozish;
- 2) favqulodda holatlardagi vasiyatnomani, shuningdek yopiq vasiyatnomani o'z qo'li bilan yozish va imzolash;

3) vasiyatnomani tuzish va ro'yxatdan o'tkazish xarajatlarini to'lash kabi majburiyatlari ham mavjud.

Rossiya Federatsiyasining merosga bag'ishlangan fuqarolik kodeksining qoidalari bilan solishtirganda, O'zbekiston qonunlari unchalik katta farqni vujudga keltirmaydi. Jumladan, O'zbekiston Fuqarolik kodeksida Rossiya qonunida bo'lgani kabi meros qoldiruvchi mol-mulkini har qanday shaxsga meros qilib qoldirishi, har qanday shaxsni merosdan mahrum qilishi, o'zi tuzgan vasiyatnomani o'zgartirishi yoki bekor qilishi, merosxo'rdan keyingi merosxo'rni tayinlashi, meros hisobidan merosxo'rlarga majburiyatlar yuklashi, vasiyatnomani nuqsonlari sababli shaxsan

¹²¹ Ленковская Рената Романовна, кандидат юридических наук, доцент кафедры, гражданско-правовых дисциплин

tuzish imkoniga ega bo'lmaganda boshqa shaxs tomonidan tuzilishi mumkin. Shu bilan birga ba'zi bir farqlar ham ko'zga tashlanadi. Masalan, O'zbekiston fuqarolik kodeksiga ko'ra, vasiyat qiluvchi merosning olinishi uchun merosxo'r xulq-atvorining xususiyatini qonuniy ravishda shart qilib qo'yishi mumkin. Bu shartli vasiyatnoma deb yuritiladi. Umumiy qilib olganda, O'zbekiston va Rossiya qonunchiligining merosga bag'ishlangan qoidalari bir-biriga o'xshash.

AQSh qonunchiligi esa meros masalasiga yuqoridagi davlatlardan boshqacha yondashadi. AQShda har bir shtatlarning alohida qonunlari mavjud bo'lib, bir masala yuzasidan turli xil qoidalar kelib chiqadi. Lekin, aslini olganda, AQSh qonunchiligiga ko'ra vasiyat qiluvchilar bir qator rasmiyatchiliklardan xalos etilishgan. Misol uchun, hali ham ba'zi shtatlarda vasiyatnomani notarial tasdiqlash talablari mavjud bo'lsada, ko'plab shtatlarda bir vaqtning o'zida guvohlik berish va notarial tasdiqlash talablari bekor qilingan. Shuningdek, ko'pgina shtatlarda tirik qolgan turmush o'rtoqlarga katta majburiy ulush beriladi. Biroq, Amerika huquqiy an'alarida tirik qolgan bola majburiy ulush olish huquqiga ega emas.¹²² Shu tariqa, Amerika huquqiy tizimi vafot etgan shaxsning farzandlaridan ko'ra turmush o'rtog'i haqida ko'proq qayg'uradi. Umumiy olib qaraganda, Amerika huquq tizimi juda kengdir. Shu sababli ham meros munosabatlari ko'proq ishonchga va amaliyotga asoslanadi.

Xalqaro doirada meros munosabatlarini to'liq bo'lmasa ham asosiy qoidalarini belgilab beruvchi hujjat yo'q. Ko'rib chiqilgan holatlardan ko'rinib turibdiki, meros masalasida har bir davlat o'z milliy qonunchiligiga asoslanadi. Shu tufayli ham bu borada davlatlarning qonunchiligi bir-biridan jiddiy farq qilishi mumkin.

II VASIYATNOMA BO'YICHA VORISLIKNING KOLLIZION MASALALARI

Vasiyatnoma sifatida shaxsning (vasiyat qoldiruvchining) o'limidan keyin o'z merosiga nima bo'lishi to'g'risida o'z niyatini bildirgan va muayyan qonuniy rasmiyatchiliklarga muvofiq rasmiylashtirilgan yuridik hujjat¹²³ tushuniladi. Aytish mumkinki, vasiyatnoma bo'yicha vorislik qonun bo'yicha vorislikka qaraganda aniqroq va tartibga solish birmuncha oson hisoblanadi. Albatta, bu masalada davlatlarning qonunchiligi bir xilda emas. Masalan, O'zbekiston qonunchiligi bo'yicha vasiyatnoma yozma shaklda tuzilishi va notarius tomonidan tasdiqlanishi lozim. Buyuk Britaniya qonunchiligiga ko'ra esa faqatgina yozma shaklni bo'lishi yetarli.

¹²²Paul B. Miller. Professor, Associate Dean for International and Graduate Programs, and Director of the Notre Dame Program on Private Law, Notre Dame Law School

¹²³ <https://uk.practicallaw.thomsonreuters.com/4-382->

6317?transitionType=Default&contextData=(sc.Default)&firstPage=true

Xalqaro doirada vasiyatnoma shakliga oid 1961-yilgi “Vasiyatnoma shakliga oid qonunlarning ziddiyatlari to’g’risida”gi Konvensiya qoidalariga ko’ra, davlatlar chet elda tuzilgan vasiyatnomalarni, agar uning shakli ichki qonunlarga muvofiq bo’lsa, shaklga amal qilinmaganini ro’kach qilib, uni bekor qilishga haqli emas. Shuningdek, vasiyat qiluvchi vasiyatnomani tuzayotganda turar joyiga yoki fuqaroligiga qarab qaysi qonunchilikni tanlashni ham hal etishi mumkin. 1961-yilgi konvensiyaga tayanib, misollar yordamida vasiyat qiluvchining qonunchilikni tanlash huquqini ko’rib chiqish mumkin. Misol uchun, vasiyat qiluvchi O’zbekiston Respublikasi fuqarosi, lekin uch yildan beri Rossiya Federatsiyasida doimiy asosda yashab kelmoqda. Bunday holda, vasiyat qiluvchi o’zining fuqaroligi mansub bo’lgan O’zbekiston Respublikasi huquqini tanlamasa, u tomonidan tuzilgan vasiyatnoma uning doimiy turar-joyi hisoblangan Rossiya Federatsiyasi qonunlari bilan tartibga solinadi. Konvensiya qoidalari bu tanlovni ko’char mulklar uchun vorislik masalalariga taqdim etadi. Ko’chmas mulkka vorislik masalasi u turgan joydagi mamlakat qonuni bilan tartibga solinadi. Lekin hamma davlatlar ham o’z qonunchiligida bunday qoidalarni o’rnatmagan. Misol uchun, Buyuk Britaniya, Amerika Qo’shma Shtatlari va Fransiya kabi davlatlarda ko’char va ko’chmas mulkka oid qonunlar o’rtasida farqlar bor. Germaniyada esa ko’char va ko’chmas mulklarga nisbatan amalda bir xil qoidalar belgilab qo’yilgan. Ushbu davlatda ikkala mulk turi uchun ham vasiyat qiluvchining fuqaroligi qonuni tatbiq etiladi. Xuddi shunday qoidalar, Vengriya, Polsha va boshqa davlatlar qonunchiligida ham aks etgan.¹²⁴

Shu bilan bir qatorda, 1961-yilgi konvensiyaning ishtirokchisi hisoblanuvchi davlat o’zga davlatlar fuqaroligiga ega bo’lmagan o’z fuqarolarining og’zaki vasiyatnomalarini tan olmaslik huquqini amalga oshirishi mumkin. Shundoq ham, ko’pgina davlatlar qonunchiligi vasiyatnomalarning yozma shaklda bo’lishini talab qiladi. Masalan, O’zbekiston Fuqarolik kodeksining 1124-moddasida va Fransiya Fuqarolik kodeksida vasiyatnomalar yozma ravishda tuzilishi lozimligi belgilangan.

Umuman olganda, merosga oid konvensiyalar vasiyatnomalarning shakliga doir talablarni belgilash bilangina cheklangan. Vasiyatnoma bo’yicha meros qoldirish tartibi qanday, kimlar vorislik huquqidan foydalana olishi, kimlar bu huquqdan mahrum qilinishi davlatlarning o’z qonunchiligi bilan belgilanadi.

Meros munosabatlari bir davlat hududida bo’lsa hech qanday qiyinchilik yuzaga kelmaydi. Ammo, vasiyat qoldiruvchi chet mamlakatda bo’la turib, vasiyat qoldirgan va o’sha yerda vafot etgan bo’lsa, uning merosxo’rlari esa o’zining vatanida bo’lsa

¹²⁴ Международное частное право (Действующие правовые акты). М. Институт международного права и экономики. – Издательство “Триада, Лтд”. – 1997. – Б. 45-46.

yoki vasiyat bo'lib qoluvchi mulk meros qoldiruvchining o'z mamlakatida bo'lsayu, uning qarindoshlari va boshqa merosxo'rlari chet elda bo'lsa, bunday meros munosabatlarini tartibga solish bir qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. O'z navbatida, chet el subyekti aralashgan munosabatlarni tartibga solish uchun kollizion normalardan foydalanishga to'g'ri keladi.

Merosni vasiyat qilib qoldirishda vasiyat qiluvchining irodasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi misolga o'xshash ravishda, O'zbekiston fuqarosi o'ziga tegishli ko'char mulklarni (mashina, qimmatbaho materiallar, portretlar va hokazo) meros qilib qoldirishga qaror qildi. Bu shaxs Rossiya hududida doimiy turar-joyga ega bo'lgan holda istiqomat qiladi. O'zbekiston qonunchiligi vasiyat qiluvchiga oxirgi yashash joyining qonunchiligini tanlash imkoniyatini taqdim etadi. Bunday holda fuqaro Rossiya qonunchiligini tanlash imkoniyatiga ega. Agar tanlovi Rossiya qonunchiligi bo'lsa, aynan ushbu davlat qonunlariga binoan meros merosxo'rlarga o'tadi. Albatta bundan ko'chmas mulklar va O'zbekiston davlat reyestriga kiritilgan mol-mulklar mustasno. Ko'chmas mulk qayerda joylashgan bo'lsa, o'sha yerning qonunchiligi qo'llaniladi. Reyestriga kiritilgan mol-mulkka faqat O'zbekiston qonunchiligi tatbiq etiladi. Germaniya fuqarolik hujjatlari esa boshqacha qoidalarni belgilaydi. Ushbu davlatda fuqaro qayerda bo'lishidan va mulk qayerda joylashganligidan qat'i nazar shaxsning fuqarolik qonunchiligi qo'llaniladi. Tabiiyki, O'zbekistonga o'xshagan davlat fuqarolari bilan Germaniya fuqarolari o'rtasida meros munosabatlari paydo bo'ladigan bo'lsa, murakkab muammolar paydo bo'ladi. Misol tariqasida, agar Germaniya fuqarosi O'zbekiston hududida ko'chmas mol-mulkka egalik qiladi va ushbu mol-mulkni vasiyatnoma asosida Germaniyadagi qarindoshlariga qoldirmoqchi. Vasiyatnomaga nisbatan Germaniya qonunchiligini qo'llashni xohladi. Lekin O'zbekiston qonunchiligiga binoan ko'chmas mulk qayerda joylashgan bo'lsa, o'sha yerning qonunlari qo'llanilishi kerak. Ammo boshqa tomondan, Germaniya qonunchiligi meros munosabatlarida har qanday mulkka nisbatan shaxsning fuqaroligiga e'tibor qaratadi. Bunday vaziyatda, tabiiyki ikki davlat o'rtasida qaysi tomonning qonun normalarini qo'llash masalasida qarama-qarshilik kelib chiqadi. Bu holat uchun ikki davlat o'rtasida kelishuv bitimi tuzish eng yaxshi yechim bo'lishi mumkin. Chunki meros munosabatlari uchun universal hujjat ishlab chiqish amalda imkonsiz. Sababi, barcha mamlakatlar o'z manfaatlari, qadriyatlari, madaniyatlari, urf-odat va an'analari bilan bir-biridan farq qilishadi. Ayniqsa, sharq mamlakatlari bilan g'arbning yashash va turmush tarzi bir-biridan jiddiy farq qiladi. Shu sababli, universal hujjat ishlab chiqishdan ko'ra, mintaqaviy yoki davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama kelishuvlar ishlab chiqish anchayin samarali hisoblanadi.

III EGASIZ QOLGAN MOL-MULKKA NISBATAN VORISLIK

Egasiz qolgan mol-mulk (inglizcha. heirless property) – fuqarolik huquqida mulkdor ega bo'lmagan mulk (masalan, mulkdor o'z xohishi bilan mulkdan voz kechishi, yoki mulkdor ma'lum emas va hokazo).¹²⁵

Meros munosabatlarida meros qoldiruvchining qonuniy merosxo'rlari bo'lmasa, vasiyatnoma tuzilmagan bo'lsa yoki vasiyatnoma haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa, ya'ni meros qoldiruvchining merosxo'rlari yo'q bo'lsa, meros mulki tegishincha egasiz deb topiladi.

O'zbekiston qonunchiligida bu masala Fuqarolik kodeksining 1157-moddasi bilan hal etilgan. Ushbu moddaga binoan, meros mol-mulk meros ochilgan joydagi mahalliy davlat hokimiyati organlari yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari arizasi bo'yicha meros ochilgan kundan uch yil o'tganidan so'ngina sud tomonidan egasiz deb topilishi mumkin. Agar uni qo'riqlash va boshqarish bilan bog'liq xarajatlar mulk qiymatidan oshib ketsa, muddatidan oldin ham egasiz deb topilishi mumkin.

Bu masala yuzasidan ham davlatlarning qonunchiligi turlicha hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston qonunchiligiga asosan egasiz mol-mulk u turgan joydagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga o'tadi, agar bu organ mol-mulkdan voz kechgan taqdirda davlat mulkiga o'tadi. Ko'rish mumkinki, bu yerda egasiz mulk dastlab fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organiga o'tadi. Qachonki ushbu organ mol-mulkdan voz kechgan holatdagina davlatga o'tadi. Lekin, AQSh, Fransiya Avstriya kabi davlatlar qonunchiligi bu vaziyatga boshqacha yondashadi. Ushbu davlatlarda, mulk egasiz hisoblanishi tufayli davlat mulkni "okkupatsiya" huquqi asosida o'zlashtiradi – bu yerda mulk barcha holatlarda fuqaro vafot etgan mamlakatning mulki bo'lib qoladi.¹²⁶ Ya'ni bu huquq ko'char va ko'chmas mol-mulklar uchun birdek qo'llaniladi.

Bu masala ham davlatlar tomonidan turlicha hal qilingan. Agarda, ikki huquqiy tizimga ega mamlakatlar o'rtasida ushbu masala yuzasidan nizo chiqqudek bo'lsa, vaziyatga yechim topish juda qiyinlashadi. Shu sababdan mol-mulkni egasiz deb topish masalalari bo'yicha ham ikki taraflama kelishuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday turdagi holatlarni Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar 1993-yil "Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi Minsk konvensiyasi asosida kelishib olganlar. Unga ko'ra, ko'chmas mulk bilan bog'liq masalalar u joylashgan joy qonuni bilan tartibga

¹²⁵ Xalqaro xususiy huquq: Darslik. / Mualliflar jamoasi // y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. T.: TDYU, 2019. – 354 bet.

¹²⁶ Xalqaro xususiy huquq: Darslik. / Mualliflar jamoasi // y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. T.: TDYU, 2019. – 354 bet.

solinadi. Ko'char mulklar bilan bog'liq masalalar esa meros qoldiruvchining fuqaroligi bilan belgilanadi. Mol-mulkni egasiz deb topish ham asoslari ham agarda mulk ko'chmas bo'lsa, joylashgan joyi bo'yicha, ko'char bo'lsa shaxsning fuqaroligiga qarab belgilanadi.

Albatta, bu turdagi konvensiyalarni ahamiyati katta hisoblanadi. Zero, merosga oid universal hujjat ishlab chiqish imkoniyatlari juda minimal bo'lganda, bu turdagi konvensiyalar yoki boshqa turdagi xalaro hujjatlar davlatlarning qonun normalari turlicha bo'lganda yoki ziddiyatlar kelib chiqqanda, vaziyatlarni to'g'ri hal qilish, davlatlar o'rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqishini oldini olishda katta rol o'ynaydi.

XULOSA

Ushbu maqolada meros tushunchasiga turli mutaxassislar tomonidan berilgan turli ta'riflar, merosning qonun va vasiyatnoma bo'yicha o'tishi, bugungi kunda xalqaro doirada meros munosabatlarining ahvoli qay darajada ekanligi turli davlatlar qonunchiligidan misollar keltirgan holda ko'rib chiqildi. To'plangan ma'lumotlar, fikrlarga tayanib, hozirgi davrda meros munosabatlarini tartibga soluvchi universal hujjat ishlab chiqish juda murakkab va amalda samarasiz oqibatlariga olib kelishi mumkin degan xulosaga kelindi. Sabab sifatida esa dunyo miqyosida davlatlar turli xil huquqiy tizim ostida yashashlari, fuqarolarining turmush tarzi bir-biridan jiddiy farq qilishi, har bir davlatning madaniyati, urf-odat, an'analari bo'yicha bir-biridan jiddiy farqlanishi keltirib o'tildi. Ya'ni, universal hujjat ishlab chiqilgudek bo'lgan taqdirda ham bir davlat uchun to'g'ri kelishi mumkin bo'lgan qoidalari boshqa davlatlar milliy qonunchiligiga umuman to'g'ri kelmasligi mumkin. Oqibatda ishlab chiqilgan hujjat yetarlicha a'zolar yig'a olmasligi ehtimoli katta. Shu sababdan, davlatlar o'rtasida meros munosabatlarini tartibga solish uchun mintaqaviy miqyosda yoki ikki tomonlama shartnomalar, bitimlar tuzish eng samarali yo'l degan xulosaga kelindi. Bunda albatta, davlatlarning iqtisodiy, ijtimoiy, diniy, madaniy va boshqa tomonlardan bir-biriga yaqinligi, o'xshashligi yoki manfaatlarining siyosiy mushtarakligi e'tiborga olinishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Xalqaro xususiy huquq: Darslik. / Mualliflar jamoasi // y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. T.: TDYU, 2019. – 354 bet.
2. Международное частное право (Действующие правовые акты). М. Институт международного права и экономики. – Издательство “Триада, Лтд”. – 1997. – Б. 45-46.

3. Богуславский М.М. Международное частное право., Учебник 3-й изд. перераб. и доп. – М.: Юристь 2000.
4. Ben Boer and Graeme Wiffen, *Heritage Law in Australia* (Oxford University Press, Melbourne, 2006).
5. Derek Fincham. Assistant Professor, South Texas College of Law; PhD University of Aberden;
6. Антимонов Б. С., Граве К. А. Советское наследственное право. М., 1995. С. 4650.
7. Корнеева И. Л. Наследственное право Российской Федерации: учеб. для магистров / И.Л. Корнеева. – 3-е изд., перераб и доп. – М.: Юрайт, 2012. – С. 17.
8. Ленковская Рената Романовна, кандидат юридических наук, доцент кафедры, гражданско-правовых дисциплин
9. Paul B. Miller. Professor, Associate Dean for International and Graduate Programs, and Director of the Notre Dame Program on Private Law, Notre Dame Law School
10. [https://uk.practicallaw.thomsonreuters.com/4-382-6317?transitionType=Default&contextData=\(sc.Default\)&firstPage=true](https://uk.practicallaw.thomsonreuters.com/4-382-6317?transitionType=Default&contextData=(sc.Default)&firstPage=true)

RAQAMLI TEXNOLOGIYA DAVRIDA JINOYAT HUQUQINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Saidmurodov Najmiddin Nabijon o'g'li

Surxondaryo viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Raqamli texnologiyalarning tez tarqalishi jinoiy faoliyat va huquqni muhofaza qilish organlarining sohasini inqilob qilib, muammolar va imkoniyatlarni taqdim etdi. Ushbu maqola jinoiy xulq-atvorning yangi shakllarini samarali hal eta oladigan huquqiy asoslar zarurligini ta'kidlab, raqamli asrda jinoiy huquqning rivojlanayotgan rolini o'rganadi. Biz texnologiyaning an'anaviy jinoyatlarga ta'sirini, kiberjinoyatlarning kuchayishini, raqamli dalillarning murakkabligini va shaxs huquqlari va shaxsiy hayotini himoya qilish uchun huquqiy tizimlarni moslashtirish zarurligini ko'rib chiqamiz. Jamiyat raqamli texnologiyalar keltirib chiqaradigan misli ko'rilmagan muammolar bilan kurashar ekan, maqola ushbu dinamik muhitda adolat va xavfsizlikni ta'minlay oladigan jinoyat qonunchiligini rivojlantirish istiqbollarini ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: *Jinoyat huquqi; Raqamli texnologiya; Kiberjinoyat; Raqamli dalillar; Maxfiylik huquqlari.*

ABSTRACT

The rapid spread of digital technologies has revolutionized the field of criminal activity and law enforcement, presenting both challenges and opportunities. This article examines the evolving role of criminal law in the digital age, emphasizing the need for legal frameworks that can effectively address new forms of criminal behavior. We examine the impact of technology on traditional crime, the rise of cybercrime, the complexity of digital evidence, and the need to adapt legal systems to protect individual rights and privacy. As society grapples with the unprecedented challenges posed by digital technologies, the article examines the prospects for developing criminal law that can ensure justice and security in this dynamic environment.

Key words: *Criminal law; Digital technology; Cybercrime; Digital evidence; Privacy Rights.*

KIRISH

Raqamli texnologiyalarning hamma joyda mavjudligi bilan tavsiflangan davrda jinoyat huquqi moslashuv va innovatsiyalarni talab qiladigan o'zgaruvchan davrga duch kelmoqda. Texnologiyaning jamiyatga chuqur ta'sirini inkor etib bo'lmaydi, bu uning ta'sirini jinoiy faoliyat va huquqni muhofaza qilish sohasiga kengaytiradi.

Raqamli texnologiya misli ko`rilmagan qulaylik va ulanishni keltirib chiqargan bo`lsa-da, u jinoiy xatti-harakatlarning yangi shakllarini keltirib chiqardi va an`anaviy qonunchilik asoslari hal qilish uchun yetarli darajada jihozlanmagan muammolarni keltirib chiqardi. Rivojlanayotgan ushbu sohada harakatlanar ekanmiz, raqamli texnologiyalar davriga moslashtirilgan jinoyat qonunchiligini ishlab chiqish zarurati tobora dolzarb bo`lib bormoqda. Ushbu maqola raqamli asrda jinoiy huquqning ko`p qirrali o`lchamlarini o`rganadi va butun dunyo bo`ylab huquqiy tizimlarning kelajagini shakllantirayotgan dinamikaga oydinlik kiritadi. Biz texnologiya va an`anaviy jinoyatlar o`rtasidagi murakkab o`zaro ta`sirni ko`rib chiqamiz, raqamli vositalar qadimiy jinoiy harakatlar ijrosini qanday inqilob qilganini o`rganamiz. Kiberjinoyatlarning kuchayishi va onlayn huquqbuzarlarning tushunib bo`lmaydigan tabiati huquqni muhofaza qilish organlariga o`ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi, bu esa innovatsion strategiyalar va huquqiy yechimlarni talab qiladi.

Bundan tashqari, raqamli dalillarning paydo bo`lishi jinoiy ish yuritish uchun imkoniyatlar va dilemmalarni taqdim etadi. Bir-biriga bog`langan dunyomizda yaratilgan raqamli ma`lumotlarning hajmi va murakkabligi bunday dalillar qanday to`planishi, saqlanishi va sudda taqdim etilishini diqqat bilan ko`rib chiqishni talab qiladi. Misli ko`rilmagan kuzatuv va ma`lumotlar almashish davrida adolat imperativini shaxsiy daxlsizlik huquqlari bilan muvozanatlash jinoyat qonunchiligini qayta ko`rib chiqish va isloh qilishning dolzarbligini yana bir bor ta`kidlaydi. Ushbu maqola raqamli texnologiyalar bilan bog`liq muammolarga javoban jinoyat qonunchiligining rivojlanish istiqbollari haqida tushuncha berishga harakat qiladi. U jinoiy xatti-harakatlarning rivojlanayotgan manzarasini, kiberjinoyatlarning murakkabligini va raqamli dalillarning asosiy rolini o`rganadi. Jismoniy va raqamli sohalar o`rtasidagi chegara xiralashgan dunyoda jinoiy qonunchilikning barqarorligi va moslashuvchanligi muhim ahamiyatga ega. Jinoyat huquqi va raqamli texnologiyalarning o`zaro ta`siri orqali amalga oshirilgan ushbu jarayon bizga ushbu dinamik va doimiy o`zgaruvchan muhitda individual huquqlarni himoya qilish bilan birga adolat ta`minlanadigan kelajakni tasavvur qilishimizga yordam beradi.

ASOSIY QISM

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan jamiyatimiz hayotning turli jabhalarida sezilarli o`zgarishlarga guvoh bo`ldi. Chuqur ta`sir ko`rsatgan sohalardan biri bu jinoyat huquqi sohasidir. Jinoyatchilar yangi texnologiyalarga moslashgani sayin, qonunchilar va huquqshunoslar raqamli jinoyatchilikning paydo bo`layotgan shakllariga qarshi samarali kurashish uchun ushbu o`zgarishlar bilan hamqadam bo`lishlari kerak.

Raqamli asrning boshlanishi hayotimizning barcha jabhalarida tub o`zgarishlarni amalga oshirdi. Biz muloqot qilish va biznes yuritish uslubimizdan tortib, o`zimizni ko`ngil ochish va ma`lumot izlash tarzimizgacha, raqamli texnologiyalar bizning mavjudligimizning barcha jabhalariga kirib bordi. Biroq, raqamli texnologiyalarning bu har tomonlama qamrab olinishi nafaqat misli ko`rilmagan qulaylik va taraqqiyot davrini boshlab berdi; shuningdek, mavjud qonunchilik asoslari va huquqni qo`llash mexanizmlariga qarshi jinoiy xatti-harakatlarning yangi chegarasini keltirib chiqardi.¹²⁷

Raqamli texnologiyalarning yuksalishi jinoiy huquqni qo`llash uchun ham imkoniyatlar, ham qiyinchiliklar tug`dirdi. Bir tomondan, texnologiya jinoyatlarni tergov qilish va ta`qib qilishning innovatsion usullarini osonlashtirdi. Huquqni muhofaza qilish idoralari endi murakkab ishlarni hal qilishda yordam beradigan ilg`or kuzatuv vositalari, ma`lumotlar tahlili va sud-tibbiyot usullaridan foydalanish imkoniyatiga ega.¹²⁸ Bundan tashqari, elektron pochta xabarlarini, ijtimoiy media xabarlarini va GPS ma`lumotlari kabi raqamli dalillar gumonlanuvchilarni jinoiy faoliyat bilan bog`lashda hal qiluvchi rol o`ynashi mumkin. Boshqa tomondan, texnologiyaning rivojlanishi bundan bir necha o`n yillar oldin tasavvur qilib bo`lmaydigan jinoyatchilikning yangi shakllarini keltirib chiqardi.¹²⁹ Kiberjinoyat xakerlik, shaxsiy ma`lumotlarni o`g`irlash, onlayn firibgarlik va kiberbulling kabi jinoyatlarni o`z ichiga olgan dolzarb muammoga aylandi. Bu jinoyatlar ko`pincha an`anaviy yurisdiksiya chegaralaridan oshib ketadi va butun dunyo bo`ylab huquqiy tizimlar uchun o`ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi.

Biz e`tiborga olishimiz kerak bo`lgan birinchi istiqbol - bu raqamli davrda an`anaviy jinoyatlarning o`zgarishi. Raqamli texnologiyalar asrida o`g`irlik, firibgarlik, bezorilik kabi jinoyatlar yangi shakl va o`lchamlarga ega bo`ldi. Kiberjinoyatchilar bir paytlar faqat jismoniy dunyoda amalga oshirilgan harakatlarni amalga oshirish uchun onlayn tizimlardagi zaifliklardan foydalanadilar. Masalan, moliyaviy firibgarlik nafaqat an`anaviy sxemalarni, balki ishlab chiqilgan onlayn firibgarlik va fishing hujumlarini ham o`z ichiga oladi. Jinoyat huquqining rivojlanishi jinoiy faoliyatning ushbu yangi yo`llarini hal qilishi kerak. Internetning chegarasiz tabiati mahalliy va xalqaro jinoiy harakatlar o`rtasidagi farqni ham yo`q qildi. Jinoyatchilar chegaralar orqali osonlik bilan jinoyat sodir etishlari mumkin, bu esa jinoyat qonunchiligining ushbu global o`lchovlarga moslashishini muhim qiladi. Yurisdiksiyalar jinoyatchilarning geografik joylashuvidan qat`i nazar, javobgarlikka

¹²⁷ Jones, R., 2017. Digital rule: punishment, control and technology. In Surveillance, Crime and Social Control (pp. 519-536). Routledge.

¹²⁸ Solove, D.J., 2004. The digital person: Technology and privacy in the information age (Vol. 1). NyU Press.

¹²⁹ McArthur, J.W. and Sachs, J.D., 2001. The growth competitiveness index: measuring technological advancement and the stages of development. The global competitiveness report, 2002, pp.28-51.

tortilishini ta'minlash uchun yaqinroq hamkorlik qilishi kerak. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar jinoyatlar sodir bo'lish tezligini tezlashtirdi, bu qonunning javob berish muddatini jinoiy odil sudlov tizimlarining samaradorligini aniqlashda hal qiluvchi omilga aylantirdi.¹³⁰

Raqamli asrda jinoiy huquqni rivojlantirishning eng yorqin istiqbollardan biri bu kiberjinoyatlarning kuchayishidir. Kiberjinoyatchilar texnologiyaning kuchidan keng qamrovli huquqbuzarliklarni, jumladan, ma'lumotlarni buzish, shaxsni o'g'irlash, onlayn ta'qib qilish va zararli dasturlarni tarqatish uchun foydalangan. Ushbu jinoyatlar nafaqat shaxslar va tashkilotlar uchun katta iqtisodiy va shaxsiy xavf tug'diradi, balki jinoiy faoliyatning an'anaviy ta'riflari va chegaralarini ham shubha ostiga qo'yadi.¹³¹ Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish uchun jinoyat qonunchiligining rivojlanishi raqamli tizimlar va onlayn xatti-harakatlarni chuqur tushunishni talab qiladi. Huquqni muhofaza qilish organlari kiberjinoyatlarni samarali tekshirish uchun maxsus bo'linmalar va sud-tibbiyot vositalaridan foydalanishi kerak. Huquqiy bazalar, shuningdek, turli kiberjinoyatlarning aniq ta'riflarini va potentsial huquqbuzarlarning oldini olish uchun tegishli jazolarni taqdim etishi kerak.¹³²

Raqamli asrda dalillar yangi va juda murakkab shaklga ega bo'ladi. Elektron yozuvlar, ijtimoiy media ma'lumotlari va raqamli aloqalarni o'z ichiga olgan raqamli dalillar jinoiy ishlarda keng tarqalgan. Raqamli dalillarni saqlash, to'plash va taqdim etish huquqiy tizim uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ayblanuvchilarning huquqlarini himoya qilgan holda raqamli dalillarning haqiqiyliги va qabul qilinishini ta'minlaydigan jinoyat qonunchiligini ishlab chiqish juda zarur. Ushbu kontekstda jinoyat huquqining evolyutsiyasi sudyalari, advokatlar va huquqni muhofaza qilish organlaridan so'nggi raqamli sud-tibbiyot usullaridan xabardor bo'lishni talab qiladi. Shuningdek, u raqamli dalillar bilan ishlash va shaxslarning shaxsiy huquqlarini himoya qilish bo'yicha aniq ko'rsatmalarni o'rnatishni talab qiladi.¹³³

Raqamli texnologiya taraqqiyotda davom etar ekan, shaxsiy huquq va shaxsiy daxlsizlikni himoya qilishga ehtiyoj ortib bormoqda. Internetda to'plangan va saqlanadigan juda ko'p shaxsiy ma'lumotlar kuzatuv, ma'lumotlarning buzilishi va suiiste'mol qilish ehtimoli haqida tashvish uyg'otadi. Jinoyat qonunchiligining

¹³⁰ Duncan, G.T. and Pearson, R.W., 1991. Enhancing access to microdata while protecting confidentiality: Prospects for the future. *Statistical Science*, 6(3), pp.219-232.

¹³¹ Held, D. and McGrew, A., 1998. The end of the old order? Globalization and the prospects for world order. *Review of International Studies*, 24(5), pp.219-245.

¹³² Byrne, J. and Marx, G., 2011. Technological innovations in crime prevention and policing. A review of the research on implementation and impact. *Journal of Police Studies*, 20(3), pp.17-40.

¹³³ Longe, O., Ngwa, O., Wada, F., Mbarika, V. and Kvasny, L., 2009. Criminal uses of information & communication technologies in sub-Saharan Africa: trends, concerns and perspectives. *Journal of Information Technology Impact*, 9(3), pp.155-172.

rivojlanishi, ayniqsa, yuzni tanish, biometrik ma'lumotlarni yig'ish va kuzatuv kameralari kabi rivojlanayotgan texnologiyalar oldida shaxslarning shaxsiy huquqlarini himoya qilish uchun kuchli kafolatlarni o'rnatishi kerak. Bundan tashqari, huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan raqamli vositalardan axloqiy foydalanish va bunday vositalardan foydalanishni tartibga soluvchi qonunchilikni ishlab chiqish muhim masalalardan biridir. Jamoat xavfsizligini ta'minlash zarurati va shaxsiy daxlsizlik huquqlarini himoya qilish o'rtasidagi muvozanatni saqlash jinoiy qonunchilikda ehtiyotkorlik bilan harakatlanishi kerak bo'lgan istiqboldir.

Raqamli landshaftning global tabiati jinoyat huquqini rivojlantirishda xalqaro hamkorlik va uyg'unlikni oshirishni talab qiladi. Kiberjinoyatlarga qarshi samarali kurashish va transmilliy jinoiy faoliyatga qarshi kurashish uchun huquqiy tizimlar umumiy standartlar va tartiblarni yaratish uchun birgalikda ishlashi kerak. Ushbu istiqbol axborot almashish, ekstraditsiya va o'zaro huquqiy yordamni osonlashtiradigan xalqaro shartnomalar va bitimlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Raqamli texnologiyalar bilan bog'liq jinoyatlar keltirib chiqaradigan ushbu yangi muammolarni samarali hal qilish uchun jinoyat qonunchiligi texnologik taraqqiyot bilan bir qatorda rivojlanishda davom etishi kerak. Rivojlanishning potentsial yo'llari sifatida bir nechta istiqbollari ajralib turadi:

1. Qonunchilik islohotlari: Butun dunyo bo'ylab hukumatlar kiberjinoyatlarga adekvat javob beradigan va shaxslarning shaxsiy daxlsizligi huquqlarini himoya qiluvchi keng qamrovli qonunlarni qabul qilishlari kerak. Qonunlar texnologiyalarning rivojlanishi bilan moslashish uchun yetarlicha moslashuvchan bo'lishi kerak, lekin Internetda noqonuniy faoliyat nimadan iboratligi haqida aniq ko'rsatmalar berishi kerak.

2. Xalqaro hamkorlik: Kiberjinoyatning chegarasiz tabiatini hisobga olgan holda, unga qarshi samarali kurashish uchun xalqaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Mamlakatlar yurisdiksiyalar bo'ylab harakat qilayotgan jinoyatchilarni kuzatib borish uchun sheriklik o'rnatishi va bir-biri bilan ma'lumot almashishi kerak.

3. Kengaytirilgan raqamli kriminalistika: Jinoiy tergovda raqamli dalillar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, murakkab raqamli sud-tibbiyot usullarini ishlab chiqish juda muhimdir. Huquqni muhofaza qilish idoralari sudda raqamli dalillarni samarali to'plash, tahlil qilish va taqdim etishlarini ta'minlash uchun tadqiqot va o'qitishga sarmoya kiritishlari kerak.

4. Aholining xabardorligini oshirish: aholining kiberjinoyatlar va onlayn xavfsizlik haqida xabardorligini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlari muhim ahamiyatga ega. Alohida shaxslarni potentsial xavflar, oldini olish choralari va

hisobot berish tartib-qoidalari haqida o`rgatish orqali jamiyat raqamli tahdidlarga nisbatan chidamlir oq bo`lishi mumkin.

5. Texnologik innovatsiyalar: Sun`iy intellekt (AI), mashinani o`rganish va blokcheyn kabi ilg`or texnologiyalarni ishlab chiqish kiberjinoyatlarga qarshi kurashda sezilarli darajada yordam berishi mumkin. AI algoritmlari jinoiy xatti-harakatlar modellarini aniqlashda yordam berishi mumkin, blokcheyn texnologiyasi esa raqamli tranzaksiyalarning xavfsizligi va yaxlitligini oshirishi mumkin.

XULOSA

Raqamli texnologiyalar asrida harakatlanar ekanmiz, jinoyat qonunchiligi jinoyatning paydo bo`lgan shakllariga qarshi samarali kurashish uchun moslashishi kerak. Qonunchilikdagi islohotlar, xalqaro hamkorlik, rivojlangan raqamli sud ekspertizasi, aholining xabardorligini oshirish va texnologik innovatsiyalar – bularning barchasi yangi davrda jinoyat huquqini rivojlantirishning muhim istiqbolidir. Ushbu imkoniyatlardan foydalanish va raqamli texnologiyalar bilan bog`liq jinoyatlar bilan bog`liq muammolarni faol hal qilish orqali bizning huquqiy tizimlarimiz doimo rivojlanib borayotgan texnologik landshaftda adolat va xavfsizlikni saqlashga intilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Jones, R., 2017. Digital rule: punishment, control and technology. In *Surveillance, Crime and Social Control* (pp. 519-536). Routledge;
2. Solove, D.J., 2004. *The digital person: Technology and privacy in the information age* (Vol. 1). NyU Press;
3. McArthur, J.W. and Sachs, J.D., 2001. The growth competitiveness index: measuring technological advancement and the stages of development. *The global competitiveness report, 2002*, pp.28-51;
4. Duncan, G.T. and Pearson, R.W., 1991. Enhancing access to microdata while protecting confidentiality: Prospects for the future. *Statistical Science*, 6(3), pp.219-232;
5. Held, D. and McGrew, A., 1998. The end of the old order? Globalization and the prospects for world order. *Review of International Studies*, 24(5), pp.219-245;
6. Byrne, J. and Marx, G., 2011. Technological innovations in crime prevention and policing. A review of the research on implementation and impact. *Journal of Police Studies*, 20(3), pp.17-40;
7. Longe, O., Ngwa, O., Wada, F., Mbarika, V. and Kvasny, L., 2009. Criminal uses of information & communication technologies in sub-Saharan Africa: trends, concerns and perspectives. *Journal of Information Technology Impact*, 9(3), pp.155-172.

UCHINCHI RENESSANS FUQAROLIK JAMIYATIDA MAJBURIYATLARNING AYRIM TURLARI



<https://doi.org/>

Erkinjonov Farruxbek Niyozmurod o'g'li

Mo'minjonova Ozoda Madaminjon qizi

Toshkent davlat transport universiteti

Yuristprudensiya (xalqaro transport huquqi) yo'nalish talabalari

Soliyev Dilshod

Amaliy rahbar: Xalqaro ommaviy huquq kafedrası katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola uchinchi renesans fuqarolik jamiyatida majburiyatlarning ayrim turlarining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan huquqbuzarlik faktini, javobgarlik chorasini (turi va miqdori) aniqlash, javobgarlik chorasini qo'llash bilan bog'liq masalalar ochib berilgan. Shuningdek, maqolada fuqarolik-huquqiy javobgarlikni cheklash bilan bog'liq muammolar, shuningdek javobgarlikdan ozod qilish haqida fikr yuritilgan.

Bundan tashqari maqolada fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasini qo'llash bog'liq muammolar sud amaliyotdan misollar keltirish orqali ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: *Uchinchi renesans, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, kompensatsiya, neustoyka, penya, zararni qoplash, ma'naviy ziyonni qoplash, ayb, cheklangan javobgarlik.*

ABSTRACT

This article reveals the specific features of certain types of obligations in the civil society of the third renaissance, including the issues related to the determination of the fact of violation, the measure of responsibility (type and amount), and the application of the measure of responsibility. Also, the article discusses the problems related to the limitation of civil liability, as well as the exemption from liability.

In addition, the article tried to reveal the problems related to the application of civil liability measures by giving examples from judicial practice.

Key words: *Third renaissance, civil liability, compensation, neustopia, penalty, damages, moral damages, fault, limited liability.*

KIRISH

Shuni ta'kidlash kerakki, fuqarolik huquqi sohasi tarkibida javobgarlik instituti alohida o'rin tutadi. U himoya qiluvchi xususiyatga ega bo'lib, fuqarolik huquqi normalarining aksariyat qismini o'zida mujassam etadi. Ushbu institutning normalari fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining buzilgan huquqlarini tiklash va ularni sudda himoya qilish bo'yicha tarmoq huquqiy tamoyillarining ishlashini ta'minlaydi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1-moddasi). Huquq va majburiyatlarni belgilovchi, tartibga soluvchi normalarni amalga oshirish bilan bog'liq muammolar, qoida tariqasida, ular buzilgan paytda yoki javobgarlik choralarni qo'llash zaruriyatini hal qilishda yuzaga keladi. Ko'plab sud nizolari buzilgan huquqlarni himoya qilish uchun javobgarlikka tortish yoki boshqa choralarni qo'llash to'g'risidagi ishlarni ko'rish jarayonida vujudga keladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuridik javobgarlikning har qanday chorasini, shu jumladan fuqarolik huquqini amalga oshirish uchta asosiy bosqichdan o'tadi.

Birinchisi, huquqbuzarlik faktini aniqlash va uning kvalifikatsiyasi (asoslari, javobgarlik shartlari, xatti-harakatlarning noqonuniyligini istisno qiladigan holatlar) bilan bog'liq.

Ikkinchi bosqichda javobgarlik chorasi (jazoning turi va miqdori) aniqlanadi.

Uchinchi bosqich esa yuridik javobgarlik chorasini bevosita tayinlash (qo'llash) jarayonini o'z ichiga oladi .

Umuman olganda fuqarolik-huquqiy javobgarlik instituti ushbu bosqichlarning har birini tartibga soluvchi uchta kichik institutni o'z ichiga olishi kerak.

Javobgarlik chorasini qo'llash to'g'risidagi masalalar huquqbuzarlik fakti aniqlangandagina yuzaga keladi. Bunda huquqbuzarlik sodir etgan shaxs aniqlanadi, huquqbuzarlik tarkibi (javobgarlik shartlari), javobgarlik turi tanlandi. Misol uchun, fuqaro Farhodov (huquqbuzar) o'zining avtomobilida boshqa bir fuqaro Normatovaning avtomobili bilan to'qnashdi (huquqbuzarlik – huquqqa xilof harakat). Mazkur holatda fuqaro Farhodov aybdor deb topilsa, unga fuqaro Normatovaga yetkazilgan zararni qoplash (javobgarlik chorasi, sanksiya) chorasi qo'llanilishi mumkin.

Shu bilan birga sanksiyani qo'llash bosqichida javobgarlikning aniq miqdorini aniqlash, javobgarlikdan ozod qilish uchun asoslar mavjudligini tekshirish kerak.

Ushbu subinstitut avval tayinlangan javobgarlik chorasidan (javobgarlik qo'llanilgandan keyin) ozod qilish masalalarini ham tartibga soladi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik miqdorini aniqlash.

Fuqarolik muomalasida huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladigan sanksiyalar odatda ikki guruhga bo'linadi: javobgarlik choralari va himoya choralari. Agar ushbu sanksiyani qo'llash natijasida huquqbuzar qo'shimcha mulkiy majburiyatga ega bo'lsa, bunday sanksiya javobgarlik chorasini hisoblanadi. Bunday holda, javobgarlik choralari kompensatsiya yoki jarima xarakteriga ega bo'lishi mumkin.

Ushbu holatda kompensatsiya choralari: • zararni qoplash;

• ma'naviy ziyonni qoplash;

• intellektual faoliyat natijalariga nisbatan mutlaq huquqlarni buzganlik uchun ziyonni qoplash ko'rinishiga ega bo'lishi mumkin. Jarima esa:

neustoyka to'lash;

boshqa shaxslarning pullaridan foydalanish uchun foizlarni to'lash;

zakladni qaytarish yoki zakladni ikki baravar qaytarish;

bir tomonlama restitutsiya va restitutsiyaning oldini olish;

intellektual faoliyat natijalari bo'yicha mutlaq huquqlarni buzish uchun ishlatiladigan yoki amalga oshiriladigan asbob-uskunalar, boshqa qurilmalar va materiallarni buzish hisobiga olib qo'yish va yo'q qilish;

noqonuniy ravishda ishlatilgan tovar belgisi yoki unga o'xshash bo'lgan tovar belgilarini aralashtirish darajasiga qadar kontrafakt tovarlarni muomaladan chiqarish va yo'q qilish ko'rinishida namoyon bo'ladi .

Javobgarlik miqdorini aniqlashda bir qator omillarni hisobga olish kerak. Javobgarlikning kompensatsiya choralari miqdori yetkazilgan zararli oqibatlarining to'liq qoplanishi tamoyiliga asoslanadi. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki alohida huquqbuzarlik uchun tegishli moddaning sanksiyasida cheklanishi mumkin.

Misol uchun Fuqarolik kodeksining 332-moddasiga ko'ra majburiyatlarning ayrim turlari bo'yicha hamda muayyan faoliyat turi bilan bog'liq majburiyatlar bo'yicha qonunda zararni to'la qoplashga bo'lgan huquq cheklab qo'yilishi mumkin (cheklangan javobgarlik)³. Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasida aynan shunday holatni ko'rishimiz mumkin. Ya'ni ijrochi haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasini umuman yoki tegishli darajada bajarmagan hollarda u keltirilgan zararni buyurtmachiga batamom to'lashi shart, lekin bu to'lov shartnomada nazarda tutilgan xizmatlar bahosining ikki baravaridan ortiq bo'lishi mumkin emas⁴.

Shuningdek quyidagi holatlarda javobgarlik hajmi cheklanadi:

Energiya ta'minoti shartnomasi bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda, energiya bilan ta'minlovchi tashkilot shu tufayli yetkazilgan zararning, abonent esa yetkazilgan haqiqiy zararning o'rnini qoplashi shart (FK 477-m).

hadya shartnomasi yozma shaklda tuzilgan bo'lsa, hadya qiluvchi hadya oluvchidan hadyani olishni rad etishi oqibatida yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilishga haqli (FK 503-m).

Agar ssuda beruvchi ashyoni ssuda oluvchiga bermasa, ssuda oluvchi shartnomani bekor qilish va yetkazilgan haqiqiy zararining o'rnini qoplashni talab qilishga haqli (FK 620-m).

Topshiriqsiz qilingan harakatlardan manfaatdor bo'lgan shaxs uning manfaatlarini ko'zlab ish olib borgan shaxsga zarur xarajatlarni va boshqa haqiqiy zararni qoplashi shart (FK 820-m).

Lotereyalar tashkilotchisi ularni belgilangan muddatda o'tkazishdan bosh tortgan taqdirda, lotereyalar ishtirokchilari ularning tashkilotchisidan lotereyalarni qoldirish yoki ularning muddatini boshqa vaqtga ko'chirish tufayli yetkazilgan haqiqiy zararining o'rnini qoplashni talab qilishga haqli (FK 984-m).

merosxo'rlarning har biri o'ziga tekkan mol-mulkning qiymati doirasida javobgar bo'lari (FK 1156-m). Shuni aytish kerakki, fuqarolik huquqida bunday cheklangan javobgarlik choralari ko'plab keltirish mumkin.

Shuni ham aytish kerakki, fuqarolik huquqida javobgarlikni yengillashtiradigan va natijada javobgarlik miqdoriga ta'sir qiluvchi holatlarning umumiy huquqiy instituti elementlari mavjud. Xususan:

birinchidan, jabrlanuvchining aybi. Zarar yetgan shaxs qo'pol ehtiyotsizligi tufayli zararining yuzaga kelishiga yoki ortishiga ko'maklashgan bo'lsa, unda jabrlanuvchining va zarar yetkazuvchining aybi darajasiga qarab tovon miqdori kamaytirilishi lozim (FK 1004-m). Shuningdek, kreditor qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli majburiyatni bajarish mumkin bo'lmasligi yuz berishiga yoki bajarmaslik tufayli yetkazilgan zarar miqdorining ko'payishiga ko'maklashgan bo'lsa, shuningdek kreditor majburiyatni bajarmaslikdan yetkazilgan zararni kamaytirish choralari qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli ko'rmagan bo'lsa, sud ishning holatlariga qarab to'lanadigan haq miqdorini kamaytirishga yoki kreditorga haq to'lashni batamom rad etishga haqli (FK 335-m). Professional omonat saqlovchi saqlanayotgan ashyoning yo'qolganligi, kam chiqqanligi yoki shikastlanganligi yuk topshiruvchining qasddan qilganligi yoki qo'pol ehtiyotsizligi natijasida yuz berganligini isbotlamasa javobgar bo'ladi (FK 889-m).

ikkinchidan, huquqbuzarning mulkiy holati. Sud taraflarning mulkiy ahvolini, shuningdek boshqa holatlarni inobatga olib, zararni to'liq yoki qisman zarar yetkazuvchining o'z mol-mulki hisobidan qoplash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli (FK 993-m).

Bu holatlar fuqarolik huquqida tizimsiz, nomuvofiq, tartibsiz va umuman olganda, faqat ayrim huquqbuzarliklar va javobgarlik turlariga nisbatan “yig’ilgan”ligini ko’rish mumkin.

Jabrlanuvchining mulkiy holati nima uchun delikt javobgarligining kamayishiga ta’sir qilgani holda, shartnomaviy javobgarligi miqdoriga ta’sir ko’rsatmaydi. Bunda ya’ni shartnomaviy javobgarlikda majburiyatni buzish oqibatlariga javobgarlik miqdorining aniq nomutanosibligi faqat neustoykani kamaytirish uchun asos bo’lib xizmat qiladi, lekin javobgarlikning boshqa jazo choralari qo’llanilmaydi.

Bizningcha, bunday konstruksiyada texnik va huquqiy xatolikni ko’rsatish kerak. Ya’ni zarar ayb (qasd yoki ehtiyotsizlik) bilan emas, balki shaxsning qilmishi, xattiharakati tufayli yuzaga keladi. Shuning uchun, agar zarar jabrlanuvchining o’zining xatti-harakati (qasddan qilmishi) natijasida yetkazilgan bo’lsa, to’g’ridan-to’g’ri huquqbuzarning qilmishining qonunga xilofligi istisno qilinadi. Boshqacha aytganda, zarar jabrlanuvchining xatti-harakati natijasida yetkazilgan bo’lsa, unda zarar yetkazuvchini javobgarlikdan ozod qilish mumkin bo’ladi. Shuningdek, qo’pol beparvolik zararining paydo bo’lishiga yordam bera olmaydi, chunki faqat xattiharakatlar zararining paydo bo’lishiga yordam beradi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikdan ozod qilish. Yuridik javobgarlikning har qanday turini qo’llashda javobgarlikdan ozod qilish uchun asoslar aniqlanishi lozim bo’ladi. Javobgarlikdan ozod qilishning umumiy huquqiy asoslari da’vo muddatining o’tishi, ahamiyatsizligi, jabrlanuvchi bilan yarashishidir. Aslida, bu huquqbuzarga nisbatan davlat tomonidan insonparvarlik harakatidir, biroq u u baribir qonun qoidalari bilan taqiqlangan qilmishni sodir etgan huquqbuzar bo’lib qoladi.

Shu bilan birga, fuqarolik nazariyasida fuqarolik-huquqiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi umumiy huquqiy yondashuvga zid sanaladi.

Shaxs fuqarolik-huquqiy javobgarlikdan agar uning xatti-harakatida javobgarlik shartlarining zaruriy to’plami (huquqbuzarlik tarkibi) bo’lmasa ozod qilinadi, Fuqarolik-huquqiy javobgarlikdan ozod qilishning an’anaviy asoslari – bu yengib bo’lmas kuch va hodisalar, jabrlanuvchining niyati hisoblanadi. Misol uchun jabrlanuvchi o’z joniga qasd qilish maqsadida o’zini poyezd ostiga tashlasa, mashinist javobgarlikdan ozod bo’ladi.

“Javobgarlikdan ozod qilish” atamasining leksik va mantiqiy tahlilini inobatga olgan holda, avvalo javobgarlikka tortish, keyin esa undan ozod qilish uchun normativ imkoniyatga ega bo’lish zarur, bunda faqat huquqbuzar javobgarlikka tortilishi mumkin. Yuqoridagi misolda fuqarolik qonunchiligi mashinistni huquqbuzar deb e’lon qiladi, so’ngra uni javobgarlikdan ozod qiladi, lekin ayni paytda huquqbuzarning stigmasi uning ustida qoladi.

Fuqarolik huquqbuzarlik tarkibining biron bir elementi bo'lmagan taqdirda, javobgarlikdan ozod qilish emas, balki javobgarlikni istisno qilish haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu bilan birga, bunda javobgarlikni qo'llash masalasini qo'yish ham ma'nosiz bo'ladi. Bizningcha, fuqarolik-huquqiy javobgarligidan ozod qilish uchun asoslar yengib bo'lmas kuch (fors-major), nizo tarafining tegishli arizasi bilan da'vo muddatining o'tishi, kreditorning qarzdin voz kechishi, huquqbuzarlikning juda kam ahamiyatligi ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Garchi da'vo muddati va qarzdin voz kechish fuqarolik huquqida uzoq vaqtdan beri ma'lum bo'lsa-da, unga javobgarlikdan ozod qilish sifatida qaralmaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, agar garov bilan ta'minlangan majburiyatning qarzdor tomonidan buzilishi juda arzimas bo'lsa va shu tufayli garovga oluvchining talablarining miqdori garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatiga mutlaqo mos kelmasa, undiruvni garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratishni rad etish mumkin.

Biz yuqorida fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llash haqida nazariy adabiyotlarni tahlil qilib o'tdik. Endi esa ushbu masalada sud amaliyotiga murojaat qilgan holda sudlar tomonidan fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llash to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqamiz.

Iqtisodiy ishlar bo'yicha Toshkent tumanlararo sudining 2022-yil 5-apreldagi 42302-2203/470-sonli ishida da'vogar "Qoraqalpoq Agrokimyo" AJ javobgar "Qumbosqan" fermer xo'jaligidan 9 446 900 so'm asosiy qarz va 4 723 450 so'm penya undirishni so'ragan.

Sud ishni ko'rishda taraflar o'rtasida imzolangan shartnoma, topshirish-qabul qilish dalolatnomasi, solishtirma dalolatnomaga asosan asosiy qarzni undirishni lozim topgan.

Biroq penya masalasiga kelganda sud FK 333-moddasi hamda Oliy xo'jalik sudi Plenumining 15.06.2007-yildagi "Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 163-son qaroriga asosan penya undirish masalasini ko'rgan. Biroq sud ishni ko'rishda javobgarning aybi bor yoki yo'qli, aybning darajasi (qasd yoki qo'pol ehtiyotsizlik) masalasini to'liq o'rganmagan. Shuningdek, sud ushbu masalada Fk 326-moddasi hamda 163-son OSPQning 4bandiga asoslangan holda penya miqdorini kamaytirgan. Lekin bunda aynan qanday sabablar va asoslarga muvofiq bunday qaror qabul qilgani mavhum qolgan. Bunda sud javobgarlik mulkiy holatini, bajarilmagan majburiyatda uning ayblilik darajasini, bajarilmagan majburiyatning kelib chiqqan huquqiy oqibatga qanchalik mutanosib ekanini tahlil qilmagan.

Bundan ko'rishimiz mumkinki, yuqoridagi ishda sud fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llashning asoslari va shartlariga yetarlicha e'tibor bermagan. Bu esa o'z navbatida fuqarolik huquqining asosiy mezonlari bo'lgan halollik, oqillik va adolatlilik mezonlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, Samarqand shahar iqtisodiy sudining 2022-yil 1-apreldagi 4-1401-2201/227-sonli ishida da'vogar «Samarqand Serene Pharma» mas'uliyati cheklangan jamiyatining javobgar «Farm House» xususiy korxonasidan 4 979 422,93 so'm asosiy karz, 1 951 933,79 so'm penyani undirishni so'ragan.

Ishdagi hujjatlaridan va sud jarayonida aniqlangan holatlardan ma'lum bo'lishicha, «Samarqand Serene Pharma» mas'uliyati cheklangan jamiyati (sotuvchi) va javobgar «Farm House» xususiy korxonasi (sotib oluvchi) o'rtasida 2021 yil 29 iyunda 702-sonli mahsulot yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzilgan. Sotuvchi tomonidan sotib oluvchiga jami 6 644 422,93 so'mlik mahsulotlar yetkazib berilgan. Yetkazib berilgan mahsulotlar 2021 yil 3 noyabrdagi 5967-sonli schot-faktura va 83sonli ishonchnoma asosida asosida qabul qilib olingan.

Mahsulotlar haqi sotib oluvchi tomonidan to'liq to'lab berilmagan. Yetkazib berilgan mahsulotlar hisobidan javobgarning da'vogar oldida 4 979 422,93 so'm qarzdorligi yuzaga kelgan. Da'vogar tomonidan javobgar 4 979 422,93 so'm qarzdorlikni to'lab berishi to'g'risida ogohlantirilgan. Javobgar tomonidan qarzdorlik to'lab berilmagan.

Ushbu vaziyatda ham sud fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalasini qo'llash masalasida muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yganini ko'rishimiz mumkin. Xususan da'vogar 1 951 933,79 so'm penyani undirishni so'ragan. Biroq sud FK 326-moddasi hamda 163-son OSPQni qo'llagan holda 390 386 so'm penyani undirishni lozim topgan. E'tiborli jihati sud nima uchun neustoyning miqdorini bu darajada kamaytirgani haqida umuman tushuntirish bermagan. Sud ishni ko'rishda majburiyatni qay darajada bajarganligi, majburiyatda ishtirok etayotgan taraflarning mulkiy ahvoli, kreditorning manfaatlari qay darajada ekanligini e'tiborga olmagan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, majburiyatni bajarmaganlik uchun qo'llaniladigan fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralarni qo'llash har doim muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Bunday ishlarni ko'rishda sudlar fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortish asoslari va shartlarini to'laqonli tahlil qilishi, shu bilan birgalikda cheklangan javobgarlik institutini qo'llashda, neustoyka miqdorini kamaytirishda taraflar o'rtasida tuzilgan shartnomani, qonun hujjatlarini va ikki tarafning mulkiy holati va manfaatlarni hisobga olishi zarur deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. –T.: Adolat, 2016. – 559-bet.
2. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. I.B.Zokirov; Qayta ishlangan va to'ldirilgan beshinchi nashr. –T.: TDYUI nashriyoti, 2009. 529-bet.
3. H.Rahmonqulov. Majburiyat huquqi (umumiy qoidalar). –T.: TDYI nashriyoti, 2009-y, 316 bet.
4. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism/ Mualliflar jamoasi –T.: TDYU nashriyoti, 2016. 209-bet.
5. Кузнецова О. А. Применение мер гражданско-правовой ответственности // Вестник Пермского университета. Юридические науки. 2012. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/primeneniye-mer-grazhdansko-pravovoyotvetstvennosti> (дата обращения: 23.04.2022).
6. Imomniyozov, D. B. O. G. L., & Atalikova, G. S. (2022). INGLIZ VA MILLIY HUQUQIMIZDA SHARTNOMAVIY JAVOBGARLIKNING ASOSLARI. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(2), 84-95.
7. Имомов, Н. (2020). АНАЛИЗ НОВЫХ ПОДХОДОВ К ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫМ СРЕДСТВАМ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПО ЗАЙМОВЫМ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ. *Review of law sciences*, (3), 39-45.
8. Topildiev, B., & Khursanov, R. (2021). Legal fact based on occurrence civil rights and obligations. *Ilkogretim Online*, 20(3).
9. Раҳимжонов, А. Б. Ў. (2022). КЎЧМАС МУЛКНИ СОТИШ ШАРТНОМАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 1041-1049.

SAMARQANDDA MADRASA TA'LIMI

M.J. Xasanova

Samarqand davlat universiteti

Mumtoz adabiyot tarixi kafedrası dotsenti

ikaroy84@mail.ru

ANNOTATSIYA

O'zbekiston dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan allomayu fozillarni, shoirlarni tarbiyalab, ilmu urfon o'rgatib, jahonga taqdim etgan diyor sanaladi. Ming yillar davomida mavjud bo'lgan jamiyat qanday tarzda bo'lmasin ta'lim-tarbiya tizimisiz bo'lmagan. Uning o'ziga xos xususiyatlari, muassasalari, ta'lim-tarbiya dasturi, o'quv-qo'llanma va darsliklari, o'qish jarayoni qonun-qoidalari, o'qituvchilar, mudarrislar va ular oldiga qo'yiladigan talablar, o'qitish uslubiyati, o'quvchilarni imtihon qilish, o'qituvchi-mudarrislarining attestatsiyasi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish kabi qator masalalar bo'lgan. Ushbu maqolada ham Samarqand davlat universitetining ildizi – Ulug'bek madrasayi oliyasi, Samarqanddagi madrasalar tarixi haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari unda ushbu madrasalarda faoliyat ko'rsatgan mudarrislar, tahsil olgan mashhur shaxslar haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *Temuriylar, madrasa, madrasayi oliya, Samarqand, Jomiy, "Funun ul-balog'a", mudarris, pir, ikkinchi Abu Ali (ibn) Sino, yer kurrasi, xarita, ilmi maoniy, ilmi bayon, ilmi bade', ommaviy dars va bahs-munozaralar, Registon maydoni, ijozatnoma – diplom berilganligi, jahon standartlariga mos sifatli ta'lim beruvchi markaz*

ABSTRACT

Uzbekistan is considered a country that brought up scholars, poets, and taught science and art and presented it to the world. The society that has existed for thousands of years has not been without an educational system in any way. Its characteristics, institutions, educational program, training manuals and textbooks, laws and regulations of the study process, teachers, teachers and their requirements, teaching methodology, student examination, certification of teachers-teachers, their material and moral encouragement. There were a number of issues. In this article, the root of Samarkand State University - Ulugbek madrasa, and the history of madrasas in Samarkand are discussed. In addition, it contains information about the teachers who worked in these madrasahs and famous people who studied there.

Key words: *Timurids, madrasa, madrasay aliya, Samarkand, Jami, "Funun ul-Balogha", mudarris, pir, second Abu Ali (ibn) Sina, globe, map, ilmi maoniy, ilmi*

bayan, ilmi bade', public lessons and debates, Registan square, permit - diploma award, quality education center in line with world standards

KIRISH

XV asrda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fan, adabiyot, san'at va madaniyatning keng taraqqiy etishi tasodifiy bir hol emas edi. Chunki, Amir Temur tomonidan asos solingan temuriylar davlatining poytaxti Samarqandga dunyoga mashhur olimlar, o'z kasbining mohir usta va naqqoshlari, shoir va xattotlari yig'ildi hamda keyingi davrlar uchun ham bu manba vazifasini o'tadi. Shuning uchun ham Samarqandda ilm, san'at va adabiyot sohalarining eng mashhur namoyandalari etishib chiqdi. Bunda Amir Temur, Shohrux Mirzo va Ulug'bek Mirzolarning o'rni beqiyosdir.

“Temur davriga kelib Samarqand olimlar maskaniga aylanishi bilan madrasalarning vazifalari ham kengaya borib, ular yuqori saviyali ilm-fan muassasalariga aylana bordi. Ushbu olimlarning ko'pchiligi, ayni paytda, Temur davrida va Temurdan oldin barpo etilgan va obod holga keltirilgan Samarqand madrasalarida talabalarga ta'lim berar edilar...Temur davrida qurilgan va obod etilib faoliyati ijobiy yo'lga qo'yilgan madrasalar masalasiga kelsak faqat birgina Samarqandning o'zida ularning soni o'nga yaqin edi. Temurning suyukli nabirasi Muhammad Sulton madrasasi, Bibixonim madrasasi, Feruzshoh madrasasi, Idiku Temur madrasasi, Amir Shohmalik madrasasi, Qutbiddin Sadr madrasasi va boshqalar shular jumlasidan edi¹³⁴.

Bu davrda yashagan mashhur tarixchi olim Ibn Arabshoh Idiku Temur madrasasida Sayyid Sharif Muhammad Jurjoniy va Shamsuddin Muhammad al Jazariy kabi mashhur olimlardan ta'lim olganligi haqida ma'lumotlar bor¹³⁵. Manbalarda mashhur shoir Sayid Qosim Anvor 1428 yilda Samarqandga kelganida Amir Shohmalik madrasasida, Abdurahmon Jomiy esa 1436-1451 yillar Ulug'bek madrasasi hujrasida, xoja Ubaydulloh - xoja Ahrori Vali esa 1427-1428 yillarda mavlono Qutbiddin Sadr madrasasi hujrasida, Alisher Navoiy a'lam ul-ulamolar xoja Fazlulloh Abulaysiydan saboq olish niyati bilan olimning xonaqohidan hujra olib yashaganligi, ilm olganligi ma'lum.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XV asrda Samarqandda ilm-fan, xususan, matematika va astronomiya taraqqiy etgan ekan, bunda, albatta, Ulug'bek Mirzoning xizmati katta edi. Manbalarda Ulug'bekning adiblar hamda badiiy adabiyotga munosabati haqida ham muhim

¹³⁴ <https://mininnovation.uz/oz/news/1920>

¹³⁵ Ибн Арабшох. Ажойб ал мақдур фи тарихи Таймур. 1-китоб. Т.: Меҳнат. 1992 й. 11-б.

malumotlar mavjud. Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro» asarida keltirilishicha, «Ammo magʻfur sulton saʼid, shahid Ulugʻbek Koʻragon, (qabri (hamisha) ravon boʻlsin) podshohi olam, odil, gʻolib va sohibi himmat edi. Ilmda oliy martabaga erishdi. Maoniyda moʻyni (ham) teshar edi. Uning zamonida ulamoning darajasi koʻtarildi va fuzalo zoʻr martabaga erishdi. (Mirzo Ulugʻbek) xandasa¹³⁶da, daqoyiq namo, hayʼat ilmi¹³⁷ masalalarida Majastiy¹³⁸ kusho edi. Hukamo va fuzalo ittifoqdirlarki, islomiyat davrida, balki, (Iskandar) Zulqarnaynning zamonidan shu davrgacha, ilmi hikmat¹³⁹da Ulugʻbek Koʻragunday podshoh saltanat taxtida qaror topgan emasdur»¹⁴⁰. Shayx Ahmad Taroziy esa oʻzining «Funun ul-balogʻa» asari muqaddimasida "Ul saltanat daryosining gavhari va madilat konining javhari, saxovat boronining abri va shijoat beshasining babri, farosat sipehrining mohi, kayosat mamlakatining shohi, shahanshohi azam, shahriyori alam, sohibus sayf va-l qalam, farmondehi turku arabu ajam, magʻisiddin va-d davron amir Ulugʻbek Koʻragon", - deydi¹⁴¹.

Ulugʻbek mirzo nafaqat, oʻzi ilm bilan shugʻullandi, balki boshqalarning ilmli boʻlishi, millatning taraqqiyoti uchun ham qaygʻurdiki, buni u qurdirgan madrasalar uzoq moziydan soʻzlab turibdi. Bu madrasada Mavlono Muhammad Xavofiy, Qozizoda Rumi, Gʻiyosuddin Jamshid, Muʼiniddin Koshiy, Ali Qushchi, Xoja Xurdlar qatori Shayx Ahmad Taroziy ham mudarris boʻlib ishlagan boʻlishi mumkin. Chunki, «Funun ul-balogʻa»da shunday fikrlarni beradi:

«Azza va Jalla hamdidin va Rasul alayhissalom naʼtidin soʻng SHayx Ahmad bin Xudoydod Taroziy rafaʼallohu qadrahu fid-doraynkim, bu imoratning muhandisi va bu iboratning mudarrisidir (yaʼni, bu imorat – «Funun ul-balogʻa», bu iborat – kitobda koʻtarilgan masala, sheʼriyat ilmining mudarrisidir – *maqola muallifi*)»¹⁴².

Yana bir mudarris Xoja Xurd haqida A.Navoiy «Majolis un-nafois»da «Samarqand taxtining yakqalama qozisi va «Ulugʻbek Mirzo» madrasasining mudarrisidir. Bovujudi fazlu kamolu aql va donish hulyasi bila orastadur va bovujudi zuhdi taqvo, husni axloq zevari bila piyrostadur. Muncha mashogʻil va avoriz bila chun lutfi tabʼi gʻolibdur, nazm va insho va tarix va muammo fununida ham ishtigʻol koʻrguzur...»¹⁴³, - deb yozadi. Bulardan anglashimiz mumkinki, madrasada adabiyot ilmi ham alohida fan sifatida talabalarga oʻrgatilgan. Hatto tahsil uchun Samarqandga

¹³⁶ Геометрия

¹³⁷ Астрономия

¹³⁸ Птоломей Клавдий

¹³⁹ Физика

¹⁴⁰ Аҳмедов Б. Давлатшоҳ Самарқандий, Т.: Фан, 1967. 57-69-б

¹⁴¹ Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002, №1. 3-б

¹⁴² Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002, №1. 5-б.

¹⁴³ А.Navoiy. Majolis un-nafois. 20 tomlik. 13-tom, 86-б.

kelgan Abdurahmon Jomiy ham bu yerda ma'lum vaqt mudarrislik qilganligi haqida ma'lumotlar uchraydi:

Mavlono Jomiy tahsilini "Hirotdagi «Nizomiya» va «Dilkash» madrasalarida davom ettiradi. Bu madrasalarda u zamonasining eng donishmand allomalaridan bo'lgan Sa'diddin Taftazoniyning (1322-1389) shogirdi mavlono Shamsiddin Muhammad Jojarmiy hamda Mir Sayid Sharif Jurjoniyning (1339-1413) shogirdi mavlono Alouddin Xoja Ali Samarqandiylardan ta'lim olib, har sohada etuk bo'lib talabchan ustozlarining maqtoovlariga sazovor bo'ladi. SHunday bo'lsa-da, qo'lga kiritgan bilimlar bilan qanoatlanib qolmay, o'sha vaqtlarda dovrug'i SHarqda taralgan Ulug'bek mirzo madrasai oliyasida ta'limni davom ettirish uchun 1436 yilda Samarqandga keladi. Bu vaqtda alloma Qozizoda Rumiyy (1360-1437-38), G'iyosiddin Jamshed (vaf.1436), Ali Qushchi (1402-1474) va boshqalarning, aytishlaricha, Ulug'bek mirzoning ham darslarini eshitishga muyassar bo'ladi, a'lam ul-ulamolar Xoja Fazlulloh Samarqandiyning (vaf. taxm. 1470) suhbat va maslahatlaridan bahramand bo'lib, ustozlarning sevimli shogirdi va hammaslagiga aylandi. Shundan-da, madrasani tugatgach, Mirzo Ulug'bek madrasai oliyasi mudarrisi sifatida 1452 yilgacha faoliyat ko'rsatadi¹⁴⁴.

Jomiy Naqshbandiya tariqatining buzurg murshidlaridan. Uning tariqatdagi ilk ustozlari Sa'diddin Qoshg'ariy, ikkinchisi Xoja Ahrori Valiy edi. Hayoti davomida Jomiy yetti marta safar qilganligi ma'lum. Shundan uchtasi Samarqandga qilgan safarlaridir. U birinchi marta ilm olish uchun bu yerga kelgan bo'lsa, ikkinchi va uchinchi safarlarida piri murshid Xoja Ahrori Vali suhbatlariga yetishish uchun kelgan. "Majolis un-nafoyis"da Navoiy Mavlono Husayn Voizning o'g'li darveshvash va foniy sifat va dardmand sheva yigit Mavlono Safiyning ham Samarqandga Hazrat Xoja Ubaydulloh Ahror suhbatiga musharraf bo'lish uchun kelganligini yozgan¹⁴⁵.

Bu yerda tolibi ilmlarni o'ziga chorlagan pirlardan yana biri "...fiqh va boshqa sohalaridagi katta bilimi tufayli ikkinchi Abu Ali (ibn) Sino laqabini olgan, foydali ilmlar xazinasi bo'lmish janobi Xoja Fazlulloh Abullaysiy (Alloh uni rahmatiga olgan bo'lsin)" edi. Xondamir Alisher Navoiy Fazlulloh Abullaysiy xonaqohidan hujra olib joylashgani va munosib ilm olganini yozadi¹⁴⁶. Navoiyning o'zi ham "Majolis"da "Faqir ikki yil ularning qoshida sabaq o'qub erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, «farzand» der erdilar. Bovujudkim, Samarqandning a'lami ulamosi erdi...", - deb yozgan.

¹⁴⁴ <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/botirxon-valixojayev-alisher-navoiy-davri-1.html>

¹⁴⁵ A.Navoiy. Majolis un-nafoyis. 20 tomlik. 13-tom, 71-bet

¹⁴⁶ Xondamir. Makorim ul-axloq. G'. Gulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. Toshkent-2015. 30-31-betlar

Alisher Navoiy asarlariga nazar tashlasak, o'zi Samarqandda yashab turgan vaqtda bu yerda mavjud bo'lgan ko'pgina madrasalarni ko'rgan, u madrasalardagi qobiliyatli tolibi ilmlar bilan ham tanishgan. Shuning natijasida Alisher Navoiy Ulug'bek madrasasining mudarrislaridan A'loyi Shoshiy, mirzo Ulug'bek va Qozizoda Rumiylar ta'limini olgan Muhammad Olim Samarqandiy, mavlono Xoja Xurdlardan ham saboq olgan; Ahmad Hojibek Vafoiy qurdirgan madrasa, mavlono Qutbiddin sadr madrasasi, Amir Shohmalik madrasasi, Firuzshoh madrasasi, Bibixonim madrasalarida ta'lim oluvchi tolibi ilmlar bilan tanishgan, ularning ilmiy bahslarida qatnashgan. Samarqandning o'sha davrdagi adabiy muhiti vakillari Ahmad Hojibek Vafoiy, Harimiy Qalandar, mavlono Mir Qarshiy, Javhariy, Xovariy, Riyoziy, Safoiy, Yusuf Badiiy, mirzo Hoji Sug'diy, Mirzobek kabi turli kasb, ijtimoiy guruhga mansub shoiru adiblar bilan yaqin ijodiy munosabatda bo'lib, ularning mushoiralarida qatnashgan va bu jarayon Navoiy asarlariga ko'chgan. Alisher Navoiy keyinchalik yozgan asarlarida Samarqand va samarqandliklarni o'zgacha mehr va iftixor bilan tilga oladi.

Samarqand keyingi asrlarda ham oliy o'quv maskani sifatida tolibi ilmlarni o'ziga chorlab keldi. Tarixchi olim I.Bekjonning Mutribiy hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan maqolasida XVI asr oxiri XVII asr boshlarida ham "Samarqandda Madrasai oliyaiy Saroymulkxonim, Sulton Ulug'bek, Amir Shohmalik, Xo'ja Ahror, Shayboniyxon, Abu Saidxon, Amirxon, Qozi Abdulg'afur shahid, Muhammad Ali Darvesh Tarxon, Soqiy Zominiy, Madrasayi Xo'rjin va yana boshqa madrasalar faoliyat ko'rsatganligi, adib ularda o'lkaning o'ta bilimdon, malakali ustoz olimlari, Turkiya, Eron, Ozarboyjon, Afg'onistondan kelgan allomalar aniq, tabiiy, diniy va gumanitar fanlardan davomli darslar berganini yozadi. Samarqanddagi Ulug'bek masjidi va boshqa shu kabi masjidlarda ham Qur'on qiroati, Hadis bo'yicha maxsus bilimlar berilgan. Mutribiy ustoz Nazriy Badaxshoniyga bag'ishlangan ma'lumotda qiziq bir voqeani keltiradi. Ilmga chanqoq talabalar mazkur oxunddan qo'shimcha darslar olish uchun ertayu-kech uning hujrasidan ketmas, oxund esa ulardan qutulib, o'zi ham ozgina bo'lsa-da, kitob mutolaasiga berilish uchun bir shogirdiga buyurib, qulfni eshikning tashqarisidan ostirib qo'yarkan. Ulug'bek madrasasi devorida esa o'z o'qi atrofida "xuddi osmonga otilib, yana yerga qaytib tushayotgan koptokdek aylanuvchi yer kurrasi" va undagi jug'rofiy kengliklar, shaharu o'lkalar nomi yozilgan xarita chizib qo'yilgan ekan. Mutribiy yozishicha, u alloma Taftazoniyning "Mutavval" kitobi asosida ilmi maoniy, ilmi bayon, ilmi bade' sohalarini bir necha yil davomida o'sha davrning zabardast olimi Ismatullo Oxunddan o'zlashtiradi. Haqiqiya va ilohiyani Samarqanddagi Abu Saidxon madrasasida Nazriy Badaxshoniydan, adabiyotga oid bilimni Amir Shohmalik madrasasida mavlono

Qosim Rumiyan, Qur'onga doir ba'zi ilmlarni Hofiz Muhammad Amindan, ilmi siyoq (hisob-kitob) sohasini asli hirotlik, lekin Samarqandda turg'un bo'lib qolgan G'aribiy Heraviydan o'rganadi. Yoshligida esa Buxoroda Erondan kelgan va "Mulloi nav" laqabi bilan tanilgan faylasuf olim Mirzojon Sheroziyning ommaviy dars va bahs-munozaralarida qatnashgan¹⁴⁷. Bu fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, o'sha davrlarda ayrim madrasalar institut maqomida ma'lum ixtisoslikka asoslangan ta'lim ham joriy etgan.

Mutribiy zamonasida Amir Temur maqbarasi va Registon atrofi ulanib ketgan binolardan iborat bo'lgan ko'rinadi. Chunki Mutribiy maqbaraga ulab qurilgan masjid va unga yondosh bir hovli sahnli maydon keladi va hovli maydonining chap tomonida bitta eshik va bir dahliz ko'rinadi. Ular orqali ichkari kirilsa, Sulton Ulug'bek Ko'ragon bino qildirgan madrasaga duch kelinadi¹⁴⁸, deb xabar bergan. Ulug'bek madrasayi oliyasining tashqi ko'rinishi, me'moriy xususiyatlari va atrof tabiati haqida ham quyidagi ma'lumotlarni bilishimiz mumkin: "Madrasa to'rt toqni o'z ichiga olgan ikki oshiyonalik bo'lib, toqlarning hammasi koshinli va naqshlar bilan bezatilgan, toqlardagi yozuvlar orqali "Inno fatahno", "A'mma" va "Taborak" suralarini bitganlar. Shu ikki qavatda oltmishga yaqin hujra joylashgan. Va maydon sahnining har ikki tarafiga ikki oliy gunbaz qurganlar, bu gunbazlar ostida chig'atoy podshohzodalarining go'rxonalari bor. Maydonning o'ng tomonida darvoza o'rnatilgan. Daxmaga qarashli oshxonada joylashgan bir gumbaz ichida esa hujralar va bu oshxonada katta bir qozon bo'lgan. Har kun unda faqirlar hamda mazkur daxmaning mujovir (xizmatchi)lari va shu yerdagi madrasa talabalari uchun ovqat tayyorlaganlar¹⁴⁹.

XIX asrda Samarqandning qadim tarixi, jo'g'rofiyasi, tabiiy ko'rinishi, eski ahvoli haqida samarqandlik qozi Abu Tohirxoja tomonidan yaratilgan "Samariya" asarida ham o'nlab madrasa sanalgan. Shulardan Ulug'bek madrasasi, Shayboniyxon madrasasi, Sayid Ahmadxoja madrasasi, Sherdor va Tillakoriy madrasalari, Hazrati Xoja Ahror madrasasi, Oliy madrasa, Qozi G'afur madrasasi, Nodir Muhammad devonbegi madrasalarida o'sha vaqtda o'qish bo'layotganligi haqida yozib qoldirgan¹⁵⁰

Ulug'bek madrasayi oliyasi XX asr 20 yillarigacha oliy ta'lim dargohi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Sharqshunos olim V.L.Vyatkin 1916-yilning yanvarida Samarqand viloyati Harbiy gubernatoriga Mirzo Ulug'bek madrasasining binosi

¹⁴⁷ <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/ismoil-bekjon-hind-safari-yoxud-imomqulixonning-maxfiy-topshirigi.html>

¹⁴⁸ Yuqoridagi manba

¹⁴⁹ Yuqoridagi manba

¹⁵⁰ [file:///C:/Users/User/AppData/Local/Temp/Rar\\$DIa7296.20890/abu_tohirxuja_samariya_ziyouz_com.pdf](file:///C:/Users/User/AppData/Local/Temp/Rar$DIa7296.20890/abu_tohirxuja_samariya_ziyouz_com.pdf), 25-28-betlar

yomon ahvolda ekanligi xususida raport yozgan edi. Raportda u “minorani tekshirib chiqish uchun komissiya tayinlash ..., bu komissiya minoraning mustahkamligini aniqlashi, uni biror moslama yordamida, yoki ust qismini qandaydir balandlikka qadar yechish chorasi orqali saqlab qolish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishi kerakligini”, so‘ragan edi. Mazkur raportning mazmunidan shu ma’lum bo‘ladiki, 1916 yildayoq Mirzo Ulug‘bek madrasasining shimoli-sharqiy minorasi qulab ketishi ehtimoli mavjud bo‘lgan...busiz ham 1870-yilda madrasaning to‘rt minorasidan biri, keyinchalik boshqasi qulab tushgan edi. Komissiyaning ayrim majlislari to‘g‘ridan to‘g‘ri Registon maydonida bo‘lib o‘tar, deyarli har bir majlisda madrasa minorasini tezroq qutqarib qolish va uni to‘g‘rilash borasida qizg‘in munozaralar bo‘lardi. Ish jarayonlari 1918-1932-yillar davomida bajarilib, u muvafaqqiyatli amalga oshirildi. Bu jahon tarixidagi ta‘mirlash amaliyotining misli ko‘rilmagan voqeligi ham edi.¹⁵¹ Shuning uchun ham katta ehtimol bilan madrasayi oliyaning faoliyati cheklangan bo‘lishi va bu yerdagi ta‘lim jarayoni madrasaga yondosh boshqa madrasalarda davom etgan bo‘lishi mumkin.

Bir nechta internet manbalarida (<https://uz.denemetr.com/docs/768/index-280712-1.html?page=9>, <https://atelim.com/umumiy-t-arix.html?part=2>, <https://hozir.org/ijtimoiy-iqtisodiy-fanlar-kafedrasasi.html>, <http://library.ziyonet.uz/ru/book/download/11168>) “V. L. Vyatkinning yozishicha, Samarqand madrasalari o‘quv yurtlari sifatida 1927 yilgacha ishlab turgan”, - degan fikr bildirilganligi e‘tiborimizni tortdi. Ammo bu ma‘lumot qaysi manbaga asoslanib berilgani ma‘lum qilinmagan.

Bugungi kunda esa Ulug‘bek madrasayi oliyasi o‘rnida, uning vorisi sifatida Samarqand davlat universiteti faoliyat ko‘rsatmoqda. Akademik Boturxon Valixo‘jaev madrasai oliyani bitirganlarga dars o‘tish uchun ijozatnoma – diplom berilganligi, ana shunday «diplom»lardan biri Qozizoda Rumiy imzosi ostida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotganligi haqida ma‘lumot bergan. Eng asosiysi, mazkur madrasai oliyani bitirganlik haqidagi hujjat – «diplom» faqat Movarounnahrdagina emas, balki, Xuroson va boshqa davlatlarda ham e‘tirof etilgan. Bu esa Mirzo Ulug‘bek madrasai oliyasining o‘z davridagi maqomi naqadar yuksak bo‘lganligidan guvohlik beradi. Bizning faoliyatimizning keyingi bosqichlarida univertitetimizni ana shu darajadagi xalqaro universitetga aylantirish, olam ilm toliblarini bu yerga chorlash va jahon standartlariga mos sifatli ta‘lim beruvchi markazni qayta tiklashdan iborat.

¹⁵¹ Қарағи: http://www.samdu.uz/images/ilmijurnal/3K7ruS6lCp_ilmiy_jurnal.pdf

REFERENCES

1. A.Navoiy. Majolis un-nafoysis. 20 tomlik. 13-tom
2. Xondamir. Makorim ul-axloq. G'.Gulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. Toshkent-2015. 30-31-betlar
3. Ибн Арабшоҳ. Ажойб ал мақдур фи тарихи Таймур. 1-китоб. Т.: Меҳнат. 1992 й. 11-б.
4. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002, №1. 5-б.
5. Аҳмедов Б. Давлатшоҳ Самарқандий, Т.: Фан, 1967.
6. [file:///C:/Users/User/AppData/Local/Temp/Rar\\$DIa7296.20890/abu_tohirxuja_samariya_ziyouz_com.pdf](file:///C:/Users/User/AppData/Local/Temp/Rar$DIa7296.20890/abu_tohirxuja_samariya_ziyouz_com.pdf)
7. <https://mininnovation.uz/oz/news/1920>
8. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/botirxon-valixojayev-alisher-navoiy-davri-1.html>
9. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/ismoil-bekjon-hind-safari-yoxud-imomqulixonning-maxfiy-topshirigi.html>
10. http://www.samdu.uz/images/ilmiyjurnal/3K7ruS6lCp_ilmiy_jurnal.pdf

TARIXIY SHAXSLAR TASVIRI VA MUALLIF MUNOSABATI

Gulnoza Oripova,

FDU katta o'qituvchisi,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Gulbahor Mirzajonova,

FDU 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada tarixiy romanlarda tarixiy shaxslar obrazi tasviri va unga muallif munosabati Shahodat Isaxonovaning "Turon malikasi" romani misolida tadqiq etilgan.

***Kalit so'zlar:** badiiy obraz, obrazlilik, tarixiy shaxslar, bosh qahramon, asar kompozitsiyasi, fabula, syujet, badiiy talqin.*

ABSTRACT

In the article, the image of historical figures in historical novels and the author's attitude to it are studied on the example of Shahodat Isaxonova's novel "Princess of Turan".

***Key words:** artistic image, imagery, historical figures, main character, composition of the work, fable, plot, artistic interpretation.*

KIRISH

Badiiy obraz borliqdagi inson, narsa, hodisaning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideali asosida ijodiy qayta ishlagan aksi demakdir. Badiiy obraz yordamida ijodkor o'zini qiynagan muammolarni badiiy idrok etadi, Yozuvchi o'z asariga hayotiy hodisa va kishilarni material qilib oladi. Shu jumladan, agar asar tarixiy material asosida yozilgan bo'lsa, ma'lum tarixiy shaxslar ham badiiy asarning qahramoni etib tasvirlanishi mumkin.

Shahodat Isaxonovaning "Turon malikasi" tarixiy romanidagi Amir Temur, Bibixonim, Xalil Sulton, Shod Mulk, Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Tuman Og'o, Gavharshodbegim, Xoja Yusuf, Shayx Nuriddin, Burunduq Barlos kabi bir qator shaxslar haqiqatan tarixda yashab o'tgan shaxslar bo'lib, ayni paytda ular tarixiy romanning badiiy obrazlaridir. "Yozuvchi badiiy obrazlar vositasida o'sha davrdagi tarixiy, ijtimoiy-siyosiy muammolarni badiiy tadqiq etadi, obrazlar tizimi vositasida bu boradagi fikr-qarashlarini shakllantiradi va o'zi anglagan haqiqatni tugal bir qarash, tizim holidagi badiiy xulosa tarzida ifoda etadi"¹⁵². Shahodat Isaxonovaning "Turon malikasi" asarida Bibixonim obrazi alohida yoritiladi. "Bibixonim – milodiy

¹⁵²D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademiya nashri, 2010 44-bet

1341-1346-yillar Movaraunnahr (Chig'atoy ulusi) taxtiga o'tirib, to'rt yil hukmronlik qilgan yigirma ikkinchi xon jo'jinajot shahzoda Sulton Qozonxon Yasavurxon o'g'lonning qizi – Saroymulkxonim o'tgan yil kuzda payg'ambar yoshiga to'lgan bo'lsa-da, hali qarilikka bo'y bermagan, qomati tik, yonoqlari bilinar-bilinmas bo'rtib turgan oppoq kulcha yuzlari ajinsiz, bodom qovoqlari ustida hiloldek egilgan qoshlari ingichka va qora edi. Qo'ng'ir qorachiqli, xiyol qisiq ko'zlarining nigohlari jiddiy, lablari kichik, lekin qalinligi uchun gapirganda istarasi yanayam issiq ko'rinar, shu bois, tabassum qilganda muloyim tortardi. Ovozi sokin va ohangli, nafasidan taralayotgan so'zlar suhbatdoshining ko'ngliga oqib kirayotgan kabi uni bir zumda o'ziga el etardi"¹⁵³.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqorida bayon qilingan tasvirdan ham ko'rinib turibdiki, Bibixonim garchi yoshi ulug' bo'lsa-da, malikalarga xos husn-malohatga ega. Ammo uning "Turon malikasi" degan sharafiga loyiq ko'rilishining boisi faqatgina husni-malohat bo'lmay, balki aql-idrok, o'tkir zehn, uzoqni ko'ra bilish qobiliyati hamda vaziyatni to'g'ri baholay olish kabi kuchli siyosatdonlarga xos sifatlaridir. Buni asardagi juda ko'p o'rinlarda kuzatishimiz mumkin. Buyuk saltanat sohibqironi Amir Temur ham davlat siyosati, shahzodalar borasidagi ayrim qarorlarini Bibixonim bilan maslahatlashgan holda qabul qilishi fikrimiz dalilidir. Amir Temurning Bibixonimga bo'lgan qattiq ishonchi shahzodalarning dunyoviy, diniy falsafiy bilim olishlari va ularning nazoratlari vazifasi bosh malika zimmasiga yuklatilganida ham ko'rinadi. Saltanatdagi barcha amirlar-u beklar, shahzodalarning ham Bibixonimga bo'lgan hurmati cheksiz. Sohibqiron vafot etgandan so'ng ham shahzodalarning boshini birlashtirish yolg'iz Bibixonimning qo'lidan kelishini Xoja Ahmad Tusiy nutqidan quyidagicha bayon qiladi: "...O'tganni ortga qaytarib bo'lmaydur! Va bundan bu yog'iga shahzodalarg'a o'zingiz bosh-qosh bo'lib, alarning boshlarini birlashtiring! Shahzoda Shohruh Mirzo sizni volidasindan ham a'lo ko'rur, buni barchamiz bilurmiz. Ul shahzodai juvonbaxtni dushmanlik shahdidan qaytarmoq kerak. Fikri ojizimcha, bul yumush faqat sizning qo'lingizdan keladur. Bir so'z bilan aytganda, alarning jilovi sizning ilkingizdadur, bibim!"

Romanda Bibixonim obrazi bosh qahramon vazifasini bajarish bilan birga asarning kompozitsiyasini birlashtirib, fabulani bog'lab turadi. Boshqa obrazlar va qahramonlar, sujet va voqealar tizimi Bibixonimga ipsiz bog'lanadi. Buning boisi Bibixonimning mamlakatdagi mavqei desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki qaysi shahzoda yoki amir o'z yoniga saltanatning bosh malikasi Bibixonimni olsa, u bilan

¹⁵³ Ш.Исахонова.Турон маликаси. – Тошкент: Kamalak-Press, 2014. 7-бет

hamfikir, hammaslak bo'lsa g'alabaga erishish, sohibqiron taxtiga egalik qilish, boshqa shahzodalarni o'z nazoratida tutish ehtimoli kuchayadi. Sulton Husayn Mirzo, Amir Xudoydot kabi obrazlarning Bibixonim bilan bo'lgan suhbatlari buning yorqin dalilidir. Lekin el-ulusning tinchlik-hotirjamligini ko'zluvchi malika taxtga munosib valiahd kelishini, ulug' amirning eng so'nggi vasiyati amalga oshishini istaydi. Shahzodalarning barchasi uning o'z farzandidek bo'lganligidan ularning fe'l-atvori, hol-ruhiyatlari unga ayon. Bunday murakkab, chigal vaziyatda shahzodalarni imon-u insofga chorlamoq o'z manfaatlarini emas, el-u yurt osoyishtaligini o'ylamoqqa undash vazifasi uning zimmasiga tushadi.

Asardagi obrazlarda adibning hissiy munosabati ham o'z aksini topgan. Hissiy munosabat badiiy konsepsiyani shakllantirishda, asar mazmunini o'quvchiga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. "Turon malikasi" romanida yozuvchi Bibixonim obraziga alohida mehr, iliqlik, samimiylik bilan yondashadi. Ayni paytda, ijodkor qahramonining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy zarbalardan iztirobga tushayotganidan qayg'uradi:"... Yo, tangrim! Bu ne yozuq, bu ne qismat bo'ldi? Yoki avvalim ham oxirim ham obod bo'lur deb ko'p ishonib yubordimmu? Tangrim, bul ne sir, bul ne sinov?! Yo o'zingga takabburlik qildimmu?Yoxud umrim shominda peshonamg'a bitilg'ani shul achchiq qismatmu? Eng achchiq qismat sharobini ichdimku! Bundin ortiq yana ne bo'lishi mumkun?"

Yozuvchi qahramoning ayni paytda ayol kishi ekanini ham unutmaydi va nechog'liq aql-zakovat egasi bo'lmasin ayollarga xos his-tuyg'ularning unda ham mavjud ekanligini ta'kidlaydi. Buni Amir Temur ruhi bilan xayolan olib borgan suhbatida ko'rishimiz mumkin: "Ha, men xato qildim ulug' Amirim! Nega siz, mening so'zlarimni tingladingiz?! Men, tirnoqqa zor bir bandai ojizing'iz, bul yuzi qaro juvonning "homilam bor" deg'an yolg'onlarig'a, qasamlarig'a ishonibmen. Uning vujudidag'i avloding'iz mening aybim birlan zavol topmasin deb andesha qilibmen. Amirim, armonli farzandsizlig'im pand bermish... Tushlarimdag'ina allalar kuylab tebratg'anim go'daklarimg'a mengzabmen uni!"

Shahodat Isaxonova obraz yartishda tajribakor yozuvchi. U ushbu davrga oid ko'p adabiy, badiiy, tarixiy, ilmiy manbalardan yaxshi xabardor. Ularni hijjalab o'rganganligi va ko'p fikrlar yuritgani yozgan so'zlarida sezilib turadi. Uning badiiy fantaziyasi voqelikka yolg'on tirkamaydi, voqelikni tagi yo'q yolg'on oldi-qochdilar bilan to'ldirmaydi, ko'pirtirmaydi, voqelikni bezab-bejab ko'rsatmaydi. Yaratgan har bir qahramonlarida u xoh tarixiy shaxs bo'lsin, xoh to'qima obraz bo'lsin haqqoniylik tamoyiliga amal qiladi. Tarixiy shaxslarning har bir gapirgan so'zlarida, bajargan ishlarida o'sha davrdagi tarixiy shart-sharoit vaziyat nuqtai nazaridan kelib chiqib shunday yo'l tutganliklari kitobxonga sezilib turadi.

“Yozuvchining tushunishiga muvofiq, tarixiy shaxslarning o‘z davrida tutgan ijtimoiy mavqeyi, jamiyat hayotidagi roli, tarixiy haqiqatga mos ravishda, buzmasdan saqlanadi, haqqoniy tasvir etiladi.”¹⁵⁴ Shahodat Isaxonova ham mana shu tamoyilga amal qiladi, yaratgan har bir obrazida tarixiy faktlarga suyanadi. U har qanday holda meyorlar, tasvir, fantaziya, hayot va badiiyat mezonlarini saqlaydi va nafis fikrlay turib jiddiylik, aniqlikdan chekinmaydi.

Bibixonim obrazini yaqqolroq ochishga Shod Mulk obrazi ma‘lum ma‘noda xizmat qiladi. Chunki Shod Mulk asarda Bibixonimga qarama-qarshi qo‘yiladi. Shod Mulk qanchalar go‘zal va erkaklar sevgisini qozonadigan malohatli bo‘lmasin, ulug‘ xonimning butunlay teskarisi, yengiltakligi, aqli qisqaligi, garchi Xalil Sultonday zakoning muhabbatini qozongan bo‘lsa-da, ayon bilinib turadi. Shayx Nuriddin, Amir Husayniy, Xalil Sulton singari Temur rioyasini ko‘rgan arboblar bilan to‘qnashuvlarda ularning mislsiz riokorliklari, ko‘rnamakliklariga guvoh bo‘layotgan, ularning hammalarini ilgaridan, Temur tirik chog‘laridan yaxshi bilgan Bibixonim o‘zining butun oliyjanob tiynati, qiyofasi bilan jozibali tarzda qad rostlaydi. Uning ahvolini adiba juda yaxshi tushunib anglab turadi va shu teran tushunchasi darajasida munosabatda bo‘ladi, tarixda Bibixonim haqiqatini ochishga intiladi.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, romanda Bibixonim tarixiy shaxs sifatida tarixiy haqiqatlar negizida badiiy talqin qilingan, shunga ko‘ra Bibixonim obrazini muvaffaqiyatli badiiy talqinlardan biri bo‘lgan, deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Quronov D., Mamajonova Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akadernashr, 2010.
2. Isaxonova Sh. Turon malikasi. – Toshkent: Kamalak-Press, 2014. 7-bet
3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. 102-bet
4. To‘ychiyev U. O‘zbek adabiyotida badiiylik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.
5. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: Bookmany print, 2022
6. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
7. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. *International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies*. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.

¹⁵⁴ Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. 102-bet

8. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Lirycs. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 656-664.
9. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – C. 245-249.
10. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In *Конференции*.
11. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," *Scientific journal of the Fergana State University: Vol. 2 , Article 12*.
12. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(12), 90-94.
13. Oripova, G. M., & Abdurasulova, N. A. Q. (2022). O'ZBEK NASRIDA URUSH MAVZUSI VA "YO'QOTILGAN AVLOD" MUAMMOSI. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 213-220.
14. Oripova, G., & Alijanova, M. A. Q. (2022). ASQAD MUXTORNING "CHINOR" ROMANIDA AYOL PORTRETINING BADIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 221-226.
15. Oripova, G., & Ibrohimova, G. (2022). SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MUMTOZ MUSHTARAKLIKLAR. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 251-255.
16. Oripova, G. M., Akhmadjonova, O. A., Kholmatov, O. U. U., & Muminova, T. S. (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 304-309.
17. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem" Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 556-559.
18. Sabirdinov, A. (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. *Конференции*, 1(2).
19. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel "Night and day" by Chulpan. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(6), 119-120.
20. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov's Story "Yanga". *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(6), 196-200.

МАҲМУД ҚОШҒАРИЙНИНГ ИЛМИЙ МЕРОСИ ХУСУСИЯТЛАРИ

Мардонов Хайрулла Махмудович

Ўзбекистон Республикаси Ориентал университети

Лингвистика (тилларни ўқитиш мутахассислиги бўйича)

2-курс магистранти,

Имом Термизий ўрта махсус таълим муассасаси ўқув ишлари бўйича

директор ўринбосари,

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Ўрта Осиё ҳудудидан етишиб чиққан тилшунослик соҳасининг етук билимдонларидан бири Маҳмуд Қошғарийнинг илмий мероси хусусиятлари борасида қимматли маълумотлар ҳақида маълумот берилган.

Калит сўзлар: муфассирлар, муҳаддислар, тарихчилар. Муҳаммад Қошғарий, туркий тил, Жавоҳирун-наҳв фи луғотит турк, Девону луғотит турк, Қутадғу билиг.

АННОТАЦИЯ:

В данной статье представлена ценная информация об особенностях научного наследия Махмуда Кашгари, одного из зрелых специалистов в области языкознания из ближневосточного региона.

Ключевые слова: Комментаторы, Ученые, Историки, Мухаммад Кашгари, турецкий язык, турецкий словарь Джавахирун-нахв фи, турецкий словарь Девону, Қутадғу билиг.

ABSTRACT

This article provides valuable information about the characteristics of the scientific heritage of Mahmud Kashgari, one of the mature experts in the field of linguistics from the Middle Asian region.

Keywords: Commentators, Scholars, Historians. Muhammad Kashgari, Turkish language, Jawahirun-nahv fi turkish dictionary, Devonu turkish dictionary, Qutadgu bilig.

KIRISH (ВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Тарихдан маълумки, Ўрта Осиё ҳудудидан етишиб чиққан кўпгина алломалари билан жаҳонда муносиб ўрин эгаллайди. Ушбу минтақадан кўпгина муфассирлар, муҳаддислар, тарихчилар ҳамда илм-фаннинг кўпгина арбоблари етишиб чиққан. Шулардан бири тилшунослик соҳасининг етук билимдонларидан бири Маҳмуд Қошғарийдир.

МУНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Ислом маданияти гуллаб-яшнаган XI асрда яшаб, ижод этган Маҳмуд ибн Хусайн ибн Муҳаммад Қошғарий ҳаёти ва ижодий фаолияти ҳақида маълумотлар кам сақланиб қолган¹⁵⁵.

Маҳмуд Қошғарий Марказий Осиёда илк ўрта аср маданиятининг буюк арбобларидан бўлиб, тилшунослик соҳасида, хусусан, туркий тилларни ўрганиш соҳасида машҳур бўлди ва тарихда ўчмас из қолдирди¹⁵⁶.

Даврининг энг истеъдодли ва атоқли олимларидан бири бўлган Маҳмуд Қошғарий тилшуносликка доир икки нодир асар – “Жавоҳирун-наҳв фи луғотит турк” (“Туркий тилларнинг наҳв (синтаксис) дурдоналари, қоидалари”), “Девону луғотит турк” (“Туркий сўзлар тўплами”) асарларини яратди. Афсуски, Маҳмуд Қошғарийнинг биринчи асари бизгача етиб келмаган ёки ҳанузгача номаълум. Иккинчи асари – “Девону луғотит турк” эса XX аср бошларида Истанбул (Туркия)да топилган. XIX аср охири – XX аср бошларида туркий халқларга оид жуда кўплаб ноёб обидалар, жумладан Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг”, Аҳмад Югнакийнинг “Ҳибат ул-ҳақойиқ” асарлари, қадимги туркий, уйғур ёзуви ёдгорликлари топилди. Узоқ вақт давом этган мунозаралардан сўнг қадимги туркий битиклар ўқилиб, уларнинг туркий халқларга мансуб эканлиги илмий жиҳатдан исботланди. Бу даврда аниқланган муҳим асарлар орасида “Девону луғотит турк” ҳам бор.

Асар топилганидан кейин қисқа вақтда чоп этилди, уни илмий асосда ўрганиш бошланди, турк, ўзбек, уйғур, озарбайжон, қозоқ, инглиз, немис, хитой, рус ва форс тилларига таржима қилинди. Марказий Осиё халқларининг XI асрдаги ҳаёти билан боғлиқ барча маълумотларни кенг қамраб олган ушбу бебаҳо манба фанда алоҳида аҳамиятга эга эканлиги тадқиқотчилар томонидан кўрсатиб берилди¹⁵⁷.

XI асрда Ўрта Осиёда Бухоро, Самарқанд ва Шош водийсида, шунингдек Иссиқкўл бўйларида ҳамда Қошғарда Қорахонийлар давлатининг пойтахтларида ҳам йирик илм-маърифат марказлари бўлган. Маълумки, илгарилари ҳукмрон доиралар ва уларнинг фарзандларигина билим олиш имкониятига эга бўлганлар. Шунга қарамай, Ўрта Осиё шарқидаги бу илмий марказларнинг фан ва маданият тарихидаги хизматлари жуда катта. Қорахонийлар даврининг меъморчилиги ўзига хос бўлган. Работи Малик, Ўзган мақбараси, Тўқмоқдаги минора шулар жумласидандир. Қорахонийларнинг пойтахт мактабларида Қуръон, ҳадис ва шариат қонунларини ўргатиш билан

¹⁵⁵ Ғофуров Ғ. Шарқ жавоҳирлари. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 38.

¹⁵⁶ Маънавият юлдузлари. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001. – Б. 124.

¹⁵⁷ Худойбердиев Ж. Маҳмуд Қошғарий ҳаёти ва “Девону луғотит турк” асарининг ўрганилиши. – Т., 2010. – Б. 3.

биргаликда араб тили грамматикасидан ҳам чуқур таълим берилган. Маҳмуд Қошғарий ана шундай ўлкаларда ва шундай шароитда дунёга келди.

Шуни қайд этиш лозимки, бундай маълумотлар билан бирга олим қабила ва халқ тилларининг бир-бирига муносабати, ўзаро таъсири, алоқаси ҳамда ўша давр туркий адабий тилига нисбатан тафовут ва яқинлигини ҳам кўрсатган¹⁵⁸. Унинг бобоси қошғарлик бўлиб, Боласоғунга кўчиб келиб, турғун бўлиб яшаб қолган.

Унинг бобоси Муҳаммад ва отаси Ҳусайн Иссиққўл бўйидаги Барсғон шаҳридан бўлганлар. Отаси, хизмати юзасидан бўлса керак, Барсғондан Қошқарга кўчган ва шу ерда ўрнашиб қолган. Шунинг учун Маҳмуднинг исми Қошғарий бўлиб кетган¹⁵⁹.

Маҳмуд ибн ал-Ҳусайн ибн Муҳаммадил Қошғарий XI аср бошларида Боласоғунда (ҳозирги Қирғизистоннинг Тўқмоқ шаҳри яқинида) туғилди.

Унинг бобоси қошғарлик бўлиб, Боласоғунга кўчиб келиб, турғун бўлиб яшаб қолган¹⁶⁰. Унинг бобоси Муҳаммад ва отаси Ҳусайн Иссиққўл бўйидаги Барсғон шаҳридан бўлганлар. Отаси, хизмати юзасидан бўлса керак, Барсғондан Қошқарга кўчган ва шу ерда ўрнашиб қолган. Шунинг учун Маҳмуднинг исми Қошғарий бўлиб кетган¹⁶¹.

Ижтимоий келиб чиқиши жиҳатидан қорахонийлар сулоласига мансуб бўлиб, отаси Ҳусайн ибн Муҳаммад ўша даврдаги Барсғон шаҳрининг амири бўлган. Қошғарий бошланғич маълумотни ўз қишлоғида, юқори маълумотни Қошқар мадрасаларида олган, араб, форс, туркий каби 7–8 тилни пухта эгаллаган¹⁶². Унинг севимли устози Ҳусайн Халифа бўлган. Бу устоз тўғрисида шундай маълумотлар бор: “Қошқарда атоқли олим Абу Абдуллоҳ ибн Ҳусайн Қошғарий яшаган, у фозил, зоҳид бир шайх эди. Кўп асарлар ёзган. Унинг ўғли ҳам мўътабар олимлардан эди”¹⁶³.

Маҳмуд Қошғарий дастлаб Қошқар, кейинроқ Самарқанд, Бухоро, Нишопур, Марв ва Бағдодда таҳсил кўрди, турли илмлар, хусусан, араб филологияси билан шуғулланди. У туркий халқларнинг тилига, турли қабила ва уруғларнинг урф-одатига, оғзаки бадиий ижодиётига қизиқди. Юқори Чиндан бошлаб Мовароуннаҳр, Хоразм, Фарғона, Бухорога чўзилган катта масофани кезиб чиқди; уруғ, қабила ва халқларнинг турмушини, уларнинг касб-корини,

¹⁵⁸ Фозилов Э. Маҳмуд Қошғарий ва унинг девони // Ўзбек тили ва адабиёти, 1971. № 5 – Б. 38.

¹⁵⁹ Фозилов Э. Маҳмуд Қошғарий ва унинг девони // Ўзбек тили ва адабиёти, 1971. № 5 – Б. 38.

¹⁶⁰ Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1976. – Б. 103.

¹⁶¹ Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – Б. 117.

¹⁶² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. V. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 515.

¹⁶³ Ҳасанов Ҳ. Маҳмуд Қошғарий. – Т., 1963. – Б. 5.

урф-одатларини, хусусан, тили ва оғзаки ҳамда ёзма ижодиётларини ўрганиб маълумотлар тўплади, оддий халқ оммаси вакиллари, олимлар ва шоирлар билан суҳбатлашди. Бу ҳақда Маҳмуд Қошғарийнинг ўзи бундай дейди: “Мен турклар, туркманлар, ўғузлар, чигиллар, яғмолар, қирқиз (қирғиз)ларнинг шаҳарларини, қишлоқ ва яйловларини кўп йиллар кезиб чиқдим, луғатларини тўпладим, турли хил сўз хусусиятларини ўрганиб, аниқлаб чиқдим. Мен бу ишларни тил билмаганлигим учун эмас, балки бу тиллардаги ҳар бир кичик фарқни аниқлаш учун қилдим... Уларга шунча диққат қилдимки, турклар, туркманлар, ўғузлар, чигиллар, яғмолар ва қирқиз қабилаларининг тиллари бутунлай дилимга жо бўлди. Уларни ҳар томонлама пухта, бир асосда тартибга солдим”¹⁶⁴.

Бундан ташқари, Маҳмуд Қошғарий “Девон”ни тузишда алоҳида йўл турганлигини ҳам таъкидлаб ўтади: “Қисқартириш ва енгиллатиш масқадида бу асарни мендан олдин ҳеч ким тузмаган ва ҳеч кимга маълум бўлмаган алоҳида тартибда туздим. Бу ишда мен асарнинг қийматини ошириш, бошқаларга (фойдаланувчиларга) эса осонлик туғдириш мақсадида пухта қўлланма бўлсин деб, ҳар бир қабиланинг ўзига хос хусусиятларига кўра қиёсий қоидалар туздим... сўнгра мен ҳар бир қабиллага мансуб сўзларнинг ясалиш хусусиятларини ва қандай қўлланилишини қисқача кўрсатиш учун алоҳида йўл тутдим”¹⁶⁵.

Қошғарийнинг Бухорода яшаган даври ҳам унинг кейинги ижодига ижобий таъсир кўрсатган бўлиши керак. Маълумки, Бухоро XI асрда шарқнинг энг йирик илмий ва маданий маркази бўлиб ҳисобланган. “Бухоро мактаби”, “Бухоро услуби” барча олимларга, барча кичик илмий марказларга ўрнак ва андоза бўлган.

Узоқ Иссиқкўл бўйларида ва Қошғарда яратилган “Қутадғу билиг” асарида ҳам Бухоро мактабининг таъсири бор. Бу асарнинг муаллифи тиббиётга доир маслаҳатларида Ибн Синога эргашган.

Маҳмуд Қошғарий Бухородан Бағдод шаҳрига келган, бу ерда бир неча йил яшаган; араб тили ва адабиётининг энг нозик хусусиятларини шу ерда ўрганиб олганлиги шубҳасиздир. У Бағдоддан ўз ватанига қайтиб келгач, ўз адабий тилидан абадий ёдгорлик қолдириш учун бўлса керак, катта луғат тузишга киришган, шу мақсадда бир неча йиллар мобайнида “Румдан Мочингача” – Қора денгиз бўйларидан то Хитойгача саёҳат қилган: турли

¹⁶⁴ Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1976. – Б. 104.

¹⁶⁵ Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк // 1-жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. – Т., 1960. – Б. 47.

қабилалар, ўлкалар, тоғу чўл, шаҳару қишлоқларни кезган. Луғат тайёр бўлгач, яна Бағдодга жўнаган.

Ҳозирги замон ғарб ва турк шарқшунослари Маҳмуднинг Бағдодга келиб қолиш сабаблари тўғрисида турли фикр ва мулоҳазаларни айтишган. Уларнинг бир қанчаси ўринли ва ишонарли фикрлар, албатта. Маҳмуд Қошғарийнинг Бағдодда истиқомат қилинган даври тўғрисида маълумотга эга бўлиш учун чет эллик шарқшунослар, хусусан, совет шарқшуносларининг фикрлари ва девондаги маълумотларга асосланиш мумкин¹⁶⁶.

Аввало шуни айтиш керакки, Бағдод халифалиги деганда, бу давлатларда фақат арабларгина ҳукмрон бўлган, деган тушунча нотўғри. Бағдод халифалигидаги амалдорлар, лашкарбошилар орасида араблардан бошқа халқларнинг ҳам вакиллари бўлган. Бағдод шаҳрида бутун бир маҳалла туркий аҳолидангина иборат бўлиб, Бағдод кўчаларида туркий тилларда сўзлашувчи ва ёзувчи кишилар ҳеч кимни ҳайратда қолдирмаган. Халифа хизматидаги туркийлардан бўлган кўпгина амалдорлар давлатнинг ҳамма ишига аралашганлар, халифаларга ўз сўзларини ўтказганлар. IX-XI асрларда Бағдодда Ўрта Осиёдан ўнлаб атоқли адиб ва файласуфлар келиб, шу ерда ўрнашиб қолганлар. Жумладан, самарқандлик Абу Ёқуб Исҳоқ ибн Ҳасан ибн Кўҳий ал Хураймий (VIII аср охири - IX аср боши), фарғоналик шоир Халиф ал-Аҳмар, машҳур файласуф Абу Наср Фаробий, унинг ҳамшаҳари филолог Исҳоқ ал-Фаробий, унинг жияни филолог Абу Наср Исмоил ал-Жавҳарий шулар жумласидандир. Астроном Аҳмад ибн Муҳаммад Фарғоний, математик ва географ Муҳаммад ибн Мусо ал-Хоразмий, марвлик Аҳмад ибн Абдулла Марвазий, балхлик Абу Маъшарлар Бағдодда яшаганлар ва ижод қилганлар. Маҳмуд Қошғарий ҳам шулар жумласидандир. Бағдодда, сўғдийлар маҳалласи бўлганлиги, ҳатто узоқ Уммонга ҳам сўғд вакиллари бориб қолганлиги тўғрисида маълумотлар бор¹⁶⁷.

Дамашқ чеккасида Жиллик, Шайх Асрлон деган туркий қишлоқлар, Ҳалаб ёнида туркийлар яшайдиган Ёруқия қишлоғи бўлганлиги маълум. Ҳатто халифа давлатининг ғарбий қисмида □ Африканинг шимолида ҳам туркийлар бўлган. Тожик сайёҳи Носир Хисравнинг айтиши Маҳмуд Қошғарий даврига тўғри келадиган “Сафарнома”сида мана бундай маълумотлар бор: “Қоҳирада султон хусурида турли мамлакатлардан йиғилган лашкарлар, жумладан

¹⁶⁶ Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – Б. 117.

¹⁶⁷ Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – Б. 118.

туркистонликлар ҳам бор эди. У ерда турли касб эгалари, масалан, ваъзхонлар, адиблар, шоирлар, қонуншунослар кўп эди”¹⁶⁸.

Хуллас, халифа давлатининг пойтахтида турли амалдорларнинг ва олим, адибларнинг мавқеи катта бўлган. Туркийлар араб тилини астойдил ўрганганлар, араб амалдорлари ҳам туркий тилларини ўрганишга мажбур бўлганлар, чунки уларда Ўрта Осиё олимлари, кўп ерларга тарқалган туркий қабилалар катта қизиқиш туғдирган. Географ Ёқутнинг ёзишича, аббосий халифа Иброҳим ибн Маҳдий туркий тилда бемалол сўзлаша билган³. Маҳмуд Қошғарий олим сифатида танилган вақт ана шундай ҳукмронлик даврига тўғри келган.

“Девон”нинг қаерда ёзилганлиги тўғрисида турли фикрлар бор. Шарқшуносларнинг кўпчилиги бу шоҳ асар Бағдодда ёзилган бўлиши эҳтимол, деган фикрда. Бу фикр нотўғри. Девон шу қадар катта ҳажмли, чуқур мазмунли ва қимматбаҳо асарки, унинг икки-уч йил ичида ёзилган бўлиши эҳтимолдан узоқ. У Бағдод шаҳрида эмас, балки Ўрта Осиёда ёзилган бўлиши керак. Гап шундаки, “Девон” камида 10-15 йиллар давомида тайёрланиб, шундан кейингина ёзила бошланган¹⁶⁹.

Ниҳоят, Маҳмуд Қошғарий узоқ сафарлардан уйига – Қошғарга қайтиб келиб, “Девон”га доир барча материалларни жам қилган ва 1072 йилдан эътиборан бутун вақтини яхлит китоб ёзишга бағишлаган. “Китоб 464 йилнинг (ҳижрий) жумодул аввал бошларида бошланди ва тўрт қарра ёзилгандан (кўчирилгандан) ва тузатилгандан сўнг, 466 йилнинг (ҳижрий) жумодул охирнинг 12-куни битирилди”¹⁷⁰.

“Девону луғотит турк” китобида табиат ва табиий ҳодисаларга, чунончи, ер ва сув, тоғ ва чўл, иқлим ва осмон, ҳайвон ва ўсимликларга тааллуқли мақол, иборалар, хилма-хил содда ва сермазмун атамалар топамиз¹⁷¹.

“Девон”нинг луғат қисмида келтирилган сўзлар XI асрдан анча илгари пайдо бўлган. Уларнинг баъзилари VII асрга мансуб Ўрхун ёзувларида, Култегин ёдгорликларида ҳам учрайди. Ўрта Осиёда XI асрдаёқ бу сўзлар бўлганлиги ва уларнинг ҳозирда ҳам ишлатилиши тилимизнинг асосий луғат таркибида эканлигидан далолат беради.

Баъзи сўзлар ўзбек тилининг актив фондидан тушиб қолган, улар айрим топонимлар таркибидагина сақланган. “Девон”да ер ва тупроққа оид изоҳларда ишлатилган сўзлардан мисоллар келтирамиз: Масалан, қўруғ сўзи IX асрда

¹⁶⁸ Муталибов С. XI аср филологи Маҳмуд Қошғарий ва унинг “Девону луғотит турк” асари. – Т., 1958. – Б. 98.

¹⁶⁹ Ўша манба. – Б. 120.

¹⁷⁰ Ҳасанов Ҳ. Маҳмуд Қошғарий. – Т., 1963. – В. 9.

¹⁷¹ Гофуров Ғ. Шарқ жавахирлари. –Т.: Маънавият, 2000. – Б. 42.

Наршахий “Тарих”ида учрайди. Бу сўз кейинчалик дахлсиз, ёпик, ман қилинган жой маъносида ишлатила бошланган; масалан, хон мозори, мулклари, хон ҳарамхонасига нисбатан ишлатилган¹⁷².

Топонимика учун айниқса муҳим бўлган ўқуз сўзига алоҳида тўхталиб ўтмоқдамиз. Ўрхун ёзувларида артич ўқузий тилга олинган. “Девон”да ҳам бу сўзлар бир неча марта такрорланган. Муҳаммад Солиҳнинг “Шайбонийнома”сида Амударё илгари Ўқуз деб аталган.

Европа шарқшуносларидан Г. Вамбери бу сўзга тахминий изоҳ бериб: “Оксус, эхтимол, ёгюсь – дарё сўзидан олингандир” деган. С.П. Толстов ҳам ўқузнинг қадимда сув, дарё маъносида ишлатилганлигини, туркий тилларда унинг ўғуз шаклида ёзилиб, икки хил турдош маънони (“дарё” ва “ҳўкиз”) англатганини, юнонларда ўқуз сўзи Окс деб, Геродотда Акес деб ёзилганлигини, Ўрта Осиё аҳолиси Амударёни XVII асрга қадар Ўқуз деб аталганлигини, бунинг массагетча сўз эканлигини, массагетлар эса Ўрта Осиё туркий халқларининг этногенезига қўшилганлигини айтган.

“Девон”ни ўрганар эканмиз, Маҳмуд Қошғарий нафақат тарихчи ва тилшуносли олим ва шу билан баргаликда етук этнолог ва географ эканлигига ишонч ҳосил қиламиз.

“Девону луғотит турк” асарининг яна бир қиммати шундаки, Маҳмуд Қошғарий бу асарига дунё харитасини илова қилган. Аллома мазкур харитасида ер юзининг марказини ўз она юрти Иссиққўл билан Боласоғун оралиғидаги ерларга тўғирлаб чизади. Олим мазкур харита ва унда дунё қабилаларининг жойлашиши ҳақида шундай ёзади: “Шарқдан бошлаб ҳар бир қабиланинг турар жойларини бирин-кетин тартиб билан кўрсатдим. Румдан кун чиқаргача мусулмон ва бошқаларни кўрсатдим. Румга яқин биринчи қабила бейәнэн, сўнг қипчоқ, ўғуз, яман, бошғирд, басмил, сўнг қай, сўнг абақу, сўнг татар, сўнг қирғиз келади. Қирғизлар Чин яқинидадирлар. Бу қабилаларнинг ҳаммаси Рум яқинидан кун чиқар томонга чўзилгандир. Сўнг чигил, сўнг туғсий, сўнг яғмо, ҳитой “Чин”дир. Сўнгра товғач – бу “Мочин”дир. Бу қабилалар Жануб ва Шимол ўртасидадир. Бу қабилаларнинг турар жойларини бу доирада кўрсатдим”.

Маҳмуд Қошғарийнинг “Дунё харитаси”да кўрсатилган эл-элатлар яшаш жойи, дарё ва кўллар, тоғлар ва даштлар жойлашуви, масофа ўлчамлари бугунги кун ўлчовларига ғоят мос келиши, умуман, алломанинг бу иши дунё картография фанида ҳозиргача ўз аҳамияти ва қимматини сақлаб қолаётганини В.В. Бартольд, Н.Ю. Крачковский, А.Н. Бернштам, С. Муталлибов, А. Герман,

¹⁷² Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – Б. 121-122.

И.И. Умняков, Ҳ. Ҳасанов, З.А. Саидбобоев каби олимлар бир овоздан эътироф этадилар. Айниқса, Ҳ.Ҳасанов “Сайёҳ олимлар” деган китобида Маҳмуд Қошғарийнинг географик меросини кенг шарҳлаб берган¹⁷³.

А. Герман хаританинг шартли белгилари тўғрисида қисқагина шундай деган эди: “Белгилари на хитойча, на арабча; айниқса, ҳудудларни тасвирлаш жуда оригиналдир. ...Хаританинг мазмуни ҳам ўзига хосдир. ...Бу харита хитой картографиясига ҳам, араб ва ҳинд картографиясига ҳам ётдир”. Маҳмуд Қошғарийнинг тасвирича, Ўрта Осиё ер юзаси жиҳатдан тоғлик ва текислик қисмлардан иборат; унинг тоғлик қисми ҳозирги Қозоғистон, Ўзбекистон ўлкаларига тўғри келади.

Шимоли-ғарбда фақат битта тоғ – Жабали Қорачуқ ёзилган, бошқаларининг ёзуви йўқ. Ер юзининг маркази қилиб қорахонийлар давлатининг пойтахти сиёсий, илм-маданият маркази Боласоғун шаҳри олинган. X – XI асрларда ҳақиқатдан ҳам Боласоғун йирик шаҳар бўлган. Бу шаҳарни ҳозирги географик хариталардан тополмаймиз, ҳатто археологик хариталарда ҳам унинг ўрни аниқ эмас. Кўпчилик олимларнинг фикрича, у Тўқмоқ шаҳри ёнида бўлган. Боласоғун, баъзи олимлар айтганидек X асрда бунёдга келган эмас. У ундан илгари ҳам бўлган, эҳтимол, у вақтда бошқача аталгандир. XII асрда бу ерга Хоразмшоҳ бостириб келган, 1218 йилда уни Чингизхон истило қилган; XIV аср охирида бу шаҳар вайронага айлантирилган.

Боласоғун шаҳрининг энг қадимги номи Биклиг, мўғулча номи Ғуболиғ (Гўзал шаҳар), маҳаллий (чигил ва арғуча) номлари Қузулиш, Қузуёрду. Бу шаҳар ёнида, тоғлар орасидаги кўл бўйида Барсғон шаҳри жойлашган. Аниқланишича, Барсғон ёки Барсхон шаҳри ҳозирги Иссиқкўл бўйида – унинг жануби-шарқий бурчагида, Қўйсара яқинида бўлган¹⁷⁴.

Қошғарий харитасида Барсғон ёнидаги кўлнинг номи ёзилмаган, аммо “Девон” матнида у Иссиқкўл деб аталган. Асарда Иссиқкўл тўғрисида жуда аниқ маълумотлар берилган: “Иссиқкўл – Барсғонда бир кўл, узунлиги 30 фарсах, эни 10 фарсах”¹⁷⁵. Агар фарсах километрга айлантирилса, Иссиқкўлнинг узунлиги 180 км, эни 60 км бўлади. Бу унинг XI асрдаги катталигидир. Кўп йиллик текширишлар натижасида аниқланишича, ҳозир кўлнинг узунлиги 182 км, эни 58 км.

Маҳмуд Қошғарий харитасида Сирдарё, гарчи номи ёзилмаган бўлса ҳам, жуда аниқ чизилган. У икки тоғдан сув олади, бир ирмоғи – “Ябаку суви”

¹⁷³ Ғофуров Ғ. Шарқ жавоҳирлари. –Т.: Маънавият, 2000. – Б. 43-44.

¹⁷⁴ Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – Б. 129.

¹⁷⁵ Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк // III-жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. – Т., 1963. – Б. 149.

Қошғар тоғларидан чиқиб, Фарғона билан Ўзганд орасидан оқади, бу – ҳозирги Қорадарё; иккинчи ирмоғи шимолдаги Қўчинкорбоши ёнидаги тоғлардан бошланиб, Косон ёнидан ўтади; сўнгра улар бирлашиб, Фарғона водийсининг Марғилон, Хўжанд шаҳарлари орасидан оқиб ўтиб, шимолга бурилади. Тошкент шарқ томонда қолади, қуйи оқимида Жанд шаҳри ёнидан ўтади.

Амударё ҳам йирик ирмоқлардан ҳосил бўлган; улардан бири Қошғар чегарасидаги тоғлардан (Сурхоб – Вахш), иккинчиси Кашмир чегарасидаги тоғлардан (Вахондарё – Панж) бошланиб, Афғонистон чегарасида қўшилиб, шимоли-ғарбга оқади ва Хоразм ёнидан ўтади. Бу иккала дарё ўртасидаги узун тоғ – Олой, Туркистон, Зарафшон тизмалари, Жайхун ғарбидаги қумлар – Қорақум; у ўз ўрнига тушган. Хаританинг энг марказий секторида Осиё қитъасининг шарқий мамлакатлари тасвирланган. “Уйғур вилоятида бешта шаҳар бўлиб,... булар Сулми, Қўжу, Жанбалик, Бешбалик, Янгибалик шаҳарларидир... Уйғурларнинг энг катта шаҳри Бешбалиқдир”. “Балиқ” сўзи Жоҳилия давридаги турклар ва уйғурлар тилида “шаҳар” маъносида ишлатилганлигидан, Бешбалиқ – “Беш шаҳар”, Янгибалиқ – “Янги шаҳар” деган маънони англатган.

Тибет сўзи картада ёзилмаган, аммо матнда Тибетнинг таърифи берилган: “Тубут шарқ томони Чин, ғарб томони Кашмир, шимол томони Уйғур эллари, жануб томони эса Ҳинд денгизидир”; “Тубутнинг тиллари алоҳидадир”¹⁷⁶.

Картанинг жануби-шарқий чеккасидаги ярим доира – Саддий Зулқарнайн (Искандар Зулқарнайн девори) ичига “Арзи Яъжуж ва Маъжуж” деб ёзилган.

Хаританинг ғарбий ярмида – Эрон, Ироқ, Арабистон, Марказий Африка (Барбар, Зутт, Ҳабаша, Занж), Шимолий Африка (Қайрувон ва бошқалар, Миср, Искандария, Мағриб) ва Испания (Андалус) тасвирланган. Энг чекка ғарбда, океан бўйлаб “Ҳарорат ғалаба қилганидан у ерда одамзод яшамайди” дейилган, бу – Саҳрои Кабир ерлари ва экваторнинг дим жойларидир.

Маҳмуд Қошғарийнинг бу харитани қандай чизганлиги тўғрисида ҳеч қандай маълумот йўқ. Лекин унинг ижодий услубини қуйидагича тасаввур қилиш мумкин: Қошғарий даставвал бир доира ясаб, унинг теварагини океан билан ўраган, доиранинг марказига Иссиққўл, Барсғон, Боласоғун ва Қошғар шаҳарларини ёзиб қўйган, сўнгра доиранинг сиртига дунё томонларини белгилаб чиққан, кейин тоғларни чизган. Садди Зулқарнайн ёнидаги қумликни билдирувчи чизик ҳам икки тоғ орасидан эгрироқ қилиб ўтказилган, чунки бу чизик тоғлардан кейин чизилган. Сўнгра қўл ва денгизлар туширилган, Улардан кейин шаҳар ва мамлакатлар доирачалар (78 та) билан белгиланган, ғарбдаги

¹⁷⁶ Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – Б. 134.

давлатлар, уларнинг чегаралари кўрсатилган. Охирида дарёлар чизилган. Шундай қилиб дунё харитаси тайёр бўлган. Аммо хаританинг ҳамма қисмлари ҳафсала билан чизилган деб бўлмайди. Марказий, шарқий ва шимолий қисмларда ёзувлар кўпроқ, тоғ ва дарёлар зичроқдир. Бунинг сабаби туркий қабилалар “Румдан Чингача” – ўртача иқлимда 35-55% шимолий кенгликлар орасида истиқомат қилганлар. Шунинг учун харитада уларнинг жойлашган ўрни кўрсатилиши керак эди, аммо бу кўрсатилмаган.

Харитада бўш жойлар, номи ёзилмаган доирачалар анчагина. Шуларга қараб, харитага тугалланмаган – чала, муаллиф не сабабдандир ишини ниҳоясига етказа олмаган, дейиш мумкин. Бу факт ҳам хаританинг Маҳмуд Қошғарийнинг ўзи тузганлигини исботлайди. Хаританинг бошқа одам тузганида номсиз доирачалар бўлмасди¹⁷⁷.

ХУЛОСА

Шундай қилиб, Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк” асарида X – XII асрларда юқори Чиндан Ўрта Осиёгача бўлган катта ҳудудда яшаган туркий қабилаларнинг тиллари, тарихи ва этнографияси, ижтимоий-иқтисодий аҳволи, улар яшаган ҳудуднинг табиий-географик шароити тўғрисида жуда кўп маълумотлар келтирилади¹⁷⁸.

Демак, туркий халқларнинг тарихини, маданиятини, адабиётини ва санъатини, уларнинг яшаш шароити ва урф одатларини ўрганишда “Девону луғотит турк” жуда катта аҳамиятга эга асар ҳисобланади. Бу асар айниқса туркий тилларни, уларнинг ривожланиш хусусиятларини, ўзаро бир-бирига таъсири масалаларини аниқлашда жуда муҳим манба бўлиб хизмат қилади. У фақат тилшунослик асари бўлибгина қолмасдан, ўз даврининг қобусномаси ҳамдир. Чунки унда турли халқларнинг тарихи, ижтимоий-сиёсий аҳволи, урфодати, табиий шароити, этнографияси ҳамда адабиёти ҳақида қимматли манбалар бор.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати (REFERENCES)

1. Ўзбек адабий тили тарихи. Мухторов А., Санақулов У. Т.: Ўқитувчи, 1995.
2. Сайёҳ олимлар. Ҳасанов Ҳ. – Т.: Ўзбекистон, 1981.
3. Девону луғотит турк. Маҳмуд Қошғарий. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. – Т., 1963.
4. Шарқ жавоҳирлари. Гофуров Ғ. –Т.: Маънавият, 2000.
5. Маҳмуд Қошғарий. Ҳасанов Ҳ. – Т., 1963.
6. Ўзбек адабиёти тарихи. Маллаев Н.М. – Т.: Ўқитувчи, 1976.

¹⁷⁷ Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – Б. 136-137.

¹⁷⁸ Мухторов А., Санақулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 60-61.

**PROBLEMS OF LEGAL REGULATION OF CONTRACTS FOR THE
TRANSFER OF INTELLECTUAL PROPERTY IN PRIVATE
INTERNATIONAL LAW**

Akramov Akmaljon Anvarjon ugli

Senior Lecturer of the Private

International Law Department, Tashkent State University of Law,

a.akramov@tsul.uz

Lawyerjon191919@gmail.com

Shukurullayeva Mashhura Ergashbayevna

Student of Tashkent State University of Law

mashkhurashukurullayeva@gmail.com

ABSTRACT

This research paper discusses the concept of intellectual property, what intellectual property transfer contracts are and their types, as well as the legal systems used in the field of intellectual property and their significance. Also, this article discusses the problems related to conflict of laws arising in the transfer of intellectual property law objects, problems related to the choice of jurisdiction, challenges related to payments in IP transfer contracts. Issues related to intellectual property trusts are considered in transfer agreements with comparing in different legal systems. After the researching legislation of foreign countries, normative legal documents, practical judicial cases, are given proposals for further development of national legislation.

Key words: *Intellectual property law, conflicts of law, intellectual property transfer agreement, taxes, royalties, IP trust agreement, box regime.*

**ПРОБЛЕМЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРОВ
ПЕРЕДАЧИ ОБЪЕКТОВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ
В МЕЖДУНАРОДНОМ ЧАСТНОМ ПРАВЕ**

Акромов Акмалжон Анваржон угли

Старший преподаватель кафедры Международного частного права

Ташкентского государственного юридического университета

a.akramov@tsul.uz

Шукуруллаева Машхура Эргашбаевна

студентка Ташкентского государственного

юридического университета

mashkhurashukurullayeva@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье рассматривается понятие интеллектуальной собственности, что такое договоры о передаче интеллектуальной собственности и их виды, а также правовые системы, используемые в сфере интеллектуальной собственности, и их значение. Также в данной статье рассматриваются проблемы, связанные с коллизией законов, возникающие при передаче объектов права интеллектуальной собственности, проблемы, связанные с выбором юрисдикции, проблемы, связанные с платежами в договорах о передаче ИС. Вопросы, связанные с трастами интеллектуальной собственности, рассматриваются в договорах о передаче с сопоставлением в различных правовых системах. После изучения законодательства зарубежных стран, нормативных правовых документов, практических судебных дел даются предложения по дальнейшему развитию национального законодательства.

Ключевые слова: *право интеллектуальной собственности, коллизионное право, договор передачи интеллектуальной собственности, налоги, роялти, договор доверительного управления интеллектуальной собственностью, коробочный режим.*

ULUSLARARASI ÖZELHUKUKTA FIKRI MÜLKİYET NESNELERİNİN DEVRİNE İLİŞKİN SÖZLEŞMELERİN YASAL DÜZENLEME SORUNLARI

Akmaljon Akramov Anvarjon oğlu,

Taşkent Devlet Hukuk Üniversitesi

Uluslararası Özel Hukuk Bölümü

kıdemli öğretmeni

a.akramov@tsul.uz

Shukurullayeva Mashhura Ergashbayevna-

Taşkent Devlet Hukuk Üniversitesi Öğrencisi

mashkhurashukurullayeva@gmail.com

18. Vinogradov V.V. On the theory of artistic speech. - M., 1971.
19. Vinogradov V.V. About the language of fiction. - M.: Goslitizdat, 1959. - 655 p.
20. Vinogradov V.S. Lexical issues in the translation of literary prose. M.: Publishing house Mosk. University, 1978. - 172 p.
21. Vorobyov V.V. On the status of linguoculturology. // IX International Congress MAPRYAL. Russian language, literature and culture at the turn of the century. T.2. Bratislava, 1999. - P. 125 - 126.
22. Gak V.G. Language transformations. / V.G. Hook. - M.: Languages of Russian Culture, 1998. - 768 p.
23. Gal N. The Word is Living and Dead. - St. Petersburg: Azbuka, Azbuka-Atticus, 2018. -352 p.
24. Galperin I.R. Problems of linguistic stylistics. - In the book: New in foreign linguistics. Vol. IX. M., 1980. - P. 11.
25. Shamsematova, B. R. (2022). Specific Features Of Language Units Expressing National Value In The Works Of Uzbek Writers. Eurasian Research Bulletin, 13, 114-116.

“ҒАРОЙИБ УС-СИҒАР”ДАГИ “КЎЗ” СЎЗИ БИЛАН БОҒЛИҚ ТАСВИРЛАР ҲАҚИДА

Дусткараева Сурайё

Мустақил тадқиқотчи

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Алишер Навоийнинг “ғаройиб ус-сигар”даги “кўз” сўзи билан боғлиқ тасвирлар ҳақида тўхталиб ўтамиз. Шунингдек бадиий образлар, жумладан, “кўз” сўзининг иштироки билан боғлиқ алоҳида тадқиқотлар амалга оширилган эмас. Ваҳоланки, дастлабки кузатишларга қараганда, бу масала билан жиддий шуғулланиш анча салмоқли хулосаларга олиб келиши мумкин. Жумладан, қуйидаги байтда “кўз тутмоқ” ибораси қўлланганлиги таҳлил қилиниб илмий жиҳатлари ўрганилган.

Калим сўзи. Алишер Навоийнинг ғазаллари, “Ғаройибус-сигар”, ғазаллар, мумтоз адабиёт, “боғу гулзорим”.

ABSTRACT

In this article, we will focus on the images related to the word "eye" in Alisher Navoi's "Garoyibus-sigar". Also, no separate studies have been carried out regarding the participation of the word "eye" in artistic images. However, from preliminary observations, a serious engagement with this issue can lead to more serious conclusions. In particular, the use of the phrase "keep an eye" in the following stanza is analyzed and its scientific aspects are studied.

Keywords. Alisher Navoi's ghazals, "Garoyibus-sigar", ghazals, classical literature, "bogu gulzorim".

Алишер Навоийнинг ғазалларига оид салмоқли тадқиқотлар амалга оширилган. Хусусан, Мақсуд Шайхзода [23], Н.Маллаев [9], А.Қаюмов[24], А.Рустамов [11], А.Ҳайитметов [26]. С.Ғаниева [23]. Ё.Исҳоқов [7] сингари устозлар бу борада анча салмоқли меҳат қилишган.

Бу яхши анъаналар кейинги вақтларда янада кенг қулоқ ёйганини эътироф этиш жоиз. И.Ҳаққул [6], А.Абдуқодиров [1], Д.Салоҳий [12], Б.Тўхлиев [8, 14-22], Н.Жумахўжа [5], Ш.С.Сирожиддинов [13], О.Давлатов [3-4]. Э.Очилов [10] ва бошқаларнинг кузатиш ва тадқиқотлари ҳам бу йўналишдаги эътиборли тадқиқотлар туркумини ташкил этади. Ушбу силсилада ТДШУда амалга оширилган “Ғаройибус-сигар” девонидаги ғазалларнинг шарҳи алоҳида ўрин тутди [8, 14-22].

Шунга қарамай, адиб ғазалларидаги алоҳида бадиий образлар, жумладан, “кўз” сўзининг иштироки билан боғлиқ алоҳида тадқиқотлар амалга оширилган эмас. Ваҳоланки, дастлабки кузатишларга қараганда, бу масала билан жиддий шуғулланиш анча салмоқли хулосаларга олиб келиши мумкин. Жумладан, куйидаги байтда “кўз тутмоқ” ибораси қўлланган:

Тўтиёйе кўз тутарманким, кетурсанг, эй насим,
Кўрсанг ул бадмеҳр чобук туркнинг жавлонини [2.458].

Эй насим, агар у меҳрсиз тезкор чавандоз туркнинг от (миниб) елишини кўриб, менга (от оёқларидан чиққан тупроқ гардини) келтирсанг, уни тўтиё қилиб кўзимга суртаман.

Кўзнинг мумтоз адабиётга бир қатор нарса ва предметларга ўхшатилиши кузатилади. Уларнинг энг фаоли нарғисдир:

Рашкдин жонимға ҳар нарғис кўзи бир шуъладур,
Боғ аро ногаҳ хиром ул сарви раъно айласа. [2.43].

Кўзнинг бодомга ўхшатилиши Навоий лирикаси учун одатий ҳол, деб айтиш мумкин:

Не учун базми висол ичинда ичмай бодаким,
Кўзию оғзи бугун бодому шаккардур манга. [2.43].

Кўзга нисбатан қўлланган эпитетлардан энг фаоли “хунхор” – “қон ичувчи”дир:

Кўзларинг қоним ғизо қилсун агар ёлғон десам,
Бир қошук қоним биҳил ул икки хунхор оллида. [2.46].

Кўз гўзаллигининг асосий ўхшатишларидан бири “оҳу” сўзидир. “Оҳукўз” гўзалликнинг ўзига хос ўлчов бирлигидир:

Гар кўнгул оҳу кўзунг оллида лойиқ бўлмаса,
Итларингга бўлсун, эй шўхи ситамгорим, фидо [2.49].

Ошиқ кўзининг ёши одатдаги шаффоф рангида эмас, у қизил ёки қизғишдир. Зеро, бу ошиқ қалбидаги ярадан чиқаётган (қон) рангидир:

Кемадин ҳар дам чиқиб рангин су кўзум қонидек,

Анда ёр андоқки мардум дийдаи пурхун аро [2.41]. Халқ ўртасида кенг тарқалган қасамлардан бири ҳам кўз билан боғлиқ ҳолда юзага келган. Алишер Навоий мана шу ҳолатдан ҳам жуда усталик билан фойдаланади:

Ўзгалар ҳуснин тамошо айласам чиқсун кўзум,
Ўзга бир кўз ҳамки ҳуснунгни тамошо айласа. [2.43].

Кўзнинг жаллодга ўхшатилиши билан боғлиқ ҳолда Алишер Навоий халқ ўртасидаги бир одатга – табу ҳодисасига ҳам ишора қилади. Бу узоқ муддат касал бўлиб ётган одам олдида ўлим борасида сўз очмаслик билан алоқадор.

Девонда шу ҳодиса асосида юзага келган ташбеҳ ва истиоралар тизими анча баракали:

Ул кўз оллида ҳалоким десалар, йўқ бок ҳеч,
Гарчи ўлмақдин демак йўқ шарт бемор оллида [2.45].

Ўша (машҳур) кўз олдида менинг ҳадик бўлишим ҳақида гапирсалар,
унга ажалим керак, Ваҳоланки, касал бўлиб ётган олдида ўлимдан гапириш
таъқиқланган тарзда шарт бордир.

Ошиқнинг ҳижрондаги ҳолати тасиврида ҳам яна кўз, аниқроғи кўз ёшига
мурожаат этилади. Фақат бу мисолда одатдаги шаффоф рангли кўз ёши ўрнида
қора ранглиси қаламга олинади:

Ашқдек оқти қора су кўзларимдин ҳажрида,
Тонг йўқ идборим чу бўлмишдур манга ахтар қаро [2.48].

Яъни, ёр ҳижронида кўзимдан қора сув худди кўз ёшим сингари оқди, ахир,
толеи паст одамнинг юлдузи ҳам қора бўлади-да!

Қора ранг инсоннинг кўр бўлиб қолишини ҳам, ёр қошу кўзу холининг
гўзаллигини ҳам акс эттириши мумкин:

Кош ўюб ёқсанг қора бўлган кўзумнинг мардумин,
Холи майгунунгни қилганча қўюб анбар қаро [2.48]. .

Соғлом эмас, касал кўзлар ҳам ошиқ учун фахр ва ифтихор вазифасини адо
этаверади:

Ҳам рамад теккан кўзунгга чашми бедорим фидо,
Ҳам учуқ чиққан лабингга жони афгорим фидо [2.49].

Кўз билан боғлиқ ҳолдаги ошиқликнинг даражалари турфа хилдир.
Шулардан бири ошиқ кўзининг узлуксиз тарзда ёрни излаши ва уни
тополмагани туфайли йиғлаб – бўзлаб туриши билан боғлиқ. Бунинг учун
“гирён” деган сўз танланган. Унинг луғавий маъноси “йиғламоқ”, “кўз ёши
тўкиш” демақдир.

Ашқким, андин томар, гирён кўз анинг садқаси,
Қонғаким мундин чиқар бу чашми хунборим фидо [2.49].

Ёрнинг муносабати ва муомаласи қандай бўлишидан қатъи назар, ошиқ ёр
учун ўзида бор нарсанинг барчасини фидо қилишга тайёр. Мана бу “бор
нарса”лар қаторида унинг ҳаёти – “умри” ҳам мавжуд:

Ул кўзу бу лабга умрум боғу гулзориндаги
Наргису гул барги, йўқким, боғу гулзорим фидо [2.49].

Ушбу мисолдаги “боғу гулзорим” олдинги мисрадаги “умрум боғу гулзори”га дахлдор. Демак, ошиқнинг садокати шу даражадаки, у бир кўзу лабга ўзининг бутун бошли ҳаётини бахшида эта олади.

Мумтоз адабиётда “лаффу нашр” деган шеърый санъат бор. Унинг моҳиятини дастлаб икки ёки ундан ортиқ нарса ва ҳодисалар номини келтириб, сўнг уларга дахлдор бўлган тушунчаларни кетма-кет келтириш ташкил этади. Бу ҳақда Атоуллоҳ Ҳусайний шундай ёзади:

Лаффу нашр андин ибораттурким, бир нечани зикр қилурлар, андин сўнг ул бир нечага алоқадор бир неча нимани бу нималарнинг ҳар бири ул бир нечанинг қайси бирига тааллуқлуғ эканин аниқ қилмай зикр қилурлар. Мунда эшиткучининг ўзи ул бир нечанинг ҳар бирига ул алоқадор нимани боғлар деб ишонилур. Ул бир нечанинг зикри тафсил йули бирла бўла олур ва мун икки тур қилиптурлар. Ижмол йўли бирла ҳам бўла олур. (Атоуллоҳ Ҳусайний, 144)

Кўзу оғзингдин кетарга бору йўқ ошубу ранж

Сабру ишқим садқа, яъниким, йўқу борим фидо [2.49].

Бу ерда асос бўлаётган сўзлар “кўзу оғиз”дир. Иларнинг бир жойда келтирилиши “йиғиш” маъносини англатади. Буларга дахлдор сўзлар эса “бору йўқ”, “ошубу ранж” ҳамда “сабру ишқ” билан “йўқу бор”дир. Булар маъшуканинг гўзаллигини ўзига хос тарзда тавсиф этмоқда. Аввал кўз билан оғизнинг ўзига хос гўзаллиги, яъни кўзнинг кишига манзур тарздаги борлиги мавжудлиги, оғизнинг эса ниҳоятда кичиклиги (шоир уни ҳатто йўқ демоқда), шунга кўра уларнинг бири – “ошуб” кўркув ва ҳаяжон келтирса, бошқаси йўқ ҳолатида, яъники гапирмасдан ошиқни ранжитмоқда. Шунингдек, ошиқ маъшуккага айни мана шу узрлар учун сабр билан ишқини садақа қилмоқда, яъни ўзидаги “йўқ” (сабр) ҳамда “бор” (ишқ) нарсаларини фидо этмоқда.

“Кўз тутмоқ” ўз маъносида ҳам, кўчма маънода (ибора тарзида) ҳам қўлланади. Алишер Навоий уни этнографик детал сифатида ҳам ишга солади:

Қошин кўргач ҳасаддин истарам эл кўзи боғланғай,

Нечукким кўз тутарлар эл янги ой ошкор ўлғач. [2.97].

Кўзни ҳар нарсага ўхшатиш мумкин. Аммо уни қадаҳга қай даражада мушобихлиги бор? Бу муаммони Алишер Навоий мана бундай ҳал этади:

Жом эрур мен телбага қонлиғ кўзумнинг косаси,

Лолалар саҳрода бас, гар истаса Мажнун қадах. [2.105].

Буларнинг барчаси “кўз”нинг Алишер Навоий қаламида турфа тасвирларга эғалигини кўрсатиб турибди. Бу Алишер Навоий бадий маҳоратининг кўплаб қирралари ҳалигача китобхонлар учун сиру синоатлар хазинасидай ёпиқ турганини яна бир марта тасдиқлайди. Бу хазиналар калити эса алоҳида-

алоҳида сўз ва тушунчалар, образлар талқинига боғлиқ. Уларнинг барча маъно қирраларини аниқ ёритиш эса келгусидаги кўплаб тадқиқотлар учун муносиб объект бўлиши турган гап.

REFERENCES

1. Алишер Навоий Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 3-жилд. Фаройиб ус-сиғар. Нашрга тайёрловчи Ҳ.Сулаймон. – Тошкент, Фан, 1988. . – Б.528.
2. Давлатов О. Маънолар хазинаси. Алишер Навоий ғазалларига шарҳлар. Биринчи китоб. – Тошкент, “Тамaddon”, 2020, 360 бет.
3. Давлатов О. Маънолар хазинаси. Алишер Навоий ғазалларига шарҳлар. Иккинчи китоб. – Тошкент, “Тамaddon”, 2021, – 360 бет.
4. Жумахўжа Н. “Қаро кўзум...” Ғазали тадқиқи монография. – Тошкент, 2021. 322 б.
5. Иброҳим Ҳаққул. Ғазал гулшани. – Тошкент, Фан, 1991, – 72 б.
6. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983 – 168 б.
7. Комилов Н. Тўхлиев Б. Салоҳий Д. ва б. Алишер Навоий. Фаройиб ус-сиғар ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик, 1-жилд. – Тошкент, “O‘ZKITOBSAVDO”. – 220 б.
8. Маллаев Н. Ўзбек адабиётида ғазал ва унинг ривожига Навоийнинг роли ҳақида. – Навоийга армуғон. Тошкент, ФАН, 1968, – 144 б.
9. Очилов Э. Бир ҳовуч дур.—Тошкент, Ўзбекистон, 2011.– 240 б.
10. Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорти. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979, – 216 б.
11. Салоҳий Д. “Эй, ҳамд ўлуб маҳол фасоҳат билан санга...”. – // Н.Комилов ва бошқалар. Алишер Навоий. “Фаройиб ус-сиғар”. Ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 1-жилд. – Тошкент, “O‘zkitobsavdo”, 2020, 34-бет
12. Sirojiddinov Sh.S., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent, “TAMADDUN”, 2018. – B. 520.
13. Тўхлиев Б. Комилов Н., Юсупова Д. ва б. Алишер Навоий. Фаройиб ус-сиғар ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик, 2-жилд. – Тошкент, “O‘ZKITOBSAVDO”. – 252 б.
14. Тўхлиев Б. Комилов Н., Ҳаққулов И. ва б. Алишер Навоий. Фаройиб ус-сиғар ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик, 3-жилд. – Тошкент, “O‘ZKITOBSAVDO”. – 260 б.
15. Тўхлиев Б. Комилов Н., Юсупова Д. ва б. Алишер Навоий. Фаройиб ус-сиғар ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик, 4-жилд. – Тошкент, “O‘ZKITOBSAVDO”. – 258 б.

16. Тўхлиев Б., Ҳаққулов И., Зоҳидов Р. ва б. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик, 5-жилд. – Тошкент, “O‘ZKITOBSAVDO”. – 242 б.
17. Тўхлиев Б. Комилов Н., Ҳаққулов И. ва б. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик, 6-жилд. – Тошкент, “O‘ZKITOBSAVDO”. – 254 б.
18. Тўхлиев Б. Комилов Н., Юсупова Д. ва б. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик, 7-жилд. – Тошкент, “O‘ZKITOBSAVDO”. – 262 б.
19. Тўхлиев Б. Комилов Н., Юсупова Д. ва б. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик, 8-жилд. – Тошкент, “O‘ZKITOBSAVDO”. – 250 б.
20. Тўхлиев Б. Комилов Н., Ҳаққулов И. ва б. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик, 9-жилд. – Тошкент, “O‘ZKITOBSAVDO”. – 278 б.
21. Тўхлиев Б. Комилов Н., Ҳаққулов И. ва б. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. Ўн жилдлик, 10-жилд. – Тошкент, “O‘ZKITOBSAVDO”. – 290 б.
22. Шайхзода М. Ғазал мулкининг султони. – Асарлар. Олти томлик, 4 том. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги алабиёт ва санъат нашриёти, 1972, 372-бет.
23. Қаюмов А. Алишер Навоий. Машҳур сиймолар ҳаёти. – Тошкент, “Камалак”, 1991. 176 б.
24. Ғаниева С. Алишер Навоий (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент, Фан, 1068, 25-40-бетлар (148 б.)
25. Ҳайитметов А. Навоий лириаси. – Тошкент, Фан, 1960.; Навоий лирикаси. Тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Н.Жумаҳўжа. – Тошкент, “O‘zbekiston”, 2015, 328 бет.
26. Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий (Ҳаёти ва ижоди). – Тошкент, 103-122-бетлар. 256 бет.

YEVROPA TILSHUNOSLIGIDA PRAGMATIKANING O‘RGANILISHI VA TASNIFLANISHI



Sobitjonova Navro‘za Zafarjon qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti,
ShFT fakulteti, TNA dariy-ingliz guruhi 4-bosqich talabasi,

Tel:+998900454582;

E-mail: sobitjonovanavruza@gmail.com

Ilmiy rahbar: Uktamova Xilolaxon

PhD. katta o‘qituvchi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yevropa tilshunosligida pragmatikaning o‘rganilishi va tasniflanishi, dunyo tilshunoslari tomonidan pragmatikaga berilgan tariflar asosida pragmatika tushunchasiga tugal xulosalar berildi. Pragmatika tilshunoslikning nisbatan yangi sohasi sifatida o‘rganilishi muhim sohaligi tadqiq etildi.

***Kalit so‘zlar:** sintaktika, semantika, pragmatika, deskriptiv, nutqiy akt, kontekst, lingvistik pragmatika, tagma‘no, kommunikativ strategiya, kommunikativ taktika, nutq subyeksi, nutq obyeksi.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье, посвященной изучению и классификации прагматики в европейской лингвистике, даны полные выводы о понятии прагматики на основе тарифов, данных прагматике мировыми лингвистами. Прагматика, как относительно новая область лингвистики, является важной областью, требующей изучения.

***Ключевые слова:** синтаксис, семантика, прагматика, описательное значение, речевой акт, контекст, лингвистическая прагматика, значение, коммуникативная стратегия, коммуникативная тактика, речевой субъект, речевой объект.*

ABSTRACT

In this article, the study and classification of pragmatics in European linguistics, complete conclusions on the concept of pragmatics based on the tariffs given to pragmatics by world linguists were given. Pragmatics, as a relatively new field of linguistics, is an important area to be studied.

Keywords: *syntax, semantics, pragmatics, descriptive, speech act, context, linguistic pragmatics, meaning, communicative strategy, communicative tactics, speech subject, speech object.*

KIRISH

Pragmatika Yevropa tilshunoslari tomonidan chuqur o'rganilayotgan sohalardan biridir. Pragmatikaning ko'p jihatlari yevropa tadqiqotchilari tomonidan ochib berilgan bo'lib, shu bilimlar negizida pragmatika to'rt jihatdan tafsiflanib va ularning xususiyatlari chuqur o'rganilib ilmiy qarashlari jamlandi va shartli ravishda quydagi qismlarga bo'lib tadqiq etildi.

1. Pragmatikaning amaliy shakllanishi
2. Pragmatikaning nazariy shakllanishi.
3. Pragmatikaning umumiy masalalari.
4. Pragmatikaning xususiy masalalari.

Pragmatikaning amaliy shakllanishi

Tilshunoslik tarixida inson nutqiy faoliyati bilan bog'liq masalalarni o'rganish muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etib kelmoqda. Har qanday fan taraqqiyoti muayyan bosqichlardan iborat. Ular o'z davri uchun yangilik sifatida namoyon bo'lsa keyingi davrlar uchun fan asoslarining shakllanishida nazariy manba vazifasini o'taydi. Shu bois har bir davrga xos qarashlar fan taraqqiyotiga xizmat qiluvchi omil sifatida baholanadi. "Pragmatikaning manbasi Ch. Pirs, U. Djems, D. Dyun kabi taniqli faylasuf olimlar nomi bilan bog'liqdir. Chunki ularning ishlarida (XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida) belgilar sistemasi va lingvistik belgi funktsionalligi xususidagi g'oyalar o'rta tashlanib, semiotika haqidagi asosiy tushunchalar aniqlanadi, sintaktika, semantika va pragmatika o'rtasidagi o'zaro farqlar ko'rsatiladi"¹⁷⁹. "Pragmatika" termini XX asrning 30-yillarida Ch. Morris tomonidan ilmiy muomalaga olib kirilgan¹⁸⁰. Keyinchalik ushbu termin bir necha olimlarning ilmiy asarlarida keng qo'llanilib, turli qarashlar vujudga keldi. Mana shu nazariyalar orqali XX asrning 60-70-yillarida tilshunoslikda pragmatik yo'nalish paydo bo'la boshladi. "Lingvistik pragmatikaning shakllanishi yirik olim L. Vitgenshteynning falsafiy qarashlari bilan bog'liq bo'lib, aynan uning ishlarida pragmatika nazariy semiotik tadqiqotning mustaqil sohasi sifatida ko'rsatib o'tiladi"¹⁸¹. Keyinchalik yevropa va rus tilshunosligida lingvistik pragmatika xususidagi ilmiy ma'lumotlar

¹⁷⁹ Петров. В.В.Философия, семантика, прагматика.Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. – М., 1985. – С. 471.

¹⁸⁰ Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 155.

¹⁸¹ Bu haqda qarang: Петров. В.В.Философия, семантика, прагматика.Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. – М., 1985. – С. 474

keng berila boshladi hamda ilmiy izlanishlar olib borildi. Dastlab Ch. Morris semiotikani uch yo'nalishga: semantika, sintaktika va pragmatika kabi yo'nalishlarga ajratgan¹⁸². Ko'rinadiki, semantika, sintaksis va pragmatika kabi tilshunoslik yo'nalishlari fan sifatida baravar rivojlanmadi. Semantika, sintaksis yo'nalishlari har tomonlama o'ganildi-yu, pragmatika tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qoldi. Buning natijasida tilga xos semantik va sintaktik ilmlar talqini har jihatdan mukammallashib borgani holda, konkret vaziyat bilan aloqador nutq subyekti ishtirok etgan real nutqiy jarayonga xos tilshunoslikning pragmatik yo'nalishi o'zining chuqur tadqiqiga ega bo'lmadi. Shunday bo'lsada so'ngi yillarda yevropa tilshunosligida bu sohani o'rganish jadal o'sib bormoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Pragmatika haqidagi qarashlar turlichadir. Jumladan, N.D. Arutyunova, Yu.S. Stepanovlar pragmatikani badiiy kommunikatsiyaning subyektiv xususiyatlarini, matnda uni ijodkorlarining "men"ini ifodalanishi uslublarini o'rganuvchi nazariya sifatida qarashni taklif qilishdi¹⁸³.

L.A. Kiseleva esa pragmatikani so'zlovchining voqelikka, axborot mazmuniga va adresatga (tinglovchi, o'quvchi) bo'lgan munosabatining lisoniy birlik mazmunidan joy olgan ta'sirchanlik kuchini aniqlovchi fan (nutqiy ta'sir nazariyasi) sifatida tasavvur etuvchilar, deya ta'rifladi¹⁸⁴.

Ingliz tilshunosligida ham pragmatika turli jihatlardan o'rganib tadqiq etildi va pragmatikaga turli tadqiqotchilar o'z tariflarini berishdi. Xususan, J. Layonz tilshunoslarning XII xalqaro kongressida (Vena, 1977) pragmalingsvistikaning predmetini aniqlash va uning ta'rifini berishga harakat qildi: "Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axborotni xuddi so'zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo'llanishini tavsiflaydi. Bu pragmatika lisoniy vositalarning shaxslararo muloqotdagi rolini aniqlash bilan shug'ullanadi"¹⁸⁵. Demak, yuqoridagi ta'rif asosida lisoniy harakatdagi ko'zlanayotgan maqsad va unga erishish vositasi bo'lib qolmoqda.

Pragmatikaning nazariy jihatdan shakllanishi

Pragmatikaning nazariy bilimlari ko'p jihatdan o'rganib chiqilgan bo'lib ularning har biri alohida bosqichlarda shakllandi. Gap, nutq, tilshunoslik ko'plab jihatlarini asnosida o'rganib chiqilgan. Gap semantikasini shu gap tarkibida qo'llanilayotgan so'zlarning faqat ob'yektiv borliqqa munosabatini aniqlash bilangina

¹⁸² Bu haqda qarang: Hakimov, M. O'zbek pragmalingsvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 6.

¹⁸³ Арутюнова Н.Д., Падучева Е.В. Истоки, проблемы и категории прагматики // НЗЛ. Вып. XVI. – М., 1985. – С. 3-42

¹⁸⁴ Киселева Л.А. Вопросы теории речевого воздействия. . – Л., 1978. – С .86.

¹⁸⁵ Safarov Sh. Pragmalingsvistika. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. . – B. 69.

to'la izohlash mumkin emas ekan. Bunga gapning nutq jarayoniga, nutq vaziyatiga munosabatini aniqlashni ham qo'shish zarurati tug'ildi. Ana shunday amaliy ehtiyoj bilan lingvistik semantika bag'ridan pragmatika o'sib chiqdi. Shunday qilib, sintaksisda uch yo'nalish maydonga keldi:

1)semantika; 2) sintaktika; 3) pragmatika.

G. Klaus boshqa tilshunoslardan farqli ravishda, semiotik nuqtai nazardan tilning to'rt yo'nalishini ko'rsatib o'tadi. Sintaktika belgi bilan belgi o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. Semantika moddiy olamni aks ettiruvchi tushunchalar nuqtai nazaridan belgi ma'nosini o'rganadi. Sigmatik yo'nalish belgi va predmet o'rtasidagi o'zaro munosabatni o'rganadi. Pragmatika esa belgining insonga ta'siri, uning fikrlash uslubiga, axloqiga, his-tuyg'usiga ta'sirini o'rganadi¹⁸⁶. Semiotikaga oid aksariyat qarashlarda belgining uch aspekti ajratiladi va tahlil qilinadi. Xususan, sintaktik qurilmalar tarkibidagi bir lisoniy belgining boshqa lisoniy belgi bilan munosabatini o'rganuvchi soha sintaktika hisoblanadi. Sintaktik qurilmalar tarkibidagi lisoniy belgilarning predmet va tushunchaga bo'lgan munosabati semantikada o'rganiladi. Pragmatikaning nutqiy aktning bevosita kontekst bilan munosabatini o'rganishi ko'rsatildi. Ko'rinadiki, nutqiy akt bilan kontekst o'rtasidagi o'zaro munosabat pragmatikaning asosiy o'rganish obyekti sanaladi.

Demak, nutqiy akt bilan kontekst o'rtasidagi munosabat juda kuchli bo'lganda, nutqiy akt ma'nosi kontekst bilan bog'liq holda anglangan o'rinlarda pragmatikaga ehtiyoj tug'iladi. Sintaktik qurilma tarkibidagi deskriptiv so'zlar tahlili semantikaga qarab tortsa, deskriptiv bo'lmagan so'zlar tahlili pragmatikaga qarab tortadi¹⁸⁷. Shunday ekan, avvalo, deskriptiv va deskriptiv bo'lmagan so'zlarning mohiyati haqida fikr yuritishga to'g'ri keladi.

Atash vazifasini bajaradigan, denotativ ma'noga ega so'zlar indikativ yoki deskriptiv so'zlar hisoblanishi yuqorida ta'kidlandi. Indikativ (denotativ ma'noli) so'zlarning ma'nosini kontekstga bog'liq bo'lmagan holda aniqlash mumkin, indikativ bo'lmagan so'zlarning ma'nosi faqat kontekst ichida, muayyan nutq vaziyatiga bog'liq ravishda ochiladi. Shuning uchun bunday so'zlar ma'nosi kontekst va nutq vaziyati bilan uzviy bog'liq, ya'ni shartlangan bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan ikki turdagi so'zlarni farqlash uchun B. Rassel ularni zooparkka qiyoslaydi. "Agar siz farzandingizga she'r so'zining ma'nosini tushuntirmoqchi bo'lsangiz, uni zooparkka olib borishingiz va "mana bu she'r" deb ko'rsatishingiz mumkin. Lekin indikativ bo'lmagan bu kabi so'zlarni ko'rsatish mumkin bo'lgan zoopark mavjud emas"¹⁸⁸.

¹⁸⁶ Клаус Г. Сила слова. – М. 1967. – С. 2.

¹⁸⁷ Арутюнова Н.Д., Падучева Е.В. Истоки проблемы и категории прагматики. Вып. XVI. – М., 1985. – С. 7.

¹⁸⁸ Рассел Б. Человеческое познание – М., 1957. – С. 139.

Ko‘rinadiki, konkret jumladan anglashilgan bir qator qo‘shimcha ma‘nolar nutqiy vaziyat, kontekst bilan uzviy bog‘liqdir. Nutqiy vaziyat, kontekst bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bu kabi ma‘nolar va ularni ifodalovchi vositalar pragmatikaning o‘rganish obyekti sanaladi. Shunday qilib, gapdan anglashilgan mazmun bilan subyekt munosabati pragmatikaga dahldordir. Nutqiy akt, indikativ bo‘lmagan so‘zlar, kontekst, nutqiy vaziyat, so‘zlovchi shaxsi kabi tushunchalar pragmatikaning markaziy tushunchalari sanaladi.

Pragmatikaning umumiy masalalari

T.V. Kolshanskiyning ta‘kidlashicha, so‘zlovchi subyektning his-tuyg‘ulariga xos xususiyat belgilardan ajralgan ma‘lum bir axborotni ifoda etishi mumkin emas. Nutq mazmuniga hamohang his-tuyg‘u va barcha baholar konkret tinglovchiga qaratilgan bo‘ladi. Ana shu tinglovchi uchun qaratilgan subyekt nutqiga xos munosabat belgilari – nutqdagi barcha bo‘yoqlar yaxlit tarzda “pragmatika” deb nomlanadi. Bu ularning pragmatik tayinlanishi, deb qaraladi ¹⁸⁹.

Pragmatik hodisalar mohiyatini o‘rganish tilshunosdan mantiqiy va falsafiy mushohadalarni ham talab qiladi. Shuning uchun lingvistik pragmatika masalalari hodisani faqat lisoniy tahlil etibgina qolmasdan, balki uning mantiqiy, falsafiy va sotsial xususiyatlarini ham o‘rganadi¹⁹⁰.

Shu ma‘noda L.A. Kiselevaning pragmatolingvistikaning dolzarb masalalari xususidagi qarashlari diqqatga sazovordir.

Jumladan, pragmatolingvistika:

a) nutqning yuzaga kelishi bilan bog‘liq so‘z va qurilmalarning qo‘llanishiga oid pragmatik xususiyatlarnigina emas, balki turli sathdagi yordamchi so‘z va morfemalar, so‘z birikmasi, gaplarga xos pragmatik xususiyatlar;

b) til va nutqning pragmatik funksional qonuniyatlari;

v) nolingvistik vaziyatning tipik shakllari;

g) sotsial maqsad, vazifalar;

d) nutq sub`yekti, adresati, sotsial va ruhiy tip sifatida hamda faqat mana shularga asoslangan holda aniq nolingvistik vaziyatga muvofiq ravishda ifodada shaxsning suhbatdoshlarga qaratgan maqsad, vazifalarini o‘rganadi .Bu ishda olim “речевого воздействия” atamasi - nutqiy “ta’sir etish” tushunchasi ostida lingvistik pragmatikani nazarda tutadi.

Pragmatikaning xususiy masalalari

Pragmatikaning xususiy masalalari aynan nutq ishtirokchilari va nutqiy vaziyat tushunchasi bilan bog‘liqdir. Bizga ayonki, so‘zlovchi o‘z maqsadini ifoda etuvchi

¹⁸⁹ Колшанский Т.В. Соотношение субъективных и объективных факторов в языке. – М., 1975. – С. 140.

¹⁹⁰ Киселева Л.А. Вопросы теории речевого воздействия. – Л., 1978. – С. 99.

jumla qurish uchun olamda mavjud bo‘lgan narsa, predmet, hodisalarning nomini bilishi hamda ma’lum grammatik qonun-qoidalar bilan tanish bo‘lishining o‘zi kifoya qilmaydi. So‘zlovchi nutqiy vaziyat tushunchasi mohiyatini ham bilishi kerakki, bu, albatta, so‘zlovchi bayon qilmoqchi bo‘lgan kommunikativ niyatning to‘g‘ri ifodalanishida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. So‘zlovchi nutqiga xos kommunikativ niyatning aniq va to‘g‘ri ifodalanishi uchun yana milliy urf-odatlar bilan bog‘liq ijtimoiy qonun-qoidalarni bilish ham talab qilinadi. Shu jihatlar to‘liq qamrab olingandagina nutq ishtirokchilarining o‘zaro muloqot jarayoni to‘g‘ri amalga oshadi. Pragmatikaning hususiy masalalari nutq subyekti, nutq obyeksi, nutq vaziyati bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladi.

Pragmatika nutq sub’yekti bilan bog‘liq tarzda quyidagi hususiy masalalarni o‘rganadi.

1. Nutq subyekti kommunikativ niyatining ifodalanish darajasiga ko‘ra ifodaning oshkora va yashirin shakllari. So‘zlovchi nutqiga xos ifodaning oshkora yoki yashirin shakllari, o‘z navbatida, kommunikativ strategiya uchun yo‘l ochadi.

2. Kommunikativ niyatni ifodalash strategiyasi pragmatikaning bosh masalasi hisoblanadi. So‘zlovchi bunda o‘z ichki maqsadini tinglovchiga bayon qilish uchun u yoki bu ifoda usulini tanlaydi. Tanlash jarayoni bevosita tilshunoslikning stilistika yo‘nalishi ob’yektidir. Pragmatika aynan mana shu nuqtada uslubshunoslik bilan hamkorlik qiladi. Ma’lum xodisani turli jixatiga ko‘ra tahlil etadi. Bu borada yirik tilshunos olim G. Abdurahmonovning uslubshunoslik xususidagi qarashlari ham fikrimizni tasdiqlaydi. “Uslub so‘zlovchining, yozuvchining ifodalanayotgan fikrga, habarga, voqe’a, hodisaga, shaxsiy yoki predmetga shaxsiy yoki boshqa bir shaxsning munosabati, jumladan, ifodalangan qo‘shimcha sub’yektiv fikrdir. Shuning uchun uslub muammolari haqida til fanining hamma sohalari bo‘yicha ma’lumot berilgandan keyin alohida fan sifatida yoki grammatikaning bir bo‘limi sifatida fikr yuritiladi. Shuning uchun mashhur filolog olimlar ta’riflaganidek, “Uslub – filologiya fanining toji, tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining yuqori bosqichi”¹⁹¹ (A.V. Stepanov), “har bir taraqqiy etgan fanning qalbi” (R.A. Budagov), “Uslub bu – talant”¹⁹² (V.G. Belinskiy), “Agarda biror narsani aniq ifodalay olmas ekanmiz, bunda tilimizdan emas, balki uquvsiz mahoratimizdangina qilishimiz kerak”¹⁹³. Fikr ifodalashning bunday usul va uslubi so‘zlovchining kommunikativ strategiyasini belgilaydi. Faqat semantik va grammatik ilmlarni bilish bilangina emas, balki hayotiy qonun-qoidalarni bilish va unga amal qilish natijasida kommunikativ strategiya mahoratiga ega bo‘lish mumkin. So‘zlovchi nutqiga xos bir ifoda aktida turlicha

¹⁹¹ Abduramonov F., Mamajonov S. O‘zbek tili va adabiyot. – Toshkent, 1995. – B. 86.

¹⁹² *Bu haqda qarang:* Abduramonov F., Mamajonov S. O‘zbek tili va adabiyot. – Toshkent, 1995. – B. 86.

¹⁹³ *Bu haqda qarang:* Abduramonov F., Mamajonov S. O‘zbek tili va adabiyot. – Toshkent, 1995. – B. 86.

mazmundagi kommunikativ niyatning ifodalanishi kommunikativ taktika tushunchasini namoyon etadi. Kommunikativ taktika, kommunikativ strategiya tushunchalari mohiyati ta'sirida lingvistik pragmatikaning hususiy muammolaridan yana biri – tagma'no yuzaga keladi.

3. Tagma'no lingvistik pragmatikaning xususiy masalalaridan biridir. Tagma'no tushunchasining yuzaga kelishi, umumiy va xususiy ko'rinishlari, uning jahon tilshunoslik tarixida ishlanish darajasi, shuningdek, tagma'noning presuppozitsiyadan farqlanish xususiyatlari kabi qator masalalar lingvistik pragmatikaning dolzarb muammolari sirasiga kiradi.

4. So'zlovchining obyektiv olamni his qilish darajasi va fikrning ifoda rejasi. Ob'yektiv olamdagi voqea, hodisa va predmet haqidagi ma'lumotlarni qabul qilish va uni qayta aks ettirish darajasi so'zlovchining olam haqidagi bilimlari bilan chambarchas bog'liqdir. So'zlovchining o'z fikrini aniq, lo'nda va to'g'ri ifodalashi uchun uning olam haqidagi bilimlari mukammal bo'lishi lozim. So'zlovchining nutqi uning o'zligi haqida to'liq ma'lumot beradi. Lingvistik pragmatika nutqqa xos mana shu xususiyatlariga ko'ra psixolingvistika bilan uzviy bog'lanadi. Shu nuqtai nazardan pragmatik to'siq lingvistik pragmatikaning xususiy masalalaridan biri sifatida tadqiqot obyekti bo'ladi

Pragmatikaning barcha xususiyatlari qatori uni tarjimida qo'llanishi bo'yicha ham turli qarashlar mavjud. Xususan, Noybertning fikricha, pragmatik ma'noning tarjimaga ko'chishi quyidagicha sodir bo'ladi:

- 1) tarjimaga ko'chishning yuqori darajasi (ilmiy-texnikaviy adabiyot va h.k.);
- 2) tarjimaga cheklovlar bilan ko'chish (boshqa til vakillari uchun information analitik materiallar tayyorlashda);
- 3) asliyat pragmatikasining deyarli tarjimaga ko'chmaslik holati (matn muayyan til vakillarigagina qaratilgan bo'lsa)¹⁹⁴.

K. Raysning ta'biricha, pragmatik ma'noni alohida yetkazib berish imkoni yo'q. Tarjima buyurtmachining manfaatlariga mos kelishi kerak¹⁹⁵. Uning fikrlari tarjima jaroyinada o'z aksini topib boradi. U va u bilan bir qatorda tarjimada pragmatikani muhimligi xususida qarashlar mavjud.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, pragmatika – bu til jamoasining til birliklariga bo'lgan subyektiv munosabati. Ularning bu munosabatdagi komponentlari xususiyatlari tilning pragmatik xususiyati tushunchasini keltirib chiqaradi. Ta'kidlash joizki, tilshunoslikdagi pragmatika tushunchasi faqatgina til birikmalarining pragmatikasi tushunchasini o'z ichiga olmaydi. Bu tushuncha ancha

¹⁹⁴ Hakimov. M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2013. – B. 82.

¹⁹⁵ Austin J.L. On the subject of pragmalinguistic // Substantive aspects of sentence and text. – Kalinin, 2021.

keng bo‘lib, u yoki bu tilning kommunikativ jarayon ishtirokchilari va voqea syujeti xilma-xilligi hamda ishtirokchilarning malakasiga ham bog‘liqligini ifodalaydi. Aynan so‘z ikki har xil guruh vakillari tomonidan turlicha qabul qilinishi mumkin. Tilning pragmatik muammolari referensial baholovchi ma‘nolarni o‘rganishga nisbatan kam tadqiq qilingan. Pragmatika turli jihatlaridan yevropa tilshunoslari tomonidan o‘rganilmoqda va yangi soha rivojlanib bormoqda. Shu tariqa yevropa tilshunosligi pragmatika bo‘yicha ilmlar, nazariy hamda amaliy bilimlar to‘planishiga tamal toshlarini qo‘ydi deyish mumkin. Ushbu maqolada ham aynan shu narsa ya‘ni yevropada rivojlanib borayotgan pragmatik bilimlar va ularning bosqichlari tadqiq etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Abduramonov F, Mamajonov S. O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1995.
2. Austin J.L. On the subject of pragmalinguistic// Substantive aspects of sentence and text. – Kalinin, 2021.
3. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
5. Арутюнова Н.Д., Падучева Е.В. Истоки, проблемы и категории прагматики. Вып. XVI. – М, 1985.
6. Киселева Л.А. “Вопросы теории речевого воздействия”. – Л., 1978.
7. Клаус Г. “Сила слова”. – М., 1967.
8. Колшанский Т.В. Соотношение субъективных и объективных факторов в языке. – М., 1975.
9. Петров В.В. Философия, семантика, прагматика.//Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. – М. 1985.
10. Рассел Б. Человеческое познание. – М., 1957.

GLOBALASHUV DAVRIDA YURTIMIZDA TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN O'ZGARISHLAR

Jumaniyozova N.S

Toshkent davlat transport universiteti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrası v.b.dotsenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada globalashuv davrida yurtimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar shuningdek ushbu islohotlarning bugungi kundagi ahamiyati hamda uning jamiyatdagi o'rni va roli tahlil qilingan. Bundan tashqari ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. Bundan tashqari ta'lim tizimini va sifatini takomillashtirish yuzasidan keng xorijiy tajriba o'rganilgan. Ushbu tahlillar natijasida O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *Oliy ta'lim, ta'lim, ta'lim-tarbiya, pedagog, yoshlar, islohotlar, moliyaviy mustaqillik, ta'lim sifati.*

ABSTRACT

This article describes the changes that are taking place in the education system in our country during the globalization period. The significance of the reforms today and its place and role in the society are analyzed. In addition, this article analyzes the legal documents adopted in the higher education system. In addition, a wide range of foreign experience in improving the education system and quality has been studied. As a result of these analyses, suggestions and recommendations were developed for the improvement of the educational system of the Republic of Uzbekistan.

Key words: *Higher education, education, education, pedagog, youth, reforms, financial independence, quality of education.*

KIRISH

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» 41-moddasida ta'kidlanganidek, «har kim bilim olish huquqiga ega» O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining shakllanitirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq (demokratik) fuqarolik jamiyati qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. 1997 yil 29 avgustda birinchi Prezident Islom Karimov Oliy Majlis X sessiyasida «Barkamol avlod –

O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» mavzuida nutq so‘zladi. Shu sessiyada «Ta‘lim to‘g‘risida» gi Qonun qabul qilindi. U 5 bo‘lim 34 moddadan iborat. Shuningdek, sessiyada «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ham qabul qilindi. Inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta‘sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» «Ta‘lim to‘g‘risi»dagi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo‘lib, milliy tajribaning tahlili va ta‘lim tizimida jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan holda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotga mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilganidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro‘yobga chiqarishda har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta‘lim va kasb-hunar ixtisosligini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o‘zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi. Bugungi kunda yurtimizda barcha sohalarda amalgam oshirilayotgan islohotlarni ko‘rishimiz mumkin. Misol tariqasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari alohida etibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari 2022-yil O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha vakillariga yo‘llagan tabrik nutqida ta‘kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta‘lim va tarbiyadir. Shuning uchun ham, O‘zbekistonda ta‘lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag‘lar yo‘naltirilmoqda. Maktabgacha ta‘lim, maktab va oliy ta‘lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqda. Biz ustozni otaday ulug‘ deb bilgan, doimo ardoqlagan ma‘rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o‘qituvchi, muallim deganda o‘zim uchun eng aziz va hurmatli bo‘lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta‘lim

berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan, – dedi davlat rahbari yig‘ilish avvalida. – Bugungi kunda O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko‘makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir. Har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog‘langani, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishi ekani ta‘kidlandi. Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini o‘qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari bo‘lgan bu mo‘tabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom ko‘rsatishimiz kerak, – dedi Prezident. Inson borki, avlod - ajdodi kimligini, nasl - nasabini, o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurt, vatanining tarixini bilishni istaydi. Vaholanki, har bir insonning o‘tmishi, kelajagi tarixga bog‘liq. Shuningdek, shaxs ma‘naviy tarbiyasida milliy va tarixiy ong, dunyoqarash muhim o‘rin tutadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: "Insoniyatning ko‘p yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo‘ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o‘ziga tobe qilib bo‘ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo‘lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya‘ni eng buyuk boyligi bo‘lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma‘naviyatidan judo qilishga urinadi" deya ta‘kidlagan edi.

Sobiq sho‘rolar davrida bir qator fanlarda, jumladan, falsafa, til, adabiyot va tarix fanlarida turli kamchiliklarga yo‘l qo‘yildi. Natijada, bu fanlarni o‘zlashtirish, o‘rganish jarayonida ko‘plab muammolar paydo bo‘ldi. O‘quvchi yoshlar ongiga milliy tarixdan ko‘ra o‘zga g‘oya va qadriyatlarning singdirilishi tariximizga bo‘lgan qiziqishning susay- ishiga olib keldi. Asl tariximiz o‘qitilmasligi oqibatida o‘quvchilar ongida milliy tariximiz bilan bog‘liq bo‘shliq vujudga keldi. Mana shu bo‘shliq ayrim yoshlarimizda tarixiy ongning yo‘qolishiga va uning o‘rnini turli xil begona g‘oya va qarashlar egallab olishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishganidan so‘ng xaqqoniy tariximizni yaratish. uni o‘quvchi yoshlar ongiga singdirish, ma‘naviyatini shakllantirish borasida bir kator ishlar amalga oshirila boshlandi. Xozirda turli tashkilot va o‘quv muassasalarida milliy o‘zlikni anglash, uni yot g‘oyalar ta‘siridan saqlash, hamda milliy g‘urur tushunchasining mohiyati naqadar axamiyatli ekanligi xususida tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Bularning barchasi tarixiy va milliy ongi rivojlanga yuksak ma‘naviyatli yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan harakatlardir. Zero, Islom Karimov ham "...tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson. Kim bo‘lishidan qat‘i nazar, jamiyatning xar bir a‘zosi o‘z o‘tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo‘ldan urish, har xil aqidalar ta‘siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o‘rgatadi. irodasini mustahkamlaydi", deya ta‘kid lagan edi. Tarixiy ong qanchalik rivoj lansa, shaxs o‘zini shunchalik chuqurrok anglay boradi. Shuning

uchun, o'quvchi yoshlar ongiga vatanimiz tarixiga ehtirom tuyg'usini singdirish, ajdodlarimiz kimligini uqtirish, ular erishgan ilmiy va amaliy yutuqlarini o'rgatish, yoshlar qalbida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini uy- g'otish g'oyat muhimdir. Tarix o'qitishning samarali bo'lishida darsni to'g'ri tashkil etish muhim rol o'ynaydi. Dars jarayoni va amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilim faoliyati mashg'ulotning mazmuni uning g'oyaviy-siyosiy va ilmiy-nazariy jihatdan yuqori saviyada bo'lishi, o'qituvchining ta'sirli va hayotiy misollar yordamida o'rganilayotgan tarixiy faktlar, voqea-hodisalarning mohiyatini jonli va ishonarli tarzda ochib berishi hamda o'quvchilarda uni o'rganishga ishtiyoq uyg'ota olishiga bog'liqdir. Bundan tashqari texnik vositalar, tarixiy kino - filmlar, rasm, ko'rgazmali qurollar, sahna ko'rinishlari ham muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar tarixiy ongi rivojlanishida tarix fani darsliklari asosiy vositalardan biridir. Maktab darsliklarida berilgan mavzular tarixiy materiallar asosida o'quvchi ongida o'tmish xaqida tasavvurni vujudga keltiradi. Darsliklar asosida o'quvchi asrlar davomi ajdodlari yaratgan qadriyatlarni o'rganadi shu bilan birga unda ajdodlarga mos avlod bo'lish, vatanparvarlik tuyg'usi shakillanadi. Bu esa darslarning puxta ishlanishi asosida yuzaga keladi. Darsliklardagi materiallarning asosli bo'lishi uning uzoq muddat amal qilinishiga sabab bo'ladi. Hozirda o'quvchilar bilim olishlari, ko'nikmalarni egallashlari uchun zamon talabiga javob beradigan ta'lim dasturlari ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, talim maskanlarida xizmat qilayotgan o'qituvchilar eng zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, o'quvchilarning chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlarida katta hissa qo'shmoqdalar. Bundan tashqari, o'quvchi tarixiy ongining rivojlanishida mahalliy materiallar, badiiy adabiyotlar ham muhimdir. Mahalliy materiallarning afzalligi shundaki, o'quvchi mustaqil holda yashash joyidagi yoshi kattalarning hikoya, rivoyat, matallarini eshitish orqali o'zligini chuqurroq anglay boshlaydi. Natijada, unda ilk tarixiy dunyoqarash paydo bo'ladi.

Ammo globallashuv davrida jahonda ilm-fan, texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotganini aslo ko'zdan qochirib bo'lmaydi. Bu esa o'z navbatida ta'lim, ilm-fan oldiga yangi talablarni ko'ndalang qo'ymoqda. Ta'lim tizimini muntazam isloh etish, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini takomillashtirish, ta'lim mazmunini boyitib borish, demak, bugungi kunning ham dolzarb talabi bo'lib qolaveradi.

Bugun amaldagi ta'lim tizimimiz zamonaviy, rivojlangan davlatlardagi kabi globallashuv talablariga javob bera olayaptimi? Ta'lim tizimida yechimini kutayotgan qanday muammolar bor? Kadrlar tayyorlash milliy tizimining globallashuv jarayonida bozor talablariga to'liq javob bermasligi, ta'lim tizimida

o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi takomiliga yetkazilmaganligi, yuksak malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, hozirgi zamon talablariga mos o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar kamligi, fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro aloqaning zaifligi tizimdagi kamchiliklardan hisoblanadi.

Bugungi kunda o'quv muassasalarini bitirib chiqayotgan o'quvchi va talabalarda mustaqil fikrlash layoqati to'la rivojlangan, deb bo'lmaydi. Ularda ilm-fan yutuqlariga, amaliyotga tayangan yechimlar qabul qilish uchun malaka va bilim yetarli emas. Shu bois maktab, kollej va akademik litseylarni bitirgan yoshlarimizning ko'pchiligi mustaqil hayotda o'z o'rnini topa olmayapti. Sir emas, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining taxminan 10 foizigina oliy o'quv yurtlariga birinchi yili o'qishga kirmoqda, xolos. Albatta, mustaqillikning ilk yillaridan boshlab yurtimizda ta'lim tizimini isloh etishga katta e'tibor qaratildi va bugungi kunga kelib sohada ma'lum yutuqlarga erishildi. Uzluksiz ta'lim tizimida, xususan, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim turlarida katta o'zgarishlar yuz berdi. Qo'lga kiritilgan yutuqlar o'zimizniki.

REFERENCES

1. Жуманиёзова Н.С. Ўзбекистонда таълим тизими шаклланишининг тарихий асослари // Илм сарчашмалари. - Ургенч, 2020. – №3. – Б. 49-54. (09.00.00; №17).
2. Жуманиёзова Н.С. Хорижий давлатлар таълим тизими тараққиёти (Сингапур мисолида) // Имом Бухорий сабоқлари. – Бухоро, 2020 – №2. – Б. 144-147. (09.00.00; № 9).
3. Jumaniyazova N.S. Reforms in improving the quality of higher education and its philosophical and legal basis // International Journal of Psychosocial Rehabilitation: Vol. 24, Issue 08, 2020. – P. 6499-6505. (№3; Scopus).
4. Jumaniyazova N.S. Modern education system and personnel policy in Uzbekistan // International Journal of Research Available at: 2019 – P. 478-484. (№23; SJIF, 5.7).
5. Жуманиёзова Н.С. Ўзбекистонда таълим сиёсати модернизацион босқич // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. - Тошкент, 2020. – № 1.(84) – Б. 14-18. (09.00.00; №5).
6. Jumaniyazova N.S. Principles of state policy in the area of education // The scientific heritage Budapest, Hungary, 2021. – Б. 46-48 (№23 SJIF, 5)
7. Жуманиёзова Н.С. Современная система образования: интеграция и пропорциональность национальных процессов // International Multidisciplinary

Scientific Practical Conference on Applied Science and Humanities. Archive of Conferences, USA, Boston, 2021. – С. 48-49.

8. Жуманиёзова Н.С. Вопросы повышения эффективности духовно-нравственного воспитания в системе образования // Халықаралық ғылыми-тәжірибелік конференциясы: Международная научно - практическая конференция. – Астана, 2018. – Б.127-129.

9. Жуманиёзова Н.С. Таълим тизимида талаба-ёшларда танқидий тафаккур қобилиятини шакллантириш // Глобаллашув шароитида тинчлик ва барқарорликка таҳдид солувчи ғоявий, мафкуравий ва ахборот хуружларига қарши курашишнинг замонавий усулларини яратиш: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент, 2019. – Б.204 -207.

10. Жуманиёзова Н.С. Янги Ўзбекистон олий таълими тизимидаги ўзгаришлар талқини // Учинчи ренессанс маънавияти: Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2021. – Б.176-179.

**O'ZBEKISTONDA MILLIY INTERNET-MEDIA SIYOSATINI
TASHKILLASHTIRISH, BOSHQARISH VA NAZORAT QILISH
MEXANIZMLARI: MUAMMO VA VAZIFALAR**

Abdiyeva Dilshoda Olim qizi

O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi
(ma'naviyat asoslari) mutaxassisligi 1 bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada mamlakatimizda milliy internet-media siyosatini samarali tashkil etish hamda uni boshqarish va nazorat qilish mexanizmlariga oid muammolar ko'rib chiqilib, mazkur muammolarning yechimi va ushbu maqsad yo'lida qilinishi lozim bo'lgan vazifalar tahlil qilingan.

***Kalit so'zlar:** internet-media, media siyosat, boshqarish va nazorat qilish mexanizmlari, jamoatchilik institutlari, jamoatchilik fikri.*

ABSTRACT

The article examines the problems related to the effective organization of the national internet media policy in our country and the mechanisms of its management and control. The solution of these problems and the tasks to be performed in the direction of this goal have been analyzed.

***Key words:** internet media, media policy, management and control mechanisms, public institutions, public opinion.*

KIRISH

Internet tufayli davlat va jamoatchilik institutlarining ishtiroki bilan fuqarolar va tashkilotlarning jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayonlarida demokratik ishtirok etishini belgilaydi. Internetdan foydalanish istiqbollari hamma vaqt birgalikda ishlashni ta'minlash imkoniyatlari bilan bog'liqlikda qarab kelingan. Biroq muammo shundaki, birgalikda ishlashning ushbu yangi shakllari bizni Internetning murakkab muhitiga olib keladi va ushbu mavzu muhokama etishni talab qiladi, chunki u texnologiya va madaniyatning ziddiyati bilan bog'liqdir. Ushbu ziddiyat davlat boshqaruvida internet texnologiyalarini rivojlantirishning ikkinchi, transformatsiya bosqichining eng katta muammosiga aylanmoqda. Yangi texnologiyalarni rivojlantirish deyarli barcha narsani amalga oshirilishini mumkin qiladi va mumkin bo'lganlarini virtual qilish imkonini beradi. Biroq ushbu jarayonni siyosiy mojarolar va cheksiz axborot urushlari davomida ishlab chiqilgan chuqur ildiz otgan an'analar tufayli to'xtatilib turilmoqda. Mana shu sababga ko'ra davlat boshqaruvida internet

texnologiyalarini joriy etishning ikkinchi bosqichi boshqaruvni, tashkil etishni va hammasidan ko'ra ham mustahkam rahbarlikni jiddiy sinovdan o'tkazadi.

